

T.SH. SHOG'IYOSOV

KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL



TOSHKENT

338.2(075)
81

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

T.SH. SHOG'IIYOSOV

KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi tomonidan iqtisodiy tahlil mutaxassisligi talabalari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT - 2012

УК А/В 2459
ТМІ kutubxonasi

UDK: 338 (075)

KBK 65.053

Sh81

**Sh81 T.Sh.Shog'iyosov. Darslik. Kompleks iqtisodiy tahlil.
–T.: «Fan va texnologiya», 2012, 280 bet.**

Darslikda bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida kompleks iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifasi, tahlil etish metodi, korxonaning resurs potentsiali, asosiy va aylanma kapitalidan samarali foydalanish, moliyaviy barqarorlik, ishbilarmonlik faolligini baholash yo'llari, ularning tizimi nazariy va amaliy jihatdan ochib berilgan. Ayrim bo'limlar marketing, tannarx va xarajatlarni tahlili, daromadlilik, balans aktivi, kapitali va majburiyatlarining rentabelligini tahliliga bag'ishlangan.

Darslik oliy o'quv yurtlarining talabalari, o'qituvchilari, magistrant va aspirantlariga mo'ljallangan bo'lib, undan barcha darajadagi moliya sohasidagi mutaxassislar, kompleks tahlil bilan shug'ullanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

В рыночных отношениях основанные на свободно экономических условиях учебник раскрывает основные теоретические и практические положения курса «Комплексный экономический анализ»: цели, задачи и методы комплексного экономического анализа, основы оценки финансовой устойчивости и деловой активности организации. Отдельные разделы посвящены маркетинговому анализу, затрат и себестоимости, доходности, рентабельности активов, капитала и обязательств.

Учебник предназначен для студентов, аспирантов и преподавателей ВУЗов, руководителей всех уровней и финансовых работников, а также всех интересующихся вопросами комплексного экономического анализа.

UDK: 338 (075)

KBK 65.053

Taqrizchilar: A.A. ABDUG'ANIYEV – i.f.d., professor, Ipoteka bank boshqaruvi raisining muovini;

B.A. HASANOV – i.f.d., professor Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti «Buxgalteriya hisobi va audit» kafedrasini mudiri.

ISBN 978–9943–10–671–0

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012.

KIRISH

Kompleks iqtisodiy tahlil orqali tijoratda ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Uning yordamida o'sish sur'atlari o'rganiladi, faoliyat natijalari o'zgarishiga omillar ta'siri bo'yicha har tomonlama chuqur va tizimli hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi, biznes-reja va boshqaruv qarorlariga aniqliklar kiritiladi, rejaning bajarilishi nazorat ostiga olinib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari aniqlanadi, korxonada faoliyatining natijalari baholanadi, iqtisodiy rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi. Bu murakkab masalalar yechimini topishda malakali iqtisodchi, moliyachi, buxgalter, auditor va iqtisodiy sohadagi boshqa mutaxassislar iqtisodiy tadqiqotning hozirgi samarali usuli kompleks iqtisodiy tahlil etish yo'llarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Tahlil etishning texnika va texnologiyalarini puxta o'zlashtirish orqali tadqiqotchi bozor holatining o'zgarishiga tez moslashadi hamda to'g'ri qaror va xulosalar qila oladi.

Bugungi kunda demokratik islohotlar va jamiyatni liberallashtirishni izchil va bosqichma-bosqich davom ettirish hamda chuqurlashtirish jarayoni o'zining aniq va ravshan marralariga ega bo'lib, hayotimizda tub o'zgarishlar o'z mantiqiy yakuniga yetkazilayotgan bir paytda jahon miqyosida moliyaviy inqiroz davom etmoqda. Moliyaviy inqirozlarning salbiy oqibatlarini yengillashtirishda Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Biz tanlagan taraqqiyot modeli, mamlakatni isloh etish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan puxta o'ylangan siyosat bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Bu siyosat yurtimizni turli salbiy jarayonlar va inqirozlar ta'siridan saqlaydigan mustahkam va ishonchli himoya vositasi bo'lib xizmat qilmoqda».¹ Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri, undan ko'riladigan zararining darajasi va ko'lami, birinchi navbatda, shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'lik barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya

¹ «Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz» Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilganining 16 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi // «Ma'rifat», 2008-yil 6-dekabr

mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'liq. Mazkur o'zgarish va jarayonlar iqtisodiy tahlil fanini ham erkin iqtisodiyotga moslashtirishni, mazmun va mohiyati jihatidan tubdan yangilashni talab etmoqda. Bakalavriat talabalari, magistrantlar uchun o'qitilayotgan «Moliyaviy va boshqaruv tahlili», «Moliyaviy tahlil – 2» fanlaridan «Kompleks iqtisodiy tahlil» mazmuni, mohiyati va maqsadi jihatidan tubdan farq etadi.

Oliy o'quv yurtlarining magistrantlari uchun mo'ljallangan ushbu «Kompleks iqtisodiy tahlil» fani operatsion faoliyat, investitsiya faoliyati, innovatsiya faoliyatlarining tahlilini o'z ichiga oladi.

Kompleks iqtisodiy tahlilning mazmunini firma, kompaniya va korxonalar faoliyatini keng qamrovli tarzda o'rganish asosida ularning har bir yo'nalishini o'zaro bog'liqlikda, aloqadorlikda ko'rib chiqib, mavjud resurslardan samarali foydalanishning chora-tadbirlarini belgilab berish maqsadida korxonalar faoliyati natijaviyligini oshirishga qaratilgan ichki imkoniyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Mazkur darslik o'n bobdan iborat bo'lib, unda kompleks iqtisodiy tahlil etishning konsepsiyasi, tizimi, metodologiyasi, kompleks tahlil tizimidagi marketing tahlili, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, xarajat va mahsulot tannarxini boshqarishdagi kompleks tahlilning roli, daromad va moliyaviy natijalar, to'lovga qodirlik, moliyaviy barqarorlik va ishbilarmonlik faolliklari tahlili kabi mavzular aks etgan.

Respublikamizda yosh mutaxassis va kadrlarni tayyorlash, ularga zamonaviy bilimlar berish, ularning o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan.

«Eng muhimi, inson aniq maqsad sari intilsa, unga barcha shart-sharoit yaratib berilsa, moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilsa, u eng yuksak marralarni egallashga qodir bo'ladi»².

Darslikning alohida xususiyati shundaki, unda har bir ko'rsatkichni o'zgarish sabablari, unga ta'sir etuvchi omillar, ularni hisoblash va tahlil qilish usullari jahon andozalariga mos aniq amaliy ma'lumotlar va raqamlar orqali ifodalangan. Bularning barchasi mantiqan ketma-ket tarzda berilgan jadval va chizmalarda o'z aksini topgan. Darslikda munozarali fikrlar bo'lishi tabiiy. Muallif qo'llanmada tilga olingan va amaliy ma'lumotlar asosida yechimini topgan tavsiya va tahlil etish

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2006-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasida majlisidagi ma'ruzasini // «Xalq so'zi, 2007-yil 13-fevral»

usullarini takomillashgan variant deb da'vo qilmaydi. Shuni inobatga olib, Siz hurmatli o'quvchilar, soha mutaxassislari, olimlardan xolis taklif va tavsiyalaringsizni kutamiz.

Muallif ushbu darslikni yaratishda qimmatli maslahatlarini bergan i.f.d., professor A.A. Abdug'aniyev, i.f.d., professor B.A. Hasanovlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

I bob. KORXONA XO'JALIK FAOLIYATINING KOMPLEKS IQTISODIY TAHLILINING KONSEPSIYASI VA TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Xo'jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili to'g'risida tushuncha va uning mohiyati

«Xo'jalik faoliyatining tahlili» (keyinchalik «Iqtisodiy tahlil» deb ataladi) mustaqil, aniq-iqtisodiy fan bo'lib, maxsus o'quv kursi sifatida XX asrning 20-yillarida paydo bo'ldi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi xo'jalikni yuritish va analitik ishlar korxonada moliyaviy holatini tahlil etish, uning to'lovga qodirligi, moliyaviy barqarorlik, rentabellik ko'rsatkichlarini baholash bilan chegaralanib qolingan edi. Korxonada faoliyatini ifodalovchi boshqa ko'rsatkichlar yuzaki yoki umuman yoritilmas edi.

Bugungi kunda aniq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish asosan ishlab chiqarish, investitsiya va moliyaviy faoliyatlarga tegishli axborot manbalarini har tomonlama o'rganish va ularga ishlov berish orqali amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik faoliyatini tahlil etish uchun foydalaniladigan axborot manbalari 2 qismga bo'linadi:

- korxonaning ichki boshqaruv manbalari;
- tashqi foydalanuvchilar manbalari.

Korxonada faoliyatining yo'nalishi bugungi kunda tobora kengayib, operatsion tahlil, investitsiya tahlili, innovatsiya tahlili, moliyaviy tahlil kabi turlarni o'z ichiga oladi.

Demak, xo'jalik faoliyatining keng qamrovli iqtisodiy tahlili – kompleks iqtisodiy tahlildir. U korxonada faoliyatining barcha tomonlari va bo'linmalarining bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda bo'lgan, ya'ni ishlab chiqarishning barcha bosqichlari – tayyorlov, ishlab chiqarish va mahsulot muomalalarini o'z ichiga oladi.

Ushbu o'quv kursi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish uchun tahlilni o'tkazishning konsepsiyasi va tashkiliy-uslubiy asoslari xususida nazariy uslubni; uning mohiyati va mazmuni; tahlil o'tkazish bosqichlari va yo'nalishlari bo'yicha aniq bilim talab etiladi. Xo'jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili kursining uslubiy va tashkiliy jihatdan shakllanishida xorijiy iqtisodchi olimlar S.K.Tatur, A.D.Sheremet, S.B.Barngolts, N.G.Chumachenko, V.V.Kovalev, L.T.Gilyarovskaya,

G.V.Savitskaya, O.F.Yefimova, B.Nidlz, E.Xendriksen, R.Entoni, o'zbekistonlik olimlardan A.M.Ayrumov, E.A.Akramov, A.T.Abdukarimov, S.K. Qodirxonov va boshqalarning qo'shgan hissalarini yuqoridir.

«Xo'jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili» (XFKIT) fanining predmeti korxonada faoliyatida va uning tarkibiy bo'linmalarida sodir etiladigan iqtisodiy jarayonlarni bir butunlik va o'zaro bog'liqlikda o'rganishdir.

Xo'jalik faoliyati kompleks iqtisodiy tahlilining obyektini korxonada va uning bo'linmalarining ayrim faoliyat turlari hisoblanadi.

Xo'jalik subyektlarini real bozor munosabatlari sharoitida samarali faoliyat yuritishi uchun kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazishning bugungi kundagi nazariy-uslubiy va tashkiliy-metodik jihatlari muammolarni asosli ravishda ochib berish va ularni amaliyotda qo'llash muhim ahamiyatga ega.

– Bugungi kunda kompleks iqtisodiy tahlilning mohiyati, uning mazmuni va undan qanday maqsadlarda foydalanish xususida aniq va barqaror tushuncha, uni o'tkazish shakli va usuli, rezervlarni jamlash tartibi to'g'risidagi mulohazalarda aniqlik yetishmaydi.

– Xorijiy olimlar kompleks iqtisodiy tahlilning mazmuni to'g'risida aniq bir pozitsiyaga ega emaslar, ko'pincha ichki xo'jalik va boshqaruv tahlili; tadqiqot o'tkazishning predmeti – korxonada ishlab chiqarish faoliyati tahlil mazmunini tashkil etadi, deb ta'riflanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, barcha xo'jalik subyektlarining faoliyati serqirra bo'lib, ular ishlab chiqarish faoliyatidan tashqari tashqi iqtisodiy faoliyat, savdo, moliyaviy, investitsiya, innovatsiya, marketing faoliyatlari bilan ham shug'ullanadilar.

Korxonaning barcha turdagi ish faoliyati va ularning natijalari, shu jumladan, har bir faoliyati, fikrimizcha, kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazish tadqiqotining predmetini tashkil etadi.

– Kompleks iqtisodiy tahlil tematik tahlildan bir necha o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. U har tomonlama (serqirra) va tizimli (organik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq), ya'ni uning har bir bo'limi (bloki) mantiqan va matematik jihatdan to'g'ridan-to'g'ri yoki uning aksi bo'lgan tomondan XFKIT bloklari bilan bog'liqlikka ega.

– Korxonaning har xil turdagi faoliyatini kompleks tahlil etishda uning sifat ko'rsatkichlari tizimi (masalan, korxonada aktivining rentabellik va daromadlilik darajasi; oborot mablag'lar aylanishi va fond qaytimi; moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari, likvidlik va to'lovga

qodirlik va boshqa ko'rsatkichlar) ni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda o'rganish taqozo etiladi.

1.2. Xo'jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlilining maqsadi va vazifalari

Moliya-xo'jalik faoliyatining tahlili ishlab chiqarishni boshqarish elementi, faoliyatni boshqarish bosqichidir. U boshqaruv tizimida bir qancha funksiyalarni bajaradi. Iqtisodiy tahlil orqali xo'jalik jarayonlarining mohiyati anglanadi va unga baho beriladi, ishlab chiqarishning rezervlari aniqlanadi va rejalashtirish hamda boshqaruvning ilmiy jihatdan asoslangan qarorlari tayyorlanadi. Boshqaruv tizimidagi kompleks iqtisodiy tahlilning ko'p qirrali funksiyasi uning maqsad va vazifalarida namoyon bo'ladi. Boshqaruv maqsadidagi xo'jalik faoliyatini kompleks iqtisodiy tahlil etishning metodik jihatdan tashkiliy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- kompleks iqtisodiy tahlilning maqsad va vazifalarini aniqlash;
- qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ko'rsatkichlar yig'indisining asoslanganligini har tomonlama tahlil etish;
- kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazish bosqichlarini belgilash;
- kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazish muddatlarini belgilash;
- tahlilni tashkil etish bosqichlarini ishlab chiqish va xizmat bo'limlari bo'yicha vazifalarning taqsimlanishi;
- tahlil natijalarini rasmiylashtirish va ularni baholash;
- analitik ishning mehnat sig'imini baholash, tahlilning samarali natijalarini jamlash.

XFKIT ning maqsad va vazifasi, avvalo, korxonani ichki xo'jalik muammolarini yechishga, ya'ni faoliyat natijaviyligi hamda uning iqtisodiy potensialini tashkil etuvchi resurslar, kapitaldan foydalanish daromadi va aksionerlarning aksiyadan oladigan daromadlarini oshirishga qaratilgan.

Boshqaruv tahlilining asosiy maqsadi resurslar, balans aktivi, kompaniyaning rentabellik bilan ishlashi va korxonada moliyaviy holati barqarorligini ta'minlashdan iborat.

XFKIT ning o'ziga xos ayrim xususiyatlari:

- tahlil natijalari korxonaning o'z maqsadlari va manfaatlariga xizmat qiladi;
- tahlil o'tkazishda barcha turdagi manbalardan, shu jumladan, ishlab chiqarish hisobi ma'lumotlaridan ham keng foydalaniladi;

– tahlil o‘tkazish davlat boshqaruv organlari tomonidan cheklanmagan;

– tahlil kompleks tarzda, korxonada faoliyatidagi barcha jihatlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda amalga oshiriladi;

– tahlil natijalari sir saqlanadi.

Xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlilining asosiy vazifalari:

1) ko‘rsatkichlarni bazis davridan farqlanishiga ijobiy va salbiy ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish;

2) xo‘jalik faoliyati samaradorligini obyektiv ravishda baholash;

3) biznes-rejaning ilmiy jihatdan asoslanganligi, uning bajari-lishini nazorat qilish;

4) mahsulot hajmini oshirish, uning tannaxrini pasaytirish bo‘yicha foydalanilmagan ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash, o‘tkazilgan sinov natijalarini atroflicha o‘rganish va ularni umumlashtirish.

Xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlilining asosiy yo‘nalishlari:

1) operatsion faoliyatning kompleks iqtisodiy tahlili (OFKIT);

2) moliyaviy faoliyatning kompleks iqtisodiy tahlili (MFKIT);

3) investitsiya faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili (IFKIT);

4) innovatsiya faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili (INFKIT).

OFKIT korxonaning ishlab chiqarish faoliyati, ya‘ni joriy ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq masalalarni hal etishga: resurslarni xarid etish va mahsulot (ish, xizmat)larni sotishga qaratilgan.

MFKIT – moliyalashtirish masalalari, korxonaning moliyaviy (joriy va istiqbolli) holati va uning barcha moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan.

IFKIT – qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarga bo‘lgan ehtiyoj, ularning maqsadli sarflanishi, daromad keltirishi va xavfsizligini obyektiv ravishda baholashga qaratilgan.

INFKIT – innovatsiya loyihalarining maqsadli, amaliy faoliyatda samarali foydalanishiga baho berishdan iborat.

KXFKIT ning maxsus usullari orqali xo‘jalik faoliyati natijalarini kompleks baholash maqsadida ekspert-analitik tomonidan tanlangan (Kj) dastlabki bazis davri ko‘rsatkichlarini o‘sish sur‘atlari koeffitsiyenti baholanadi, tadqiqot o‘tkazilayotgan xo‘jalik jarayonlari sifat jihatdan mohiyati to‘liq ochib beriladi. Kompleks baholash quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

$$K_j = \sum W; \quad (1)$$

$$K_j = \frac{\sum W}{n}; \quad (2)$$

$$K_j = w_1 \cdot w_2 \dots w_n = P_r W \quad (3)$$

$$K_j = \sqrt[n]{\prod P W}; \quad (4)$$

$$K_j \text{ (masofa usuli)} = \sqrt{\sum_{j=1}^n KZ (w_{ii} - w_{i \max})^2}; \quad (5)$$

Bunda: K_j – korxonaning har bir bo‘limi, jami ko‘rsatkichlarini kompleks baholash;

i – bo‘lim faoliyatini kompleks baholashda ekspert tomonidan olingan har bir ko‘rsatkich nomi;

w_{ii} – kompleks baholashdagi o‘shish (pasayish) sur‘atlari koeffitsiyenti;

KZ – kompleks baholashdagi to‘rtta ko‘rsatkichning har koeffitsiyentining natijasi;

$w_{i \max}$ – bo‘linmaning i -ko‘rsatkichining maksimal ifodasi;

P_{rw} – ko‘rsatkichlarning o‘shish koeffitsiyentlarining ko‘paytmasi;

n – kompleks baholash koeffitsiyentini hisoblashdagi ko‘rsatkichlar soni.

Korxonada filiallari faoliyatini o‘rtacha geometrik va masofa usullari orqali kompleks baholash

1.2.1-jadval

T №	Ko‘rsatkichlar	Korxonada filiallari			X max	Ko‘rsatkichlar koeffitsiyentining o‘rmi
		N ₁	N ₂	N ₃		
	A	1	2	3	4	5
1	Mehnat unumdorligining o‘shish koeffitsiyenti	1,05	1,03	1,04	1,05	2
2	Fond qaytimining o‘shish koeffitsiyenti	1,03	1,06	1,05	1,06	1,5

3	Material qaytimining o'sish koeffitsiyenti	1,04	1,02	1,01	1,04	2,5
4	Mahsulot sotishdan ko'rilgan rentabellikning o'sish koeffitsiyenti	1,02	1,08	1,06	1,08	3
5	«O'rtacha geometrik» usul bo'yicha kompleks baholash $K_j = n \cdot \sqrt{I \cdot p \cdot v}$	1,035	1,097	1,040	-	-
6	Reyting bo'yicha egallagan o'rin	3	1	2	-	-
7	Filiallar faoliyati natijalarini «masofa» usuli orqali kompleks baholash K_j (masofa usuli) = $K_j = \sqrt{\sum_{j=1}^n K_j^2 (w_{ij} - w_{i, \max})^2}$;	0,0406	0,1060	0,0264	-	-
8	Reyting bo'yicha egallagan o'rin	2	1	3	-	-

K_j ning «masofa usuli» orqali aniqlanishi
1-filial:

$$K_{j1} = \sqrt{2(1,05-1,05)^2 + 1,5(1,03-1,06)^2 + 2,5(1,04-1,04)^2 + 3(1,02-1,08)^2} = \\ = \sqrt{0 + 0,00135 + 0 + 0,0003} = \sqrt{0,00165} = 0,0406$$

2-filial:

$$K_{j2} = \sqrt{2(1,03-1,06)^2 + 1,5(1,06-1,06)^2 + 2,5(1,02-1,04)^2 + 3(1,08-1,08)^2} = \\ = \sqrt{0,0035 + 0 + 0,001 + 0,00138 + 0,0075} = \sqrt{0,01123} = 0,1060$$

3-filial:

$$K_{j3} = \sqrt{2(1,04-1,05)^2 + 1,5(1,05-1,06)^2 + 2,5(1,01-1,04)^2 + 3(1,06-1,08)^2} = \\ = \sqrt{0,0002 + 0 + 0,00015 + 0,000225 + 0,00012} = \sqrt{0,000695} = 0,0264$$

1.2.1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, korxonada filiallari faoliyatini ikki usulda kompleks baholash natijalari bir xil emas. Chunki «o'rtacha geometrik» va «masofa» usullari mazmunan bir-biridan farqlanadi. Birinchi usul orqali korxonada faoliyatini kompleks baholash natijalari 2-filialda yuqori ($K_j = -1,097$); ikkinchi usul – «masofa» usuli natijasiga ko'ra 2-filial ($K_j = 0,1060$) yuqori natijaga ega.

1.3. Xo'jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlilining axborot manbalari

Chuqur va aniq, obyektiv tahliliy xulosalarga bir qancha turdagi axborot manbalariga ishlov berish orqali erishiladi. XFKIT uchun ichki axborot manbalari muhim ahamiyatga ega. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ta'xis hujjatlari;
- asosiy vositalar va oborot mablag'lar tarkibi, ularning qiymati, xo'jalik operatsiyalari hamda korxonaning daromad va xarajatlarini o'zida ifoda etuvchi dastlabki hujjatlar;
- texnik loyihalarga oid hujjatlar;
- investorlar, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, qarzidorlar, emitentlar o'rtasida bo'ladigan munosabatlarni ifodalovchi yuridik hujjatlar;
- buxgalteriya hisobining analitik ma'lumotlari;
- tezkor va statistik hisob ma'lumotlari;
- buxgalteriya hisoboti;
- nazorat organlarining dalolatnomalari, auditor va soliq inspeksiyalari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv xulosalari, tijorat banklarining dalolatnomasi;
- me'yoriy hujjatlar;
- biznes-reja va h.k.

Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun quyidagi tashqi manbalardan ham foydalaniladi:

- davlatning iqtisodiy sohadagi siyosatini ifodalovchi siyosiy xarakterdagi manbalar, masalan, tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun soliq yukini pasaytirish orqali rag'batlantirish yoki ayrim turdagi faoliyat cheklovlarini keltirish mumkin;
- ayrim turdagi tovarlar, xizmatlarga bo'lgan talab va ehtiyojlar, kredit stavkalari foizi, chet el valuta kursini o'zgarishi, ayrim kompaniya va tijorat banklari reytingi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, investorlar, kreditorlarning moliyaviy ahvoli to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;
- rahbar lavozimdagi yuridik shaxslarning ishbilarmonlik va shaxsiy sifat ko‘rsatkichlarini ifodalovchi ma‘lumotlar;
- gazeta, jurnal, birja byulletenlari, televideniya va radio, internet ma‘lumotlari va h.k.

Tahlil manbalari guruhlariga ajratiladi, hisobotlarda aks etgan ma‘lumotlar har tomonlama chuqur tekshiruvdan o‘tkazilib, so‘ng ma‘lumotlarga analitik ishlov beriladi.

1.4. Xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlilining ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlashdagi ahamiyati

Xo‘jalik faoliyatini kompleks iqtisodiy tahlilining asosiy vazifalaridan biri ishlab chiqarish samaradorligini oshirish rezervlarini aniqlash va ulardan maqsadga muvofiq foydalanishni tashkil etadi. Rezervlarni aniqlash mexanizmi korxonaning aniq shart-sharoiti va oldiga qo‘ygan vazifalariga tayanadi. Uning umumiy tuzilishi quyidagicha:

1. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi bosh bo‘g‘in aniqlanadi. Ularga sarf-xarajatlarni kiritish mumkin, chunki mahsulot tannaxida ularning ulushi yuqori. Sarf-xarajatlarni qisqartirish tufayli katta iqtisodiy samaraga erishiladi.

2. Ishlab chiqarishning «tor tomonlari» aniqlanadi, ular ishlab chiqarishning o‘sish sur‘atlarini oshirishga, tannarxni pasaytirishga imkon bermaydi.

3. Ishlab chiqarish tipi hisobga olinadi. Masalan, keng ko‘lamli ishlab chiqarishda rezervlarni belgilangan ketma-ketlikda aniqlash tavsiya etiladi: mahsulot, uzal, detal, operatsiya jarayoni; yakka tartibdagi ishlab chiqarishda ishlab chiqarish siklining ayrim operatsiyalari bo‘yicha aniqlanadi.

4. Rezervlar mahsulotni hayot siklini barcha bosqichlari yoki obyektlari (loyihalashtirish, ishlab chiqarish, sotish) bo‘yicha aniqlanadi.

5. Moddiy resurslardan iqtisod, ya‘ni mavjud mehnat, uskunalaridan foydalanishda iqtisodga erishgan taqdirdagina rezerv komplekt hisoblanadi.

Rezerv deb nimaga aytiladi?

Fan va iqtisodiy tahlil amaliyotida rezerv ikki xil ma‘noga ega.

Birinchi tushuncha – vaqtinchalik ishlatilmay turgan moddiy-buyumlashgan resurslarga aytiladi, masalan, zaxiradagi xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, yarimfabrikatlar, zaxiradagi (o‘rnatilmagan) uskunalar va h.k. Bu zaxiralar moddiy-texnik ta‘minotdagi uzilishlar, ishlab chiqarish hajmining oshishi, mahsulot assortimentining o‘zgarishi, materiallardan foydalanishda normaga nisbatan ortiqcha sarfga yo‘l qo‘yilgan hollarda ishlatiladi.

Ikkinchi tushuncha – ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda foydalanilmagan imkoniyatlarni anglatadi. Bunday rezervlarni aniqlash xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili uchun asosiy vazifa sanaladi.

1.5. Xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish rezervlarini turkumlash

Rezervlar – xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirishdagi ishga solinmagan imkoniyatlar – quyidagi belgilariga ko‘ra turkumlanadi:

1) resurs turlari bo‘yicha:

- mehnat resurslari;
- mehnat vositalari;
- mehnat predmetlari.

Har bir resurslarga turi bo‘yicha ekstensiv va intensiv rezervlar ta‘siri aniqlanadi. Masalan, ish vaqti yo‘qotilishini bartaraf etish orqali mehnat unumdorligini oshirish ekstensiv yo‘l, vaqt birligi ichida ishchining yaratgan mahsulotini ortishi esa intensiv yo‘l hisoblanadi;

2) takror ishlab chiqarish jarayonining bosqichlari bo‘yicha: ta‘minot, ishlab chiqarish va mahsulotning sotish bo‘yicha rezervlari;

3) mahsulotning hayot sikli bosqichlari bo‘yicha:

– ishlab chiqarishning dastlabki bosqichi (ishlab chiqarish uchun konstruktorlik va texnologik jihatdan tayyorgarligi);

– ishlab chiqarish bosqichi (yangi mahsulot turlarini o‘zlashtirish, ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va mahsulotni ishlab chiqarish);

– ekspluatatsiya bosqichi (kafolat va kafolatdan keyingi davr);

4) xo‘jalikni yuritish samaradorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha rezervlar:

- ishlab chiqarishni oshirish;
- mahsulot assortimenti va sifatini yaxshilash;
- mehnat unumdorligini oshirish;

- material sig‘imi va mahsulot fond sig‘imini pasaytirish;
- ishlab chiqarish siklini qisqartirish;
- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni yaxshilash;
- mahsulot tannarxini pasaytirish va foydani oshirish;

5) rezervlardan foydalanish muddatlari bo‘yicha – joriy va istiqbolli rezervlarga bo‘linadi. Joriy rezervlar joriy yilda foydalanish uchun mo‘ljallangan rezervlardir. Joriy rezervlardan foydalanish uchun xo‘jalikni yuritishni tubdan yaxshilash, aniq ko‘zga ko‘ringan yo‘qotishlar va unumsiz xarajatlarni bartaraf etmoq lozim. Komplekt (jami yoki umumlashgan) joriy rezervlarni aniqlash uchun har bir resurs bo‘yicha alohida, ya‘ni mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlari bo‘yicha rezervlar hisob-kitobini qilish kerak.

Masalan, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha aniqlangan rezervlar quyidagilardan iborat:

- mehnat resurslari bo‘yicha – 300 ming so‘m;
- mehnat vositalari bo‘yicha – 200 ming so‘m;
- mehnat predmetlari bo‘yicha – 80 ming so‘m.

Komplekt rezerv 80 ming so‘mni tashkil etadi.

Komplektga ega bo‘lish uchun xomashyo, yoqilg‘i, materiallar va ishlab chiqarish uskunalarini qo‘shimcha xarid etish lozim.

Aniqlanish usuliga ko‘ra rezervlar yaqqol (ochiq) va maxfiy (yashirin) qismlarga bo‘linadi.

Yaqqol rezervlarga quyidagilar kiradi:

– xo‘jasizlik, shartnoma majburiyatlarini buzganlik tufayli yo‘qotishlar, ishlab chiqarish braki, tayyor mahsulot va materiallar kamomadi, moddiy resurslar iste‘mol qiymatining yo‘qotilishi;

– barcha turdagi resurslar bo‘yicha rejaga nisbatan ortiqcha sarfga yo‘l qo‘yilishi. Uskunalarining qoniqarsiz texnik holatda bo‘lishi, xodimlar malakasining pastligi va boshqa sabablarga ko‘ra ortiqcha sarfga yo‘l qo‘yiladi. Iqtisodiy tahlilning vazifasi bunday turdagi yo‘qotishlar va ortiqcha sarflarning vujudga kelish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilashdan iborat.

Maxfiylashgan (yashirin) rezervlar fan va texnikaning ilg‘or tajribalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish bilan uzviy bog‘liq. Bunday rezervlar ichki xo‘jalik va xo‘jaliklararo o‘tkaziladigan qiyosiy tahlil orqaligina aniqlanadi.

1.6. «Xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili» o‘quv kursini o‘qitish konsepsiyasi

Bugungi kunda Kompleks iqtisodiy tahlil etuvchilarning asosiy e‘tibori oliy ta‘lim talabalari uchun qabul qilingan yangi dastur standartlariga qaratilgan. Bakalavriat yo‘nalishidagi «Buxgalteriya hisobi va audit» yo‘nalishidagi talabalar uchun 3 ta fan o‘qitilishi ko‘zlangan. «Iqtisodiy tahlil nazariyasi», «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» hamda tanlov asosida «Boshqa tarmoqlarda tahlil xususiyatlari». Magistrantlar uchun ushbu yo‘nalish bo‘yicha «Iqtisodiyot subyektlarida moliyaviy holat tahlili», «Tashqi iqtisodiy faoliyatda buxgalteriya hisobi va tahlili», «Kompleks iqtisodiy tahlil» fanlari o‘tiladi. Bizning fikrimizcha, «Buxgalteriya hisobi va audit» bakalavriat yo‘nalishidagi talabalar uchun quyidagi 3 ta fan o‘tilishi lozim: «Iqtisodiy tahlil nazariyasi», «Kompleks iqtisodiy tahlil», «Moliyaviy hisobot tahlili».

1. «Kompleks iqtisodiy tahlil»da barcha uslubiyat axborot manbalari bilan ta‘minlangan holda talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi talab etiladi. Bu tahlil turi evolutsion va istiqbolli rivojlanish tushunchasiga bir xil yondashgan holda o‘rganiladi.

2. Agar so‘z har tomonlama obyekt, omillar va tadqiqot o‘tkazish uslubi xususida yuritilsa, «kompleks» iborasi amaliyotda bir xil ma‘noni anglatadi. Kompleks iqtisodiy tahlil korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy, investitsiya va boshqa faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Kompleks tahlil sistemali tahlilning ajralmas qismi, analitik tadqiqotlarga tizimli yondashishning asosiy qismi hisoblanadi.

3. Kompleks tahlil nisbiy xarakterga ega. Uning xo‘jalikni samarali yuritish, korxonaning boshqa faoliyat natijalarini kompleks baholashda ahamiyati yuqoriligi hech kimda shubha tug‘dirmaydi. Ammo «kompleks iqtisodiy va kompleks boshqaruv tahlili bir xil» degan qarashlar ham mavjud. Kompleks boshqaruv tahlili ichki xo‘jalik ishlab chiqarish tahlilidir, kompleks iqtisodiy tahlil esa korxonaning barcha faoliyat turlari, shu jumladan, ichki xo‘jalik ishlab chiqarish tahlilini ham o‘z ichiga oladi. Bu xususda rossiyalik taniqli olim professor A.D. Sheremetning fikr va mulohazalari diqqatga sazovor³.

Boshqaruv tahlili – ichki xo‘jalik ishlab chiqarish tahlili boshqaruv hisobi ma‘lumotlariga asoslangan holda, ichki xo‘jalik moliyaviy tahlili buxgalteriya hisobi va hisoboti manbalari asosida amalga oshiriladi. Bu

³ Шеремет А.Д., Сайфуллин Р.С., Негашев Е.Н. Комплексный экономический анализ деятельности предприятия (вопросы методологии). –М. «Экономика», 1974 г.

tizimda kompleks tahlil ishlab chiqarish obyektlari hamda moliyaviy tahlilni o'z ichiga oladi. Kompleks iqtisodiy tahlilning axborot manbalari tizimi to'g'risidagi yangicha fikr va mulohazalar diqqatga sazovor.

Boshqaruv hisobi to'g'risidagi tor ma'nodan tashqi muhitni tez o'zgarishi tufayli uchyotga ega va uchyotga ega bo'lmagan, moliyaviy axborot manbalariga asoslangan holda yagona boshqaruv hisobi va tahlili tizimini yaratish lozim.

4. Tahlilchilarning boshqa bir maktabi, Sankt-Peterburgdagi professor V.V. Kovalev va boshqalar «tahlil – boshqaruv hisobining asosiy va ajralmas qismi» deb qaraydilar. Anglo-amerika maktabiga mansub tahlilchilar esa boshqaruv tahlilini alohida fan sifatida tan olmaydilar. Ular boshqaruv yo'sinini iqtisodiy tahlilning barcha turlariga taalluqliligini ta'kidlaydilar.

5. Anglo-amerika tahlil maktabining tutgan yo'li va ularga xayrixohlik Rossiya iqtisodiyotini rivojlantirish vazirligi qoshida tuzilgan ekspert-maslahat kengashining boshqaruv hisobi masalalariga oid tavsiyalarida o'z aksini topgan. Mazkur vazirlik boshqaruv hisobi va iqtisodiy tahlilni shakllantirish bilan shug'ullanadi. Ekspert-maslahat kengashi 2002-yilda tashkil topgan bo'lib, uning asosiy vazifasi korporativ hisob tizimini tashkil topishiga o'z hissasini qo'shishdan iborat. Bugungi kunda ekspert-maslahat kengashi tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv hisobi jahon amaliyotida keng qo'llanilmoqda.

6. Iqtisodiyotning tamoman yangi bilim darajasida ekstensiv rivojlanishdan voz kechib, innovatsiya, menejment tamoyillari asosida iqtisodiy o'sish omillari, biznes qiymati va kelgusidagi daromad tushumini yangi usulda baholashni taqozo etadi. Ayniqsa, oborot miqdori, uning bozordagi hissasi, xizmatlardan foydalanuvchilar, o'sish imkoniyatlarining me'yori kompleks iqtisodiy tahlilda yetakchi o'rinlarni egallaydi.

7. Ichki korporativ iqtisodiyot sohasidagi yangiliklar tufayli mulk egasining mafkurasi o'zgardi: ijtimoiy soha, kadrlar masalasi bo'yicha siyosat, uzoq muddatli investitsiyalar, biznesni zarurligi xususida yangicha fikrlash paydo bo'ldi.

8. Kompleks va sistemali tahlilga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Kompleks tahlil o'zining maqsadli yo'nalishi orqali strategiyali, taktik, tezkor tahlil bo'yicha boshqaruv qarorlarini tayyorlaydi.

9. Korxonalar mulki va moliyaviy holatining tahlili sistemali, kompleks va har tomonlama bir-biri bilan uzviy bog'liqlikka ega

YK 2450
T.M. A. ...

ko'rsatkichlardan iborat bo'lishi kerak. Tahlilning kompleksligi nisbiy xarakterga ega.

10. Kompleks iqtisodiy tahlil asosiy qism va yo'nalishi bo'yicha quyidagi bloklarga bo'linadi:

- xarid etish;
- omborlarga joylashtirish;
- ishlab chiqarish;
- sotish hajmi;
- transport vositalarini harakati;
- tovarni iste'molchiga yetkazish;
- moliyaviy menejment;
- loyiha boshqaruvi;
- investitsiya boshqaruvi;
- innovatsiya boshqaruvi;
- xolding boshqaruvi;
- obyektlar tahlili;
- resurslar tarkibi, holati, harakati va ulardan samarali foydalanish tahlili;
- resurs turlari va mahsulot xillari bo'yicha ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar tahlili;
- tashqi muhitni hisobga olgan holda korxonaning moliyaviy natijalari va moliyaviy holatining tahlili;
- kompleks tahlil tijorat tashkilotlari va uning bo'linmalari tuzilishini nazorat qilish vositasi sifatida;
- korxonada mulki va moliyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanishni kompleks baholash;
- kapital rentabelligi;
- iqtisodiy rivojlanish intensivligi;
- ishlab chiqarish resurslaridan intensiv foydalanish tufayli erishilgan nisbiy iqtisod.
- sof aktiv qiymati va h.k.

11. Korporativ qarorlarni ishlab chiqishda menejerlar kengroq axborot manbalaridan, tashqi manbalar orqali shartnoma tuzgan hamkor korxonada to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shuningdek, moliyaviy hisobotdan tashqi foydalanuvchilarni hamkor korxonaning bozordagi holati to'g'risidagi ma'lumotlar ham ko'proq qiziqtiradi.

12. Moliyaviy hisobot shakliga moliyaviy ko'rsatkichlarga taalluqli bo'lmagan ko'rsatkichlarni ham qo'shish bugungi kun talabidir.

Natijada bu hisobot shaklidan tashqi va ichki foydalanuvchilar ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

13. Moliyaviy ko'rsatkichlarga tegishli bo'lmagan manbalar orqali hamkor korxonaning bozordagi mavqeyi, texnologiyasi, ishlab chiqargan mahsulotining raqobatbardoshligi kabi ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'linadi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- kompleks iqtisodiy tahlil tushunchasi;
- boshqaruv tahlili va kompleks iqtisodiy tahlil;
- kompleks iqtisodiy tahlil obyekti;
- kompleks iqtisodiy tahlil mazmuni xususidagi turli qarashlar;
- kompleks iqtisodiy tahlil manbalari;
- korxonaga faoliyatini o'rtacha geometrik va masofa usullari orqali kompleks baholash;
- ichki rezervlarni aniqlashda kompleks tahlil roli;
- kompleks iqtisodiy tahlil kursini o'qitish konsepsiyasi.

Savol va topshiriqlar

1. Kompleks iqtisodiy tahlilning mazmuni nimalardan iborat?
2. Boshqaruv funksiyasini bajarishda kompleks tahlilning tutgan o'rni va ahamiyatini izohlab bering.
3. Boshqaruv tahlili, kompleks iqtisodiy tahlil. Ularning bir-biridan farqlanishini izohlab bering.
4. Komplekt rezervni aniqlang.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha aniqlangan rezervlar:

- mehnat resurslari bo'yicha – 500 ming so'm.
- mehnat vositalari bo'yicha – 300 ming so'm.
- mehnat predmetlari bo'yicha – 150 ming so'm.

Testlar

1. Tahlil (analiz) so'zining mazmuni qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

a) Lotin tilidan olingan bo'lib, «butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman» ma'nosini anglatadi;

b) Fransuz tilidan olinib, «butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman» ma'nosini anglatadi;

c) Grek tilidan olinib, «butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman» ma'nosini anglatadi;

d) Ingliz tilidan olinib, «butunni bo'lakchalarga bo'lib o'rganaman» ma'nosini anglatadi.

2. Kompleks tahlil deb nimaga aytiladi?

a) Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini makon va zamon nuqtayi nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil etishdir;

b) Xo'jalik faoliyatida natijaviy omillar o'rtasidagi bog'liqlik, funksional bog'liqlik bo'lmagan sharoitda, ularning bog'liqligini o'rganishga qaratilgan tahlildir;

c) Mulk egalari va mutaxassislari tomonidan ichki imkoniyatlarini ishga solish va samaradorligini oshirishga qaratilgan tahlildir;

d) Barcha javoblar to'g'ri.

3. Kompleks iqtisodiy tahlilning tashqi manbalariga qanday manbalar kiradi?

a) Soliq yuki, tijorat banklari reytingi to'g'risidagi ma'lumotlar;

b) Siyosiy xarakterdagi manbalar, me'yoriy hujjatlar;

c) Davlatning siyosiy xarakteridagi investorlar, xaridorlar to'g'risidagi axborot manbalari;

d) Gazeta, jurnal, radio va televideniye ma'lumotlari.

4. Resurs turlari bo'yicha xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish rezervlariga nimalar kiradi?

a) Ishchi kuchi, mehnat unumdorligi, mehnat vositalari;

b) Mehnat unumdorligi, mehnat predmetlari, xodimlar soni;

c) Mehnat resurslari, mehnat vositalari, mehnat predmetlari;

d) Mehnat resurslari, mehnat predmetlari, asosiy vositalardan foydalanish ko'rsatkichlari.

5. Kompleks iqtisodiy tahlil yo'nalishlari:

a) Operatsion, ishlab chiqarish, moliyaviy, innovatsiya faoliyatlarining Kompleks iqtisodiy tahlili;

b) moliyaviy, innovatsiya, investitsiya, moliyaviy natijalarning Kompleks tahlili;

c) investitsiya, moliyaviy, innovatsiya, sotish faoliyatlarining Kompleks tahlili;

d) operatsion, moliyaviy, investitsiya va innovatsiya faoliyatlarining Kompleks iqtisodiy tahlili.

6. Qaysi manbalar Kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazishning ichki asosiy manbalari hisoblanadi?

a) Texnik loyihalarga oid hujjatlar;

b) Tezkor va statistik hisob ma'lumotlari;

c) Investorlar, xaridorlarning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar;

d) Buxgalteriya, statistika, tezkor hisob va hisobot manbalari.

7. Kompleks iqtisodiy tahlilning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

a) Tahlil natijalari, korxonaning o'z maqsadlari va vazifalariga xizmat qiladi;

b) Tahlil o'tkazishda barcha axborot manbalaridan foydalaniladi;

c) Tahlil korxonada faoliyatining barcha tomonlari kompleks tarzda bir-biri bilan bog'langan holda amalga oshiriladi;

d) Barcha javoblar to'g'ri.

8. Kompleks iqtisodiy tahlil o'tkazishdagi ketma-ketlik qanday ko'rinishga ega?

a) Ma'lumotlar to'plash va qayta ishlash, tahlil, takliflar bildirish;

b) Tahlil o'tkazish dasturini tuzish va bajariladigan vazifalarni taqsimlash;

c) Tahlil o'tkazish dasturini tuzish, ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish;

d) Ma'lumotlarni to'plash, tahlil va yechimini aniqlash.

II bob. KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL TIZIMI VA METODOLOGIYASI

2.1. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning shakllanish tizimi

Bozor munosabatlari sharoitida har bir ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish natijaviyligini oshirish maqsadida kompleks tarzda iqtisodiy tahlilni tashkil etish lozim. Kompleks tahlilni amalga oshirish metodologiyasi adabiyotlarda yetarlicha yoritilmagan.

Metodologiya fan predmetini o'rgatish usuli, unda qo'llaniladigan yondashuvlar, usullar majmuasi demakdir.

Kompleks tahlil xo'jalik faoliyatini bo'laklarga bo'lib, bir-biriga bog'liq holda batafsil o'rganishdir. Ushbu tahlil turi tizimli yondashish bilan amalga oshiriladi.

Shu ma'noda kompleks iqtisodiy tahlilning mazmunini korxonalar faoliyatini keng qamrovli tarzda o'rganish asosida, ularning har bir bo'lagini o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqib mavjud resurslardan samarali foydalanishning chora-tadbirlarini belgilab berish maqsadidagi, korxonalar faoliyati natijaviyligini yaxshilashga qaratilgan ichki imkoniyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Korxonaning ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlari (ta'minot, ishlab chiqarish, realizatsiya) jamlanganda uning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini tashkil etadi.

Ular aniq son jihatga ega bo'lishi kerak.

Bu jarayonlarni miqdor va sifat jihatlarini tasniflash analitik ko'rsatkichlar tizimi orqali amalga oshiriladi.

Analitik ko'rsatkichlarda korxonaning ishlab chiqarish, moliya, xo'jalik jarayonlarini iqtisodiy samaradorlik darajasi, hajmi va uning ayrim yo'nalishlari aks etadi.

Analitik ko'rsatkichlar biznes reja, buxgalteriya hisobi va hisobotlari, boshqa axborot manbalaridan olinadi. Ko'rsatkichlarning mazmuni miqdorini ifodalovchi ko'rsatkichlardan farqlanadi.

Ko'rsatkichlar mazmuni o'rganilayotgan jarayonlarning iqtisodiy mohiyatini, **ko'rsatkichlar miqdori** esa ularning o'lchovini ifodalaydi. Masalan, mahsulot iste'molchilarga ortib jo'natilgandan

kelgan tushum **ko'rsatkichlar mazmuni**, miqdor ko'rsatkichi esa tushum summasining dinamikasi, rejaning bajarilishidir.

Analitik ko'rsatkichlar quyidagicha turkumlanadi:

- 1) mazmuni bo'yicha;
- 2) ifodalanish usuli bo'yicha;
- 3) foydalanish doirasi bo'yicha;
- 4) ishlatilish xususiyati bo'yicha.

1. Ko'rsatkichlar mazmuni bo'yicha ikki guruhga bo'linadi.

1.1. **Miqdor ko'rsatkichlari.** Xo'jalik jarayonlari va ularning o'zgarishlarini son jihatini ifodalaydi. Masalan, xodimlar soni, mashina va uskunalar soni va h.k.

1.2. **Sifat ko'rsatkichlari.** Bu ko'rsatkichlar xo'jalik jarayonlaridagi o'zgarishlarning muhim xususiyatlari va ularning iqtisodiy samaradorligini ifodalaydi. Masalan, rentabellik, mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari sifat ko'rsatkichlari tarkibiga kiradi.

Miqdor va sifat ko'rsatkichlari bir-biridan ajralgan holda o'rganilmaydi. Har ikki ko'rsatkich bir-biri bilan uzviy bog'langan holda ishning natijasiga ta'sir etadi. Masalan, mahsulot hajmi ishchilar soni (miqdor ko'rsatkich) va bir ishchining o'rtacha mahsulot hajmi (sifat ko'rsatkich)larini ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

2. Ko'rsatkichlar ifodalanish usuli bo'yicha ham ikki guruhga bo'linadi.

2.1. **Mutlaq ko'rsatkichlar.** Bu ko'rsatkichlar ishtirokida ishlab chiqarish, moliyaviy va xo'jalik faoliyatlarining hajmi, strukturasi va sifat xususiyatlari ifodalanadi. Qaysi o'lchov birligida ifodalanishiga qarab natural, mehnat, qiymat shakllariga bo'linadi. Mahsulot hajmi natira shakli (tonna, kg, metr, dona) da mehnat (norma-soat), pul ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

2.2. **Nisbiy ko'rsatkichlar.** Bu ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'likka ega ikki mutlaq ko'rsatkichning nisbati orqali aniqlangan nisbiy ko'rsatkich o'rganilayotgan hodisalar strukturasi, ularning samaradorligi va vaqt jihatdan intensivligini aniqlash uchun zarur.

Nisbiy ko'rsatkichlar foiz, koeffitsiyent, indeks shakllarida qo'llaniladi.

3. Foydalanish doirasi bo'yicha ko'rsatkichlar quyidagicha taqsimga ega.

3.1. Barcha tarmoqlarda foydalaniladigan umumiy ko'rsatkichlar. Masalan, ish haqi fondi, bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulot, sof foyda, xususiy kapital rentabellik darajasi va h.k.

3.2. Ayrim tarmoqlar sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va h.k. larda qo'llaniladigan yakka, xususiy ko'rsatkichlar. Mahsulot sifati, uning chidamliligi – sanoat, donning namlilik, sutning yog'lilik darajasi qishloq xo'jaligiga taalluqlidir.

4. Ishlatilish bo'yicha ko'rsatkichlar quyidagicha ifodalanadi.

4.1. Xo'jalik jarayonlarini tasniflovchi ko'rsatkichlar. Ular korxonada xo'jalik jarayonlarini tuzilishi, biznes rejalarining bajarilishi, jarayonlar dinamikasi orqali erishilgan natijalarni ifodalaydi.

4.2. Erishilgan natijalarga ta'sir etuvchi omillar. Ishlab chiqarish, moliyaviy va xo'jalik jarayonlaridagi o'zgarish sabablari analitik ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Masalan, sotishdan kelgan tushum indeksi (I_v), sotish hajmi (I_g) hamda sotiladigan mahsulot baho (I_p) larining ko'paytmasidan hosil bo'ladi. Bunda,

I_v – natija;

I_g – omil;

I_p – omil.


Yuqoridagi formulani quyidagicha ifodalash mumkin.

$$\frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} \times \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_1 p_0}$$

Barcha analitik ko'rsatkichlar bir-biri bilan uzviy bog'liqlikka ega, faqat ulardan tizimli tartibda foydalanilgan taqdirdagina kompleks iqtisodiy tahlil oldiga qo'yilgan maqsadga erishish mumkin.

Kompleks iqtisodiy tahlilga oid adabiyotlarda iqtisodiy ko'rsatkichlarni turkumlash, ularning shakllanishi va bir-biri bilan bog'liqligini ifodalovchi turli chizmalar mavjud.

Bu chizmalardan eng asosiysi sifatida A.D.Sheremet, R.S.Sayfulin, E.N.Negashev tomonidan yozilib, nashr etilgan «Комплексный экономический анализ деятельности предприятия» (вопросы методологии). –М.: «Экономика», 1974, 26-стр.) asarida keltirilganini aytish mumkin.



2.1.1-chizma. Iqtisodiy ko'rsatkichlarning shakllanishi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar 2 guruh ko'rsatkichlardan iborat. Guruhlar o'zagini ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, ya'ni texnika va texnologiyasi, texnologik jarayonlar, mehnatning texnika va energiya bilan quollanishi, ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi, ishlab chiqarishni tashkil etish darajalarini o'z ichiga oladi (1-guruh).

Ishlab chiqarish resurslari – mehnat vositalari (2-guruh), mehnat predmetlari (3-guruh), mehnat resurslari (4-guruh) dan samarali foydalanish ishlab chiqarishning texnik, tashkiliy jihatlariga bog'liq. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (5-guruh), mahsulot tannarxi (6-guruh), uzoq muddatli aktivlar va joriy (oborot) aktivlar (7-guruh) ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga bog'liq.

Ishlab chiqarilgan mahsulot va uning tannarxi asosida foyda va mahsulot rentabelligi (8-guruh) darajasi aniqlanadi.

Uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlarning shakllanishi uchun yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmi va kapital miqdorlarini

taqqoslash orqali sarf etilgan kapital (9-guruh) samaradorligi aniqlanadi. Yuqorida qayd etilgan 9-guruh ko'rsatkichlari moliyaviy natijalarga ta'sir etadi. Foyda asosida kapital rentabellik (10-guruh) darajasi aniqlanadi.

Balans aktivi va uning tashkil topish manbalari asosida xo'jalik subyekting moliyaviy holati (11-guruh) ga baho beriladi.

2.2. Kompleks iqtisodiy tahlilni o'tkazish bosqichlari

Analitik ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uni tashkil etish darajasiga bog'liq.

Firmadagi ichki analitik ishlar ma'lum maqsad, vazifa bo'yicha tizimli o'tkazilishi kerak. Bunday tahlil ishlab chiqarish va moliyaviy, joriy, tezkor va istiqbolli, kompleks va ayrim mavzular bo'yicha tahlil hamda raqobatdagi korxonalarining tashqi tahlil ma'lumotlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy tahlil xo'jalik subyektlarida kimlar tomonidan amalga oshiriladi?

– yirik firma – ixtisoslashgan bo'linmalarda direktorning iqtisodiy masalalar bo'yicha o'rinbosari rahbarligidagi buxgalterlar, iqtisodchi, menejmentlar guruhi;

– o'rta firmalarda – guruh yoki moliyaviy masalalar bo'yicha mutaxassis;

– kichik firmalarda – bosh buxgalter iqtisodiy tahlilni amalga oshiradi.

Kompleks iqtisodiy tahlilni o'tkazish bosqichlari quyidagilardan iborat:

1) maqsadli aniq ko'rsatma va tahlil obyektini belgilash;
2) dastlab obyekt bilan umumiy tanishuv va tahlil rejasini qayta ishlab chiqish: axborot manbalarini aniqlash, tahlil etish uslubini tanlash;

3) tahlil manbalarini yig'ish va ularning ishonchliligini, sifatini tekshirish;

4) tahlil manbalarini o'rganish, aniq tahlil uslubi orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish;

5) tahlil natijalarini umumlashtirish, xulosalashtirish;

6) ichki rezervlarni aniqlash, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida bunday kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish.

Kompleks iqtisodiy tahlilning I, II bosqichlarida – tahlilning maqsadi, vazifasi, tahlil obyekti aniqlanishi, tahlil mazmuni, tahlilni o'tkazuvchi guruhlar (ijrochilar) tarkibi, tahlil muddati, tahlil etish uslublari aks etishi lozim.

Yig'ilgan axborot manbalari ishonchli, sifatli bo'lishi kerak. Ma'lumotlarga ishlov berishdan oldin axborot manbalari *yuzaki va mazmun* jihatdan tekshiruvlardan o'tkaziladi.

Chetdan investorlarni jalb etish maqsadida hisobot ma'lumotlarini bo'rttirib ko'rsatish jozibasiga hamon chek qo'yilmagan. Investorni jalb qilish uchun, tabiiyki, o'zining faqat «Yaxshi tomonlarinigina ko'rsatish» istagi, aniqroq qilib aytganda: hali olinmagan daromadlarni aks ettirish, ularni qaytadan baholash yo'li bilan aktivlar qiymatini ko'pirtirib ko'rsatish, binobarin, o'z kapitalining miqdorlarini ko'paytirish va shu kabilarga xohish paydo bo'ladi. Boshqacha aytganda, qasddan (yoki qasddan bo'lmagan holda) foydalanuvchini chalg'itish, u o'z manfaatlariga javob bera oluvchi iqtisodiy qarorni undan kelib chiqqan holda qabul qila olmaydigan axborotni taqdim etish xavfi yuzaga keladi. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda mulk huquqi qattiq qo'riqlanadi va mulkdorni himoya qilish uchun xalqaro amaliyot hisobga olishning korxonalariga ularning haqiqiy ahvolini bo'rttirib ko'rsatishlarini taqiqlaydi hamda korxonalarining buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanuvchilarga ularni to'liq talqin qilishlarida yordam beradigan qoidalarni ishlab chiqqan. Shunga muvofiq buxgalteriyaga oid axborot muayyan talablarga javob berishi (foydalanuvchi uchun tushunarli, ishonchli, ahamiyatli va turli davrlar uchun taqqoslanadigan bo'lishi) va ma'lum qoidalar asosida tuzilishi kerak.

Ushbu qoidalar turli mamlakatlarda turlicha nomlanadi, biroq ularning eng ko'p tarqalgan nomi – buxgalteriya hisobining umume'tirof etilgan tamoyillari (Generally Accepted Accounting Principles – GAAP) dir. Bizning respublikamizda ushbu qoidalar – buxgalteriya hisobi tamoyillari – Buxgalteriya hisobi milliy standartlarida (BHMS) aks ettirilgan.

Tahlil natijalarini umumlashtirish, ya'ni xulosalashtirish bosqichida o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlarga yakun yasaladi. Bu bosqichda qo'shimcha quyidagi ishlar ham amalga oshirilishi lozim:

- xo'jalik faoliyati natijalarining o'zgarish sabablarini aniqlash;
- ichki imkoniyatlarni aniqlash va jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash.

2.3. Xo'jalik faoliyatining tizimli tahlili

«Tizimli (sistemali) yondashish» amaliyotda iqtisodiy tahlildan keyinroq paydo bo'lgan.

Dastlab u tabiiy va texnik, so'ng ayrim iqtisodiy va ijtimoiy fanlarda ham qo'llanila boshlandi. Tizimli tahlil metodining nazariy asosini dialektika tashkil etadi. Dialektik materializm xo'jalik jarayonidagi o'zgarishlarni uzviy bog'liqlikda, rivojlanishda, dialektik bir butunlikda o'rganishni o'rgatadi.

Korxonaning tez va uzluksiz rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmi, moliyaviy va xo'jalik faoliyatining o'sishi, iqtisodiy aloqalar keskinlashuvi, keng miqyosda matematik usullar, zamonaviy kompyuter texnikalarining qo'llanilishi, boshqaruvning optimal tamoyillarini amalda qo'llash, iqtisodiy hodisalar har bir xo'jalik subyektini kompleks bir butun tizimli tarzda o'rganishni taqozo etadi.

Iqtisodiy tahlilda tizimli yondashish ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

– birinchidan, iqtisodiy tahlilning har bir obykti, ya'ni har bir xo'jalik subyektini bir butun tizim sifatida;

– ikkinchidan, xo'jalik subyektini faoliyatining iqtisodiy samaradorligi bir qancha ko'rsatkichlar tizimi, jumladan, tannarx ko'rsatkichlari tizimi, rentabellik ko'rsatkichlari tizimi, ish faollik ko'rsatkichlari tizimi, moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi orqali baholanadi.

Korxonaning ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati «xarajat-mahsulot» tizimidan iborat. «Xarajat-mahsulot» tizimi bir-biri bilan bog'liqlikdagi uch tizim bo'lakchalari:


- 1) resurslar;
- 2) ishlab chiqarish jarayoni;
- 3) tayyor mahsulotdan iborat

«Xarajat – mahsulot» tizimining kirim qismiga moddiy-buyum shaklidagi quyidagi resurslar kiradi: asosiy fondlar, oborot mablag'lari, mehnat resurslari.

Chiqim tizimiga esa tayyor mahsulot kiradi. Ishlab chiqarish jarayoni orqali resurslardan tayyor mahsulot hosil bo'ladi.

Tovar-pul munosabatlari sharoitida moddiy-buyum oqimlari qiymat ko'rinishiga ega, ishlab chiqarish resurslarining harakati tufayli moliyaviy resurslar oboroti hosil bo'ladi. Masalan, korxonaga xarid etgan xomashyo va materiallardan ishlab chiqarish jarayoni orqali tayyor

mahsulot hosil bo'ladi, uning realizatsiyasi tufayli debitorlik qarzar vujudga keladi va ma'lum vaqtdan so'ng debitorlik qarzar pulga aylanadi, ya'ni oborot aktivlari aylanmasi hosil bo'ladi.



2.3.1-chizma. Oborot aktivlari aylanmasi.

Demak, korxonada faoliyatining tahlil tizimi xarakterining asosiy sharti uning barcha tomonlari va elementlari bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda, faoliyati yagona maqsad sari yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Masalan, ishlab chiqarish sharoitini hisobga olmay, sotish hajmi tahlil etilmaydi; korxonaning moliyaviy holatini tahlil etmay, ishlab chiqarish samaradorligini jamlab bo'lmaydi.

2.4. Omillarni turkumlash va korxonada xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish rezervlari

Kompleks iqtisodiy tahlilning asosiy vazifasi, ta'kidlanganidek, natijaviy ko'rsatkichlarga omillar ta'sirini miqdoriy jihatdan hisoblashdan iborat.

Omillar o'zgaruvchan miqdor bo'lib, uning ta'sirida ishlab chiqarish, moliyaviy va xo'jalik jarayonlaridagi natijaviy ko'rsatkichlar o'zgarishi hisoblab topiladi. Xo'jalik faoliyati va uning natijaviy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar beqiyosdir. Ammo ularning barchasini hisoblash maqsadga muvofiq emas. Iqtisodiy tahlil jarayonida omillarning ayrim tomonlari, xususiyatlarini inobatga olib turkumlash va har birini alohida-alohida ta'riflash lozim.

Omillarni turkumlash shartlari:

1) omillar tarkibi nazariy jihatdan asoslangan va uni amalda qo'llash mumkinligi, o'rganilayotgan ko'rsatkichning o'zgarishini ifodalovchi eng muhim omillarni o'z ichiga olishi kerak;

2) omillar ta'siri takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun har bir omil o'rtasida qat'iy chegara o'rnatilishi lozim;

3) natijaviy ko'rsatkichlar o'zgarishining eng muhim tomonlari va ularga omillar ta'sirini hisoblash maqsadida turkumga kirgan omillar tizimga ega bo'lishi kerak.

Iqtisodiy adabiyotlarda omillar qator belgilari bo'yicha tasniflanadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin :

– ijobiy va salbiy omillar;

– korxonalar faoliyatiga bog'liq (ichki) omillar, bog'liq bo'lmagan (tashqi) omillar;

– ishlab chiqarishning intensiv va ekstensiv omillari;

– ishlab chiqarish va muomala jarayonlari omillari.

Resurslardan foydalanish jihati bo'yicha:

– mehnat omillari;

– mehnat qurollari va ulardan samarali foydalanish omillari;

– mehnat predmetlari va ulardan unumli foydalanish omillari.

Bulardan tashqari belgilari bo'yicha ham omillarni tasniflash mumkin. Bugungi kunga qadar xo'jalik subyektlarining natijaviy ko'rsatkichlari (sotishdan ko'rilgan foyda, soliq to'langunga qadar foyda, sof foyda, balans aktivining rentabelligi va boshqalar) ga omillar ta'sirining yagona tasnifi ishlab chiqilmagan. Bunday holat fond qaytimi, mehnat unumdorligi, oborot mablag'lar aylanishi kabi ko'rsatkichlarda ham uchraydi. Barcha omillar bir-biri bilan bog'liqlikka ega, ammo iqtisodiy tahlilning shartiga ko'ra ularni shartli ravishda guruhlariga ajratilib, har bir omilning ta'sir etish darajasi alohida aniqlanadi.

«Rezerv» fransuzcha «reserve» so'zidan olingan bo'lib, zaxira ma'nosini, lotincha «reserve» so'zi esa saqlash, ehtiyot qilish, oshirish ma'nolarini anglatadi. Demak, «rezerv» so'zi ikki xil ma'noda ishlatiladi.

*Birinchi*dan, ishlab chiqarishni uzluksiz davom ettirish uchun resurslar zaxirasi (xomashyo, materiallar, uskuna, yoqilg'i va h.k.) rezerv hisoblanadi.

*Ikkinchi*dan, «rezerv» so'zi ishlab chiqarish samaradorligini erishgan natijadan yanada oshirish imkoniyati sifatida ham ishlatiladi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mavjud rezervlardan foydalanish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Makon nuqtayi nazaridan rezervlar ichki xo'jalik, tarmoq, hudud, mamlakat bo'yicha rezervlarga bo'linadi.

Ichki xo'jalik rezervlari deb korxonada faoliyati natijalarini o'rganish orqali aniqlangan imkoniyatlar va ulardan foydalanishga aytiladi. Bunday rezervlarga ish vaqtdan to'liq foydalanmaslik sabablari va unumsiz xarajatlarni bartaraf etish tufayli erishiladi. Ular qatoriga ishni tashkil etish va ishlab chiqarish texnologiyalarining past darajada bo'lishi, xo'jasizlik va hokazolar tufayli ish vaqtining yo'qotilishi, moddiy resurslardan ortiqcha sarflarga yo'l qo'yilishlari kiradi.

Tarmoq bo'yicha rezervlarga tarmoq darajasida ishga solinmagan imkoniyatlar, masalan, yangi mashinalar tizimini yaratish, ilg'or texnologiya, mahsulot konstruksiyasini takomillashtirish, serhosil erdapishar urug'larni yaratishlar kiradi.

Hududlar bo'yicha rezervlarga geografik hudud bo'yicha aniqlangan va ishga solingan (mahalliy xomashyo va yoqilg'i, energiya resurslaridan foydalanish va h.k.) imkoniyatlar kiradi.

Mamlakat miqyosi bo'yicha rezervlar qatoriga ishlab chiqarish tarmoqlaridagi nomutanosib rivojlanishiga chek qo'yish, mulk shakli, milliy iqtisodiyotni boshqarish tizimidagi o'zgarishlar kiradi.

Mamlakat boshqaruv darajasidagi tadbirlarni amalga oshirgan taqdirdagina bunday rezervlardan amalda foydalanish mumkin.


Vaqt nuqtai jihatidan rezervlar *foydalanilmagan, joriy va istiqbol* guruhlariga bo'linadi.

Foydalanilmagan rezervlar korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari yo'qotilganligi, ular o'tgan davrga tegishli ekanligini ifodalaydi.

Joriy rezervlarga korxonaning xo'jalik faoliyati natijalari imkoniyatlarini o'rganilayotgan davr (oy, kvartal, yil) mobaynida yaxshilash tufayli erishiladi.

Istiqbol rezervlari uzoq muddatga mo'ljallanadi. Bunday rezervlardan foydalanish katta hajmdagi investitsiyalar, fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, ishlab chiqarishni qayta ko'rib chiqish, texnologiyani o'zgartirish, ixtisoslashtirish va h.k. ko'rsatkichlarga bog'liq.

Soliq to'langunga qadar foydaga omillar ta'sirini 2.4.1-chizma orqali ifodalaymiz:



2.4.1-chizma. Soliq to'langunga qadar foydaga ta'sir etuvchi omillar.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- ishlab chiqarish va xo'jalik jarayonlari;
- analitik ko'rsatkichlar;
- analitik ko'rsatkichlarni turkumlash;
- miqdor va sifat ko'rsatkichlari;
- mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar;
- iqtisodiy ko'rsatkichlarning shakllanishi;
- kompleks iqtisodiy tahlil bosqichlari;
- yuzaki va mazmun jihatdan tekshirish;
- tizimli tahlil;
- «xarajat-mahsulot» tizimining kirim va chiqim qismlari;
- omillarni belgilari bo'yicha turkumlash;
- ichki va tashqi omillar;
- ijobiy va salbiy omillar;
- «rezerv» so'zining ma'nosi.

Savol va topshiriqlar

1. Analitik ko'rsatkichlar deb nimaga aytiladi? Uning turkumlanishining asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Mutlaq va nisbiy, miqdor va sifat ko'rsatkichlari, ularni tahlilda qo'llash tartiblari nimalardan iborat?
3. Kompleks iqtisodiy tahlilni o'tkazish bosqichlarini ayting.
4. Xo'jalik faoliyatini tahlil etishning tizimini tushuntiring.
5. Omil deganda nimani tushunasiz?
6. Omillar belgilari bo'yicha qanday turkumlarga bo'linadi?
7. «Rezervlar» so'zining ma'nosini ayting.
8. Qanday belgilari bo'yicha rezervlar turkumlanadi?
9. Mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi omillarni chizma orqali ifodalang.
10. Tashqi omillar, ichki omillarni mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga bo'lgan ta'siriga misollar keltiring.
11. Quyidagi ma'lumotlar asosida:
 - mahsulot sotish hajmini aniqlang;
 - sotish hajmini biznes-rejaga nisbatan o'zgarish sabablari va unga ta'sir etuvchi omillarni hisoblang;
 - sotish hajmini oshirish rezervini aniqlang.

T №	Ko'rsatkichlar	Biznes-reja	Haqiqat-da	Farqi (+,-)	
				Mutlaq summada	%
1.	Tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'i	7450	7380		
2.	Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti	65800	67784		
3.	Tayyor mahsulotning yil oxiriga qoldig'i	8000	8600		
4.	Sotish hajmi	?	?		

Testlar

1. Korxonada faoliyati samaradorligini oshirish rezervlari va omillari quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlanadi:

- Natura va qiymat shakllarida;
- Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda;
- Intensiv va ekstensiv ko'rsatkichlarda;
- Qiymat, intensiv ko'rsatkichlarda.

2. Analitik ko'rsatkichlar qanday belgilariga ko'ra turkumlanadi?

- Mazmuni, ifodalanishi, foydalanish doirasi, mohiyati bo'yicha;
- Mazmuni, ifodalanishi, foydalanish doirasi va ishlatilish xususiyatlari bo'yicha;
- Mazmuni, shakli, ishlatilish xususiyati, foydalanish doirasi bo'yicha;
- Ifodalanish usuli, foydalanish doirasi, ishlatilish xususiyati, strukturasi bo'yicha.

3. Mutlaq ko'rsatkichlar qatoriga kiradi:

- Xo'jalik faoliyatini ifodalovchi hajm, struktura va sifat xususiyatlariga oid ko'rsatkichlar;
- Mehnat resurslari, mehnat vositalari va mehnat predmetlaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari;
- Mahsulot hajmi, strukturasi va dinamikasi;
- Mehnat unumdorligi, asosiy vositalar, mehnat predmetlaridan foydalanish natijalari.

4. Kompleks iqtisodiy tahlilni o'tkazish qanday bosqichlardan iborat?

- a) Tahlil o'tkazish obyekti bilan tanishuv, tahlil dasturini tuzish;
- b) Tahlil manbalarini yig'ish va ularning ishonchligini tekshirish;
- c) Tahlil manbalarini o'rganish, natijalarini rasmiylashtirish;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

5. Quyida keltirilgan ko'rsatkichlardan qay biri ekstensiv omil deb qaraladi?

- a) Oborot mablag'lar aylanishining tezlashishi;
- b) Likvidlik koeffitsiyentining ortishi;
- c) Ishlab chiqarish zaxiralar qoldig'ining ortishi;
- d) Mehnat unumdorlik darajasining o'sishi.

6. Quyidagi ko'rsatkichlarning qay biri intensiv omil hisoblanadi?

- a) Asosiy vositalar fond qaytimining ortishi;
- b) Moddiy qimmatliklardagi oborot mablag'lari koeffitsiyentining o'sishi;
- c) Balans aktivining ortishi;
- d) Pul mablag'larining ko'payishi.

7. Korxonaga faoliyatiga bog'liq ichki omillarni aniqlang.

- a) Ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish;
- b) Korxonaning tovarlar bozorida holati;
- c) Debitor va kreditorlar bilan aloqalari;
- d) Valuta mablag'lari kursining o'zgarishi.

8. Quyidagi ko'rsatkichlardan tashqi omillarni aniqlang.

- a) Ishlab chiqarish barqarorligi;
- b) Korxonaga ustav jamg'armasining hajmi;
- c) Soliq, narx-navo, moliya va bank sohasidagi siyosat;
- d) Debitor va kreditorlik qarzlari holati.

III bob. KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL TIZIMIDAGI MARKETING TAHLILI

3.1. Komleks marketing tahlilining maqsadi, vazifasi va uning axborot manbalari

Resurslardan samarali foydalanish va iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun korxonada bozordagi holatni chuqur tahlil etishi lozim. Shu maqsadda kompleks marketing tadqiqoti olib boriladi. Marketing orqali doimiy ravishda yangi xizmat turlari taklif etiladi, ular bozorining kengayishi tufayli korxonada yuqori darajadagi foydaga erishadi. Marketing orqali korxonada xo'jalik faoliyati tartibga solinadi. Shu tufayli korxonaning ishlab chiqarish faoliyati natijasining tahlili marketing faoliyatini tahlil etishdan boshlanmog'i lozim.

Komleks marketing tahlili marketing tadqiqoti tizimining asosiy qismi bo'lib, manbalarni yig'ish, ularni ro'yxatga olish, bozordagi tovarlar, ish va xizmatlarga tegishli ma'lumotlarga ishlov berish orqali samarali marketing xulosalari qilinadi.

Marketing tadqiqoti jarayonidagi kompleks iqtisodiy tahlil obyekti sifatida, bizningcha, **birinchidan**, real bozor jarayoni iste'molchilar va raqobatchilar bilan birgalikda, **ikkinchidan**, mahsulot turlarini ishlab chiqarishdagi korxonaning aniq iqtisodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlari hisobga olinishi kerak.

Har ikki bir-biri bilan bog'liq obyektlarni chuqur o'rganish orqali bozordagi holat va korxonada imkoniyatlari hisobga olingan holda optimal variantdagi assortiment dasturi yaratiladi. Bu dasturni amalga oshirish orqali korxonada mahsulotini raqobatbardoshligi, barqarorligi ta'minlanadi. Komleks marketing tahlilining asosiy vazifalari:

– korxonada xizmatiga bo'lgan talab va ehtiyojni baholash, tahlil etish, ishlab chiqarish dasturi real asosga ega ekanligiga ishonch hosil qilish;

– mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talablarga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil etish;


– talab etilmagan xizmat turlarini aniqlash;

– baho siyosati va assortiment turlarini tahlil etish;

– mahsulotning raqobatbardoshligini baholash va tahlil etish;

– marketing faoliyatining taktika va strategiyasini ishlab chiqish.

Kompleks marketing tahlilining axborot tizimi ichki manba, tashqi manba, marketing tadqiqotlaridan iborat. Tahlil etish jarayonida bu bo‘limlarning har biri mustaqil axborot tizimi sifatida ishtirok etadi. Ichki axborot manbalari tarkibiga korxonaning buxgalteriya va statistika hisobotlarining tezkor va joriy ishlab chiqarish va ilmiy-texnik manbalari kiradi. Tashqi manbalar tizimiga korxonaning tashqi faoliyati, bozor va uning infratuzilmasi, xaridor va mol yetkazib beruvchilar holati, raqobatchilar harakati, bozor mexanizmini tartibga solish bo‘yicha davlat tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar va boshqalar kiradi. Bu manbalar vaqtli va maxsus nashr, statistik to‘plam, tijorat tashkilotlari olib borgan izlanishlarga oid sharhlarda aks etadi. Bunday manbalar qatorini tashkil etilgan ko‘rgazma va anjuman manbalari, ishbilarmonlar uchrashuvi va ularning olib borgan muzokaralar bo‘yicha tuzilgan bayonnomalari yanada to‘ldiradi. Tahlilning axborot manbalari sifatida korxonaning biznes rejasi (marketing rejasi) dan ham foydalaniladi.



3.1.1-chizma. Korxonaning kompleks marketing tahlilining tizimi.

3.2. Marketing tizimidagi tahlil turlari va ularning asosiy usullari

Marketing tadqiqotida tahlilning turli metod va usullaridan foydalaniladi. Marketing faoliyati tahlilida qo'llaniladigan metodlardan ayrimlari quyidagilardan iborat:

1. *An'anaviy usullar:*

- o analitik ko'rsatkichlar tizimi;
- o omilli modellashtirish;
- o taqqoslash, guruhlashtirish va boshqalar.

2. *Iqtisodiy matematik usullar* tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasida tasodifiy stoxastik bog'lanish bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Marketing tadqiqotlarini olib borishda eng ko'p qo'llaniladiganlari quyidagilardan iborat:

– *keng o'lchovli metod* (birinchi gald klaster tahlili) marketing xulosalarining asosga ega ekanligi bilan bog'liq muammolarni yechishda qo'llaniladi. Masalan, sotish hajmiga bir-biri bilan bog'liq bir qancha omillardan eng muhimlari baho, raqobatdoshlik, reklama xarajatlari va hokazolarning ta'sir etish darajasi aniqlanadi;

– *regressiv va korrelatsiya metodlari* o'zgaruvchan guruhdagi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik qanchalik jips ekanligini aniqlashda keng qo'llaniladi;

– *statistik metod* – ommaviy, takrorlanib turadigan hodisalar va bozor holatini kuzatishda foydalaniladi;

– *qaror chiqarish nazariya metodi* – marketing faoliyatida bunday nazariyalar bozordagi holat o'zgarishiga iste'molchilarning munosabatini aniqlashda ishlatiladi. Boshqaruv faoliyatining samaradorligi ko'pincha qabul qilinayotgan qarorlarga bog'liq. Korxonadagi muammolar va ularning aniq yechimi boshqaruvchiga yuklangan, ishlab chiqarish, texnikaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, marketing va huquqiy vazifalar qarorlarni to'g'ri qabul qilish va o'z vaqtida bajarilishiga bog'liq.

– *variatsion tahlil* marketing faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar analitik yo'l bilan bajariladigan ishlarga aloqasi yo'q bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

– *chiziqli va chiziqsiz programmashtirish* xo'jalik jarayonlarini funktsiya va cheklanishlarda qatorli tarzda programmashtirish va ularni boshqarish bo'yicha muqobil qatorlardan eng optimal variantini aniqlashda qo'llaniladi.

3. *Evristik metod* – shakllanmagan metod bo‘lib, bozor jarayoni mutaxassislarining tajribasi, sezish qobiliyatlari orqali marketing bilan bog‘liq masalalar yechimi topiladi.

– *Delfa metodi*. Bu metod diqqatga sazovor va samarali hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, ekspert so‘rovlari bir necha bosqichda olib boriladi, so‘rov natijasiga ko‘ra bildirilgan g‘oyalar anonim xususiyatiga ega, ekspertlarning bir-biri bilan muloqotda bo‘lishi cheklangan.

– *jamoa g‘oyasining paydo bo‘lishi metodi* («miyaga hujum» metodi). Bu metod ekspertlarning ijodiy jarayonda faol qatnashuviga asoslangan;

– *xavf nazariyasi* – tuzumning nobarqarorligini o‘rganuvchi va bashoratlovchi xavfning yuzaga kelish belgilarini aniqlash maqsadidagi analitik dastur.

4. *Matritsa usuli* – yakuniy ifoda va natijaviy ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi omillarni juftlik, birlik va ko‘plik koeffitsiyentlarda aniqlash. Ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat:

– *SWOT analiz (tahlil)* – korxonaning kuchli(S) va bo‘sh bo‘g‘inlari(W)ni aniqlaydigan, shuningdek, bozor imkoniyatlari(O) va holatlari(T)ni o‘rganadi. Bunday tahlil natijasiga ko‘ra korxonada va uning mahsulot turlarini raqobatbardoshligi baholanadi, bozor strategiyasi shakllanadi. Marketing faoliyatini tahlili ikki guruhga bo‘lib o‘rganiladi;

– *Strategik tahlil* marketing tizimida korxonaning uzoq muddatga mo‘ljallangan bozorni prognozlashdagi pozitsiyasidir;

– *Tezkor (taktik) tahlil* – korxonaning bozor jarayonini hisobga olgan holda joriy imkoniyatlarini faol o‘rganish, ya’ni qisqa muddatdagi tutgan yo‘lidir. Tezkor tahlil ma’lumotlari asosida bozor talabiga mos keladigan, yuqori foyda keltiradigan, pul mablag‘larini tushumini muntazam ta’minlay oladigan puxta assortiment dasturini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo‘yicha optimal dasturning shakllanishi bo‘yicha variantlarni ishlab chiqadi.

3.3. Tovarning bozordagi holatini baholash va uning tahlili. Talabning o‘zgaruvchanligi

Marketing – insonning ayirboshlash vositasida talab va ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyatidir. Marketing tarkibiga bozorni o‘rganish, iste’molchi buyurtmasiga ko‘ra mahsulotlar assortimentini

rejalashtirish, bozorni egallash, reklama, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati kiradi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonani boshqarish marketingni ishlab chiqarishning asosi qilib qo'yadi, chunki xo'jalik qarorlarini qabul qilish asosida ishlab chiqarish imkoniyatlari emas, balki bozor talablari, xaridor ehtiyojlari yotadi. Pirovard natijada korxonaning ko'lamini, korxonani tashkiliy boshqarish tarkibi, boshqaruv tamoyil va usullari, xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini bozor belgilaydi. Bozor talab va taklifdan iborat.

Talab – bu, eng avvalo, biron-bir ne'matlar yoki xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni bozorda namoyon bo'lishi va ularni pul vositasida ta'minlanishidir.

Taklif – bu muayyan paytda bozorda bo'lgan yoki unga yetkazib berilishi mumkin bo'lgan tovarlar massasi sifatida belgilanadi.

Talab, avvalo, resurslarga va iste'mol tovarlari, tovarlashgan xizmatlarga bo'lgan talab sifatida yuzaga keladi, birinchisi ishlab chiqarish iste'molini, ikkinchisi esa shaxsiy iste'molni qondirishga qaratilgan.

Kishilik jamiyati rivojlanar ekan, fan va texnika taraqqiyoti ildam qadamlar bilan yangilanayotgan sharoitda insoniyatning tovar va moddiy qimmatliklarga bo'lgan ehtiyoji-talabi uzluksiz o'zgarib, ortib boradi.

Talab o'zgarishi (elastikligi) mavjud bo'lib, bu :

- baho o'zgarishi va holati;
- xaridorlar soni va ularning didi, istagi;
- iste'molchilarning xarid etish imkoniyati;
- inflatsiya ehtimoli va boshqalar.

Yuqoridagi talabni belgilovchi omillardan tovar bahosi va iste'molchilarning xarid etish imkoniyati muhim o'rin tutadi. Taklif, bozor tovar bilan to'la ta'minlangandan keyin o'zgarimasdan bir me'yorda bo'lishi ham mumkin, bunda baho oshib borishi bilan bozorga chiqariladigan tovar ko'payishining zarurati bo'lmay qoladi. Shunda ishlab chiqarish hajmi ham o'zgarмай, taklif ham bahoga bog'liq bo'lmagan holda barqarorlashishi mumkin.

Taklifning o'zgaruvchanligi, umuman talab o'zgaruvchanligiga o'xshab, tovar bahosining o'zgarishi, taklifning o'zgarish darajasini aniqlash uchun taklif o'zgaruvchanligi ko'rsatkichi (K) qo'llaniladi. Unga ko'ra,

$$K = \frac{\text{Taklif etilgan tovar miqdori o'zgarishi (\%)}}{\text{Baholarning o'zgarishi (\%)}}$$

Agar, $K > 1$ bo'lsa, taklif o'zgaruvchan;
 $K = 1$ bo'lsa, o'zgarmas;
 $K < 1$ bo'lsa mutlaq o'zgarmas bo'ladi.

Sotish hajmi, o'rtacha baho darajasi, sotishdan keladigan tushum va undan ko'riladigan foyda ichki va tashqi bozorga bog'liq.

Mahsulotning bozorda sotilishi tahlili

3.3.1-jadval

Ko'rsatkichlar	Ichki bozor			Tashqi bozor		
	2009	2010	2011	2009	2010	2011
	«A» mahsuloti					
Sotish hajmi, ming t.	260	320	328	50	49	42
1 t. mahsulot tannarxi, ming so'm	5,5	5,8	6,1	5,7	6,0	6,5
1 t. mahsulot bahosi, ming so'm	7,0	7,3	7,5	7,8	7,9	8,0
Mahsulot rentabelligi, %	27,3	25,9	22,9	36,8	31,7	23,0
Sotishdan ko'rilgan foyda, mln. so'm	390	480	459	105	93	63
	«B» mahsuloti					
Sotish hajmi, ming t.	75	143	287	400	350	309
1 t. mahsulot tannarxi, ming so'm	4,3	4,5	4,9	4,4	4,6	5,0
1 t. mahsulot bahosi, ming so'm	5,4	5,7	5,9	6,0	5,9	5,9
Mahsulot rentabelligi, %	25,6	26,7	20,4	36,4	28,3	18,0
Sotishdan ko'rilgan foyda, mln. so'm	82	172	287	640	455	278
	«V» mahsuloti					
Sotish hajmi, ming t.	386	392	400	380	385	406
1 t. mahsulot tannarxi, ming so'm	4,4	4,4	4,5	4,4	4,4	4,5
1 t. mahsulot bahosi, ming so'm	4,5	4,6	4,7	4,7	4,7	4,8
Mahsulot rentabelligi, %	2,3	4,5	4,4	6,8	6,8	6,7
Sotishdan ko'rilgan foyda, mln. so'm	39	78	80	114	115	122

3.3.1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, «A» hamda «B» mahsulotlariga talab ichki bozorda keyingi ikki yil ichida ortgan. Bu mahsulotlariga bo'lgan talab tashqi bozorda qisqargan, rentabellik darajalari pasaygan. «V» mahsulotga talab o'zgarmagan 2010–2011-yillarda eksport mahsulot daromadlilikiga ichki bozordagiga nisbatan yuqori bo'lgan.

«B» turdagi mahsulotning tashqi bozordagi narxining pasayishi, tannarxining ortishi tufayli rentabellik darajasi 2009 yildagi 36,4 foizdan 2011-yilga kelib 18 foizga qadar pasaygan. Shu davr ichida «A» mahsulotning rentabelligi 36,8 foizdan 23 foizga qadar tushib ketgan. Bunga asosiy sabab eksport qilingan mahsulot tannarxining keskin ortishidir.

Mahsulotning bozor (ichki, tashqi) da egallagan ulushi, daromad darajasiga qarab to'rt kategoriyaga bo'lish mumkin :

- «yulduz» kategoriyali tovarlar – korxonada foydasining asosini tashkil etadigan hamda iqtisodiy o'sishga olib keladigan;

- «sog'in sigirlar» kategoriyali tovarlar – og'ir iqtisodiy davrlarning vujudga kelishining oldini oladigan, investitsiyaga muhtoj bo'lmagan, foyda keltirayotgan, boshqa kategoriyali mahsulotlar ishlab chiqarishni moliyalashtirishga ishlatiladigan;

- «og'ir bola» kategoriyali tovarlar – bu yangi turdagi tovarlar bo'lib, reklamaga muhtoj bo'lgan, bozorga olib chiqilishi kerak bo'lgan, vaqtinchalik foyda keltirmayotgan, ammo kelajakda «yulduz» tovar bo'lishi mumkin bo'lgan;

- «o'lik yuk» yoki «omadsiz» kategoriyali tovarlar – bugungi kun talabiga javob bermaydigan, iqtisodiy o'sishga imkon bermaydigan, foyda keltirmaydigan.

Korxonada mahsulotini guruhlarga ajratib o'rganish orqali to'g'ri, aniq strategiya ishlab chiqiladi. Strategiyani amalga oshirish orqali «og'ir bola» kategoriyasiga mansub tovarlarni moliyalashtirish orqali ularni «sog'in sigirlar», «yulduz» kategoriyalariga yetkazish yo'llari belgilanadi.

3.4. Tovar va korxonaning baho siyosati tahlili

«Mahsulot» deb bozorga taklif etilgan sotiladigan, ishlatiladigan yoki ehtiyojni qondiradigan barcha narsalarga aytiladi. Mahsulotga baho belgilanib bozorga chiqarilishi bilan tovarga aylanadi. Demak, tovar marketing faoliyatining yuragi hisoblanadi. Mahsulot (tovar) ning

kompleks tahlili marketing tadqiqotining ajralmas elementidir. Bu korxonaning raqobat ustunligini baholashda bosh element hisoblanadi. Korxonani tovar siyosati kompleks tahlilining maqsadi talabning to'lovga qodirligi, mahsulot assortimenti va nomenklaturasini shakllanishi tufayli rejalashtirilgan sotish hajmini maqsadga muvofiq yo'nalishi samaradorligini aniqlash tashkil etadi. Marketing tahlili jarayonida optimal assortimentdagi mahsulotni sotish siyosatining shakllanishi ko'p jihatdan korxonaning baho siyosatiga bog'liq. Tahlil jarayonida bahoni tashkil etish mexanizmi, talab va takliflarni o'rganish asosida (maksimal foyda, bozor kengayishi, sotish hajmining ortishi va h.k.) bahoning yuqori va pastki chegaralari belgilanadi.

Marketing tahlilining asosiy usullaridan biri – korxonada mahsulotning bahosi, kuchli raqobatdagi korxonada hamda o'rtacha bozor baholarining qiyosiy tahlilidir.

Mahsulot baholari darajasining qiyosiy tahlili

3.4.1-jadval

Mahsulot turi	Tahlil etilayotgan korxonada		Kuchli raqobatdagi korxonada						O'rtacha tortilgan baho
	baho, ming so'm	Miq-dori, dona	1		2		3		
			baho, ming so'm	Miq-dori, dona	baho, ming so'm	Miq-dori, dona	baho, ming so'm	Miq-dori, dona	
A	10	5000	12	2400	15	2000	9	2100	11,10
B	20	1298	21	800	21	780	23	750	21,05
V	5	4810	4	4010	7	2500	6	3180	5,28
G	30	896	29	600	29	570	30	530	29,55

3.4.1-jadval ma'lumotlari asosida korxonaning baho siyosati imkoniyatidan kelib chiqqan holda sotishga mo'ljallangan mahsulotning bahosi to'g'risida dastlabki xulosalar:

a) mahsulot bozoridan raqobatchilarni siqib chiqarish («A» mahsuloti bo'yicha);


b) maksimal foyda olishga erishish («G» mahsulot bo'yicha);

d) yetarli darajadagi foyda normasi saqlangan holda bozorda turg'un holatga erishish («B» va «V» mahsulotlari bo'yicha).

3.5. Korxonani mahsuloti raqobatdoshligining tahlili

Iqtisodiyotda raqobat turli funksional strukturalar o'rtasida yagona maqsad sari raqobatlashuv tushuniladi. Kompleks raqobat tahlili ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- 1) korxonaning raqobatda tutgan o'rnining tahlili;
- 2) korxonani raqobatbardoshligining tahlili.



3.5.1-chizma. Korxonani kompleks raqobat tahlilining tizimi.

Kompleks marketing tahlilining asosiy yo'nalishida korxonaning raqobatda tutgan o'rnini muhim ahamiyatga ega. Korxonaning raqobatdoshligi deganda qisqa muddatdagi kapital mablag' sarfi evaziga rejadagiga nisbatan kam bo'lmagan miqdordagi foydaga erishish tushuniladi. Korxonani raqobatdoshligini ta'minlash uchun raqobat qilish qobiliyatini oshirish, raqobatdoshlik strategiyasini rivojlantirish lozim. Bu ko'rsatkichlar korxonaning bozordagi faoliyatini samarali yuritish, bozordagi ulushini saqlash yoki uni oshirish, kelgusida yetarli darajadagi rentabellikka, moliyaviy barqarorlikka erishish kabi ko'rsatkichlar yig'indisidan iborat. Bunday holatga erishish uchun tovar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi talab etiladi.

- o texnik parametrlar (tovar xususiyati, uning qo'llanishi va tavsiya etilishi);
- o estetik parametrlar (tovarlarning tashqi ko'rinishi);
- o ergonomik parametrlar (tovarning inson organizmiga zararsizligi);

o me'yoriy parametrlar (tovarning amaldagi me'yorlarga va standartlarga mos kelishi);

o iqtisodiy parametrlar (tovar bahosi, ko'rsatiladigan servis xizmati).

Xaridorlarning xatti-harakatidan shuni anglash mumkinki, tovarlarni taqqoslashda, uning ishlatish samaradorligi (S), sotib olish xarajatlari (X)ga nisbatan yuqori bo'lsa, shu mahsulotni xarid etadilar. Tovar raqobatdoshligi (R) quyidagicha aniqlanadi:

$$R = \frac{S}{X}$$

Tovar raqobatdoshligini baholash bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O'rinbosar tovarlarni topish va uni tahlil qilish;

2. O'xshash mahsulotlarning solishtirilishi orqali asosiy ko'rsatkichlarini belgilash;

3. O'z mahsulotimizdagi integral (umumiy) raqobatdoshlik ko'rsatkichlarini aniqlash;

Jahon bozori amaliyotida raqobatning quyidagi shartlari mavjud:

o kuchlar teng va strategiyalar o'xshash bo'lsa, bozorda muvozanat uzoq saqlanmaydi, ular orasida kelishmovchiliklar susaymaydi;

o sizning raqibingiz hamma narsadan xabardor deb biling;

o raqibingizning g'ashini keltiruvchi harakatlar qilmang;

o sizning harakatingiz imkon darajasida ekanligiga raqibingizni ishontiring. Raqobat ko'rsatkichlari korxonaning bozorda tutgan ulushiga ko'p jihatdan bog'liq:

a) ilg'or – 40%;

b) ilg'orga da'vogar – 30%;

d) davomchilari – 20%;

e) bozorda uncha omadi kelmagan – 10%.

Mahsulotning raqobatlashuv qobiliyatini pasayish sabablarini korxonaning (muhandislari, iqtisodchi, master, texnik nazorat, moddiy-texnik ta'minoti, sotish bo'limlari) xodimlari sinchiklab o'rganadilar:

o mahsulot konstruksiyasi (modeli, tuzilishi);

o tayyorlov texnologiyasini;


o materiallar va butlovchi buyumlarning sifati va bahosi;

o korxonada ishlab chiqarishining holati va boshqalar.

Mahsulot turlari parametrlarining o'zgarish sabablarini kompleks tahlilida etalon sifatida qabul qilingan o'rtacha bozor yoki tarmoq parametrlari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Har bir detal, material, butlovchi buyum, texnologik jarayonlar bo'yicha tafovutlar mutaxassislar tomonidan alohida-alohida aniqlanadi va jamlanadi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli mahsulot raqobatbardoshligining pasayishini bartaraf etish tadbirlari quyidagi mazmunga ega:

- o o'zgartirish kiritiladigan va modernizatsiya qilinadigan mahsulot nomi;
- o mahsulot ishlab chiqarishdagi kamchiliklarni yo'qotish bo'yicha bajariladigan ish turlari;
- o kamchiliklarni yo'qotish bilan bog'liq ish turlarining muddati, unga javobgar shaxslarning ismi, sharifi;
- o zarur material, asbob-uskunalar ro'yxati va miqdori;
- o bajarilgan ish turlari va moddiy resurslarning summasi;
- o ishni tugatish muddati;
- o kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan ishlar samaradorligiga oid ma'lumotlar.

Mahsulot raqobatdoshligi ko'p jihatdan sifat ko'rsatkichlariga bog'liq. Sifat zanjiri sifatning uch xil tushunchasini aks ettiradi.



3.5.2-chizma. Sifat zanjiri.

Birinchi bosqichda mahsulot, xizmatlar sifati texnik shartlarga mos bo'lishi kerak. Ikkinchi bosqichda konstruksiya, instruksiya sifati baholanadi, ya'ni sifat firma texnik shartlariga javob berishi, ammo konstruksiya yuqori yoki past sifatli bo'lishi mumkin. Uchinchi bosqichda sifat iste'molchi talabiga muvofiq darajada bo'ladi. Sifatning bu jihati uning *funksional jihati* deb ataladi.

3.6. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi dinamikasining tahlili

Korxonada faoliyatining tahlili mahsulot ishlab chiqarish (ish, xizmat) va uni sotish tahlilidan boshlanadi. Chunki ishlab chiqarish va sotish hajmlari faoliyat yuritishning asosiy ko'rsatkichlaridir. Ishlab chiqarilgan va sotiladigan mahsulotning hajmi, assortiment, sifatiga xarajat, foyda va rentabellik ko'rsatkichlariga bog'liq. Tahlil natijalari asosida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi, jumladan:

- mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab shakllanadi;
- ishlab chiqarish quvvatidan kelib chiqqan holda aniq hajmdagi mahsulot miqdori belgilanadi;
- ishlab chiqarish xarajatlarning smetasi tuziladi;
- moddiy-texnik resurslarni yetkazib berish, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejalari shakllanadi;
- mehnat resurslariga talab baholanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlari korxonada tomonidan bozor konyunkturasini chuqur tahlil etgan holda mustaqil ravishda rejalashtiriladi.

Mamlakatimizda oqilona va samarali iqtisodiy siyosatning ishlab chiqilishi va hayotga izchil ravishda tatbiq etilishi, barqaror rivojlanishning asosiy manba, omillarining to'g'ri tanlanishi va ularga ustuvor ahamiyat berilishi keyingi yillarda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlanishiga imkoniyat yaratmoqda.


Iqtisodiyot rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
(foizda)

3.6.1-jadval

Ko'rsatkichlar	Yillar								
	2000	2003	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
YaIM (ishlab chiqilgan)	103,8	104,2	107,0	107,3	109,5	109	108,1	108,5	108,3
Sanoat ishlab chiqarishi	105,9	106,2	107,3	110,8	112,1	112,7	109,0	108,3	106,3
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi	103,1	107,3	106,2	106,2	106,1	104,5	105,7	106,8	106,6

Davlat budjetining bajarilishi darajasi (YaIM ga nisbatan %)	-1,0	-0,4	0,1	0,5	1,1	1,5	-	0,3	0,4
Inflatsiya darajasi	28,2	26,7	13,5	6,8	6,8	7,8	7,4	7,3	Prognoz daraja

Yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirishni belgilab beradigan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish evaziga ta'minlanmoqda.



3.6.1-chizma. *Ishlab chiqarish va mahsulot sotish tahlilining natijalari va uni kompleks baholash tizimi.*

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini o'lchov birliklari quyidagilardan iborat:

- qiymat (ulgurji baho);
- natura (dona, metr, tonna va h.k.);
- shartli-natura (tonna-kilometr, shartli yoqilg'i-tonna va h.k.);
- mehnat (mehnat sarfi, norma-soatda).

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining kompleks tahlili ikki yo'nalishda olib boriladi:

- a) mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishini baholash;
- b) bir necha yillar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish dinamikasining tahlili.

Hisobot davridagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini reja ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali rejaning bajarilishi, rejadan farqlanishi (mutlaq summada), o'tgan yil bilan taqqoslash orqali esa mahsulot hajmining o'sish sur'ati aniqlanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish dinamikasining quyidagi ko'rsatkichlari aniqlanmog'i lozim:

– hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini o'tgan yildagisi bilan taqqoslash orqali o'zgarish tezligining o'sishi mutlaq summada quyidagicha aniqlanadi.

$$\Delta N = N_1^T - N_0^T \quad (\text{bunda: } T - \text{tovar mahsuloti})$$

– o'rganilayotgan davr bo'yicha mahsulotning umumiy o'sish sur'ati:

$$\Delta N^T = \sum_{i=1}^n \Delta N_i^T$$

Bunda, n – mahsulot hajmi dinamikasining davrlari (yillar);

– mahsulotning umumiy o'sish ko'rsatkichini o'rganilayotgan davrlar soniga bo'lish orqali mutlaq o'rtacha yillik o'sish aniqlanadi.

$$\Delta N_{o'y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \Delta N_i^T$$

– mahsulot hajmining o'sishi (KN) (indeks dinamikasi) va o'sish sur'at (ΔK_N) (zanjirli indeks)lari o'rganilayotgan davrlardagi ishlab chiqarish hajmining intensivligini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$K_N = \frac{N_1}{N_0}; \quad K_N = \frac{N_1}{N_0} - 1$$

Kompleks iqtisodiy tahlilga oid ayrim manbalarda mahsulot hajmining o'sishi mahsulot hajmining indeksi deb ham ataladi. Bu ko'rsatkich korxonaning rivojlanish dinamikasini ifodalaydi. Tadqiqotchi faqat tashqi moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida (shakl №2) – quyidagi ikki indeks – sotishdan kelgan tushum va sotilgan mahsulot tannaxlari bo'yicha dinamikasini aniqlashi mumkin.

Mahsulot hajmining o'rtacha yillik o'sishi ($K_{N_0 \cdot y}$) va o'sish sur'atlari o'rtacha geometrik formula asosida quyidagicha aniqlanadi.

$$K_{N_0 \cdot y} = \sqrt[n]{N_1 / N_0} \quad K_{N_0 \cdot y} = \sqrt[n]{\frac{N_1}{N_0} - 1}$$

Bunda: N_1 , N_0 – hisobot va bazis davrlaridagi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Sotish hajmining o'rtaga yillik o'sishi (o'sish sur'ati) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_n = \sqrt[n]{K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 \cdot \dots \cdot K_n}$$

Bunda: K_1 , K_2 , K_3 ... K_n – o'sish sur'ati; n – o'rganilayotgan davr, yillar soni.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarining kompleks tahlili yig'ma ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Bazisli o'sish sur'ati tahlil etilayotgan davrning birinchi yiliga nisbatan, zanjirli o'sish sur'ati esa oldingi yillarga nisbatan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi hisobotlarda amaldagi bahoda ifodalanadi. Tahlil etish uchun ishlab chiqarish va sotish hajmlari taqqoslanadigan holatga keltiriladi, so'ngra o'sish sur'atlari aniqlanadi.

$$215000:(1,0 \cdot 1,30)=165384$$

$$220000:(1,30 \cdot 1,35)=125356$$

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasining tahlili

3.6.2-jadval

Yillar	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi joriy yil bahosida, ming so'm	Baho indeksi	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi bazis davri bahosida, ming so'm	O'sish sur'ati, %		Mahsulot sotish hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, %	
				bazisli	zanjirli		bazisli	zanjirli
XXX1	200000	1,0	200000	100	100	210700	100	100
XXX2	215000	1,30	165384	82,7	82,7	168300	79,9	79,9
XXX3	220000	1,35	125356	62,6	75,8	170500	81,0	101,3
XXX4	339150	1,20	209352	104,6	167,0	250000	118,7	146,7
XXX5	336006	1,10	254550	127,3	127,6	280380	133,1	112,2

O'rganilayotgan davr mobaynida mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmlari dastlabki ikki yil ichida pasayishi kuzatilgan, keyingi yillarda o'sish ro'y bergan.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi to'rt yilda tayyor mahsulot qoldiqlarining o'zgarishi hisobiga 27,3 foizga, uni sotish hajmi esa 33,1 foizga ortgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7,4 foizni tashkil etgan.

$$K_N = \sqrt[4]{K_1 * K_2 * K_3 * K_4 * K_5} = \sqrt[4]{1,0 * 0,827 * 0,758 * 1,670 * 1,276} = \sqrt[4]{1,335} = 1,074 = 107,4\%; 107,4 - 100 = 7,4\%$$

Mahsulotlarni sotish majburiyatlarining bajarilishi korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy natijalariga katta ta'sir etadi. Yaqin o'tmishda – rejali iqtisodiyot davrida ham shartnomalar tizimidan foydalanilgan. Ammo yakka mulkchilik, ya'ni davlat mulkchiligining tanho huquqi hukmronlik qilgan zamonda shartnomalar reja va topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan bir vosita hisoblangan.

Bugungi kunda shartnoma rejali ishlab chiqarish va taqsimlash omillariga asoslanmaydi. Bil'aks, bozor qonuniyatlari talabiga binoan. shartnomaviy munosabatlar tovar-pul, ya'ni teng to'lovlar tarzida amalga oshirilib, shartnoma ularga huquqiy shakl o'rnida xizmat qiladi. Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, xo'jalik ishlarini yuritish qonunlari majmuasi, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar to'g'risidagi qonunlar, boshqa me'yoriy hujjatlar shartnoma munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy manbalar hisoblanadi.

Shartnoma ijrosi jarayoni, bozor iqtisodiyoti qonuniyatiga ko'ra moddiy ijrodan, ya'ni o'zaro majburiyatlarning bajarilishidan, ijroning hujjatli asosda tasdiqlanishidan iborat. Shartnoma bajarilmasligi korxonaga katta iqtisodiy zarar keltiribgina qolmay, uning istiqbolini xavf ostiga qo'yadi, moliyaviy inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi. Mahsulotni yetkazib berish shartnomasining bajarilishi (foizda) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$K_n = \frac{(N^0 - N_H) * 100\%}{N^0}$$

Bunda, K_n – shartnoma majburiyatining bajarilishi, %;

N^0 – shartnoma tuzish uchun mo'ljallangan mahsulot hajmi;

N_H – yetkazib berilmagan mahsulot.

Mahsulot yetkazib berish shartnomasining bajarilishi
(ming so‘mda)

3.6.3-jadval

Oylar	Shartnoma tuzish uchun mo‘ljallangan mahsulot hajmi	Yetkazib berilmagan mahsulot	Mahsulotni yetkazib berish shartnomasining bajarilishi, %
Yanvar	43800	4500	89,8
Fevral	45400	4150	90,9
Mart	47000	-	100,0
Jami I kvartal	136200	8650	93,7

Hisobot davrining birinchi kvartalida mahsulotni yetkazib berish shartnomasi 93,7 foizga bajarilgan, xolos.

3.7. Mahsulot assortimenti va strukturasi tahlili

Mahsulot nomenklaturasi – natural holdagi mahsulot guruhlari, kichik guruhlari va pozitsiyalarini rejalashtirishda va hisobga olishda qabul qilingan ro‘yxat.

Mahsulotning ayrim turlarini detallashtirish (yoki umumlashtirish) darajasiga qarab mahsulot nomenklaturasi keng (tafsilotli), guruh (yiriklashtirilgan) va yig‘ma-reja nomenklaturalariga bo‘linadi. Keng mahsulot nomenklaturasi tipi, markasi, hajmi, artikuli, naviga qarab mahsulot turlarining mufassal ro‘yxatidir.

Guruh mahsulot nomenklaturasi keng nomenklaturaning ayrim pozitsiyalari yagona nom ostida bir xildagi guruhlarga birlashtiriladigan mahsulot ro‘yxatidir.

Mahsulot assortimenti – tiplar, turlar, navlar, razmerlar, markalar, artikullar va h.k. qarab ajratiladigan mahsulot tarkibidir.

Bozor konyunkturasidan kelib chiqqan holda assortimentni yangi mahsulot turlari bilan doimo kengaytirib turish, korxonani raqobat ustunligini ifodalovchi ishonchli vosita hisoblanadi.

Assortiment shakllanishining tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– iste‘molchilarning joriy va istiqboldagi mahsulotga bo‘lgan talabini aniqlash;

– ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatdoshlik darajasini baholash;

– mahsulotning bozordagi hayot siklini o'rganish, assortimentini yangilash, yangi istiqbolli mahsulot turlarini ishlab chiqarish;

– ma'naviy eskirgan va iqtisodiy samara bermaydigan mahsulot turlari ishlab chiqarilishini to'xtatish.

Mahsulot assortimentini kompleks tahlil etishning bir necha usullari mavjud. Ulardan amaliyotda keng tarqalgani – eng kichik usul hisoblanadi.

Eng kichik usul orqali assortiment rejasining bajarilishi har bir mahsulot turining reja va haqiqiy ko'rsatkichlaridan eng kichigi olinib, ularning yig'indisi reja bo'yicha jami mahsulot hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$K_{as} = \frac{N_{as}}{N_p}$$

Bunda, K_{as} – mahsulot assortimentining bajarilishi koeffitsiyentda;

N_{as} – assortimentga qabul qilingan mahsulot;

N_p – jami rejadagi mahsulot qiymati.

Mahsulot strukturasi – ayrim mahsulot turlarining jami ishlab chiqarishda tutgan ulushidir.

Mahsulot material sig'imli, mehnat sig'imli va yuqori rentabellikka ega bo'lgan mahsulot turlaridan iborat. Bu turdagi mahsulot miqdorlarining belgilangan rejadan farqlanishi strukturaning o'zgarishiga olib keladi.

Jami ishlab chiqarishda yuqori narxlardagi mahsulot turlari ulushining salmoqli bo'lishi mahsulot hajmining qiymat shaklida ortishiga va buning aksi bo'lgan hollarda mahsulot hajmining kamayishiga olib keladi.

Yuqori rentabellik darajasiga ega bo'lgan mahsulot turlarining ortishi (past rentabellik mahsulot turlarining pasayishi) tufayli umumiy foyda miqdori ortadi.

Struktura o'zgarishining mahsulot hajmiga ta'siri

3.7.1- jadval

Mahsulot turi	Mahsulot birligining bahosi, so'm	Ishlab chiqarish hajmi, dona		Mahsulot strukturasi, %		Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymat shaklida, ming so'm			Struktura o'zgarishining mahsulot hajmiga ta'siri, gr.9-gr.8
		biznes-reja	haqiqatda	biznes-reja	haqiqatda	biznes-reja	haqiqiy ishlab chiqarish reja strukturasi bo'yicha	haqiqatda	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	4000	10000	13000	50,0	68,4	40000	38000	52000	+14000
B	2500	10000	6000	50,0	31,6	25000	23750	15000	-8750
∑	-	20000	19000	100,0	100,0	65000	61750	67000	+5250

$$19000 \cdot 50 \cdot 4000 : 100 = 38000$$

$$19000 \cdot 50 \cdot 2500 : 100 = 23750$$

$$52000 - 38000 = + 14000$$

Rejalashtirilgan mahsulot strukturasi saqlangan holda ishlab chiqarish hajmi qiymat shaklida 61750 ming so'mni tashkil etishi kerak. Haqiqatda esa 67000 ming so'mni tashkil etgan. Yuqori narxdagi mahsulot ulushining rejadagi 50 foizdan haqiqatda 68,4 foizga qadar ko'tarilishi tufayli mahsulot qiymat shaklida 5250 ming so'mga ortgan.

Struktura o'zgarishining asosiy sabablari:

- har xil kategoriyadagi iste'molchilarning mahsulotga bo'lgan talabining o'zgarishi;

- korxonani uskuna va moddiy resurslar bilan yetarli ta'minlanmagani;

- zarur malakali mutaxassislarning yetishmasligi;

- korxonaning kam mehnat sig'imli, yuqori rentabellikka ega mahsulot turlarini ko'proq ishlab chiqarishga intilishi.

3.8. Ishlab chiqarish maromining tahlili

Korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini tadqiq etishda ishlab chiqarish maromini kompleks tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish maromi – grafik asosida bir maromda mahsulot ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish tufayli ish kuchi, ishlab chiqarish quvvati, moddiy resurslardan to'liq foydalanishga, mahsulot sifatining yaxshilanishiga, shartnomaviy majburiyatlar bajarilishiga erishiladi. Ishlab chiqarish maromining izdan chiqishi tufayli korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari yomonlashadi: mahsulot sifati buziladi, brakka yo'l qo'yiladi, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotning qoldig'i ortadi, kapital aylanishi sekinlashadi, shartnoma grafigidan chetlashish natijasida jarimalar to'lanadi. Bulardan tashqari, mahsulot sotilishi kechikadi, undan keladigan tushum miqdori kamayadi. Ayniqsa, kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar maromiylik buzilishi tufayli bankrotga uchrashi mumkin. Ishlab chiqarish maromini tahlil etishning to'g'ri va egri ko'rsatkichlari mavjud.

Mahsulot ishlab chiqarish maromining tahlili (dekabr oyi)

3.8.1-jadval

O'n kunliklar	Hisobot yili, ming so'm		Marom hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot, ming so'm	Jami mahsulotdagi ulushi, %	
	reja	Haqiqatda		reja	haqiqatda
I o'n kunlik	6165,0	5728,0	5728,0	30,0	27,0
II o'n kunlik	7089,7	7425,3	7089,7	34,5	35,0
III o'n kunlik	7295,3	8061,7	7295,3	35,5	38,0
Jami	20550	21215	20113	100,0	100,0

To'g'ri ko'rsatkichlar – maromiylik koeffitsiyenti, variatsiya koeffitsiyenti, har o'n kunlikni oylik mahsulotda; oy, kvartallarda ishlab chiqarilgan mahsulotning yillik mahsulot hajmida tutgan ulushi.

Egri ko'rsatkichlar – brakdan yo'qotishlar, qo'shimcha ishlangan vaqt uchun to'langan haq, shartnoma buzilishi tufayli to'langan jarimalar.

Maromiylik koeffitsiyenti marom hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulotni (N_H) jami reja bo'yicha mahsulot (N_R) hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$K_{\text{marom}} = \frac{N_H}{N_R} .$$

Mahsulot ishlab chiqarish maromiylik koeffitsiyenti

$$K_{\text{marom}} = \frac{20113}{20550} = 0,978 = 97,8\%$$

Maromiylik koeffitsiyentini ulush ko'rsatkichlari orqali ham aniqlash mumkin.

$$K_{\text{var}} = \frac{\sqrt{\sum (x - \bar{x})^2 / n}}{\bar{x}_{\text{var}}}$$

$$K_{\text{marom}} = 27 + 34,5 + 35,5 = 97\%$$

Variatsiya koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$K_{\text{var}} = \frac{\sqrt{(27-30)^2 + (35-34,5)^2 + (38-35,5^2)/3}}{33,3} = \frac{\sqrt{5,41}}{33,3} = 0,069$$

$$\bar{x}_{\text{reja}} = \frac{100}{3} = 33,3$$

Haqiqiy ishlab chiqarish hajmining belgilangan grafikdan farqlanishi tufayli variatsiya koeffitsiyenti 6,9% ni tashkil etgan.

Ayrim ishlab chiqarish korxonalari mavsumiy xarakterga ega. Yilning ayrim oylarida mahsulotga bo'lgan talabning o'zgarishi ishlab chiqarish maromiga ta'sir etadi. Mavsumiy ishlab chiqarish, marom va mahsulot assortimentlariga marketing choralarining samaradorligini kompleks baholash uchun quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz.

3.8.2-jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'tgan yildan farqi	O'sish sur'ati, %
Mahsulot sotish hajmi, ming. so'm	250000	280380	+30380	112,2
Marom koeffitsiyenti, %	95,0	97,8	+2,8	103,0
Assortiment koeffitsiyenti, %	93,0	94,6	+1,6	101,8
Mavsum koeffitsiyenti, %	70	75	+5	107,1
Variatsiya koeffitsiyenti, %	6,5	6,9	+0,4	106,2

$$K_r = \sqrt[4]{1.03 \cdot 1.01 \cdot 1.07 \cdot 1.06} = \sqrt[4]{1.180} = 1.04 \cdot 100\% = 104\%$$

3.9. Sifat va mahsulot yangilanishining tahlili

O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonunining 35-moddasi 1-bandida korxonaning sifatli mahsulot ishlab chiqarish mas'uliyati xususida quyidagilar qayd etilgan:

«Shartnoma majburiyatlari ... mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablarni, xo'jalik faoliyatini amalga oshirishning boshqa qoidalarini buzganlik uchun korxonalar qonunlarda ko'zda tutilgandek to'la mulkiy javobgar bo'ladi.»

Sifatli mahsulot uni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan mehnatni tejaydi, iste'molchi talabi to'la qondiriladi, realizatsiya jarayoni tezlashadi, mahsulot hajmi qiymat shaklida ortadi, aylanma mablag'lar aylanishi tezlashadi. Mahsulot sifati ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi.

Sifatni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi: umumlashtiruvchi, individual (yakka), egri ko'rsatkichlar.

Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar

- jami ishlab chiqarishdagi yangi mahsulot ulushi;
- sertifikatlashgan va sertifikatlashmagan mahsulot ulushi;
- jahon andozalariga mos keladigan mahsulot ulushi;
- eksport qilinadigan mahsulotlarning tutgan ulushlari.

Mahsulot sifatini ifodalovchi **individual (yakka) ko'rsatkichlar**:

– foydaliligi (sutning yog‘liligi, ko‘mirning issiqiligi, oziq-ovqat mahsulotlaridagi oqsil moddalari va hokazo);

– ishonchliligi (chidamliligi, benuqson ishlashi);

– texnologik shartlarga mos kelishi;

– mahsulotning estetik ko‘rinishi.

Egri ko‘rsatkichlar – sifatsiz mahsulot uchun to‘langan jarimalar, brak mahsulot va uning jami mahsulotdagi ulushi va hokazo.

Mahsulot sifati jihatidan yengil sanoatda ikki kategoriyaga bo‘linadi:

1. Oliy nav. 2. I nav (sort).

Mahsulot sifati jihatidan navlarga bo‘linganda o‘rtacha nav koeffitsiyenti, mahsulot birligining o‘rtacha sotish bahosi aniqlanadi va bu ko‘rsatkichlar hisobot yilining rejasi, o‘tgan yil, raqobatdagi korxonalar bilan taqqoslanib, tegishli xulosa qilinadi.

Mahsulot sifatining tahlili

3.9.1-jadval

Ko‘rsatkichlar	Mahsulot Birligining bahosi, so‘m	Ishlab chiqarilgan mahsulot, dona		Reja-ning bajarilishi, %	Jami mahsulotdagi ulushi, %		Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati, ming so‘m	
		Reja	Haqiqatda		Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda
Oliy nav	1200	710	780	109,8	58,6	63,4	852	936,2
I nav	1050	500	450	90,0	41,4	36,6	525	472,5
Jami	x	1210	1230	101,6	100,0	100,0	1377	1408,7

1. O‘rtacha navlilik koeffitsiyenti:

$$\text{Reja bo‘yicha} = \frac{1377 \text{ min g so‘m}}{1210 * 1200} = 0,948$$

$$\text{Haqiqatda} = \frac{1408,7 \text{ min g so‘m}}{1230 * 1200} = 0,954$$

2. Mahsulot birligining o‘rtacha sotish bahosi:

$$\text{Reja bo‘yicha} = \frac{1377 \text{ min g so‘m}}{1210} = 1138 \text{ so‘m}$$

$$\text{Haqiqatda} = \frac{1408,7 \text{ min g so‘m}}{1230} = 1145 \text{ so‘m}$$

Sifat o'zgarishining mahsulot hajmiga ta'siri
(1145-138)*1230=8.6 ming so'm

Mahsulot turlari bo'yicha sifat tahlili

3.9.2-jadval

Mahsulot turi	Ishlab chiqarilgan mahsulot natura shaklida, dona			Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymat shaklida, ming so'm			Qiymat shaklidagi reja bajarilishining natura shaklidagidan farqi
	Reja	Haqiqatda	Rejaning bajarilishi, %	Reja	Haqiqatda	Rejaning bajarilishi, %	
A	1210	1230	101,6	1377	1408,7	102,3	+0,7
B	1400	1470	105,0	1500	1545	103,0	-2,0
V	800	800	100,0	1250	1313	105,0	+5,0
Jami	x	x	x	4127	4266,7	103,4	

«B» mahsulotning qiymat shaklida rejasi bajarilishining natura shakliga nisbatan 2,0 foiz (103,0 – 105,0) ga past bo'lishi tufayli mahsulot hajmi 30,9 ming so'm (2x1545:100) ga kamaygan. «A», «V» mahsulotlar bo'yicha buning aksi bo'lgan. «A» mahsulotining sifati ortishi natijasida mahsulot hajmi 9,8 ming so'm (+0,7x1408,7:100) ga, «V» mahsulot bo'yicha esa 65,0 ming so'mga oshgan.

Yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish doimiy tusga ega bo'lishi kerak, bu davr talabi. Yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{jn} = \frac{qN_{jn}}{qN_{jam}}$$

Bunda, K_{jn} – yangi mahsulot turlarini o'zlashtirish koeffitsiyenti;

qN_{jn} – hisobot davrida yangi o'zlashtirilgan mahsulot;

qN_{jam} – hisobot davrida sotilgan jami mahsulot.

Mahsulot butligi. Mahsulot tarkibida barcha qism, detallarning mavjud bo'lishi uning butligini ifodalaydi. Ayniqsa, murakkab turdagi mahsulotlarning butligiga e'tibor qaratilmog'i lozim. Korxonada to'liq butlangan mahsulotlarni standart va texnik shartlar talablariga javob

beradigan holda iste'molchilarga jo'natishi shart. Butlanmagan mahsulot realizatsiya va ishlab chiqarish jarayonini sekinlashtiradi. Natijada aylanma mablag'lar aylanishi sekinlashadi, korxonani iqtisodiy jihatdan nochor holatga keltiradi. Traktor, avtomobil tayyor mahsulot hisoblanishi uchun ularga tegishli asboblari, ehtiyot qismlari bilan butlangan bo'lishi lozim.

3.10. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish rezervlari va omillari

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga tovar mahsuloti solishtirma bahosidan tashqari fond qaytimi, ya'ni asosiy vositalar qiymatining har so'miga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi ham kiradi. Fond qaytimi jami asosiy vositalardan unumli foydalanishni ifodalovchi umumlashtiruvchi ko'rsatkichdir.

$$F_q = \frac{N}{F}$$

Bunda, F_q – fond qaytimi;

N – mahsulot hajmi (ish, xizmat) solishtirma bahoda;

F – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarining kompleks tahlilining asosiy vazifasi – mahsulot hajmlarini qanday omillar evaziga oshganligini aniqlash, so'ngra ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iborat. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillar tufayli sotishdan kelgan tushum o'tgan yildan farqlanadi. Umumlashgan tarzda ishlab chiqarish omillarini uch guruhga: mehnat, mehnat predmetlari va mehnat vositalariga ajratib o'rganish talab etiladi. Bu omillar uzviy bog'liqlikda kompleks tarzda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etadi. Uch omilning mahsulot hajmiga bo'lgan ta'siri quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

$$N = R * D = R * \frac{N}{R} \quad (1)$$

Bunda, R – xodimlarni ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni;

D – mehnat unumdorligi (bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot).

$$N = F * F_q = F * \frac{N}{F} \quad (2)$$

Bunda, F – asosiy ishlab chiqarish fondlarining oʻrtacha yillik qiymati;

F_q – asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimi.

$$N = M_x * M_q = M_x * \frac{N}{M_x} \quad (3)$$

Bunda, M_x – mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar xarajati;

M_q – material qaytimi (materiallar xarajatining har soʻmiga toʻgʻri keladigan mahsulot hajmi).

Birinchi formula mahsulot hajmi xodimlar soni va mehnat unumdorligiga, ikkinchi formula – asosiy ishlab chiqarish fondlari va fond qaytimiga, uchinchi formula – materiallar sarfi va material qaytimiga bogʻliqligini ifodalaydi. **Mehnat unumdorligi** xodimlarning fond bilan qurollanishi ($\frac{F}{R}$) va asosiy ishlab chiqarish vositalarining fond qaytimi ($\frac{N}{F}$) ga bogʻliqligi quyidagicha ifodalanadi.

$$D = \frac{F}{R} * \frac{N}{R} = \frac{N}{R} = D$$

Birinchi formuladagi D ning oʻrniga kengaygan shaklda mahsulot hajmiga omillar taʼsirini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$N = R * \frac{F}{R} * \frac{N}{F} \quad \text{yoki} \quad N = R F_v * F_q$$


Demak, bu formulaga muvofiq mahsulot hajmi uch omilga bogʻliq: korxonaning xodimlar bilan taʼminlanishi, mehnatning fond bilan qurollanishi, asosiy vositalarning fond qaytimi.

Sotish hajmi indeksining dinamikasi «Moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot» (shakl-2) maʼlumotlari asosida inflatsiya darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi.

$$I_N = \frac{N_1}{N_0}$$

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish rezervlarining manbalari 3.10.1-chizmada keltirilgan.

Ishlab chiqarish turʻun holatga ega boʻlish sharti: $I_N \approx i_{inf}$, bunda: i_{inf} – oʻtgan yilga nisbatan inflatsiya indeksi. $I_N > i_{inf}$ – boʻlsa, ishlab chiqarish oʻsishini; $I_N < i_{inf}$ – ishlab chiqarish pasayishini ifodalaydi.



3.10.1-chizma. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini oshirish rezervlarining manbayi.

Ishlab chiqarish amaliyoti natijalarini kuzatishga ko'ra korxonaning optimal ishlash quvvati 70-80 foizni tashkil etadi. Mashina va uskunalarning ishlashining bu optimal darajadan past bo'lishi zararga olib kelsa, undan yuqori bo'lishi riskni kuchaytiradi, ya'ni mashina va uskunalarning buzilishiga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi va oborot mablag'lar zaxiralarning nisbati orqali mahsulot ishlab chiqarish darajasi va uning dinamikasini o'rganish mumkin. Bu metod quyidagi tajriba natijalariga tayangan:

Tayyor mahsulot qoldig'ining pasayishi, ishlab chiqarish hajmining ortishiga va buning aksi bo'lgan hollarda mahsulot hajmining kamayishiga olib keladi. Talabga nisbatan ishlab chiqarishning yuqori bo'lishi tayyor mahsulot qoldig'ining ortishiga sabab bo'ladi. Demak, ishlab chiqarish darajasining egri usuli zaxiralarning aylanishini

ifodalaydi. Zaxiralarning aylanish tezligining ortishi ishlab chiqarishni yuqori darajada olib borishni ta'minlaydi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- kompleks marketing tahlili;
- kompleks marketing tahlilining axborot tizimi;
- kompleks marketing tahlilining tizimi;
- an'anaviy va iqtisodiy matematik usullar;
- evristik metod;
- SWOT – analiz (tahlil);
- strategik tahlil;
- tezkor tahlil;
- talab va taklif;
- «yulduz» kategoriyali tovarlar;
- «sog'in sigirlar» kategoriyali tovarlar;
- «og'ir bola» kategoriyali tovarlar;
- «o'lik yuk» yoki «omadsiz» kategoriyali tovarlar;
- korxonaning baho siyosati tahlili;
- kompleks raqobat tizimi;
- sifat va uning zanjiri;
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlari;
- mahsulotning o'sish sur'ati;
- mahsulot nomenklaturasi va assortimenti;
- mahsulot sifatini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar;
- mahsulot butligi;
- sotish hajmini oshirish rezervlari.

Savol va topshiriqlar

1. Marketing tizimidagi asosiy metodlar va tahlil turlariga nimalar kiradi?
2. Mahsulot raqobatbardoshligi va uni tahlil etishning bosqichlari nimalardan iborat?
3. Kompleks marketing tahlili tizimining chizmasini keltiring.
4. Kompleks raqobat tahlili tizimining chizmasini keltiring va uni izohlang.
5. Quyidagi ma'lumotlar asosida:
 - a) Sotish hajmining o'sish sur'atini;

b) Mahsulot turlarining o'rtacha bozordagi yetakchilik koeffitsiyentini aniqlang.

Mahsulot turi	Sotish hajmining o'sish (pasayish) sur'atlari, %	Yetakchi	Mahsulotning jami sotish hajmidagi ulushi, %
A	86,2	2,0	32,6
B	110,0	1,6	8,5
V	114,4	0,7	1,7
G	130,0	1,2	31,4
D	160,0	1,5	5,8
J	166,7	0,1	1,3
Z	60,0	2,2	4,5
K	70,0	1,0	8,9
L	44,4	1,0	5,2

6. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarining o'sish (zanjirli, bazisli) sur'atlarini aniqlang.

Yillar	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi joriy yil bahosida, ming so'm	Baho indeksi	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi bazis bahosida, ming so'm	O'sish sur'ati, %		Sotish hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, %	
				bazisli	zanjirli		bazisli	zanjirli
xxx1	201100	1,0				201000		
xxx2	317540	1,30				190500		
xxx3	416167	1,32				180200		

7. Mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblab toping.

T №	Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Hisobot davri	Sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar
1	Tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'i	125	140	
2	Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti	5440	5800	

3	Tayyor mahsulotning yil oxiriga qoldig'i	130	120	
4	Mahsulot sotish hajmi	?	?	

8. Mahsulot ishlab chiqarishning maromiylik koeffitsiyentini aniqlang, %.

Sex	I o'n kunlik		II o'n kunlik		III o'n kunlik	
	reja	haqiqatda	reja	haqiqatda	reja	haqiqatda
Tayyorlov	32,5	25,0	33,5	30,0	34,0	45,0
Mexanika	32,5	23,0	33,5	30,0	34,0	47,0
Yig'uv	35,0	20,0	33,0	40,0	32,0	40,0

9. Quyidagi ma'lumotlar asosida o'rtacha assortiment rejasining bajarilishini aniqlang.

Mahsulot turi	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm		Reja bajarilishi, %	Assortimentga qabul qilingan mahsulot
	reja	haqiqatda		
A	288	350		
B	340	320		
V	190	150		
G	144	165		
Jami	962	985		

10. Sifatning mahsulot hajmiga ta'sirini hisoblang.

Nav	Mahsulot birligining bahosi, so'm	Ishlab chiqarilgan mahsulot-miqdori, dona		Reja bajarilishi, %	Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymat shaklida	
		reja	haqiqatda		reja	haqiqatda
Oliy nav	1300	710	780			
I nav	1150	500	450			
Jami	X	1210	1230			

11. Quyidagi jadvalda keltirilgan mahsulot hajmini oshirish rezervlari ma'lumotlari asosida tegishli xulosa qiling.

mln. so'm

Ko'rsatkichlar	Mahsulot hajmini oshirish imkoniyatlar		
	Mehnat resurslari bo'yicha	Mehnat vositalari bo'yicha	Mehnat predmetlari bo'yicha
1. Ishchi o'rinlarini oshirish va uskunar bilan jihozlash	48	36	-
2. Ish vaqti yo'qotilishini qisqartirish	72	135	-
3. Mehnat unumdorligi va uskunar unumini oshirish	112	45	-
4. Materiallar sarf me'yorini pasaytirish	-	-	340
Jami	232	216	340

12. Real mahsulot hajmini qanchaga oshirish mumkin?

Testlar

1. Qaysi javobda Kompleks marketing tahlilining an'anaviy usullari tarkibiga kiruvchi usul to'g'ri ko'rsatib o'tilgan?

- Taqqoslash usuli;
- Integral usul;
- Chiziqli programmashtirish usuli;
- Nazariy o'yin usuli.

2. Qaysi javobda iqtisodiy-matematik usullari tarkibiga kiruvchi usul to'g'ri ko'rsatib o'tilgan?

- Balansli bog'lanish usuli;
- Iqtisodiy tashxis qo'yish usuli;
- Guruhlashtirish usuli;
- Taqqoslash usuli.

3. Qaysi javobda ishlab chiqarish maromini ifodalovchi ko'rsatkich to'g'ri ko'rsatilgan?

a) Maromiylik koeffitsiyenti, variatsiya koeffitsiyenti, oylik mahsulotning jami yillik mahsulotda tutgan ulushi;

b) Brakdan yo'qotish, mahsulot sotish hajmining o'sishi, variatsiya koeffitsiyenti;

c) Maromiylik koeffitsiyenti, variatsiya koeffitsiyenti, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati;

d) Har oyda ishlab chiqarilgan mahsulotni jami yillik mahsulotdagi ulushi, variatsiya koeffitsiyenti, mahsulot hajmining o'sish sur'ati.

4. Ishlab chiqarish maromiyligini buzilishi qanday salbiy oqibatlarga olib keladi?

a) Mahsulot sifati pasayadi, tannarxi ortadi, shartnoma majburiyatlari bajarilmaydi;

b) Brak hosil bo'ladi, ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanilmaydi, jarimalar to'lanadi;

c) Ishlab chiqarish hajmi pasayadi, ishlab chiqarish uskunalari muddatidan oldin safdan chiqadi, unumdorlik pasayadi;

d) Barcha javoblar to'g'ri.

5. Talabning o'zgaruvchanligi nimalarga bog'liq?

a) Baho o'zgarishi va holati;

b) Xaridorlarning didi va istagi;

c) Xaridorlarning soni, xarid etish imkoniyatlari;

d) Barcha javoblar to'g'ri.

6. O'rtacha assortiment rejasining bajarilishi qanday aniqlanadi?

a)
$$\frac{\text{Assortiment hisobiga qabul qilingan mahsulot}}{\text{Hisobot davridagi haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot}} \times 100 \%$$

b)
$$\frac{\text{Biznes reja bo'yicha ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Hisobot davrida haqiqatda ishlab chiqarilgan jami mahsulot}} \times 100 \%$$

c)
$$\frac{\text{Hisobot davrida ishlab chiqarilgan jami mahsulot}}{\text{Biznes reja bo'yicha ishlab chiqarish hajmi}} \times 100 \%$$

d)
$$\frac{\text{Assortiment hisobiga qabul qilingan mahsulot}}{\text{Hisobot davridagi biznes reja bo'yicha ishlab chiqarish hajmi}} \times 100 \%$$

7. Yuqori sifatga erishish uchun tovar qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?

- a) Texnik parametrlar;
- b) Estetik parametrlar;
- c) Ergonomik parametrlar;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

8. Qaysi javobda mahsulot sifatini ifodalovchi ko'rsatkich to'g'ri ko'rsatib o'tilgan?

- a) Sifatsiz mahsulot uchun to'langan jarimalar;
- b) Texnologiya shartlariga mos kelishi;
- c) Oliy nav mahsulot hajmi;
- d) Tovarning kafolat muddati.

IV bob. MODDIY RESURSLAR HOLATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI

4.1. Tahlil vazifasi va axborot manbalari

Korxonaning to'liq hajmda xomashyo va assortimentdagi boshqa materiallar bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish tufayli mahsulot hajmi, foyda va rentabelligi ortadi, mahsulot tannarxi pasayadi. Buning aksi bo'lgan hollarda esa ishlab chiqarish izdan chiqadi, maromdan chetlashiladi, ayrim hollarda ishlab chiqarish to'xtab qoladi. Xomashyo, yoqilg'i, energiya va boshqa mehnat predmetlariga bo'lgan talab mustaqil ravishda korxonalar tomonidan rejalashtiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi qonunining 22-1 moddasida bu xususda shunday deyiladi: *«Korxonalar bozor talablarini, ehtimol tutilgan sheriklarning imkoniyatlarini o'rganish, narx-navoning o'zgarishi to'g'risidagi axborot asosida o'z ishlab chiqarishining ta'minotini, bozorlarda (tovarlar, xizmatlar, moliya bozorlarida) monopoliyaga qarshi qonunlarning talablarini nazarda tutgan holda bevosita yoki vositachi orqali oldi-sottini, mahsulot sotishni va o'z ishlab chiqarishining ta'minotini mustaqil amalga oshiradi.»*

Texnika taraqqiyoti (mashina va mexanizmlar konstruksiyasini takomillashtirish, ularning parametrlarini yaxshilagan holda massasini kamaytirish, elektronikaning so'nggi yutuqlari asosida buyumlarni miniaturalashtirish va mikrominiaturalashtirish, progressiv materiallarni, kamchiqitli va chiqitsiz texnologiyani qo'llash), tejamkorlik rejimiga rioya qilish, har bir ishlovchida omilkorlik, jamoaviy mehnat natijalariga ongli munosabatda bo'lish tuyg'usini shakllantirish material sig'imini kamaytirishning asosiy omillaridir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ro'y berayotgan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlarda o'zining aniq ifodasini topmoqda. 2011-yilda eksport mahsulotlari hajmi 2010-yilga nisbatan 15,4 foizga ko'paydi. Eksport hajmida tayyor mahsulotning ulushi 2000-yildagi 46 foizdan 2011-yilga kelib 60 foizga qadar ko'tarildi.

Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining 70 foizini qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotga yo'naltirilgan sohalar tashkil

etmoqda. Eksport korxonada faoliyatining eng muhim yo'nalishiga, butun iqtisodiyotimizning rivojlanish natijalarini baholash mezoniga aylandi.

Eksport, mahsulot sifati, materiallardan foydalanishda iqtisodga erishish, yangi texnikani ishlab chiqarishga jalb etishga bog'liq. Respublikada ishlab chiqarishni texnik jihatdan muntazam modernizatsiya qilib borish uchun samarali rag'batlantirish tizimi yaratilgan. Unga muvofiq keltirilgan yangi texnikadan undiriladigan mulk solig'i bekor qilindi. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, xususiy sektorda texnikadan unumli foydalanish evaziga moddiy resurslardan iqtisodiy samaraga erishilmoqda. Chunki ularda mulkka egalik qilish hissi yuqoridir. Moddiy resurslar bilan korxonani ta'minlanishi, zaxira holati, ulardan samarali foydalanish, ichki imkoniyatlarini aniqlashda kompleks iqtisodiy tahlilning roli kattadir.

Kompleks iqtisodiy tahlilning bu boradagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanish darajasini aniqlash;

- shartnomadagi material resurslarini yetkazib berish muddatlariga rioya qilishini nazorat qilish;

- transport-tayyorlov xarajatlarini hisoblash;

- moddiy resurslardan samarali foydalanish yo'llarini belgilash;

- zaxira va xarajatlarning samarali boshqarilishini o'rganish.

Tahlil etishning axborot manbalari :

Moddiy-texnik ta'minot bo'yicha biznes-reja; xomashyo va materiallar bo'yicha tuzilgan shartnoma; moddiy resurslar mavjudligi va ulardan foydalanish to'g'risidagi statistik hisobot; moddiy-texnik ta'minot bo'limining tezkor ma'lumotlari hamda xomashyo va materiallarning kirimi, sarfi bo'yicha buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va boshqa manbalar.

4.2. Ta'minot rejasining bajarilishi va moddiy resurslar zaxira holatining tahlili

Moddiy resurslardan samarali foydalanish va mahsulot sotish hajmini oshirish uchun korxonada xomashyo, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslar bilan yetarli miqdorda ta'minlanishi kerak. Materiallarni belgilangan miqdorda, assortimentda kelib tushmasligi, muddatlarining uzayishi ishlab chiqarishni to'liq quvvat bilan ishlashini ta'minlamaydi. Shu bilan birga, ortiqcha xomashyo zaxiralari ega bo'lish mablag'lar

aylanishini sekinlashtiradi, naqd pul mablag'larining yetishmasligiga olib keladi.

Demak, kompleks iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridan biri ishlab chiqarishni normal tashkil etish uchun korxonaning optimal miqdordagi moddiy-texnik resurslarga bo'lgan talabini aniqlashdan iborat. Moddiy-texnik resurslarga bo'lgan ehtiyoj ikki manba hisobiga qondiriladi.

– tashqi ta'minot;

– ichki ta'minot.

Tashqi ta'minot deganda xomashyo birjalari, ko'rgazmalari orqali tuzilgan shartnomalar asosida xomashyo, yoqilg'i va boshqa resurslarning kelib tushishi tushuniladi.

Ichki ta'minot ta'minot rejasining bajarilishi, ichki resurslardan unumli foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, iqtisod rejimiga rioya qilish evaziga amalga oshiriladi.

Respublika iqtisodiyotining shakllanishida lizing kreditlarini ahamiyati katta. Lizing kreditlaridan foydalanish uchun dastlab lizing kompaniyalari yoki lizingni amalga oshiruvchi subyektlar bilan lizing kreditlari bo'yicha shartnomalar tuziladi. Bunda uch tomon qatnashishi mumkin.

Lizing kreditini amalga oshiruvchi tomon moliyaviy mablag'ga ega bo'lganligi uchun moddiy-texnik resurslarni ijaraga beruvchilardan olib, ularni foydalanuvchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanishi mumkin. Ayrim hollarda esa moddiy-texnik resurslarni to'g'ridan-to'g'ri ijaraga beruvchilar ularni ijaraga oluvchilarga yetkazib berishlari mumkin. Bu masalalar shartnomalarda batafsil o'z aksini topishi zarur.

Tahlil davomida korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$K_1 = \frac{M_h}{M_r}$$

Bunda, M_h, M_r – materiallarning haqiqiy tushumi va materiallarga bo'lgan talab (shartnoma).

Moddiy resurslarning *me'yor zaxirasi* joriy va muhofaza (har ehtimolga qarshi) zaxiralaridan iborat.

$$Z_{me'yor} = Z_{joriy} + Z_{muhofaza}$$

Joriy zaxira yetkazib berish intervali (Int) kun va materiallarning bir kunlik sarflari (S_{kun}) ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

$$Z_{joriy} = Int * S_{kun}$$

Muhofaza zaxiralari ishlab chiqarishni uzluksiz davom etishini kafolatlovchi, moddiy resurslar ta'minotidagi uzilishlar ro'y bergan hollar uchun zarur.

Moddiy-texnik ta'minotni kompleks tahlil etishda talabning shartnoma bo'yicha qoplanishi va bajarilishi aniqlanadi.

Moddiy resurslar ta'minoti rejasining bajarilishining tahlili

4.2.1-jadval

Material- lar turi	Material- larga bo'lgan talab, tonna	Talabni qoplash manbayi		Shart- noma tuzildi, tonna	Talabning shartnoma bo'yicha qoplanishi, %	Material- larning kelib tushishi, tonna	Shartnoma bajarilishi, %
		ichki	tashqi				
A	25000	500	24500	23300	95,1	21902	94,0
B	4700	50	4650	4420	95,0	4190	94,8

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, «A» xomashyo turiga tuzilgan tashqi shartnoma 95,1 (23300:24500x100) foizga, «B» turi bo'yicha 95,0 foizga bajarilgan xolos. Korxonaning ichki va tashqi manbalar bo'yicha xomashyoga bo'lgan talabi «A» xomashyo bo'yicha 95,2 ($\frac{500+23300}{2500}$) foizga, «B» xomashyo bo'yicha esa 95,1 ($\frac{50+4420}{4700}$) foizga ta'minlangan. Materiallarni yetkazib berish rejasi 10,4 foizga bajarilmagan.

$$\left(\frac{(21902+500)*100}{25000}\right)=89,6 \text{ foiz}; 100-89,6=10,4$$

Zaxira holatini tahlil etish uchun belgilangan me'yor bilan zaxiraning kundalik sarfi taqqoslanib, xomashyo, yoqilg'i va boshqa resurslarning ortiqchaligi yoki yetishmasligi aniqlanadi.

Moddiy resurslar zaxira holatining tahlili

4.2.2-jadval

Materiallar	Bir kunlik materiallar sarfi, tonna	Haqiqatda mavjud zaxira		Zaxira me'yori		Maksimal me'yordan farqi	
		tonna	kun	maksimal	minimal	kun	tonna
A	400	3200	8	12	10	-4	-1600

3200:400=8 kun; 12-8=4 kunga zaxira yetishmaydi;
-4x400=-1600 tonna.

Kompleks iqtisodiy tahlilda optimal hajmdagi buyurtma va zaxiralarni aniqlash muhim o'rin tutadi. Zaxiralarni boshqarish eng zarur va mas'uliyatli hisoblanadi. Korxonaning barcha yakuniy natijalari zaxiralarni optimallashtirishga bog'liq. Zaxiralarni samarali boshqarish sarmoyalar aylanishini tezlashtiradi va uning daromadlilikini oshiradi, zaxiralarni saqlash xarajatlarini kamaytiradi, xo'jalik oborotidan sarmoyalar bo'shashini ta'minlaydi. Joriy zaxiralarni optimallashtirishda xorijiy mamlakatlarda bir qancha modellardan foydalaniladi. Ulardan keng tarqalgani iqtisodiy jihatdan asoslangan buyurtma modeli (EOQ – model)dir. Bu modelning asosiy maqsadi zaxiralarni xarid etish va uni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni mumkin qadar qisqartirishdan iborat. Xarajatlar ikki guruhga bo'lib o'rganiladi:

- 1) tovarlarni tashish xarajatlari;
- 2) tovarlarni omborlarda saqlash xarajatlari;

Tovarlarni omborlarda saqlash xarajatlari (Z_{soq}) quyidagicha aniqlanadi:

$$Z_{soq} = \frac{RPP}{2} * S_{soq}$$

Bu yerda, RPP – kelib tushgan bir partiyadagi tovarni o'rtacha miqdori; S_{soq} – tovar birligini saqlash xarajati.

Bu formula orqali xulosa qilish mumkinki, tovar birligini saqlash xarajati o'zgarmagan holda jami tovar mahsulotini omborda saqlash xarajatlari bir partiyadagi tovarning o'rtacha miqdorini kamaytirish hisobiga pasaytirishga erishish mumkin. Matematik formula tarzida EOQ quyidagicha ifodalanadi:

$$EOQ = \sqrt{\frac{2 * VPP * T_{yr}}{S_{soq}}}$$

Bunda, EOQ – tovarlarni yetkazib berishning o'rtacha miqdori;

VPP – xomashyo va materiallarga bir yillik talab;

Tsr.3 – bir birlik buyurtmani joylashtirish qiymati.

Ishlab chiqarish zaxirasining (PZ_{ulg}) o'rtacha optimal miqdori quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$PZ_{ulg} = \frac{EOQ}{2}$$

Rivojlangan mamlakatlarda zaxiralar harakatini nazorat qilish tizimida ABC – analiz, XVZ – analiz va logistika keng tarqalgan.

ABC – analiz boshqaruv muammolari yechimini aniqlashga qaratilgan.

Bu nazorat turi ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot yetkazib beruvchilar, mahsulot guruhlari va ularni sotish bozori, iste'molchilarning kategoriyalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadi. Zaxiralar harakatini nazorat qilish tizimida barcha zaxiralar uch guruhga bo'lib o'rganiladi.

A – kategoriyasiga tegishli zaxiralar bahosi qiymat bo'lgan buyurtmalar bo'lib, ularni nazorat qilish doimiy tusga ega.

V – kategoriya tarkibiga operatsion jarayonning uzluksizligini ta'minlashda muhim bo'lmagan tovar-moddiy qiymatliklar kiradi. Bu guruhdagi zaxiralar har oyda bir marotaba nazorat qilinadi.

S – kategoriya tarkibiga arzon qiymatga ega bo'lgan tovar moddiy qiymatliklar kiradi. Moliyaviy natijalarning shakllanishida bu guruhdagi zaxiralar muhim ahamiyat kasb etmaydi. Har kvartalda bir marotaba zaxira xarajati nazorat qilinadi.

XVZ – *analizda* materiallar ishlatilishi bo'yicha strukturaga bo'linadi.

X guruhiga doimiy ishlatiladigan materiallar, *V* guruhiga mavsumiy, *Z* guruhiga doimiy xarakterga ega bo'lmagan materiallar kiradi.

Zaxiralarni boshqarishda *logistika* asosiy o'rin tutadi. U tovarlar harakatini, «mol yetkazib beruvchi – korxonalar – iste'molchi» sikllarini muvofiqlashtiradi, iste'molchiga materiallar, mahsulotlarni o'z muddatida, sifatli yetkazib berilishini kafolatlaydi. Buning natijasida omborda tovarlarni saqlash muddatlari qisqarishi tufayli zaxiralar aylanishi tezlashadi, korxonalar faoliyatining samaradorligi ortadi.

4.3. Materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlar tizimi

Materiallardan samarali foydalanishni *umumiy* va *yakka ko'rsatkichlar* tizimi ifodalaydi.

Umumiy ko'rsatkichlar qatoriga materiallar xarajatining har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori, material qaytimi, material sig'imi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati va materiallar xarajati koeffitsiyentlarini kiritish mumkin.

Materiallar xarajatining har so'miga to'g'ri keladigan foyda, sotishdan ko'rilgan foydani (F) materiallar xarajati (M_x) ga bo'lish orqali aniqlanadi. ($\frac{F}{M_x}$).

Material qaytimi (M_q) ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini (Q) materiallar xarajatiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$M_q = \frac{Q}{M_x}$$

Material sig'imi (M_s) material qaytimining aksi bo'lib, materiallar xarajati mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bo'linadi.

$$M_s = \frac{M_x}{Q}$$


Ishlab chiqarish hajmi bilan materiallar xarajatining o'sish sur'atlari nisbatini aniqlash uchun ishlab chiqarish hajmi indeksini materiallar xarajati indeksiga bo'lish lozim. Bu ko'rsatkich nisbatan material qaytimi dinamikasini ifodalaydi.

Materiallar xarajati koeffitsiyenti (K_{Mx}) – haqiqiy sarflangan materiallar xarajati (H_{Mx}) ni rejadagi materiallar xarajatining haqiqiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi (V_i) indeksiga ko'paytmasidan hosil bo'lgan ko'rsatkichga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$K_{Mx} = \frac{H_{Mx}}{M_{x_p} * V_i}$$

Bu koeffitsiyent «1» dan katta bo'lsa, ortiqcha materiallar sarfiga yo'l qo'yilganligini, «1» dan kichik bo'lsa, materiallardan iqtisod qilishga erishilganlikni ifodalaydi. Material sig'imini yakka (alohida) ko'rsatkichlari materiallarning ayrim turlaridan samarali foydalanishni ifodalaydi. Ular qatoriga yoqilg'i sig'imi, material sig'imi, xomashyo sig'imi kabi ko'rsatkichlarni kiritish mumkin.

Mahsulot tannarxidagi materiallar xarajatining ulushi qiymat va natura shakllarida aniqlanadi. Masalan, «A» mahsulotni ishlab chiqarish uchun xomashyo, yoqilg'i, energiya va boshqa materiallar xarajati 600 so'mni, uning ulgurji bahosi 1000 so'mni tashkil etsa, bunda materiallar xarajatining ulushi 60 foiz ($600:1000*100$) ni tashkil etadi.



4.3.1-chizma. Material sig'imining omilli tahlilining tuzilishi.

4.4. Materiallardan samarali foydalanish tahlili

Material qaytimi hamda material sig'imi, avvalo, ishlab chiqarish hajmi va material xarajatlariga bog'liq. Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, uning strukturasi va mahsulot sotish bahosining o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining qiymat shakliga ta'sir etadi. Material xarajatlariga ham aynan shu omillar, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, uning strukturasi, mahsulot birligi uchun materiallar sarfi, materiallar bahosi ta'sir etadi. Materiallar sig'imiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$M_p = \frac{M_x}{Q} = \frac{\sum (VQ_M \cdot M_x \cdot M_{str} \cdot M_b)}{\sum (VQ_M \cdot M_x \cdot M_b)}$$

Bunda, M_{10} – mahsulot material sig'imi;

M_x – materiallar xarajati;

Q – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati;

V_{Q_M} – jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori;

M_s – mahsulot strukturasi;

M_{MS} – mahsulot material sarfi;

M_b – material bahosi;

Materiallardan samarali foydalanishni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri – material xarajatlarining har so'miga to'g'ri keladigan foyda hisoblanadi. Bu ko'rsatkichdan yuqori darajaga erishish korxonada faoliyatining ijobiy tomonini ifodalaydi. Materiallardan foydalanishning kompleks tahlilida material xarajatlarining har so'miga to'g'ri keladigan foyda ko'rsatkichining dinamikasi o'rganiladi, raqobatdagi korxonada ma'lumotlari bilan taqqoslanib, ishga solinmagan ichki imkoniyatlar aniqlanadi. Material xarajatlarining har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdorining bazis davridan farqlanishiga omillar ta'siri quyidagicha ifodalangan:

$$\frac{F}{M_x} = \frac{F}{S_T} * \frac{S_T}{V_{Q_M}} * \frac{V_{Q_M}}{M_x} = R_s * V_s * M_q$$

Bunda, F – sotishdan ko'rilgan foyda;

M_x – materiallar xarajati;

S_T – sotishdan kelgan sof tushum;

V_{Q_M} – ishlab chiqarish hajmi;

R_s – sotishdan ko'rilgan rentabellik, %;

V_s – ishlab chiqarish hajmida sotishdan kelgan tushum hissasi, %

M_q – material qaytimi.

Materiallardan foydalanish tahlili

4.4.1-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Hisobot yili		Biznes-rejadan farqi (+,-)
			biznes-reja	haqiqatda	
	A	1	2	3	4
1	Sotishdan ko'rilgan foyda	F	75200	87640	+12440
2	Sotishdan kelgan tushum	S_T	200500	280300	+79800
3	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	V_{Q_M}	220388	254550	+34162
4	Material xarajatlari	M_x	143252	166730	+23478

5	Sotishdan olingan rentabellik darajasi, % (1q:2q)x100	R_s	37,50	31,26	-6,24
6	Jami ishlab chiqarishda sotishdan kelgan tushum hissasi, % (2q:3q)x100	V_s	0,909	1,101	+0,192
7	Material qaytimi, so'm (3q:4q)	M_s	1,54	1,52	-0,02
8	1 so'm material xarajatiga to'g'ri keladigan foyda, tiyin (1q :: 4q)		52,49	52,31	-0,18

4.4.1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, korxonada hisobot yilida material xarajatlarning har so'miga to'g'ri keladigan foyda 52,31 tiyinni tashkil etib, biznes-reja ko'rsatkichiga nisbatan quyidagi omillar o'zgarishining ta'sirida 0,18 tiyinga pasaygan.

a) sotishdan ko'rilgan rentabellik:

$$(R_s^1 - R_s^0) * V_s^0 * M_s^0$$

$$(-6,24) * 0,909 * 1,54 = -8,73$$

b) jami ishlab chiqarishda sotuvdan kelgan tushum hissasi:

$$R_s^0 * (V_s^1 - V_s^0) * M_s^0$$

$$31,26 * (+0,192) * 1,54 = +9,24$$

d) material qaytimi:

$$R_s^1 * V_s^1 * (M_s^1 - M_s^0)$$

$$31,26 * 1,101 * (-0,02) = -0,69$$

$$\text{tekshirish: } -0,18 = -8,73 + 9,24 - 0,69$$

$$-0,18 = -0,18$$

Umumiy material sig'imini pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida sarf etilayotgan materiallarning turlari bo'yicha ham sig'imini aniqlash lozim.

Material turlari sig'imining tahlili

4.4.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Rejadan farqi (+,-)
Mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda, ming so'm	220388	254550	+34162
Materiallar xarajati, ming so'm	143252	166730	+23478

Shu jumladan: xomashyo va materiallar	45179	52946	+7767
Yarimfabrikatlar	84629	96474	+11845
Yoqilg'i	7934	8909	+975
Energiya	2865	5092	+2227
boshqa materiallar	2645	3309	+464
Umumiy material sig'imi, tiyin	65,0	65,5	+0,5
Shu jumladan: xomashyo sig'imi	20,5	20,8	+0,3
yarimfabrikat sig'imi	38,4	37,9	-0,5
yoqilg'i sig'imi	3,6	3,5	-0,1
energiya sig'imi	1,3	2,0	+0,7
boshqa materiallar sig'imi	1,2	1,3	+0,1

Umumiy material sig'imi rejaga nisbatan 0,5 tiyanga xomashyo, energiya va boshqa materiallar sig'imining 0,3; 0,7; 0,1 tiyanga ortishi tufayli ro'y bergan. Bu turdagi materiallar sig'imini pasaytirish evaziga umumiy material sig'imi 1,1 tiyanga (0,3+0,7+0,1) qisqarishi mumkin. Yarimfabrikat, yoqilg'ilar bo'yicha sig'im rejaga nisbatan 0,6 tiyanga pasaygan.

Mahsulot tannarxidagi material xarajatlari ulushini aniqlash uchun ma'lumotlar mahsulot kalkulyatsiyasidan olinadi. A-400 mahsulot turi bo'yicha ulush sig'imini dinamikasi va rejasining bajarilishini quyidagi ma'lumotlar asosida tahlil etamiz.

Mahsulot ulush sig'imining tahlili

4.4.3-jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili		Hisobot yilining haqiqiyisi	
		Reja	Haqiqatda	O'tgan yilga nisbatan, %	Rejaga nisbatan, %
Xomashyo va asosiy materiallar	4790	4730	4700	X	X
Chetdan keltirilgan yarimfabrikatlar	10500	10500	10900	X	X
Mahsulot bahosi	44319	44532	44706	X	X
Mahsulotning ulush sig'imi, so'm	0,345	0,342	0,349	101,0	102,0

A-400 mahsulot turining ulush sig'imi $0,349 \left(\frac{4700+10900}{44706} \right)$ so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 1,1; hisobot yilining rejasiga nisbatan esa 2,0 foizga ortgan.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- moddiy resurslarning ishlab chiqarishdagi ahamiyati;
- tahlil vazifasi;
- ta'minot: ichki manba, tashqi manba;
- zaxira holatining tahlili;
- joriy zaxira, muhofaza zaxiralari;
- ABC – analiz, XVZ – analiz mohiyati;
- material sig'imi va unga ta'sir etuvchi omillar;
- materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari.

Savol va topshiriqlar

1. Moddiy resurslarni kompleks tahlil etishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Tashqi ta'minot va ichki ta'minot deb nimaga aytiladi?
3. Moddiy resurslar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
4. Zaxira holatini tahlil etish usullarini ayting.
5. Tovarlarni omborlarda saqlash xarajati qanday aniqlanadi?
6. ABC – analiz, XVZ – analiz, logistika nimalarni anglatadi?
7. Materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
8. Material xarajatining har so'miga qanday omillar ta'sir etadi?
9. Quyidagi ma'lumotlar asosida material sig'imini aniqlang.

Ko'rsatkich	Hisobot yili	
	Reja	Haqiqatda
1. Ishlab chiqarilgan mahsulot, ming so'm	500000	606000
2. Material xarajatlari, ming so'm	80000	80320

10. Material sig'imining o'zgarishini tannarxdagi material xarajatlariga va mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini hisoblang.

Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Hisobot davri
1. Material xarajatlari, ming so'm	243252	266730
2. Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati, ming so'm	320388	354550

11. Korxonani materiallarga bo'lgan talabi – 60000 m; bir buyurtmani joylashtirish qiymati – 1000 so'm; tovar birligini saqlash qiymati – 100 so'm. EOQ – nimaga teng?

Testlar

1. Korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) $K = \frac{\text{Materiallarning haqiqiy tushumi}}{\text{Reja bo'yicha materiallar tushumi}}$
- b) $K = \frac{\text{Materiallarning haqiqiy tushumi}}{\text{Materiallarga bo'lgan talab}}$
- c) $K = \frac{\text{Materiallarga bo'lgan talab}}{\text{Materiallarning haqiqiy tushumi}}$
- d) $K = \frac{\text{Materiallarning zaxira me'yori}}{\text{Hisobot davrida sarflangan materiallar miqdori}}$

2. Moddiy resurslarga bo'lgan tashqi ta'minotga nimalar kiradi?

- a) Moddiy resurslarning fond birjalari orqali tuzilgan shartnoma asosida kelib tushishi;
- b) Ko'rgazmalar orqali tuzilgan shartnoma asosida moddiy resurslarning kelib tushishi;
- c) Xo'jalik subyektlari orqali tuzilgan shartnoma asosida moddiy resurslarning kelib tushishi;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

3. Zaxiralar harakatini nazorat qilish tizimidagi AVS – analiz funksiyalari nimalardan iborat?

- a) Moddiy resurslar yetkazib beruvchilar, sotish bozori, iste'molchilarning kategoriyalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadi;

b) Moddiy resurslar ta'minoti va ulardan foydalanishi bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

c) Iste'mol bozori, moddiy resurslar yetkazib beruvchilar harakatini nazorat qiladi;

d) Zaxiralar harakatini nazorat qilish tizimidagi barcha zaxiralar bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadi.

4. Materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

a) Material qaytimi, material sig'imi, materiallar xarajati koeffitsiyenti;

b) Materiallar qaytimi, materiallar sig'imi, fond qaytimi;

c) Materiallar sig'imi, fond sig'imi material qaytimi;

d) Materiallar sig'imi, fond sig'imi, materiallar xarajati koeffitsiyenti.

5. Materiallar qaytimi qanday aniqlanadi?

a) $\frac{\text{Materiallar xarajati}}{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati}}$

b) $\frac{\text{Materiallar xarajati}}{\text{Sotishdan kelgan tushum}}$

c) $\frac{\text{Sotishdan kelgan tushum}}{\text{Materiallarning o'rtacha yillik qoldig'i}}$

d) $\frac{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati}}{\text{Ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar xarajati}}$

6. Materiallar sig'imi qanday aniqlanadi?

a) $\frac{\text{Moddiy resurslar}}{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot}}$

b) $\frac{\text{Ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar xarajati}}{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati}}$

c) $\frac{\text{Ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Moddiy resurslar}}$

d) $\frac{\text{Materiallar xarajati}}{\text{Sotishdan kelgan tushum}}$

7. Materiallar xarajatining bazis davridan farqlanishiga qanday omillar ta'sir etadi?

- a) Mahsulot miqdori, uning strukturasi, material sarf me'yori, material baholari;
- b) Ishlab chiqarish hajmi, uning strukturasi, material qaytimi, material baholari;
- c) Mahsulot hajmi, uning strukturasi, material sig'imi, material sarf me'yori;
- d) Ishlab chiqarish hajmi, material sarf me'yori, material bahosi, material sifati.

8. Material bahosining shakllanishida transport-tayyorlov xarajatlari nimalarga bog'liq?

- a) Yuk tashish masofasi, transport turi, kadrlar malakasi;
- b) Transport turi, transport xizmati tarifi, kadrlar malakasi;
- c) Yuk tashish masofasi, transport turi, transport xizmati tarifi;
- d) Tashiladigan yuk miqdori, foydalanilgan transport turi, transport xizmati tarifi.

V bob. ASOSIY VOSITALAR HOLATI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI

5.1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanishi va ulardan unumli foydalanish ahamiyati, tahlil vazifalari

Asosiy vositalar deb moddiy ishlab chiqarish sohasida hamda noishlab chiqarish sohasida uzoq vaqt mobaynida (bir yildan ortiq) ishlatiladigan, shuningdek, ijaraga berish uchun ham foydalaniladigan moddiy aktivlar (5-son BHMA 7-bandi)ga aytiladi.

Asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish jarayonida muhim o'rin tutadi, ular jamlikda korxonaga tayanadigan ishlab chiqarish-texnika bazasini tashkil etadi va korxonaning ishlab chiqarish quvvatini baholash mezonini hisoblanadi.

Asosiy vositalar va korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish natijasida barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori darajaga erishiladi, jumladan, mahsulot hajmi mehnat unumdorligi o'sishi tufayli ortadi, uning tannarxi pasayadi. Eksport hajmining ortishi, mahsulot raqobatbardoshligi korxonaning zamonaviy ilg'or texnika bilan ta'minlanishiga, iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiya hajmiga ko'p jihatdan bog'liq.

Mamlakatimizdagi investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni jalb etish jarayonlariga bozor islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga oid chora-tadbirlar ta'siri yuqori bo'lmoqda. Investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari orasida korxonaning xususiy mablag'lari hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi ortgan holda, davlat budjeti va bankning markazlashgan kreditlarining hissasi keyingi yillarda qisqarib bormoqda.

Ayniqsa, asosiy kapitalga investitsiyalar oqimining qayta taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan sanoat va infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat asosiy kapitalga investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibining o'zgarishiga olib kelmoqda.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el sarmoyasi ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarimizni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas»⁴.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida xorijiy investitsiyalar, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari uchun qator imtiyozlar berilgan. Zero, bu borada Prezidentimiz shunday degan edi: «To'g'ridan-to'g'ri kelayotgan sarmoyalar oqimi har bir kishi, umuman, jamiyat hayoti uchun suv va havodek zarur»⁵.

2005-yilning ikkinchi yarmidan boshlab, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalar jalb qilinish hajmiga qarab, ularni safarbar etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek, Respublika Yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etilgan.

Asosiy vositalarni tahlil etishda korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanishi, asosiy vositalar harakati, texnik holati, ulardan unumli foydalanish ko'rsatkichlari va ishga solinmagan imkoniyatlar aniqlanadi.

Asosiy vositalar tahlili bir necha yo'nalishlarda olib boriladi va asosiy vositalarning tuzilishi, dinamikasi, ulardan hamda uzoq muddatli investitsiyalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga asoslangan holda tahlil natijalariga ko'ra baho beriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanishni o'rganishdagi tahlilning asosiy vazifalari:

– xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanishini aniqlash va unga baho berish;

– asosiy vositalar tarkibi, tuzilishidagi o'zgarishlarni aniqlash;

– asosiy vositalar harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash va o'zgarish sabablarini aniqlash;

– asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga omillar ta'sirini hisoblash;

⁴ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. –T: «O'zbekiston», 2000, 393-bet

⁵ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulimiz // «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 7-fevral

– ishlab chiqarish asosiy fondlaridan samarali foydalanishni oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Tahlilning axborot manbalari:

– «Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot» (3-sonli shakl);

– «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl);

– Asosiy ishlab chiqarish fondlarining ishga tushirilishiga oid ma‘lumot;

– Ishlab chiqarish quvvatlari balansi;

– Ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanishga oid hisobot va h.k.

5.2. Asosiy vositalar tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili.

Ularning aktiv va passiv qismlarga bo‘linishi

Asosiy vositalar faqat mehnat vositalari bo‘lmay, balki korxonalarining moddiy boyligi hamdir.

U qiymatga ega, shu bois mulk sifatida garovga qo‘yish mumkin. Bundan tashqari, korxonaga tugatilayotganda qarzlarni uzish uchun o‘z mablag‘lari yetishmagan hollarda ushbu ko‘chmas mulkni sotish orqali qarzni uzish mumkin. Asosiy vositalar mulk egasining boyligi hisoblanadi. Ulardan samarali foydalanishdan davlat va korxonaga manfaatdor. Chunki korxonaga samara natijasiga ko‘ra moliyaviy natijasi ortadi. Daromad (foyda)dan esa soliq to‘laydi.

Asosiy vositalar quyidagi guruhlariga bo‘linadi.

1. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga ko‘ra:

– aktiv asosiy vositalar;

– passiv asosiy vositalar.

2. Foydalanilishiga ko‘ra:

– foydalanishdagi asosiy vositalar;

– zaxiradagi asosiy vositalar.

3. Turi bo‘yicha:

– yer, bino inshoot, uzatish moslamalari, mashina va uskunalar, mebel va ofis jihozlari, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi, transport vositalari, ishchi hayvonlar, mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik o‘simliklar, boshqa asosiy vositalar.

4. Mulkiy egaligiga ko‘ra:

– o‘ziga tegishli asosiy vositalar;

– ijaraga olingan asosiy vositalar.

5. Tashkil topish manbayi bo‘yicha:

– o‘z mablag‘lari hisobiga;

- bank kreditlari hisobiga;
- boshqa manbalar hisobiga.

Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini o‘rganishdan tahlil boshlanadi. Yil davomida asosiy vositalar tarkibida o‘zgarishlar ro‘y beradi. Shu bois, ular tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarni atroflicha tahlil etmoq lozim.

Asosiy vositalarning har bir turining jami asosiy vositalarda tutgan ulushi uning strukturasini ifodalaydi. Struktura ishlab chiqarishning xususiyati, xarakteri, ixtisoslashuv darajasi, texnologiyasiga bog‘liq. Strukturani tahlil etishda asosiy vositalardagi aktiv va passiv qismlarning nisbatiga e‘tibor qaratiladi. Ishlab chiqarish hajmi asosiy vositalarning aktiv qismiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ularning passiv qismi esa ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liqlikka ega emas, ular faqat ishlab chiqarish uchun sharoit yaratadi, xolos.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda asosiy vositalarning aktiv qismi to‘g‘risida aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Bir guruh iqtisodchilar bino va inshootlardan tashqari jami asosiy vositalarni, ikkinchi guruhdagilar mashina va uskunalar, transport vositalarini aktiv qismga kiritadilar. Bino va inshootlar asosiy vositalarning passiv qismiga kirsam ham, ammo elektr quvvati, neftni qayta ishlash, gaz va boshqa sohalarda inshootlar aktiv qism tarkibiga kiradi.

Demak, asosiy vositalarning aktiv qismiga mashina va uskunalar, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi, transport vositalarini kiritish mumkin.

Aktiv qismining yuqori bo‘lishi fond o‘svchanligini ifodalaydi.

Bugungi kunda mehnat qurollarini jalb etishning yangi shakllari, masalan, lizing va ijaraning boshqa shakllaridan keng foydalanilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolik kodeksi» ning 587-moddasi lizing shartnomasini quyidagicha sharhlaydi: «Lizing shartnomasi bo‘yicha bir taraf – lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) boshqa taraf – lizing oluvchi (ijarachi)ning topshirig‘i bo‘yicha uchinchi taraf – sotuvchi bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulkni xarid qilish uchun bitimga kirishish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to‘lovlari to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi».

Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot (3-sonli shakl) da konservatsiya qilingan asosiy vositalar, uzoq muddatli ijara (lizing) ga olingan asosiy vositalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning ifodalanishi

asosiy vositalarni kompleks iqtisodiy tahlil etish obyektini yanada kengaytiradi.

Asosiy vositalar struktura va dinamikasining tahlili

5.2.1-jadval

T/r №	Ko'rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		O'zgarishi	
		summa, mln. so'm	ulushi, %	summa, mln. so'm	ulushi, %	mutlaq summada gr3-gr1	ulushi, % gr4-gr2
A	B	1	2	3	4	5	6
1.	Jami asosiy vositalar	4594,7	100	5759,9	100	+1165,2	-
	Shu jumladan:						
1.1	aktiv qismi	2986,6	65,0	3859,1	67,0	+872,5	+2,0
1.1	passiv qismi	1608,1	35,0	1900,8	33,0	+292,7	-2,0

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jami asosiy vositalar qiymati yil boshidagi 4594,7 mln. so'mdan yil oxiriga kelib 5759,9 mln. so'mga qadar ko'tarilib, 1165,2 mln. so'mga ortgan.

Uning aktiv qismi yuqori salmoq (67,0 foiz)ni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 2,0 foizga o'sgan holda, passiv qismining ulushi o'rganilayotgan davr mobaynida 2 foizga kamaygan.

5.3. Asosiy vositalar harakati va texnik holatining tahlili

Yil davomida asosiy vositalar tarkibida o'zgarishlar ro'y beradi. Sotib olingan va qurib bitkazilgan obyektlarni ishga tushirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish tufayli asosiy vositalar safi kengayadi.

Jismoniy va ma'naviy eskirish tufayli ularning bir qismi safdan chiqariladi.

Asosiy vositalarning atmosfera sharoitlari ta'sirida va ulardan foydalanish jarayonida uning moddiy tuzilishida ichki o'zgarishlar (zanglash, chirish) sodir bo'lganda boshlang'ich holatining yo'qolishi tufayli jismoniy eskirish ro'y beradi.

Jismoniy eskirish asosiy vositalardan foydalanish jarayonida, ulardan foydalanilmayotgan hollarda ham sodir bo'ladi.

Asosiy vositalarning ma'naviy eskirishi, ularning texnikaviy tavsifi hamda iqtisodiy samaradorligining davr talabidan orqada qolishi tufayli ro'y beradi.

Ma'naviy eskirish ikki xil bo'ladi:

- asosiy vositalarni qayta ishlab chiqarishning arzonroqqa tushishi natijasida ular qiymatining kamayishi;
- yangi, ilg'or asosiy vositalarni joriy qilish va ularning texnikaviy jihatdan orqada qolishi natijasida qiymatining pasayib ketishi.

Asosiy vositalar harakatining tahlili quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlashdan boshlanadi. Asosiy vositalarni:

- ishga tushirish koeffitsiyenti;
- yangilanish koeffitsiyenti;
- chiqib ketish koeffitsiyenti;
- tugatish koeffitsiyenti;
- mashina va jihozlar parkini kengaytirish koeffitsiyenti.

Asosiy vositalar harakati bilan bog'liq ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni tahlil etish uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalanamiz.

Asosiy vositalar harakati
(mln. so'mda)

5.3.1-jadval

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga qoldiq	Kelib tushgan	Chiqim qilingan	Yil oxiriga qoldiq
Asosiy vositalar dastlabki qiymatda	4594,7	1608,1	442,9	5759,9
Shu jumladan:				
yangi asosiy vositalar		590,0		
Asosiy vositalar eskirishi	1581,0			2496,5
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	3013,7			3263,4

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida asosiy vositalar harakatini ifodalovchi quyidagi koeffitsiyentlarni aniqlaymiz.

$$\text{Asosiy vositalarni ishga tushirish koeffitsiyenti } K_{it} = \frac{\text{Ishga tushirilgan asosiy vositalar}}{\text{Asosiy vositalarning yil oxiridagi qoldig'i}}$$

$$K_{it} = \frac{1608,1}{5759,9} \cdot 100 = 27,9\%$$

$$\text{Yangilanish koeffitsiyenti } (K_{ya}) = \frac{\text{Yangi asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning yil oxiridagi qoldig'i}}$$

$$K_{ya} = \frac{590,0}{5759,9} \cdot 100 = 10,2\%$$

Tezkor texnikaviy taraqqiyot davrida ilg'or bo'lib ko'ringan texnologiyalar 5-7 yillik qisqa vaqt mobaynida ma'naviy jihatdan eskirib, ularning o'rnini yanada takomillashgan texnologiyalar egallamoqda.

$$\text{Chiqib ketish koeffitsiyenti} = \frac{\text{Asosiy vositalar chiqimi}}{\text{Asosiy vositalarning yil boshiga qoldig'i}}$$

$$K_{ch} = \frac{442,9}{4594,7} \cdot 100 = 9,6\%$$

$$\text{Tugatish koeffitsiyenti} = \frac{\text{Tugatilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning yil boshiga qoldig'i}}$$

Quyidagi xo'jalik operatsiyalari natijasida asosiy vositalar korxonalar aktivlari tarkibidan chiqib ketadi:

- realizatsiya qilinganda;
- bundan buyon foydalanish maqsadga muvofiq emasligi tufayli;
- chet korxonalar va shaxslarga bepul berilganida;
- boshqa korxonalarning ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shilganida;
- moliyaviy lizing shartnomasiga ko'ra topshirilganida;
- kamomad yoki yo'qotish aniqlanganida.

Mahsulot assortimentini yangilash, uning sifatini talab darajasiga ko'tarish, mehnat unumdorligini oshirish, tannarxni pasaytirish doimo ishlab chiqarishni yangi texnika bilan jihozlashni talab etadi.

$$\text{Almashtirish koeffitsiyenti} = \frac{\text{Asosiy vositalar chiqimi}}{\text{Kelib tushgan asosiy vositalar}}$$

$$K_a = \frac{442,9}{1608,1} \cdot 100 = 27,5\%$$

Mashina va jihozlar parkini kengaytirish koeffitsiyenti (K_k)=100-27.5=72,5%.

Asosiy vositalarning texnik holatini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

- yaroqlilik koeffitsiyenti;
- eskirish koeffitsiyenti.

Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti (K_{yaroq}) ularning qoldiq qiymatini dastlabki qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$K_{yaroq} = \frac{1sh \cdot 012.satr}{1sh \cdot 010.satr}$$

Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti tahlili

5.3.2-jadval

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri
1. Asosiy vositalarning dastlabki qiymati, mln. so'm	4594,7	5759,9
2. Asosiy vositalar eskirishi, mln. so'm	1581,0	2496,5
3. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati (1q-2q)	3013,7	3263,4
4. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti (3q:1q).100	65,5	56,6

Yaroqlilik koeffitsiyentini jami asosiy vositalar, shu jumladan, asosiy ishlab chiqarish fondlari, asosiy vositalarning har bir turlari bo'yicha ham aniqlash mumkin. Bizning misolimizda asosiy vositalarni yaroqlilik darajasi yil boshidagi 65,5 foizdan yil oxiriga kelib 56,6 foizga qadar pasaygan.

Asosiy vositalarni eskirish koeffitsiyenti (K_e), ularning eskirish summasini asosiy vositalarni dastlabki qiymatiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$K_e = \frac{1sh \cdot 011.satr}{1sh \cdot 010.satr}$$

Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti tahlili

5.3.3-jadval

Ko'rsatkichlar	Asosiy vositalarning dastlabki qiymati, mln. so'm	Asosiy vositalarning eskirishi, mln. so'm	Eskirish koeffitsiyenti, %
Yil boshi	4594,7	1581,0	34,5
Yil oxiri	5759,9	2496,5	43,4
O'zgarishi	+1165,2	+915,5	+8,9

Asosiy vositalar eskirish darajasi dinamikasini o'rganish orqali asosiy ishlab chiqarish fondlarining yangilanishi, asosiy vositalarning ishlatish muddatlarini baholash mumkin. Eskirish darajasi amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari, asosiy vositalar tarkibidagi o'zgarishlar, amortizatsiya normalariga bog'liq. Tahlil etilayotgan korxonada eskirish darajasi 34,5 foizdan 43,4 foizga qadar ko'tarilgan holda, uning yaroqlilik darajasi 65,5 foizdan 56,6 foizga (100-43,4) ga qadar pasaygan.

5.4. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish tahlili

Firma, kompaniya va korxonalar asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishi tufayli ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi pasayadi, foyda va rentabellik oshishiga erishiladi. Mahsulot tannarxining pasayishi, raqobatbardoshligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 15-martdagi «Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega.

Mazkur farmonga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarishga zamonaviy uskunalarni muntazam kiritish asosida modernizatsiyalashni ta'minlasa, yangi texnika ishlab chiqarishga joriy etilgan paytdan boshlab, quyidagi qo'shimcha imtiyozlarga ham ega bo'ladilar:

– ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun berilgan kreditlarni qaytarishga, lizing obyektini to'lashga yo'naltirilgan mablag'lar miqdorida uch yil mobaynida foydadan olinadigan soliq bazasi tegishli hisobot davri uchun

hisoblangan amortizatsiya mablag‘lari foydalanish sharti bilan kamaytiriladi;

– ishlab chiqarishga joriy etilgan yangi texnologik jihozlar besh yil muddatga mulk solig‘idan ozod etiladi;

– soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi qo‘llaniladigan ishlab chiqarish mikrofirmalari va kichik korxonalari uchun besh yil davomida yagona soliq to‘lovi to‘lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha qonunchilikda belgilangan bojxona to‘lovlarini to‘lashda imtiyozlardan foydalaniladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish quyidagi ko‘rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi.

– umumiy ko‘rsatkichlar;

– yakka ko‘rsatkichlar.

Umumiy ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

1) fond rentabelligi;

2) fond qaytimi;

3) fond sig‘imi;

4) asosiy ishlab chiqarish fondlaridan nisbiy iqtisod.

Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarni kompleks tahlil etishda ko‘rsatkichlar dinamikasi, rejasining bajarilishi, raqobatdagi korxonalar ma‘lumotlari bilan taqqoslash orqali asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish ko‘rsatkichlariga baho beriladi. Bozor munosabatlari sharoitida asosiy ishlab chiqarish fondlarining har so‘miga to‘g‘ri keladigan foyda miqdori (fond rentabelligi) muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda

Fond rentabelligi = $\frac{\text{Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda}}{\text{Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati}}$

Fond qaytimi (F_q) asosiy ishlab chiqarish fondlarining har so‘mi (100, 1000 so‘mi)ga to‘g‘ri keladigan mahsulot (Q) hajmini ifodalaydi.

$$F_q = \frac{Q}{A_r}$$

Masalan, ishlab chiqarish hajmi – 10,0 mln. so‘m, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘rtacha yillik qiymati – 5 mln. so‘m

$$f_q = \frac{10,0}{5,0} = 2 \text{ so‘m.}$$

Demak, asosiy ishlab chiqarish fondlarining har soʻmiga toʻgʻri keladigan mahsulot hajmi 2 soʻmni tashkil etgan. Fond qaytimi barcha asosiy vositalar, shu jumladan, uning aktiv qismi boʻyicha ham aniqlanadi. Koʻrsatkichlarning bir necha yillar boʻyicha dinamikasini tahlil etishda mahsulot hajmi (ish, xizmat) hamda asosiy ishlab chiqarish fondlarini taqqoslash holatiga keltirish kerak. Mahsulot hajmi (ish, xizmat) oʻzgarmas solishtirma bahoda, asosiy ishlab chiqarish fondlari esa qayta baholangan (qayta baholash koeffitsiyentini qoʻllash) qiymatda ifodalanishi lozim.

Fond sigʻimi (F_s) fond qaytimining aksidir. F_s – mahsulot qiymatining har soʻmi (100, 1000)ga toʻgʻri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarini ifodalaydi.

$$F_s = \frac{\overline{A_f}}{Q}$$

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan nisbiy iqtisod (ortiqcha sarf) quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{\text{nisb}}(A_f) = (F_s^1 - F_s^0) * Q$$

Bunda, A_f – asosiy ishlab chiqarish fondlari;

F_s^1, F_s^0 – hisobot davri, bazis davrlarining fond sigʻimi;

Q – hisobot davridagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi.

Asosiy vositalar va mahsulot hajmining oʻsish surʼatlarini nisbati orqali fond sigʻimining chegarasi, yaʼni mahsulot hajmi oʻsishining har bir foiziga asosiy vositalarning oʻsish surʼati aniqlanadi. Masalan, mahsulot hajmi (Q) ning bazis davriga nisbatan oʻsish surʼati – 108%. Asosiy ishlab chiqarish fondlari (A_f) ning oʻsish surʼati 105%. Mahsulot hajmi oʻsishining har bir foiziga asosiy ishlab chiqarish fondlarining oʻsishi 0,97 (105:108) ni tashkil etadi. Fond sigʻimining chegara koʻrsatkichi «1» dan kichik boʻlsa, asosiy vositalardan samarali foydalanilganlikni ifodalaydi. Fond qaytimining ortishi ishlab chiqilgan mahsulotning har soʻmiga toʻgʻri keladigan amortizatsiya ajratmalari summasi yoki amortizatsiya sigʻimining pasayishiga va mahsulot bahosidagi foyda hissasining ortishiga olib keladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish tahlili

5.4.1-jadval

Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Hisobot davri	Farqi (+/-)	O'sish sur'ati, %
1. Mahsulot hajmi, mln. so'm	8750	10865	+2115	124,1
2. Asosiy ishlab chiqarish fondlarini o'rtacha yillik qiymati, mln. so'm	3500	4100	+600	117,1
3. Fond qaytimi, so'm	2,50	2,65	+0,15	106,0
4. Fond sig'imi, so'm	0,400	0,377	-0,023	94,2

5.4.1-jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'sish sur'ati (117,1%) ga nisbatan mahsulot hajmini yuqori darajada ortishi tufayli fond qaytimi bazis davridagi 2,50 so'mdan hisobot davriga kelib 2,65 so'mga qadar ko'tarilgan, fond sig'imi esa 0,023 so'mga pasaygan. Asosiy vositalar o'sishining har bir foiziga mahsulot hajmining o'sishi $\frac{24,1}{17,1} = 1,409$ birlikni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich ishlab chiqarishni texnologik jihatdan samaradorligini aniqlash va uzoq muddatga mo'ljallangan korxonaning ish samaradorligini baholashda qo'llaniladi. Fond sig'imining pasayishi tufayli asosiy vositalardan nisbiy iqtisod bizning misolimizda 249,9 mln. so'mni tashkil etgan.

$$(0,377-0,400) \cdot 10865 = -249,9$$

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning kompleks iqtisodiy tahlilida fond qaytimini oshirish yo'llari belgilanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- uskunalardan foydalanish vaqtini uzaytirish;
 - uskunalardan intensiv foydalanish;
 - asosiy vositalar aktiv qismini oshirish;
 - ishlatilayotgan uskunalarning ulushini oshirish.
- Fond qaytimini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$F_q = U_i \cdot F_{q_0}$$

Bunda: F_q – fond qaytimi;

U_i – jami asosiy ishlab chiqarish fondlarida aktiv qismining tutgan ulushi, %;

F_{qa} – asosiy fondlar aktiv qismining fond qaytimi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari fond qaytimining bazis davridan farqiga asosiy fondlar aktiv qismi ulushining va uning fond qaytimi o'zgarishlarining ta'siri mutlaq farq usuli orqali quyidagicha aniqlanadi.


$\Delta F_q = F_q^1 - F_q^0$ – fond qaytimining bazis davridan farqi.

a) aktiv asosiy vositalar ulushi o'zgarishining ta'siri:

$$\Delta F_q(\Delta U_i) = (U_i^1 - U_i^0) * F_{qa}^0$$

b) aktiv asosiy vositalar fond qaytimi o'zgarishining ta'siri:

$$\Delta F_q(\Delta F_{qa}) = U_i^1 (F_{qa}^1 - F_{qa}^0)$$



5.4.1-chizma. Fond qaytimiga ta'sir etuvchi omillar.

T №	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Bazis davri	Hisobot davri	O'zgarishi (+, -)
1.	Mahsulot hajmi (ish, xizmat) solishtirma bahoda	mln.so'm	8750	10865	+2115
2.	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati	mln.so'm	3500	4100	+60
3.	Shu jumladan aktiv qismi	mln.so'm	2800	3600	+800
4.	Aktiv qismining jami asosiy ishlab chiqarish fondlaridagi ulushi (3q:2q):100	%	80.0	87.8	+7.8
5.	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining har 1000 so'miga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi (1q 1000):2q	so'm	2500	2650	+150
6.	Aktiv asosiy fondlarning har 1000 so'miga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi (1q 1000):3q	so'm	3125	3018	-107

O'rganilayotgan davr mobaynida asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimi bazis davriga nisbatan 150 so'mga ortgan holda, uning aktiv qismining fond qaytimi esa 107 so'mga pasaygan. Asosiy ishlab chiqarish fondlari fond qaytimining bazis davriga nisbatan 150 so'mga ortishi quyidagi omillar hisobiga ro'y bergan.

$$1. \text{ Asosiy fondlarning aktiv qismi ulushining o'zgarishi} \\ \frac{+7.8 \cdot 3125}{100} = +243 \text{ so' m.}$$

$$2. \text{ Asosiy fondlarning aktiv qismi fond qaytimini o'zgarishi:} \\ \frac{-107 \cdot 87,8}{100} = -93 \text{ so' m.}$$

$$\text{Tekshirish: } +150 = +243 - 93 \\ +150 = +150$$

5.5. Ishlab chiqarish uskunalaridan vaqti va quvvati bo'yicha foydalanish tahlili

Uskunalar (ishlab chiqarish uskunalari, mashinalar) vaqt jihatdan kalendar, rejim va yillik ish vaqti fondlariga bo'linadi.

Kalendar vaqt fondi koeffitsiyenti mashina, uskunalarni yil davomida ishlagan vaqt fondini kalendar bo'yicha vaqt fondiga bo'lish orqali aniqlanadi. Uskunalarning rejim vaqt fondidan foydalanish koeffitsiyentini aniqlash uchun yillik vaqt fondini rejim vaqt fondiga bo'lish lozim.

Mashina va uskunalarning ish vaqtidan foydalanish tahlili

5.5.1 -jadval

Ko'rsatkichlar		Hisobot yili		Farqi	
		Reja	Haqiqatda	Soat	%
1.	Kalendar vaqt fondi, soat	1305240	1305240	-	-
2.	Rejim vaqt fondi, soat	470040	461382	-8658	-1,8
3.	Yillik vaqt fondi, soat	421321	419699	-1622	-0,4
4.	Foydalanish koeffitsiyenti:				
4.1.	Kalendar vaqt fondi (3q:1q)	0,3228	0,3215	-0,0013	X
4.2.	Rejim vaqt fondi (3q:2q)	0,8963	0,9096	+0,0133	x

Mashina va uskunalarni ish vaqti fondi mashina-soat, stanko-soatlarda ifodalanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mashina, uskunalarning kalendar vaqt fondi koeffitsiyenti rejaga nisbatan pasaygan.

Pasayish asosan mavjud uskuna va dastgohlar sonining kamayishi tufayli yuz bergan. Rejim vaqt koeffitsiyenti smenalar soni hamda yil davomida ishlagan ish kunlarining o'zgarishiga bog'liq. Yillik vaqt fondining o'zgarishi esa uskuna va dastgohlarning ichki va tashqi sabablarga ko'ra ish vaqti yo'qotilishiga bog'liq. Mashina va uskunalardan foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar intensiv, ekstensiv va integral koeffitsiyentlari hisoblanadi.

Mashina va uskunalardan vaqti va quvvati bo'yicha foydalanish tahlili

5.5.2-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Farqi	
				mutlaq summa	%
1.	Mahsulot hajmi, mln. so'm	10823	10853	+30	+0,3
2.	Ishlagan mashina-soat	421321	419699	-1622	-0,4
3.	1 mashina-soatga to'g'ri keladigan mahsulot, so'm	25688	25859	+171	+0,6

Mahsulot hajmining rejaga nisbatan 30 mln. so'mga ortig'i bilan bajarilishi asosan mashina va uskunar unumdorligining o'sishi hisobiga yuz bergan. Yo'qotilgan vaqt 1622 mashina-soatni tashkil etgan. Mashina va uskunalardan vaqti va quvvati bo'yicha foydalanish koeffitsiyentlari:

Ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti:

$$419699:421321=0,9962$$

Intensiv foydalanish koeffitsiyenti:

$$25859:25688=1,0066$$

Integral foydalanish koeffitsiyenti:

$$0,9962 \cdot 1,0066=1,0027$$

5.6. Amortizatsiya ajratmalari va ularning tahlili

Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida ishlatilishi tufayli jismoniy va ma'naviy eskirib boradi.

Eskirish – asosiy vositalar (bino, inshoot, uskunar va hokazo) fizik xususiyatlarini yo'qotishi, shuningdek, texnik-iqtisodiy xossalari va buning oqibatida qiymatini yo'qotish ko'rsatkichidir. Eskirish qiymatini mahsulot tannarxiga o'tkazish orqali, korxonada mablag'larni yangi uskunalarini xarid qilishga jamlash va shu tariqa korxonaning asosiy vositalar bilan jihozlanish darajasini tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Asosiy vositalarning qiymatini amortizatsiyani hisoblab yozish yo'li bilan hisobdan chiqarishning turli xil usullari mavjud bo'lib, ulardan asosiylari quyidagilardir:

1) qiymatni bir maromda (to'g'ri chiziqli) hisobdan chiqarish usuli;

2) eskirishni bajarilgan ishlar (ishlab chiqarish) hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usuli;

3) tezlashtirilgan hisobdan chiqarishning ikki usuli:

a) qiymatning yillar yig'indisi bo'yicha hisobdan chiqarish usuli (sonlar summasi usuli) yoki kumulyativ usul;

b) kamayib boruvchi qoldiq usuli.

Quyidagi misollar orqali yuqoridagi usullarni ko'rib chiqamiz.

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati – 1.000.000 so'm.

Asosiy vositalarning tugatish qiymati – 100.000 so'm.

Asosiy vositalarning xizmat muddati – 5 yil.

Ushbu holatda har yilgi amortizatsiya amortizatsiyalanadigan qiymatning 20% ini yoki to'g'ri chiziqli hisobdan chiqarish usuliga muvofiq 180.000 so'mni tashkil qiladi. $(1.000.000-100.000):5=180.000$ so'm.

To'g'ri chiziqli usulda amortizatsiya hisoblash tartibi

Sana	Boshlang'ich qiymat	Amortizatsiya normasi	Amortizatsiya summasi	Qoldiq summasi
1-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	820.000
2-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	640.000
3-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	460.000
4-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	280.000
5-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	100.000

Amortizatsiyani bajarilgan ishlar (ishlab chiqarish) hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usuli. Masalan, yuk mashinasining boshlang'ich qiymati – 1.000.000 so'm, tugatish qiymati – 100.000 so'm, xizmat muddati – 5 yil, yo'l bosishi – 90.000 km. 1 km. ga amortizatsiya xarajatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{(Boshlang'ich\ qiymat - tugatish\ qiymat)}{Taxmin\ qilinayotgan\ ish\ birliklari\ soni} = \frac{1.000.000 - 100.000}{90.000} = 10\ so' m/km$$

Agar birinchi yildagi foydalanish chog'ida yuk mashinasi 20.000 km yo'l yurgan, ikkinchi yilda – 30.000, uchinchi yilda – 10000, to'rtinchi yilda – 20.000 va beshinchida – 10000 km yo'l bosgan bo'lsa, u holda amortizatsiya ajratmalari jadvali quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Sana	Boshlang'ich qiymat	Yillik amortizatsiya normasi	To'plangan eskirish	Qoldiq summasi
1-yil oxiri	1.000.000	200.000	200.000	800.000
2-yil oxiri	1.000.000	300.000	500.000	500.000
3-yil oxiri	1.000.000	100.000	600.000	400.000
4-yil oxiri	1.000.000	200.000	800.000	200.000
5-yil oxiri	1.000.000	100.000	900.000	100.000

Kumulyativ usulda amortizatsiya hisoblash tartibi. Yuk mashinasining xizmat ko'rsatish muddati – 5 yil. Sonlar summasi – foydalanish yillari 15 (kumulyativ sana): 1+2+3+4+5=15 ni tashkil qiladi. Keyin har bir kasrni 900.000 so'm (1000.000-100.000) ga teng bo'lgan amortizatsiyalanadigan qiymatga ko'paytirish yo'li bilan har bir yilga bo'lgan amortizatsiya summasini aniqlaymiz. 5/15, 4/15, 3/15, 2/15, 1/15.

Ushbu holatda amortizatsiya ajratmalari jadvali quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Sana	Boshlang'ich qiymat	Amortizatsiya normasi	Amortizatsiya summasi	Qoldiq summasi
1-yil oxiri	1.000.000	5/15	300.000	700.000
2-yil oxiri	1.000.000	4/15	240.000	460.000
3-yil oxiri	1.000.000	3/15	180.000	280.000
4-yil oxiri	1.000.000	2/15	120.000	160.000
5-yil oxiri	1.000.000	1/15	60.000	100.000

Qoldiq usulda amortizatsiya hisoblash tartibi

Sana	Boshlang'ich qiymat	Amortizatsiya normasi	Amortizatsiya summasi	Qoldiq summasi
1-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	820.000
2-yil oxiri	1.000.000	20	240.000	460.000
3-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	280.000
4-yil oxiri	1.000.000	20	120.000	160.000
5-yil oxiri	1.000.000	20	60.000	100.000

Bu usul orqali amortizatsiya hisoblanganda ikkinchi yildan so'ng xarajat sifatida qo'shiladigan eskirish summasi kamayib boradi. Demak, sof moliyaviy natija asosiy vositalarning so'nggi muddatlarida ko'payishi kuzatiladi.

Ikki karra oshirilgan usulda amortizatsiya hisoblash usuli

Sana	Boshlang'ich qiymat	Amortizatsiya normasi	Amortizatsiya summasi	Qoldiq summasi
1-yil oxiri	1.000.000	20x2	360.000	540.000
2-yil oxiri	1.000.000	20x2	216.000	324.000
3-yil oxiri	1.000.000	20x2	129.600	194400
4-yil oxiri	1.000.000	20x2	77760	116640
5-yil oxiri	1.000.000	20x2	-	116670

Quyidagi asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblanmaydi:

- Yer;
- mahsuldor hayvonlar, buqa va ho'kizlar;
- kutubxona fondi;
- budjet tashkilotlari, shu jumladan, ilmiy tadqiqot, konstruktorlik va texnologik tashkilotlarning vositalari;
- belgilangan tartibda konservatsiyaga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- to'liq amortizatsiyalangan asosiy vositalar.

Asosiy vositalarni uzoq muddatli asosda ijaraga olgan yuridik shaxslar amortizatsiya ajratmalarini ham o'ziga tegishli, ham ijaraga olingan asosiy vositalar bo'yicha hisoblab yozadilar. Ushbu holda ijaraga beruvchi ijaraga berilayotgan asosiy vositalar uchun amortizatsiya ajratmalarini hisoblab yozmaydi.

Amortizatsiya ajratmalari mahsulot tannarxining bir elementi bo'lib, o'zgarish xarajatlar turkumiga mansub. Mahsulot hajmining ortishi bilan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan amortizatsiya ajratmalari qisqaradi, tannarxi pasayadi, foyda esa ortadi. Aksincha, mahsulot hajmining pasayishi amortizatsiya ajratmalarining mahsulot birligidagi ulushi ortishiga, tannarx qimmatlashuviga va pirovard natijada foyda miqdorining kamayishiga olib keladi.

*Amortizatsiyaning tannarxga bo'lgan ta'siri formula orqali quyidagicha aniqlanadi:*⁶

a) zanjirli bog'lanish usuli:

$$\Delta C_N = \Delta C_N^{AF} + \Delta C_N^A = (\Delta AF \cdot A_1) + (\Delta A_1 \cdot A_{1-2}),$$

b) integral usuli:

$$\Delta C_N = \Delta C_N^{AF} + \Delta C_N^A = (\Delta AF \cdot A_1 + \dots) + (\Delta A_1 \cdot A_{F_2} + \dots),$$

Bunda: ΔC_N^{AF} ; ΔC_N^A – amortizatsiya ajratmalari va amortizatsiya qaytimi o'zgarishining sotilgan mahsulot tannarxining o'zgarishiga ta'siri:

AF_1, AF_2 – hisobot va bazis davrlariga tegishli amortizatsiya ajratmalari;

ΔAF – hisobot davridagi amortizatsiya ajratmalari summasining bazis davriga nisbatan o'zgarishi;

A_1 – bazis davrining amortizatsiya qaytimi;

ΔA_1 – hisobot davridagi amortizatsiya qaytimining bazis davriga nisbatan o'zgarishi.

5.7. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni oshirish imkoniyatlari

Asosiy vositalarni kompleks tahlil etishning asosiy vazifalaridan biri – ishlab chiqarish fondlaridan unumli foydalanishni oshirish imkoniyatlarini aniqlashdir. Fond qaytimini oshirishning quyidagi yo'nalishlarini korxonaga uchun tavsiya etish mumkin.

Tashkiliy yo'nalishlar bo'yicha:

- asosiy vositalar tarkibini qayta ko'rib chiqish;
- ortiqcha asosiy vositalarni saqlab turmaslik;
- jismoniy va ma'naviy eskirgan qismlarini hisobdan chiqarish;
- asosiy vositalar amortizatsiyasini hisoblashning korxonaga uchun maqbul bo'lgan variantini qo'llash.

⁶ Селезнева Н.Н., Ионова А.Ф. Финансовый анализ – М. Юнити, 2002, стр. 176

Texnik yo'nalishlar bo'yicha:

– uskuna va dastgohlarni ta'mirlash choralarini o'z muddatida amalga oshirish;

- mashina va uskuna parkini yangi texnika bilan kengaytirish;
- kompyuterlashtirilgan mashina va uskunalar salmog'ini oshirish;
- avtomatlashtirilgan tizimga o'tish.

Ekspluatatsiya yo'nalishlari bo'yicha:

- bir smenalik va ko'p smenalik;
- asosiy vositalar texnik holatini yaxshilash;
- kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

– bozor munosabatlari sharoitida asosiy vositalardan samarali foydalanishning ahamiyati;

- asosiy vositalar kompleks tahlilining yo'nalishlari;
- tahlilning axborot manbalari;
- aktiv va passiv asosiy vositalar;
- asosiy vositalar harakatini ifodalovchi koeffitsiyentlar;
- asosiy vositalarning texnik holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- fond qaytimi va unga ta'sir etuvchi omillar;
- ishlab chiqarish jihozlaridan vaqti va quvvati bo'yicha foydalanishning tahlili.

Savol va topshiriqlar

1. Asosiy vositalar deb nimaga aytiladi?
2. Asosiy vositalar strukturasi tahlil etishdan maqsad nima?
3. Asosiy vositalar harakatini ifodalovchi koeffitsiyentlar qanday hisoblab topiladi?
4. Asosiy vositalarni yaroqlilik va eskirish darajalari qanday aniqlanadi?
5. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?
6. Fond qaytimini tahlil etish uslubini tushuntiring.
7. Ishlab chiqarish uskunalariidan ekstensiv, intensiv va integral foydalanish koeffitsiyentlari qanday hisoblab topiladi?
8. Fond qaytimini oshirish rezervlariga nimalar kiradi?

9. Ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini hisoblang va xulosa qiling.

T №	Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Hisobot davri	O'zgarishi (+,-)
1.	Mahsulot hajmi (ish, xizmat), mln. so'm	2300	2470,6	
2.	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, mln. so'm	1821,2	1867,2	
3.	Fond qaytimi			
4.	Fond sig'imi			

10. Quyidagi ma'lumotlar asosida asosiy vositalar harakatini ifodalovchi koeffitsiyentlarni hisoblang va tegishli xulosa qiling.

- ishga tushirish koeffitsiyenti;
- yangilanish koeffitsiyenti;
- almashtirish koeffitsiyenti;
- mashina va uskunalarni kengaytirish koeffitsiyenti;
- eskirish koeffitsiyenti.

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Kelib tushdi	Chiqim qilindi	Yil oxiri
Asosiy vositalarning dastlabki qiymati, ming so'm	2966	1670,2	9,2	4627
Shu jumladan, yangi asosiy vositalar		1231,6		
Asosiy vositalarning eskirishi, ming so'm	889,8			956,8
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati, ming so'm	2076,2			3670,2

11. Asosiy ishlab chiqarish fondlari, fond qaytimini bazis davridan farqiga quyidagi omillarning ta'sirini hisoblang.

- a) asosiy fondlarning aktiv qismi ulushining o'zgarishi;
- b) aktiv asosiy fondlar fond qaytimining o'zgarishi.

T №	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Bazis davri	Hisobot davri	O'zgarishi, (+,-)
1.	Mahsulot hajmi	ming so'm	31300	32800	+1500
2.	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati	ming so'm	16470	16810	+340
3.	Shu jumladan, aktiv qismi	ming so'm	8960	9100	+140
4.	Fond qaytimi (asosiy ishlab chiqarish fondlarining har so'miga to'g'ri keladigan mahsulot)	so'm			
5.	Fond sig'imi koeffitsiyenti	koef-t			
6.	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv qismining fond qaytimi	so'm			
7.	Asosiy ishlab chiqarish fondlarida aktiv qismining tutgan ulushi	%			

Testlar

1. Asosiy vositalar deb nimaga aytiladi?

a) Moddiy ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish sohasidagi moddiy aktivlarga aytiladi;

b) Moddiy ishlab chiqarish sohasida uzoq muddat mobaynida ishlatiladigan vositalarga aytiladi;

c) Moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida uzoq vaqt mobaynida ishlatiladigan, shuningdek, ijaraga berish uchun ham foydalaniladigan moddiy aktivlarga aytiladi;

d) Moddiy ishlab chiqarish sohasida uzoq muddat mobaynida ishlatiladigan, ijaraga berish uchun ham foydalaniladigan moddiy aktivlarga aytiladi.

2. Asosiy vositalar qanday guruhlariga bo'linadi?

a) Aktiv va passiv asosiy vositalar;

b) Ijaradagi asosiy vositalar;

c) Ishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalar;

d) Barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Asosiy vositalar harakatini ifodalovchi ko‘ffitsiyentlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) Asosiy vositalarni ishga tushirish, yangilanish ko‘ffitsiyentlari;
- b) Asosiy vositalarning chiqib ketish, eskirish ko‘ffitsiyentlari;
- c) Asosiy vositalarning tugatish, eskirish ko‘ffitsiyentlari;
- d) Asosiy vositalarning yangilanish, eskirish ko‘ffitsiyentlari.

4. Asosiy vositalardan samarali foydalanishning ahamiyati nimalardan iborat?

- a) Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish;
- b) Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- c) Mehnat unumdorligini oshirish;
- d) Korxonani fond bilan ta‘minlanish darajasini oshirish.

5. Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlariga kiradi:

- a) Material qaytimining ko‘ffitsiyenti;
- b) Fond qaytimining ko‘ffitsiyenti;
- c) Asosiy vositalarning eskirish ko‘ffitsiyenti;
- d) Asosiy vositalarni ishga tushirish ko‘ffitsiyenti.

6. Asosiy vositalarning fond qaytimi qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Asosiy vositalar qiymati}}$;
- b) $\frac{\text{Asosiy vositalar qiymati}}{\text{Mahsulot ishlab chiqarish hajmi}}$;
- s) $\frac{\text{Asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati}}{\text{Sotishdan kelgan tushum}}$;
- d) $\frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati}}$.

7. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{Asosiy vositalarning qoldiq qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}$;
- b) $\frac{\text{Asosiy vositalarning qoldiq qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha dastlabki qiymati}}$;
- c) $\frac{\text{Asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning qoldiq qiymati}}$;
- d) $\frac{\text{Ishga tushirilgan asosiy vositalar}}{\text{Asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}$.

8. Asosiy vositalarning eskirish darajasi qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{Asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning eskirish summasi}}$;
- b) $\frac{\text{Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning eskirishi}}$;
- s) $\frac{\text{Asosiy vositalarning eskirish summasi}}{\text{Asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}$;
- d) $\frac{\text{Asosiy vositalarning eskirish summasi}}{\text{Asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}$.

VI bob. MEHNAT RESURLARI POTENSIALI BOSHQARILISHINING TAHLILI

6.1. Mehnat resurslari tahlilining mazmuni, vazifalari va axborot manbalari

Mehnat resurslari – mamlakat aholisining turli mulk shaklidagi korxonalarda ishlash uchun jismoniy va ma'naviy qobiliyatlarini, umumta'lim va hunar bilimlarini o'zida jamlagan qismi; mamlakat iqtisodiy potensialining eng muhim elementidir.

Respublikamizda keyingi yillarda yalpi ichki mahsulot, shu jumladan, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi yuqori sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Buni bevosita turli o'zgarishlar bilan bog'lash mumkin. Masalan, turli mulk shakllari va mazmunining o'zgarishi, boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar, erkin iqtisodiy faoliyatning cheklanmaganligi, tashqi iqtisodiy faoliyatga keng yo'l ochilishi va hokazo. Mamlakatimizdagi demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mehnatga qobiliyatli yoshlarning soni, ayniqsa, tez o'sib bormoqda. Shu bois, ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlash, ishsizlik masalasini hal etish mamlakatimizdagi eng dolzarb iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biridir. Bu vazifani hal etishning eng samarali yo'nalishlaridan biri Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, «Kichik va o'rta korxonalar sonini ko'paytirish, xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat. Yuqorida zikr etilgan sohalar, birinchi galda, biz uchun eng o'tkir bo'lib turgan aholi bandligi va uning daromadlarini oshirish muammolarini hal etishda o'ziga xos lokomotiv vazifasini bajaradigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida biz tanlagan siyosatning mutlaqo to'g'ri va uzoqni ko'zlagan holda olib borilayotganini takror va takror isbotlamoqda»⁷.

Ushbu soha mamlakatimizda eng yirik mehnat bozori, mulkdorlarning o'rta sinfini shakllantirishning asosiy omili, millionlab odamlar uchun daromad manbayi hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2007-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi // «Toshkent oqshom» gazetasi, 2008-yil 2-fevral

tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 2011-yilda – 54 foizni, xizmat ko‘rsatish sohasining salmog‘i 50,5 foizni tashkil etdi. 2011–2016-yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohaslarini YaIM dagi ulushi 54-56 foizni tashkil etishi kerak.

Mamlakatimizda ishchi kuchi bandligi samaradorligini ta‘minlash uchun davlatni bandlik siyosatining quyidagi yo‘nalishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq:

– oilaviy biznes va kichik xususiy korxonalar rivojlantirilishini jadallashtirish;

– mazkur maqsadlarda mikroreditlash tizimini rag‘batlantirish;

– yirik sanoat korxonalari va nisbatan kichikroq bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalari bilan kasanachilikni kengaytirish asosidagi kooperatsiyani rivojlantirish imkoniyatlaridan keng qamrovli foydalanish;

– mahalliy xomashyoni puxta qayta ishlashga va tayyor raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan yengil va oziq-ovqat, qayta ishlash sanoatining ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish;

– xizmat ko‘rsatish sohaslarini rivojlantirish, qishloq joylarida qishloq xo‘jaligiga taalluqli bo‘lmagan bandlik sohaslarini kengaytirish masalalarini hal etishga e‘tiborni kuchaytirish;

– ishsizlarni kasbiy o‘qitish va jamoat ishlari tizimlarini takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan xizmatlar ishini faollashtirish.

Respublikamiz aholisining talaygina qismini yoshlar tashkil etadi. Yosh mutaxassis va kadrlarni tayyorlash, ularga zamonaviy bilimlar berish, ularning o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov ta‘kidlaganidek, «..hayotga kirib borayotgan yosh avlodni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, uning oldida keng yo‘l ochib berish, buning uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etishdan iborat. ... ishonamanki, biz bu yo‘lda o‘z maqsadimizga albatta yetamiz»⁸.

Mehnat resurslarining kompleks iqtisodiy tahlili orqali korxonaning xodimlar bilan ta‘minlanishi va ulardan foydalanishi, ularning tarkibi, tuzilishi, kasbiy mahorati, xodimlar malakasini oshirish, ish vaqtdan foydalanish ko‘rsatkichlariga baho beriladi. Mehnat resurslaridan foydalanishni tahlil etishdan maqsad mehnat unumdorligini

⁸ Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta‘minlash – bizning oliy maqsadimiz. –T «O‘zbekiston», 2008, 42-bet

oshirish rezervlari hisobiga mahsulot hajmining o'sishini, ish vaqtidan to'liq foydalanish va boshqa omillar evaziga mahsulot tannarxini pasaytirishdan iborat. Mehnat resurslaridan foydalanish tahlilining asosiy vazifalari:

- korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, uning tarkibi, strukturasi, kasbiy mahoratini tahlil etish;

- ish vaqtidan to'liq foydalanish, ish vaqtini yo'qotish sabablarini aniqlash;

- xodimlar harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'zgarish sabablarini obyektiv baholash;

- mehnat unumdorlik ko'rsatkichlarini mahsulot hajmiga bo'lgan ta'sirini hisoblash;

- mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash.

Mehnat resurslarini kompleks iqtisodiy tahlil etishning axborot manbalari: Mehnat resurslaridan foydalanish to'g'risidagi 1-T «Mehnat hisoboti» shakli, ish vaqtidan foydalanish, ish vaqti balansi to'g'risidagi hisobot, ishga kelish-ketish to'g'risidagi tabel, ish kuni fotografiyasi, ishlab chiqarish normasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotnoma va boshqa manbalar.

6.2. Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanishining tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, uning tannarxi va moliyaviy natijalari korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga bog'liq. Ishlab chiqarish hajmining ortishi xodimlar soni o'zgarmagan yoki qisqargan holda mehnat unumdorligining o'sishi hisobiga erishish lozim.

Korxonaning barcha bo'g'inlarida mehnat qiladigan xodimlar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) ishlab chiqarish xodimlari;
- 2) noishlab chiqarish xodimlari.

Ishlab chiqarish xodimlari, ya'ni asosiy ishlab chiqarish xodimlari tarkibiga mahsulot ishlab chiqarish va sanoat xarakteridagi ishlarni bajarish, ishlab chiqarishni tashkil etish va korxonani boshqarishdagi xodimlar kiradi.

Noishlab chiqarish xodimlari qatoriga transport, uy-joy kommunal xo'jaligi, madaniy-ma'rifiy sohalardagi xodimlar kiradi.

Ishchi kuchi tahlili korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanishini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun jami ishlab chiqarish xodimlari, shu jumladan, ayrim kategoriyadagi xodimlarning haqiqiy soni biznes rejadagisi bilan taqqoslanib, xodimlarning ortiqcha yoki yetishmasligi aniqlanadi.

Ishchilar soni ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqlikka ega. Mahsulot hajmi nafaqat mehnat unumdorlik darajasiga, balki ishchilar sonining rejaga nisbatan ortiqcha yoki yetishmasligiga ham bog'liq.

Ammo ishchilar soni yangi texnikani ishlab chiqarishga joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish hisobiga qisqarishi mumkin. Tahlil etish davomida ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarning sabablari aniqlanadi. Strukturani o'tgan yil, hisobot yilining rejasidan farqlanishi ishlab chiqarish hajmi, uning assortimenti, tarmoq xususiyati va ixtisoslashuviga bog'liq.


Mehnat resurslarining strukturasi va dinamikasining tahlili

6.2.1-jadval

Xodimlar kategoriyasi	O'tgan yil	Hisobot yili				Farqi (+,-)	
		biznes reja		haqiqatda		o'tgan yildan	biznes – rejadan
		soni	%	soni	%		
A	1	2	3	4	5	6	7
Ishchilar	649	624	79,6	601	79,2	-48	-23
Xizmatchilar	172	120	15,3	118	15,5	-54	-2
Rahbar xodim va mutaxassislar	53	40	5,1	40	5,3	-13	-
Qorovullik xizmati xodimlari	-	-	-	-	-	-	-
Jami ishlab chiqarish xodimlari	874	784	100	759	100	-115	-25

6.2.1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, korxonada mehnat resurslari bilan yetarlicha ta'minlanmagan. Biznes-rejaga nisbatan xodimlar soni 25 kishiga, o'tgan yilga nisbatan esa 115 kishiga qisqargan. Bunday o'zgarishlar xodimlar tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarga olib kelgan. Jumladan, ishchilar sonining jami ishlab chiqarish xodimlari

tarkibidagi ulushi biznes-rejadagi 79,6 foizdan haqiqatda 79,2 foizga qadar pasaygan. Qolgan kategoriyadagi xodimlar ulushi biznes-rejaga nisbatan biroz ko'tarilgan. Mehnat resurslari tahlil etilayotgan korxonada garchand ishchilar soni hisobot davrida o'tgan yil hamda hisobot yilining biznes-rejasiga nisbatan qisqargan bo'lsa ham, mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshgan. Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi mehnat unumdorligining o'sishi evaziga ro'y bergan.



6.2.1-chizma. Mehnat resurslaridan foydalanish tahlili.

Yil davomida ishchilar tarkibida ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish tufayli o'zgarishlar ro'y beradi. *Ishchi kuchi harakatini* quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

– ishchilarni ishga qabul qilish oboroti koeffitsiyenti:

$$k_{\text{q}} = \frac{\text{Ishga qabul qilingan ishchilar soni}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni}};$$

– ishdan bo'shatish oboroti koeffitsiyenti:

$$k_{\text{b}} = \frac{\text{Ishdan bo'shagan ishchilar soni}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni}};$$

– qo'nimsizlik koeffitsiyenti:

$$k_{\text{a}} = \frac{\text{O'z arizasiga muvofiq va mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan ketgan ishchilar soni}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni}};$$

Faoliyati tahlil etilayotgan korxonada ishchi kuchi harakatining dinamikasi quyidagi ko'rsatkichlardan iborat:

Ishchi kuchi qo'nimsizligining tahlili

6.2.2-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili
1.	Ro'yxat bo'yicha ishchilar soni	649	601
2.	Ishga qabul qilingan ishchilar	118	109
3.	Ishdan bo'shaganlar soni	163	155
	Shu jumladan:		
3 «a»	o'z xohishiga muvofiq	53	45
3 «b»	mehnat intizomini buzganligi va boshqa sabablarga ko'ra	87	80
3 «v»	o'quv yurtiga kirganligi, armiya safiga chaqirilishi, nafaqaga chiqishi tufayli	23	30
4.	Ishga qabul qilish koeffitsiyenti	0,182	0,181
5.	Ishdan bo'shatish koeffitsiyenti	0,251	0,258
6.	Ishchi kuchining qo'nimsizlik koeffitsiyenti	0,216	0,208

Korxonada qo'nimsizlik koeffitsiyenti yuqori darajada. Tahlil etish davomida qo'nimsizlikning yuqori bo'lishiga sabablar (mehnat xarakteridan qoniqmaslik, mehnat sharoitining qoniqarsizligi, ish haqining pastligi va h.k.) ijtimoiy so'rov anketalari orqali atroflicha o'rganib chiqiladi. Qo'nimsizlikka oid ma'lumotlar buxgalteriya, statistik hisobotlarda aks etmaydi, shu bois so'rov anketalari natijalariga asoslangan holda o'rganiladi.

Ishlab chiqarish hajmi ishchilarning kasbi bo'yicha ta'minlanishiga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Korxonaning kasbi bo'yicha ishchilar bilan ta'minlanishining tahlili

6.2.3-jadval

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		Rejaning bajarilishi, %	Rejadan farqi (+,-)	
	reja	haqiqatda		soni	%
Qoliplovchi, shakl beruvchi ishchilar	144	111	77,1	-33	-22,9
Bezak beruvchilar	150	160	106,7	+10	+6,7
Tokarlar	170	155	91,1	-15	-8,9
Chilangarlar	90	105	116,6	+15	+16,6
Payvandchilar	70	70	100,0	-	-
Jami ishchilar	624	601	96,3	-23	-3,7

Korxonada asosiy kasbdagi ishchilar bilan 96,3 foizga ta'minlangan. Qoliplovchi, shakl beruvchi, tokar kasbidagi ishchilarning yetishmasligi 48 kishini tashkil etadi. Bunday holatda ishlab chiqarish bir maromda kechmaydi, tugallanmagan ishlab chiqarish ortadi, omborlarda butlanmagan mahsulot hajmi to'planib, mablag'lar aylanishi sekinlashadi.

6.3. Ish vaqtdan foydalanish tahlili

Ish vaqtdan foydalanish tahlili kalendar ish vaqti fondlarini o'z ichiga oladi. Kalendar ish vaqti fondi o'rganilayotgan davrdagi kunlarni ishchilarning ro'yxat bo'yicha soniga ko'paytmasidan hosil bo'ladi. Kalendar ish fondidan dam olish va bayram kunlari hamda rejalashtirilgan ta'til, qo'shimcha ta'til, kasallik kunlarini ayirish orqali reja bo'yicha ish vaqti fondi hosil bo'ladi. Ish vaqtdan foydalanishni tahlil etishda jami ishchilarning ishlagan ish vaqti fond (kishi-kun, kishi-

soat) lari rejalashtirilgan, o'tgan yil ko'rsatkichlari bilan taqqoslanib, ish vaqtdan to'liq foydalanmaslik sabablari aniqlanadi. Ularga ma'muriyat ruxsati bilan ishchilarning boshqa ishlarga jalb etilishi, kasallik tufayli, mehnat intizomiga rioya qilinmasligi tufayli ish vaqti yo'qotilishi kiradi.

Ishchilarning ish vaqti fondi (IVF) ishchilar soni (Is), bir ishchining yil davomida ishlagan kunlari (K) va ish kuni davomiyligi (D) ning ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

$$IVF = Is \cdot K \cdot D$$

1-T «Mehnat hisoboti» shakli ma'lumotlari asosida bir ishchining yil davomida ishlagan kunlari, ish kunining davomiyligi quyidagicha aniqlanadi.

$$K = \frac{\text{Jami ishchilarning ishlagan kishi-kunlari}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni}}$$

$$D = \frac{\text{Jami ishchilarning ishlagan kishi-soatlari}}{\text{Jami ishchilarning ishlagan kishi-kunlari}}$$

Ishchilarning ish vaqtdan foydalanish tahlili

6.3.1-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
			Reja	Haqiqatda	o'tgan yildan	Rejadan
1.	Ishchilarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni (Is)	649	624	601	-48	-23
2.	Bir ishchining yil davomida ishlagan kunlari (K)	263	260	257	-6	-3
3.	Bir ishchining yil davomida ishlagan soatlari (S)	2055,9	2027,5	2017,9	-38,0	-9,6
4.	Ish kuni davomiyligi (D), soatda	7,79	7,80	7,85	+0,06	+0,05
5.	Ish vaqti fondi (IVF), ming kishi-soatda	1334,3	1265,2	1212,8	-121,5	-52,4

O'tgan yilga nisbatan ish vaqtining yo'qotilishi 121,5 ming kishi-soat, hisobot yilining rejasiga nisbatan 52,4 ming kishi-soatlarni tashkil etgan. Ish vaqti fondining o'zgarishi quyidagi omillar ta'siri natijasida ro'y bergan:

a) ishchilar soni:

$$\Delta IVF(is) = (Is^1 - Is^0) \cdot K^o \cdot D^o$$

$$\Delta IVF(is) = (601 - 624) \cdot 260 \cdot 7,80 = -46,6 \text{ min g kishi - soat}$$

b) bir ishchining ishlagan kunlari:

$$\Delta IVF(k) = Is^1 \cdot (K^1 - K^o) \cdot D^o$$

$$\Delta IVF(k) = 601 \cdot (257 - 260) \cdot 7,80 = -14,0 \text{ min g kishi - soni}$$

d) ish kuni davomiyligi:

$$\Delta IVF(D) = Is^1 \cdot K^1 \cdot (D^1 - D^o)$$

$$\Delta IVF(D) = 601 \cdot 257 \cdot (+0,05) = +7,7 \text{ min g kishi - soat}$$

Ish vaqtidan foydalanish tahlilining natijalarini quyidagi jadvalga joylashtiramiz

6.3.2-jadval

Ko'rsatkich	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Rejadan farqi	Shu jumladan o'zgarishi			
				Ishchilar soni	Bir ishchining ishlagan kunlari	Ish kunining davomiyligi	Hisob-kitobda yo'l qo'yilgan xato
Ish vaqti fondi (IVF), ming kishi-soatda	1265,2	1212,8	-52,4	-46,6	-14,0	+7,7	+0,5

Ish vaqtining yo'qotilishi 60,6 (46,6+14,0) ming kishi-soatni tashkil etgan. Ish kuni davomiyligining uzayishi hisobiga yo'qotilgan soat biroz qisqarib, 52,4 ming soatni tashkil etgan.

Ish vaqtidan foydalanishning kompleks iqtisodiy tahlilida ish vaqtining unumsiz sarflanishiga katta ahamiyat beriladi. Ish vaqtining unumsiz sarflanishiga brakni tuzatish uchun sarflangan vaqt, texnologik jarayonlardagi xatolarni bartaraf etish bilan bog'liq ish vaqti sarflari kiradi.

6.4. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va ular dinamikasining tahlili

Mehnat unumdorligi ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir, uni oshirish iqtisodiy o'sishning asosiy omilidir. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, uning tannarxi, xodimlar soni,

ish haqi fondi ko'p jihatdan mehnat unumdorligiga bog'liq. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishni quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

– mehnat unumdorligining o'sish sur'ati;

– mahsulot hajmining ortishida mehnat unumdorligi o'sishining hissasi;

– xodimlar sonining nisbiy qisqarishi;

– ish haqi fondidan nisbiy iqtisod;

– mehnat unumdorligining o'sish sur'atining o'rtacha ish haqi o'sishiga nisbati.

Mehnat unumdorligining o'lchov birliklari:

– qiymat, natura va mehnat.

a) qiymat shakli $M_u = \frac{Q}{x}$,

Bunda, M_u – mehnat unumdorligi (bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulot);

Q – ishlab chiqarilgan mahsulot solishtirma ulgurji bahoda;

X – xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni.

b) natura $M_u = \frac{Q_{\text{tonna, kg, m, ...}}}{x}$,

d) mehnat $M_u = \frac{T}{Q}$.

Bunda, T – mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt (kishi-kun, kishi-soat);

Q – mahsulot miqdori (dona, kg, va h.k.).

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichining qiymat shakli kamchiliklardan xoli emas. Masalan, sarflangan xomashyo, yoqilg'i, energiya narxlari va tariflari, mahsulot tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar unumdorlik darajasiga ta'sir etadi.

Natura shakli mehnat unumdorligini aniq ifodalaydi. Ammo bu o'lchov birligi bir turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda qo'llanilishi mumkin (ko'mir qazish, elektr energiya, neftni qayta ishlash korxonalari).

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari:

– bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot;


– bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot;

– ishchining bir kunlik ish unumi;

– ishchining bir soatlik ish unumi.

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini kompleks tahlil etish uchun ko'rsatkichlar o'tgan yil, hisobot yilining rejasi, bir xil ixtisosga ega

bo'lgan korxonaga ma'lumotlari bilan taqqoslanib, ishga solinmagan ichki imkoniyatlar aniqlanadi.



6.4.1-chizma. Mehnat unumdorligining omilli tizimi.

Mehnat unumdorligining umumiy ko'rsatkichi – bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotdir (GV_x). Bu ko'rsatkich ishchining bir kunlik, bir soatlik (ChV) ish unumlaridan tashqari, ishchining jami xodimlar tarkibida tutgan ulushi (Ul), bir ishchining ishlagan kunlari (K) va ish kuni davomiyligi (D) ga ham bog'liq.

Ishchining bir soatlik ish unumining ortishi, ishchilarning ish vaqtidan to'liq unumli foydalanish bir xodimning mehnat unumdorligi oshishini ta'minlaydi. Demak, bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$GV_x = Ul \cdot K \cdot D \cdot ChV$$

O'z navbatida, bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi quyidagi omillar ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

$$GV_x = K \cdot D \cdot ChV$$

Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot (GV_x) qisqargan shaklda quyidagi omillar ko'paytmasidan iborat:

$$GV_x = Ul \cdot GV_u$$

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari darajasi va dinamikasining tahlili
6.4.1-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili		Farqi, (+,-)	
			Biznes-reja	Haqiqatda	O'tgan yildan	Biznes-rejadan
	A	1	2	3	4	5
1.	Mahsulot hajmi (ish, xizmat) solishtirma ulgurji bahoda, ming so'm	2093520	2203880	2545500	+451980	+341620
2.	Ishlab chiqarish xodimlarining ro'yxat bo'yicha soni	874	784	759	-115	-25
3.	Shu jumladan, ishchilar soni	649	624	601	-48	-23
4.	Ishchilarning jami ishlab chiqarish xodimlari tarkibida tutgan ulushi, %	74,25	79,59	79,18	-4,93	-0,41
5.	Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari: Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, ming so'm	2395,3	2811,1	3353,7	+958,4	+542,6

6.	Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, ming so'm	3225,7	3531,8	4235,4	+1009,7	+703,6
7.	Ishchining bir kunlik ish unumi, so'm	12264,3	13587,4	16475,7	+4211,4	+2888,3
8.	Ishchining bir soatlik ish unumi, so'm	1569,0	1741,9	2098,8	+529,8	+356,9

6.4.1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, korxonada mahsulot hajmi rejasi 341620 ming so'mga yoki 15,5 foiz (341620:2203880 100%)ga ortig'i bilan ado etilgan. O'tgan yilga nisbatan bu ko'rsatkich 451980 ming so'mni yoki 21,5 foiz (451980:2093520 100%) ni tashkil etgan. Hisobot davrida xodimlar soni o'tgan yilga hamda biznes-rejaga nisbatan sezilarli darajada qisqargan holda mahsulot hajmi mehnat unumdorligining ortishi hisobiga o'sgan. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari o'tgan yilga, hisobot yilining rejasiga nisbatan yuqori bo'lgan. Bir xodimga to'g'ri keladigan yillik mahsulotni biznes-rejaga nisbatan 542,6 ming so'mga ortishi quyidagi omillar ta'siri ostida ro'y bergan.

$$GV_x = UI \cdot GV_u$$

1. Ishchilarning jami ishlab chiqarish xodimlari tarkibida tutgan ulushining o'zgarishi:

$$\Delta GV_x(ui) = (UI^1 - UI^0) \cdot GV_u^o$$

$$\Delta GV_x(ui) = \frac{-0,41 \cdot 3531,8}{100} = -14,5 \text{ min g so'm}$$

2. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmining o'zgarishi:

$$\Delta GV_x(GV_u) = UI^1 \cdot (GV_u^1 - GV_u^o)$$

$$\Delta GV_x(GV_u) = \frac{79,18 \cdot (+703,6)}{100} = +557,1 \text{ min g so'm}$$

Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi ishchining ish vaqtidan to'liq foydalanishi va ishchining bir soatlik ish

unumiga bog'liq. Mahsulot hajmi, ishchilar soni va ish kuchidan intensiv foydalanish natijasi mehnat unumdorligiga bog'liq. Mehnatni texnik jihatdan qurollanish darajasi ishchi kuchi mehnati unumdorligini oshirish omilidir. Mehnat intensivligi vaqt birligi ichida yaratilgan mahsulot miqdori bilan o'lchanadi. Uning darajasi ish vaqtdan to'liq foydalanishga bog'liq. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmining (GV_i) bazis davridan farqiga ta'sir etuvchi omillar formula asosida quyidagicha aniqlanadi.

$$GV_n = K \cdot D \cdot ChV'$$


– bir ishchining ishlagan kunlari (K) ta'siri:
 $\Delta GV_n(k) = (K^1 - K^0) \cdot D^0 \cdot ChV^0$

– ish kuni davomiyligi (D) ta'siri:

$$\Delta GV_n(D) = K^1 \cdot (D^1 - D^0) \cdot GV^0$$

– ishchining bir soatlik ish unumi ta'siri (ChV):

$$\Delta GV_n(ChV) = K^1 \cdot D^1 (ChV^1 - ChV^0)$$



6.4.1-chizma. Mehnat unumdorligini oshirish rezervlari.

Mehnat unumdorligining kompleks tahlilida bir soatlik ish unumining o'sish sur'atlari va ish vaqtini yo'qotish sabablari o'rganiladi. Buning uchun ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi unga sarflangan vaqt bilan taqqoslanadi. Bunday taqqoslash natijalarining quyidagi variantlari mavjud:

a) mahsulotni ishlab chiqarish uchun mehnat sarfi qisqargan holda mahsulot hajmining ortishi;

b) mahsulot hajmi o'sishining mehnat sarfiga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi;

- d) mehnat sarfi o'zgaragan holda mahsulot hajmining ortishi;
- e) mehnat sarfining qisqarish darajasiga nisbatan mahsulot hajmi kamayishining sekinlashishi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- mehnat resurslari;
- mehnat ko'rsatkichlari;
- mehnat resurslarining kompleks tahlili;
- korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishi;
- xodimlar tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar;
- ishchilar harakati oborot ko'rsatkichlari;
- qo'nimsizlik koeffitsiyenti;
- ishchilarning ish vaqti fondi;
- mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari;
- bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot hajmiga omillar ta'siri;
- bir ishchining mehnat unumining o'zgarish sabablari;
- mehnat unumdorligini oshirish rezervlari.

Savol va topshiriqlar

1. Korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishi miqdor va sifat jihatdan qanday tahlil etiladi?
2. Mehnat resurslarini kompleks iqtisodiy tahlil etishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Kadrlar qo'nimsizligini tahlil etishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
4. Ish vaqti fondiga qanday omillar ta'sir etadi?
5. Ish vaqti yo'qotilishini qisqartirish hisobiga mahsulot hajmini oshirish rezervlari qanday aniqlanadi?
6. Mehnat unumdorligining umumiy, yakka va yordamchi ko'rsatkichlariga izoh bering.
7. Bir xodimga va bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash uslubini izohlang.
8. Mehnat unumdorligini oshirish rezervlariga nimalar kiradi?
9. Ishchilar harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar asosida:
 - a) ishga qabul qilish koeffitsiyenti;
 - b) ishdan bo'shatish koeffitsiyenti;
 - c) qo'nimsizlik koeffitsiyentlarini aniqlang va xulosa qiling.

Ko'rsatkichlar	Ishchilar soni
Ishga qabul qilinganlar	297
Ishdan bo'shaganlar	329
Shu jumladan:	
– boshqa korxonalar, qurilish va tashkilotlarga shartnoma muddatining tugashi tufayli o'tkazildi	21
– armiya safiga chaqirilishi, nafaqaga chiqishi, o'quv yurtlariga qabul qilinishi	103
– o'z arizasiga muvofiq	100
– mehnat intizomini buzganligi uchun	105
Ishchilarning ro'yxat bo'yicha soni	1337

10. Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmining o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblang.

T №	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yilining rejasi	Hisobot yilining haqiqiyi	Hisobot yili foiz hisobida	
					o'tgan yilga nisbatan	rejaga nisbatan
1.	Mahsulot hajmi, ming so'm	3383600	3578000	3638600		
2.	Ishlab chiqarish xodimlari	1897	1878	1870		
3.	Shu jumladan, ishchilar	1359	1320	1337		
4.	Ishchilarning jami xodimlar tarkibida tutgan ulushi, %					
5.	Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot					
6.	Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot					

11. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmiga omillar ta'sirini hisoblang.

T №	Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		Rejadan farqi (+,-)	
		reja	haqiqatda	summa	%
1.	Mahsulot hajmi, ming so'm	3578000	3638600		
2.	Jami ishchilarning yil davomida ishlagan kishi-kunlari	306240	304836		
3.	Jami ishchilarning yil davomida ishlagan kishi-soatlari	2388672	2362479		
4.	Ishchilarning ro'yxat bo'yicha soni	1320	1337		
5.	Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot				
6.	Bir ishchining ishlagan kunlari				
7.	Ishchining bir soatlik ish unumi				

11. Quyidagi ma'lumotlar asosida mahsulot hajmiga ishchilar soni, bir ishchining ishlagan kunlari, ish kuni davomiyligi, ishchining bir soatlik ish unumi o'zgarishining ta'sirini foizlarni farq usuli orqali aniqlang.

Mahsulot hajmini oshirish rezervini hisoblang.

Ko'rsatkichlar	Rejaning bajarilishi, %	Foizlar farqi +,-	Omillar ta'sirini hisob-kitobi	O'zgarish sabablari
Ishchilar soni	101,28			
Jami ishlangan kishi-kunlar	99,54			
Jami ishlangan kishi-soatlar	98,90			
Mahsulot hajmi	101,69			

Ilova: Mahsulot hajmi, ming so'm

Reja
3578000

Haqiqatda
3638600

Testlar

1. Mehnat resurslaridan foydalanish tahliliga oid ko'rsatkichlarni aniqlang.

- a) Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanishining tahlili;
- b) Mehnat resurslari harakatining tahlili;
- c) Mehnat unumdorligining tahlili;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

2. Mahsulot hajmiga qanday mehnat omillari ta'sir etadi?

a) Xodimlar soni, jami ishlangan kishi-kunlar, kishi-soatlari, mehnat unumdorligi;

b) Ishchilar soni, bir ishchining ishlagan kunlari, kishi-soatlar, mehnat unumdorligi;

c) Ishchilar soni, jami ishlangan kishi-kunlar, kishi-soatlar, mehnat unumdorligi;

d) Ishchilar soni, ishchi kuchining qo'nimsizligi, mehnat unumdorligi, bir ishchining ishlagan kunlari.

3. Ish kuni davomiyligi qanday aniqlanadi?

a) $\frac{\text{Jami ishlangan kishi - kunlar}}{\text{Jami ishlangan kishi - soatlar}}$;

b) $\frac{\text{Jami ishlangan kishi - soatlar}}{\text{Ishchilar soni}}$;

c) $\frac{\text{Jami ishlangan kishi - kunlar}}{\text{Ishchilar soni}}$;

d) $\frac{\text{Jami ishlangan kishi - soatlar}}{\text{Jami ishlangan kishi - kunlar}}$.

4. Ishchilarning ish vaqtidan foydalanishiga ta'sir etuvchi omillar:

a) Ishchilar soni, bir ishchining ishlagan kunlari, ish kuni davomiyligi (soatda);

b) Ishchilar soni, bir ishchining ishlagan soatlari, ish kuni davomiyligi;

c) Bir ishchining ishlagan kunlari, ishlagan soatlari, ish kuni davomiyligi;

d) Bir ishchining ishlagan soatlari, ishchilarning qo'nimsizligi, ish kuni davomiyligi.

5. Ishchilarning qo'nimsizlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{Mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shaganlar} + \text{nafaqaga chiqqanlar}}{\text{Xodimlarning ro'yxat bo'yicha soni}}$;
- b) $\frac{\text{O'z xohishiga binoan ishdan ketganlar soni} + \text{nafaqaga chiqqanlar soni}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha soni}}$;
- c) $\frac{\text{O'z arizasiga muvofiq} + \text{mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shaganlar soni}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha soni}}$;
- d) $\frac{\text{Mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shaganlar soni} + \text{nafaqaga chiqqanlar soni}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha soni}}$.

6. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali:

- a) Mehnat unumdorligi, mahsulot hajmi ortadi;
- b) Xodimlar soni qisqaradi, ish haqidan nisbiy iqtisodga erishiladi;
- c) Xodimlar soni qisqargan holda o'rtacha ish haqi ortadi;
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

7. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi aniqlanadi:

- a) $\frac{\text{Mahsulot sotishdan kelgan tushum}}{\text{Xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni}}$;
- b) $\frac{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni}}$;
- c) $\frac{\text{Mahsulot sotishdan kelgan tushum}}{\text{Ishchilar soni}}$;
- d) $\frac{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha soni}}{\text{Mahsulot ishlab chiqarish hajmi}}$.

8. Bir ishchining o'rtacha yillik mahsulot hajmini rejadani farqiga quyidagi omillar ta'sirini hisoblang.

- bir ishchining ishlagan kunlari (K);
- ish kuni davomiyligi (D);
- ishchining bir soatlik ish unumi (SV).

- a) $(K^1 - K^0) \cdot D^0 \cdot SV^0$
- b) $K^1 \cdot (D^1 - D^0) \cdot SV^0$
- c) $K^1 \cdot D^1 \cdot (SV^1 - SV^0)$
- d) Barcha javoblar to'g'ri.

VII bob. KOMPLEKS TAHLIL VA ISHLAB CHIQRISHNING TASHKILIY-TEXNIK DARAJASINI BAHOLASH

7.1. Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini baholash: kompleks iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifasi, axborot manbayi

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish moliya-xo'jalik faoliyatining samarali yuritilishi, korxonaning texnik va tashkiliy jihatdan rivojlanishi, tashqi iqtisodiy, ijtimoiy faoliyat natijalariga bog'liq sanaladi.

Ishlab chiqarish rivojlanishining asosiy sharti texnika progressidir. Korxonaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni boshqarish darajasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Texnika, texnologiya ishlab chiqarishni tashkillashtirish bilan uzviy aloqador va biri ikkinchisiz yuqori samara bermaydi. Xo'jalik faoliyatini tashkiliy-texnik jihatdan tashkillashtirish – kompleks uzluksiz jarayon bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishning ilmiy-texnik darajasining rivojlanishi, ishlab chiqarishda ilmiy-texnik progress yutuqlaridan foydalanish, ishlab chiqarish texnologiyasini muvofiqlashtirish, xo'jalik yuritish metodlarini jamlikda o'z ichiga oladi. Xo'jalik subyektining tashkiliy-texnik darajasi kompleks tahlilining vazifalari:


1) ishlab chiqarishning ilmiy-texnik darajasini aniqlash va uning korxona faoliyatining natijalariga ta'sirini baholash;

2) ishlab chiqarishni boshqarish, mehnat va mehnat sharoitini tashkil etish samaradorligini baholash;

3) korxonaning ishlab chiqarish quvvatining shakllanishi, uning o'sishiga oid tahlil, ishlab chiqarish quvvatlaridan unumli foydalanish yo'llarini belgilash;

4) ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Korxonaning tashkiliy-texnik darajasi deb ishlab chiqarish vositalarining erishgan o'sish darajalari, tashkil etish va boshqaruv metodlariga aytiladi.



7.1.1-chizma. Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasini kompleks iqtisodiy tahlil etish tizimi.

Korxonaning tashkiliy darajasini kompleks tahlil etish uslubi quyidagi uch guruhdagi analitik ko'rsatkichlar: texnika va texnologiya holati darajasi; ishlab chiqarishning tashkiliy darajasi; ishlab chiqarishning boshqa faoliyat turlarini o'rganishga asoslangan.

Birinci guruhdagi ko'rsatkichlar mahsulotning sifati va progressivligi, texnika va texnologiya, ilmiy tadqiqot ishlar darajalarining holati, korxonaning texnika jihatdan ta'minlanishi, yangi texnika samaradorligini ifodalaydi.

Ikkinchi guruhdagi ko'rsatkichlar ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi, ishlab chiqarishni markazlashuvi va joylashishi, ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi, mehnatni tashkil etish va boshqaruv darajalari, mehnat jamoasining ijtimoiy sharoiti kabilardan iborat.

Uchinchi guruh ma'lumotlari doirasida korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati, aloqalari, ish faoliyatining natijalari tadqiq qilinadi. Tashkiliy-texnik ko'rsatkichlarni tadqiq etish jarayoni jamlıkda korxonaning kompleks tashkiliy-texnik darajasi va ishlab chiqarishning shart-sharoitini tavsiflaydi.

$$K_j = \sqrt[n]{PRK}, \quad k_j = \sqrt[k_1 k_2 k_3 k_4 k_5 k_6 k_7 k_8]$$

Bunda, k_j – tashkiliy-texnik darajani tahlil etish tizimida jami o'rganilayotgan ko'rsatkichlarni kompleks baholash;

$\sqrt[n]{PRK}$ – ko'rsatkichlarning o'sish (pasayish) koeffitsiyentlarining ko'paytmasi; n – tashkiliy-texnik daraja va ishlab chiqarish sharoitini ifodalovchi ko'rsatkichlar soni (ular soni 8 ta); k_1 – ilmiy-texnik darajalar tahlili ko'rsatkichlarining jami; k_2 – ishlab chiqarish texnologiyasi darajalarining tahlili ko'rsatkichlarining jami; k_3 – ishlab chiqarishni tashkil etish tahlili ko'rsatkichlarining jami; k_4 – korxonada boshqaruvi darajasi ko'rsatkichlarini baholash; k_5 – ishlab chiqarishni tashkil etish va mehnatga haq to'lash ko'rsatkichlari darajasini baholash; k_6 – mehnat jamoasi ijtimoiy sharoitini baholash natijalarining ko'rsatkichlari; k_7 – tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili ko'rsatkichlari va uni baholash; k_8 – ishlab chiqarishning boshqa jarayon ko'rsatkichlarining tahlili va uni baholash.

Moddiy ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida tashkiliy-texnik darajalarni oshirish natijalari ishlab chiqarishning uch elementlaridan foydalanish orqali yuzaga keladi; mehnat, mehnat vositalari va predmetlari. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning sifat ko'rsatkichlari mehnat unumdorligi, fond qaytimi, material sig'imi, oborot mablag'lar aylanishi hisoblanadi.

Korxonaning tashkiliy-texnik darajasi tahlilining axborot manbalari:

- korxonaning ishlab chiqarish va moliya-xo'jalik faoliyatining yillik hisoboti;
- yillik va choraklik bo'yicha buxgalteriya hisoboti;
- ishlab chiqarish quvvati balansi;
- mashina va uskunalarning pasport ma'lumotlari;
- loyiha-smeta va boshqa texnik hujjatlar.

7.2. Ishlab chiqarishni tashkil etish tahlili va uni takomillashtirish yo'llari


Ishlab chiqarishni tashkillashtirish mavjud mehnat, moddiy va pul resurslaridan unumli foydalanishni o'zida aks etgan kompleks tadbirlar yig'indisidan iborat. Ishlab chiqarishni tashkillashtirish mahsulot ishlab chiqarish hajmi, shartnoma, majburiyatlarning bajarilishi, xarajatlarni kamaytirish, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar yechimini o'z ichiga oladi. Kompleks tahlil orqali korxonaning ishlab chiqarishini tashkil etish darajasi, haqiqiy va bazis davridagi ko'rsatkichlarini taqqoslash tufayli ko'rilgan tadbirlar rejasining bajarilishini baholaydi; ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashtirishni xo'jalik faoliyati natijalariga bo'lgan ta'sirini aniqlaydi; rezervlar hisoblanadi va ulardan foydalanish yo'llarini belgilaydi. Qimmatli uskuna, mexanizm, mehnat resurslaridan to'liq foydalanmaslik ishlab chiqarish xarajatlarining ortib ketishiga olib keladi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi (7.2.1- chizma.):

- 1) ishlab chiqarishni ixtisoslashuv va kooperatsiyalashuv darajasi;
- 2) ishlab chiqarish jarayonining davom etish muddati va strukturasi;
- 3) ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi;
- 4) ishlab chiqarishning maromiyligi;
- 5) ishlab chiqarishning faollik darajasi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini kompleks baholash tizimida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, tig'izligi va ixchamlik ko'rsatkichlari hamda ishlab chiqarishning ta'minlanish va xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari muhim o'rin egallaydi. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarni ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi mahsulot tannarxini pasaytirish, unumdorlik darajasini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Ishning natijasida ishlab chiqarish maromi, ishlab chiqarishning faolligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ixtisoslashuv darajasining yuqori bo'lishi texnika, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkillashtirishning takomillashtirishiga va korxonaning mavjud resurslardan unumli foydalanishiga olib keladi.



7.2.1-chizma. *Ishlab chiqarishni tashkil etish daraja ko'rsatkichlari va ularni baholash.*

Ishlab chiqarishni ixtisoslashuv darajasining kompleks tahlili bir necha ko'rsatkichlar orqali amalga oshiriladi. Ixtisoslashuv darajasi sexda ishlab chiqarilgan mahsulot tipi, o'lchami, jami mahsulotdagi maxsus bo'linmalarning tutgan ulushlari orqali aniqlanadi va baholanadi. Ehtiyot qism va detallarni yetkazib berish bo'yicha tutgan ulushlari baholashning asosiy ko'rsatkichlari sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ishlab chiqarishni tashkillashtirishning kompleks tahlilining asosiy maqsadi ishlab chiqarishning mutanosibligi, uzluksizligi, maromiyligi ko'rsatkichlari bajarilishini baholashdan iborat.

Ishlab chiqarishda tashkillashtirishning mutanosibligi sex, bo'lim, ishchi o'rinlarida vaqt birligi ichida yaratilgan mahsulotni korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlariga mos kelishi tushuniladi. Mutanosiblik tahlili orqali ayrim bo'g'inlardagi to'liq foydalanilmagan quvvatlar aniqlanadi. Tahlil natijalaridan kelib chiqqan xulosalar asosida belgilangan chora-tadbirlarni mutanosiblikni yanada mustahkamlashga safarbar etish lozim. Ishlab chiqarish intensivligi darajasini oshirishda ishlab chiqarish jarayonini *uzluksizligi* muhim o'rin tutadi. Uzluksizlik koeffitsiyenti (K_u) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_u = \frac{t_{uzm}}{t_{ich}}$$

Bunda, t_{sum} – ishlab chiqarishning texnologik siklini davomiyligi; soatda;

t_{ch} – ishlab chiqarish sikllari davomiyligi, soatda.

Ishlab chiqarishning tashkiliy darajasini oshirishning yo‘nalishlari ishlab chiqarishning markazlashuvi va kooperatsiyalash hisoblanadi.

Ishlab chiqarish markazlashuvining tahlilida guruhlashtirish usulini qo‘llash orqali tarmoq ichidagi korxonalarining ishlab chiqargan mahsuloti, asosiy ishlab chiqarish fondlari, mehnat unumdorligi, tannarxi, fond qaytimi va boshqa ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Ishlab chiqarishni kooperatsiyalash korxonalar o‘rtasidagi hamda korxonalar ichidagi o‘zaro aloqalarni ifodalaydi.

Kooperatsiyalash darajasini tahlil etish uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

1) mahsulot tannarxida kooperatsiyalash asosida olingan yarimfabrikat, butlovchi buyumlarning tutgan ulushi;

2) korxonalar bilan kooperatsiyalash aloqasidagi korxonalar soni;

3) jami ishlab chiqarish hajmida kooperatsiyalash asosidagi buyurtma qiymati.

Ishlab chiqarishning davomiylik muddati va strukturasi (DMS) ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Davomiylik muddati mahsulot konstruksiyasini xususiyati, ishlab chiqarishning texnik darajasi, ishlab chiqarishni tashkil etishning shakli va uslublari samaradorligiga bog‘liq. Ishlab chiqarish siklining kompleks tahlili mahsulotning asosiy turi bo‘yicha olib boriladi va ishlab chiqarish sikli davomiylik muddati o‘zgarishini asosiy texnik-iqtisodiy omillari bo‘yicha baholaydi.

Mahsulotning ishlab chiqarish siklining davomiylik muddatining tahlili

7.2.1-jadval

Mahsulot turi	DMS norma-soatda		DMS ning bazis davridan farqlanishi				
	bazis davr	haqiqatdan	norma-soat	%	Shu jumladan o‘zgarish sababi		
					Konstruksiyasi	texnika va texnologiyasi	ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish
A	3,36	3,24	-0,12	-3,6	0,2	-1,3	-2,5
B	7,13	6,39	-0,74	-10,4	-2	-3,4	-5

Korxonaning tashkiliy-texnik va moliyaviy resurslaridan foydalanish rezervlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Rezervlar o'z mohiyatiga ko'ra bir-biridan quyidagicha farqlanadi:

a) mahsulot hajmini oshirish, uning assortimenti va strukturasi takomillashtirish rezervlari;

b) mahsulot tannaxining xarajat elementlari va moddalari bo'yicha pasaytirish rezervlari;

d) foydani oshirish, moliyaviy holatini mustahkamlash bo'yicha rezervlar;

e) sotishdan ko'rilgan rentabellik, balans aktivi. Kapitalning rentabelligini oshirish rezervlari.

7.3. Mehnatga haq to'lash va mehnat jamoasining ijtimoiy sharoiti holatining kompleks tahlili


Mehnatni tashkil etish darajasi, korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari, barcha ishlarining hajmi va ularning o'z muddatida bajarilishi o'z aksini mahsulot ishlab chiqarish hajmi, tannarxi, foyda va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarda topadi.

Mehnatni tashkil etishning kompleks tahlilida quyidagi ko'rsatkichlar hisob-kitobi amalga oshiriladi.

- mehnatni fond bilan qurollanishi;
- asosiy va yordamchi ishchilarning to'g'ri joylashishi;
- mehnatni ilmiy jihatdan tashkil etish;
- ishchi o'rinlarining ergonomika talablariga mos kelishi;
- ishlab chiqarishni boshqaruvida xodimlarning faol qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi.

Mehnatning texnik jihatdan qurollanish ko'rsatkichlari:

$$\begin{aligned} \text{Xodimlarning fond bilan qurollanishi} &= \frac{\text{Asosiy ishlab cherish fondlarining o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Xodimlarning ro'yhat bo'yicha soni}}; \\ \text{Xodimlarning elektr quvvati bilan qurollanishi} &= \frac{\text{Foydalanishda sarflangan elektr Quvvati, kvv - soat}}{\text{Xodimlarning ro'yhat bo'yicha soni}}; \\ \text{Xodimlarning texnika bilan qurollanishi} &= \frac{\text{Texnika vositalarining qiymati}}{\text{Xodimlarning ro'yhat bo'yicha soni}}. \end{aligned}$$



7.3.1-chizma. Mehnatni tashkil etish darajasi va mehnat jamoasini ijtimoiy shart-sharoitini baholash va ularning kompleks tahlili.

7.4. Texnik-tashkiliy chora-tadbirlar samaradorligini baholash va ularning o'zgarishiga omillar ta'sirining tahlili

Korxonada o'z faoliyati davomida pul mablag'larini ishlatishi tufayli ma'lum samaraga erishadi. Korxonada rahbari bir qarorga kelishi uchun qiyosiy samaradorlik natijalariga tayanadi. Olingan natijaning xarajatga nisbati samarani ifodalaydi. Samaradorlikni baholash mezonining bir qancha turlari mavjud.

Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o'zgarishining mehnat unumdorligiga ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta u = 100 \left(\frac{U_r}{U_x} - 1 \right)$$

Bunda, U_r, U_x – reja va haqiqatdagi mehnatni tashkil etish darajalari.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini mehnatni tashkil etishning haqiqiy darajasini reja bo'yicha ko'zda tutilgan darajaga qadar yetkazish hisobiga oshirish:

$$\Delta N = N_x \left(\frac{U_r}{U_x} - 1 \right)$$

Bunda, N_x – hisobot davridagi mahsulot hajmi.

Mahsulot hajmining ortishi bilan o'zgarmas xarajatlarning mahsulot birligidagi ulushi pasayishi tufayli tannarx pasayishiga erishiladi. Mahsulot hajmining ortishiga mos holda o'zgaruvchan xarajatlar ham ortib boradi.

Rejalashtirilgan mahsulot tannarxi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_r = S_{o'z.chan} \frac{U_r}{U_x} + S_{o'z.mas}$$

Bunda, $S_{o'z.chan}$ $S_{o'z.mas}$ – mahsulot birligi tannarxidagi o'zgaruvchan, o'zgarmas xarajatlar.

Haqiqatdagi mehnatni tashkil etish darajasini reja darajasigacha yetkazish orqali foyda (R) ni oshirish:

$$r = N_x + \Delta N \cdot S_r$$

Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajalarini oshirish bo'yicha rejadagi ishlab chiqarish rentabelligi darajasi (%):

$$R_r = 100 \left(\frac{N_r}{F + E} \right)$$

Bunda, F, E – o'rganilayotgan davrdagi asosiy ishlab chiqarish fondlari va moddiy qiymatliklardagi oborot mablag'lari.

Korxonada faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlarining nisbiy o'zgarishi haqiqatdagi mehnatni tashkil etish darajasini reja darajasigacha yetkazish quyidagicha aniqlanadi (%):

– mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi:

$$\Delta N = \left(\frac{N_r}{N_x} - 1 \right) 100$$

– mahsulot birligi tannarxining pasayishi:

$$\Delta S = \left(\frac{S_r}{S_x} \right) 100$$

– foydaning ortishi:

$$\Delta R = \left(\frac{R_r}{R_x} - 1 \right) 100$$

– ishlab chiqarish rentabelligining ortishi:

$$\Delta R = 100 \left(\frac{R_r}{R_x} - 1 \right)$$

Bunda, S_r , S_x – reja va haqiqatdagi mahsulot birligi tannarxi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

– Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;

- Tashkiliy-texnik daraja tahlilining asosiy vazifalari;
- Tashkiliy-texnik darajani kompleks tahlil etish tizimi;
- tahlilning axborot manbalari;
- ishlab chiqarishni tashkil etish ko‘rsatkichlari;
- ixtisoslashuv darajasi; ishlab chiqarishni markazlashuv darajasi;
- ishlab chiqarish strukturasi;
- mehnatning texnik jihatdan qurollanish ko‘rsatkichlari;
- mehnatni tashkil etish ko‘rsatkichlari;
- texnik-tashkiliy choralar samaradorligi;
- mehnatni tashkil etishning mehnat unumdorligiga ta’siri.

Savol va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillariga nimalar kiradi?

2. Tashkiliy-texnik darajaning kompleks tahlili deb nimaga aytiladi?

3. Tashkiliy-texnik darajaning kompleks tahlilidagi asosiy vazifalar nimalardan iborat?

4. Ishlab chiqarishni tashkillashtirish deb nimaga aytiladi?

5. Ishlab chiqarishni tashkil etish ko‘rsatkichlarini ayting.

6. Ixtisoslashuv darajasi yuqori bo‘lishining ahamiyati nimalardan iborat?

7. Ishlab chiqarish markazlashuvi tahlilida guruhlashtirish usulini qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

8. Xodimlarni asosiy fondlar, elektr quvvati, texnika bilan qurollanishi qanday aniqlanadi?

9. Mehnatni tashkil etish ko‘rsatkichlari nimalardan iborat?

10. Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o‘zgarishini mehnat unumdorligiga ta’siri qanday aniqlanadi?

11. Ishlab chiqarishni tashkiliy-texnik darajasini kompleks tahlil etish tizimini izohlab bering.

12. Ishlab chiqarishni tashkil etish daraja ko'rsatkichlari chizmasini tushuntirib bering.

13. Quyidagi ma'lumotlar asosida mehnat resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlang va xulosa qiling.

T №	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'sish sur'ati, %	O'zgarishi, (+,-)
1.	Mahsulot sotish hajmi, ming so'm	405490	436360		
2.	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	42705	45627		
3	Xodimlar soni	90	86		
4.	Bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot, ming so'm	?	?		
5.	Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha ish haqi, ming so'm	1620	1692		
6.	Xodim rentabelligi, %	22	28		
7.	Xodimning fond bilan qurollanish darajasi, %	?	?		

Hisobot davrida ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajasi $U_x=0,6172$. Asosiy ishlab chiqarish fondlari (F) va moddiy qiymatliklardagi oborot mablag'lari (E): $F=24347$ ming so'm, $E=11296$ ming so'm. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi $N_x=34164$ ming so'm, korxonaning haqiqiy olgan foydasi $R_x=5460$ ming so'm.

Mahsulot tannarxidagi o'zgaruvchan xarajatlar $S_{o'z.chan}=21528$ ming so'm, $S_{o'z.mas}=7176$ ming so'm. Ko'rilgan tadbirlar tufayli ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajasini 0,6567 gacha ko'tarish ko'zda tutilgan. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlang va xulosa qiling.

– ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini oshirish (ΔN_p);

– yillik mahsulot hajmining tannarxi (S_p);

- kutilayotgan foyda miqdori (Rr);
- rejadagi ishlab chiqarish rentabelligi (Rr);
- hisobot davridagi ishlab chiqarish rentabelligi (Rx).

15. «ARS» aksionerlik jamiyati raqobatchilarining imkoniyatlari va firma ixtisoslik tovarlarining bozorda sotilish natijalarining tahliliga oid ma'lumotlar asosida tegishli xulosa qiling.

Tovarlarning turi	O'lchov birligi	O'rtacha uch yildagi bozordagi talab miqdori	Raqobatchilar taklif etgan tovarlar miqdori	Bozor talabidan farqlanish	Firma taklif qilishi lozim bo'lgan tovarlar
«A» mahsulot	dona	2600	2200	400	560
«B» mahsulot	kg	1400	1380	20	14
«V» mahsulot	kg	240	159	81	86
«G» mahsulot	dona	300	160	140	112
«D» mahsulot	tn.	700	670	30	33

VIII bob. XARAJAT VA MAHSULOT TANNARXINI BOSHQARISHDA KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL

8.1. Bozor munosabatlari sharoitida tannarxning mohiyati va tahlilning vazifalari

Har bir xo'jalik subyektining kompleks iqtisodiy tahlili orqali ishlab chiqarish, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun xarajatlarning maqsadga muvofiq sarflanishi va ularning samaradorligi baholanadi.

Xarajatlar jami ishlab chiqarish (tovarlar, xizmatlar), uchun sarflangan pul mablag'laridir.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi yoki qayta ishlash jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy vositalar (amortizatsiya), mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning qiymat ko'rinishini ifoda etadi.

Tannarx iqtisodiy kategoriya bo'lib:


- xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilishga xizmat qiladi;
- mahsulot bahosining shakllanishi va korxonaning foyda va rentabelligini aniqlash asosini tashkil etadi;
- korxonaning boshqaruv va investitsiya faoliyatlari bo'yicha qarorlarni qabul qilishning zaruriy elementidir;
- resurslardan foydalanish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish tizimini takomillashtirishdan ko'rilgan samaradorlikni ifodalaydi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuni, «Mahsulot (ishlar, xizmatlar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari, tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» talablari asosida mahsulot tannarxi aniqlanmoqda.

Nizomda buxgalteriya hisobi bo'yicha foyda bilan soliqqa tortiladigan foyda o'rtasidagi tafovutlarga izoh berilgan. Soliqqa tortiladigan foyda buxgalteriya hisobidagi foydadan farqlanishining asosiy sababi shundaki, davlat soliq siyosatiga muvofiq amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha korxonalar xarajatlarining bir qismi soliqqa tortiladigan bazaga kirmaydi. Birinchi ilovada korxonalar hisobot davridagi

balans foydasini hisoblashda chegiriladigan, lekin xo'jalik subyektining soliqqa tortiladigan bazasiga qo'shiladigan xarajat moddalari berilgan. Ikkinchi ilovada xarajatlar amalga oshirilishi paytida soliqqa tortiladigan bazadan chegirilmaydigan, lekin keyingi davrlarda chegiriladigan xarajatlar ro'yxati berilgan (vaqt bo'yicha farqlanishlar). Uchinchi ilovada foydasi emas, daromadi soliqqa tortilayotgan korxonalar uchun qo'shimcha chegirilmaydigan xarajatlar ro'yxati berilgan.

Mahsulot tannarxini kompleks tahlil etishning obyekti, bosqichlari va maqsadlari quyidagilardan iborat:



8.1.1-chizma. Mahsulot tannarxining kompleks tahlili.

Mahsulot tannarxini kompleks tahlil etishning bozor munosabatlari sharoitidagi asosiy vazifalari:

– ishlab chiqarish xarajatlari dinamikasini o'rganish, o'zgarish sabablarini aniqlash;

– ishlab chiqarish xarajatlarning iqtisodiy elementi va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha bazis davriga nisbatan o'zgarishini aniqlash;

– ish haqi, materiallar xarajatlarining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni hisoblash;

– mahsulotning ayrim turlari bo‘yicha xarajat moddalarining o‘zgarish sabablarini aniqlash;

– tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash;

Tannarxni tahlil etish uchun zarur manbalar:

– «Mehnat hisoboti» – 1-t ma’lumotlari;

– «Korxonalar sarf-xarajatlari to‘g‘risida»gi 5-s hisoboti;

– Biznes-reja va unga tegishli hisob-kitoblar, xarajatlar smetasi;

– Buxgalteriya hisobining ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olib boruvchi schyot ma’lumotlari va boshqa turdagi qo‘shimcha ma’lumotlar.

8.2. Xarajatlarni turkumlash. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonuni, «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom talablari asosida hisoblanayotgan mahsulot tannarxi bir qancha afzalliklarga ega, jumladan, mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lindi; korxonani raqobatbardoshligini aniqlash, xarajatlarni nazorat qilish imkoniyatlari yaratildi.

Xarajatlarni tahlil etishda ularni quyidagi guruhlariga ajratib o‘rganish lozim.

1. Ishlab chiqarish xarajatlari.
2. Davr xarajatlari.
3. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar.
4. Favqulodda xarajat (zarar)lar.

Har bir guruhga kiritilgan xarajatlar quyidagicha turkumlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari;

d) ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar amortizatsiyasi;

e) ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

2. Davr xarajatlari:

- a) sotish xarajatlari;
- b) boshqaruv xarajatlari;
- d) boshqa muomala xarajatlari va zararlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:

- a) foizlar bo'yicha sarflar;
- b) chet el valuta kursi o'zgarishidan zarar;
- d) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zarar;
- e) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa sarf-xarajatlar

4. Favqulodda zararlar turkumlanmaydi.

Xarajatlar ishlab chiqarishdagi ahamiyatiga qarab ikki guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish xarajatlari.
2. Noishlab chiqarish xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liq.

Bevosita material xarajatlari mehnat haqi bilan birgalikda dastlabki xarajatlarni, mehnat haqi va ishlab chiqarish xarakteridagi ma'muriy-boshqaruv xarajatlari birgalikda konversiya xarajatlarini tashkil etadi. Material xarajatlari konversiya xarajatlari bilan birgalikda to'liq ishlab chiqarish tannarxini ifodalaydi.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan barcha xarajatlar *noishlab chiqarish xarajatlari* deb ataladi. Ular tarkibiga sotish bilan bog'liq xarajatlar, ilmiy tekshirish va tadqiqot xarajatlari, umumiy va ma'muriy xarajatlar, boshqaruv xarajatlari, olingan kredit uchun foiz to'lovlari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qilinadigan xarajatlar yuqorida keltirilgan turkumlashdan tashqari quyidagi xususiyatlari bo'yicha ham tasniflanadi.

1. Ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy o'rimga qarab;

- a) asosiy;
- b) doimiy.

2. Tarkibiga qarab:

- a) kompleks;
- b) bir elementli.

3. Tannarxga o'tkazish usuliga qarab:
 - a) to'g'ri;
 - b) egri.
4. Ishlab chiqarish hajmiga qarab:
 - a) o'zgaruvchan;
 - b) o'zgarmas.
5. Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishiga qarab:
 - a) ishlab chiqarish;
 - b) tijorat.
6. Samaradorlikka qarab:
 - a) samarali;
 - b) samarasiz.


8.3. «O'zgaruvchan» va «o'zgarmas» xarajatlar

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi jihatidan xarajatlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- a) o'zgaruvchan xarajatlar;
- b) o'zgarmas xarajatlar;
- d) yarim o'zgaruvchan xarajatlar.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan o'sib boruvchi xarajatlar *o'zgaruvchan xarajat* hisoblanadi. Ular tarkibiga ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqi, yoqilg'i, energiya materiallar xarajati kiradi.

O'zgarmas xarajatlar mahsulot miqdoriga bog'liq bo'lmagan holda bir xil darajada saqlanuvchi xarajatlardir. Masalan, ijara to'lovlari, amortizatsiya ajratmalari, reklama xarajatlari o'zgarmas xarajatlar sirasiga kiradi.



8.3.1-chizma. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar.

Yarim o'zgaruvchan xarajatlar – o'zgaruvchanlik va ayni paytda davriylik yoki doimiylik xarakteriga ega xarajatlardir.

Jami ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot birligi tannarxining mahsulot hajmiga bog'liqligi

8.3.1-jadval

Mahsulot hajmi, dona	Jami mahsulot tannarxi, mln. so'm			Mahsulot birligi tannarxi, ming so'm		
	o'zgarmas xarajatlar	o'zgaruvchan xarajatlar	jami	o'zgarmas xarajatlar	o'zgaruvchan xarajatlar	jami
500	50	40	90	100	80	180
1000	50	80	130	50	80	130
1500	50	120	170	33	80	113
2000	50	160	210	25	80	105
2500	50	200	250	20	80	100

Mahsulot hajmi besh marotaba ortgan holda mahsulot birligidagi o'zgarmas xarajatlar besh marotaba qisqarib, tannarx 180 ming so'mdan 100 ming so'mgacha pasaygan.

8.4. Bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlar tahlili

Rejali iqtisod davrida har bir korxonaga mahsulot tannarxini pasaytirish bo‘yicha vazirlik tomonidan topshiriq berilar edi. Korxonaning ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi ko‘rsatkichlardan biri bo‘yicha tannarxni pasaytirish rejasi belgilangan.

1. Taqqoslanadigan mahsulot tannarxi.
2. Bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajat.
3. Mahsulot birligining tannarxi.

Bugungi kunda har bir xo‘jalik subyekti tannarxni pasaytirish bo‘yicha rejani mustaqil belgilaydi. Mahsulot tannarxining umumlashgan ko‘rsatkichlaridan biri – 1 so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajaddir. Bu ko‘rsatkich tiyin hisobida quyidagicha aniqlanadi.

1 so‘mlik mahsulot uchun

$$\text{qilingan xarajat, tiyin} = \frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot ulgurji bahoda}}$$

Bu ko‘rsatkich qator afzalliklarga ega: birinchidan, hisoblash usuli sodda; ikkinchidan, barcha tarmoqlarda qo‘llash mumkin; uchinchidan, bu ko‘rsatkich orqali qilingan xarajatlarning natijaviyligi aniqlanadi.

Tannarxning kompleks tahlili 1 so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlar dinamikasini qiyosiy o‘rganishdan boshlanadi.

1 so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlar dinamikasining tahlili

8.4.1-jadval

Yillar	Tahlil etilayotgan korxonaga		Raqobatdagi korxonaga		O‘rtacha tarmoq bo‘yicha	
	Ko‘rsatkich darajasi, tiyin	O‘shish sur‘ati, %	Ko‘rsatkich darajasi, tiyin	O‘shish sur‘ati, %	Ko‘rsatkich darajasi, tiyin	O‘shish sur‘ati, %
xxx 1	83,2	100	83,0	100	85,0	100
xxx 2	82,6	99,2	82,0	98,7	84,6	99,5
xxx 3	82,2	98,7	81,5	98,2	84,8	99,7
xxx 4	80,0	96,1	78,0	93,9	82,0	96,4
xxx 5	74,3	89,3	74,0	89,1	80,0	94,1

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil etilayotgan korxonada 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat 74,3 tiyinni tashkil etib, bazis davriga nisbatan 89,3 foizni, raqobatdagi korxonada esa bu ko'rsatkich 74,0 tiyin va 89,1 foizni tashkil etgan.

1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarni o'tgan yilga, hisobot yilining rejasiga nisbatan o'zgarishini tiyin va foizlarda ifodalinishini quyidagi jadvalda (8.4.2) ko'ramiz.

8.4.2-jadval


T №	Ko'rsatkichlar	Summa
1.	1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat, tiyin	
	O'tgan yil	80,00
	Hisobot yili	
	Reja	78,39
	Haqiqatda	74,33
2.	O'tgan yildan farqi	
	tiyin 74,33-80,00	-5,67
	foizda – 5,67:80,00 100	-7,08
3.	Rejadan farqi	
	tiyin 74,33-78,39	-4,06
	foizda – 4,06:78,39 100	-5,18
4.	1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlardan olingan iqtisod (-) yoki sarflangan ortiqcha xarajatlar (+), ming so'm	- 103347

2545500 ming so'm – hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot.

$2545500(-4,06):100 = - 103347$ ming so'm.

Korxonada 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat 74,33 tiyinni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 7,08 foizga, hisobot yilining rejasiga nisbatan 5,18 foiz pasaygan. 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatning rejaga nisbatan 4,06 tiyinga pasayishi hisobiga korxonada bo'yicha xarajatlardan erishilgan iqtisod 103347 ming so'mni tashkil etgan.

1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarni o'tgan yil, hisobot yilining rejasiga nisbatan o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi chizmada (8.4.1) keltiramiz.



8.4.1-chizma. 1 soʻmlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarga taʼsir etuvchi omillar.

8.5. Xarajatlarning iqtisodiy elementi va kalkulyatsiya moddalari boʻyicha tahlili

Rejalashtirish, buxgalteriya hisobini yuritish va kompleks tahlil etishda ishlab chiqarish xarajatlarini ikki yoʻnalish boʻyicha guruhlariga ajratish mumkin:

- xarajatlarning elementi;
- xarajatlar moddalari (kalkulyatsiya moddalari).

Xarajatlarning elementi boʻyicha tahlili orqali jonli mehnat bilan xarajatlarning boshqa elementlari oʻrtasidagi nisbat, ishlab chiqarish zaxiralari boʻlgan talab, oborot mablagʻlarning ayrim elementlarini aylanish tezligi hamda xalq xoʻjaligiga molik koʻrsatkichlarni aniqlash mumkin. Xarajat elementlarini tarkibi, strukturasi tahlil etish orqali ishlab chiqarishning material sigʻimi, mehnat sigʻimi va fond sigʻimlari boʻyicha tannarxni pasaytirish rezervlari aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va moddalari bo'yicha turkumlash

8.5.1-jadval

Iqtisodiy elementlar	Kalkulatsiya moddalari
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	Xomashyo Yoqilg'i Elektr quvvati Ehtiyot qismlar Idishlar va hokazo
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari	Asosiy ish haqi Qo'shimcha ish haqi Ish haqiga ustamalar
Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar	Ijtimoiy ta'minot bo'limiga Mehnat birjasi, kasaba uyushmasiga
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	Asosiy vositalarning eskirishi Nomoddiy aktivlar eskirishi Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning ijara haqlari
Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar	Turli ishlar va xizmatlar Soliqlar, yig'imlar va hokazo.

Ilmiy-texnik taraqqiyot, ishlab chiqarishni kompyuterlashtirish, integratsiyalashuv tufayli ishlab chiqarish xarajatlari tarkibidagi yoqilg'i, energiya sarflari ortgan holda, ish haqi xarajatlaridan nisbiy iqtisodga erishiladi. Xarajat elementlarini tahlil etish uslubining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, bunda har bir xarajat guruhining jami ishlab chiqarish tannarxidagi ulushi smetadagi, o'tgan yildagi xarajatlarning ulushi bilan taqqoslanadi va tegishli xulosa qilinadi.

8.5.2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, jami xarajatlarda moddiy xarajatlar ulushi o'tgan yildagi 69,7 foizdan hisobot yiliga kelib 71,2 foizga qadar ko'tarilishi, shartnoma bo'yicha xomashyo, yoqilg'ilarni chetdan yetkazib berish majburiyatlarining bajarilishi, mehnat unumdorligining ortishi va mahsulot tannarxining pasayishi bilan izohlanadi.

Xarajatlarning elementi bo'yicha tarkibi, strukturasi va dinamikasining tahlili

8.5.2-jadval

T №	Xarajat guruhlari	O'tgan yil		Hisobot yili	
		Summa, ming so'm	Ulushi, %	Summa, ming so'm	Ulushi, %
A	B	1	2	3	4
1.	Moddiy xarajatlar	1167340	69,7	1347200	71,2
2.	Mehnat haqi xarajatlari	343340	20,5	361400	19,1
3.	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	75370	4,5	83250	4,4
4.	Asosiy vosita va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	60290	3,6	64330	3,4
5.	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	28470	1,7	35950	1,9
	Jami ishlab chiqarish tannarxi	1674810	100	1892130	100
	Shu jumladan:				
	– o'zgaruvchan xarajatlar	1256114	75,0	1443707	76,3
	– o'zgarmas xarajatlar	428696	25,0	448423	23,7

Fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, o'z ishlab chiqarish detallari va qurilmalarining chetdan keltirilgan yarimfabrikatlar hisobiga ta'minlanishi tufayli mehnatga haq to'lash xarajatlari mutlaq summalarda ortsa ham, ularning ishlab chiqarish tannarxidagi ulushi o'tgan yilga nisbatan pasaygan. Amortizatsiya ajratmalarining ulushi biroz pasaygan holda, boshqa ishlab chiqarish xarajatlariniki ortgan. Boshqa ishlab chiqarish xarakteridagi xarajatlar tarkibiga ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, safar xarajatlari, brakdan ko'rilgan zararlar kiradi.

Xarajatlarning kalkulasiya moddalarining tahlili asosan bir elementli bo'lib, bir xil iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan xarajatlardan iborat. Xomashyo, yoqilg'i, energiya va boshqa xarajat moddalarining har birini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bo'lish orqali xarajatlarni darajasi (tiyin) aniqlanadi va bu ko'rsatkichni bazis davri yoki hisobot davrining rejasi bilan taqqoslash orqali erishilgan iqtisod yoki ortiqcha xarajat aniqlanadi.

Xarajatlarning moddalari bo'yicha tahlili

8.5.3-jadval

T №	Xarajat moddalari	Hisobot yilining rejadagi xarajat darajasi, tiyin	Hisobot yilining haqiqiy xarajat darajasi, tiyin	Rejadagi farqi	
				+	-
A	B	1	2	3	4
1.	Xomashyo va materiallar	20,50	20,80	030	
2.	Yoqilg'i va energiya texnologik maqsadlar uchun	4,90	5,50	0,60	
3.	Chetdan olingan butlovchi buyum va yarimfabrikatlar	29,97	26,62		3,35
4.	Ishchilarning asosiy ish haqi	13,23	12,16		1,07
5.	Qo'shimcha ish haqi	1,61	1,45		0,16
6.	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	3,42	3,27		0,15
7.	Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari	2,73	2,53		0,20
8.	Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari	1,04	1,04		
9.	Brakdan zarar	X	0,35	0,35	
10.	Boshqa xarajatlar	0,99	0,61		0,38
	Jami – 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat	78,39	74,33	1,25	5,31

1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat reja darajasiga nisbatan 4, 06 tiyinga pasaygan holda, xomashyo yoqilg'i va brakdan ko'rilgan zararlarning reja darajasidan ortib ketishi 1,25 tiyinni tashkil etgan. Qolgan xarajat moddalaridan 5,31 tiyin miqdorida iqtisodga erishilgan.

8.6. Ishlab chiqarishdagi mehnatga haq to'lash xarajatlarning tahlili

Mehnat haqi – jamiyat ko'lamida milliy daromadning ishchilar va xizmatchilar o'rtasida ular mehnatining miqdori va sifatiga muvofiq taqsimlanadigan hamda shaxsiy iste'mol maqsadlari uchun foydalaniladigan qismidir. Korxonada mehnatga haq to'lashda mehnat

unumdorligini oshirishni, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda eng muhim vosita sifatida foydalanadi.

Prezident I.Karimov tomonidan mamlakatimizdagi real ish haqini oshirish masalalari ilgari surilib, real ish haqining oshishi – iqtisodiyotning qanday sur'atlarda rivojlanayotganini, mamlakatning moliyaviy ahvoli mustahkamlanayotganini, mutanosib monetar siyosat qanday ta'minlanayotganini yaqqol aks ettiradigan o'ziga xos ko'zgu va ko'rsatkichdir, deb ta'riflanadi. Aholining real daromadlari 2011-yilda o'tgan yilga nisbatan 23,1 foizga ortdi. Budget sohasi muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiyalar miqdori 26,5 foizga oshdi. Aholi daromadlarining 47 foizi tadbirkorlik faoliyati hissasiga to'g'ri keladi.

1991-yilda eng kam ish haqiga iste'mol korzinkasi qiymatining faqat 8 foizini tashkil etadigan tovar va xizmatlarni harid qilish mumkin bo'lgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 120 foizni tashkil etib, 15 barobar o'sdi, eng kam pensiyaning xarid qobiliyati 9 karra oshdi. Ayni shu ko'rsatkichlar 2000-yilda mos ravishda 11 va 3,6 barobarni tashkil etdi.

Mehnatga haq to'lash tahlilining asosiy vazifalari:

1. Bazis davridagi ish haqi fondining realligini baholash.
2. Ish haqi fondining mutlaq va nisbiy farqlarini aniqlash.
3. Ish haqi fondining bazis davriga, hisobot yilining rejasiga nisbatan o'zgarish sabablarini aniqlash.
4. Ish haqi fondiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash.
5. Ish haqi tarkibidagi unumsiz xarajatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash.
6. Mehnat unumdorligini o'sishi bilan o'rtacha ish haqini o'sishi o'rtasidagi nisbatning tannarxga bo'lgan ta'sirini hisoblash.

Ish haqini kompleks tahlil etishda ish haqini *mutlaq* va *nisbiy* farqlari aniqlanadi. Hisobot davrida sarflangan ish haqi – (IXF^1) ni bazis davridagi ish haqi fondi (IXF^0) bilan taqqoslash orqali ish haqining mutlaq farqi aniqlanadi.

$$\Delta IXF_{mut} = IXF^1 - IXF^0$$

Ish haqining nisbiy farqi haqiqatda sarflangan ish haqi (IXF^1) ni bazis davridagi ish haqi fondining mahsulot ishlab chiqarish indeksiga ko'paytmasidan (korrektirovka) hosil bo'lgan ($IXF_{kor.}$) ko'rsatkich bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

$$\Delta IXF_{mut} = IXF^1 - IXF_{kor} = IXF^1 - (IXF_{o't-dam}^0 \cdot ig + IXF_{o't-mas}^0)$$

Bunda, ΔIXF_{mas} – ish haqining nisbiy farqi;

IXF^1 – hisobot davrida sarflangan ish haqi;

IXF_{kor} – bazis davridagi ish haqi fondining mahsulot ishlab chiqarish indeksiga ko'paytmasi (korrektirovkasi);

ig – mahsulot ishlab chiqarish hajmining indeksi.

Ish haqi fondidan foydalanish tahlili

8.6.1-jadval

Ko'rsatkich	Bazis davri	Hisobot davri	Farqi	
			Mutlaq summa	%
Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ish, xizmat solishtirma ulgurji bahoda, ming so'm	2203880	2545500	+341620	+15,5
Ish haqi fondi, ming so'm	343340	361400	+18060	+5,26
Shu jumladan:				
– o'zgaruvchan qismi	257505	275748	+18243	+7,08
– o'zgarmas qismi	85835	85652	-183	-0,21

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining indeksi:

$$ig = \frac{q_1}{q_0} = \frac{2545500}{2203880} = 1,15$$

Ish haqi fondining mutlaq farqi:

$$\Delta IXF_{mut} = 361400 - 343340 = +18060 \text{ ming so'm.}$$

Ish haqi fondining nisbiy farqi:

$$\Delta IXF_{mas} = 361400 - (257505 \cdot 1,15 + 85835) = 361400 - 181965 = -20565$$

ming so'm.

Ish haqi fondida ishchilarning ish haqi yuqori salmoqqa ega. Uning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etadi.

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (ig).

2. Ishchilar (nisbiy) soni (IS_{mas}).

3. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqi: ($\bar{I}X$)

Ishchilar ish haqi fondining bazis davridan farqi:

$$\Delta IXF = IXF\Phi_{ig}^1 - IXF_{ig}^0$$

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmining ta'siri:
 $\Delta IXF_{(x)} = IXF^o \cdot ig - IXF^o$

2. Ishchilar (nisbiy) sonining ta'siri:

$$\Delta IXF_{(u)} = \frac{IXF^o}{IS^o} \cdot Is_{nat}$$

3. Bir ishchining o'rtacha yillik ish haqining ta'siri:
 $\Delta IXF_{(o,y)} = \left(\frac{IXF'}{Is'} - \frac{IXX^o}{Is^o} \right) \cdot Is'$

Ishchilar sonining nisbiy farqi quyidagicha aniqlanadi.

$$Is_{nat} = Is' - (Is^o \cdot ig)$$

Xizmatchilarning ish haqi fondiga quyidagi ikki omil ta'sir etadi.

1. Xizmatchilar sonining o'zgarishi (X_s).

2. Bir xizmatchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish haqi (I_x).

Xizmatchilar ish haqi fondining bazis davridan farqi formula asosida quyidagicha aniqlanadi.

$$\Delta IXX_{(y)} = IXF'_x - IXX^o_x$$

Shu jumladan:

1. Xizmatchilar soni o'zgarishining ta'siri

$$\Delta IXX_{(x)} = \frac{IXX^o_x}{X_s^o} \cdot (x_s^1 - x_s^o)$$

2. Bir xizmatchining o'rtacha ish haqi o'zgarishining ta'siri:

$$\Delta IXX_{(i)} = X_s^1 \cdot \left(\frac{IXX^1_x}{X_s^1} - \frac{IXX^o_x}{X_s^o} \right)$$

8.7. Materiallar xarajatiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxida materiallar xarajati salmoqli o'rin egallaydi. Shu bois materiallar xarajatini tarkibi, ularni bazis davriga nisbatan o'zgarish sabablari va unga omillar ta'sirini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tahlil uchun asosiy manbalar «Mahsulot kalkulyatsiyasi» dan olinadi.

Bu hisobot shaklida mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar turi va miqdori, material baholari keltirilgan. Mahsulot birligi uchun sarflangan materiallar xarajatini aniqlash uchun materiallar miqdorini material bahosiga ko'paytirish lozim. So'ngra,

aniqlangan materiallar xarajati bazis (reja) davri bilan taqqoslanib, ular o'rtasidagi farqlanishga quyidagi omillar ta'siri hisoblanadi.

1. Materiallar sarfi, miqdori («sarf me'yori») ning o'zgarishi.
2. Material bahosining o'zgarishi («baho» o'zgarishi).

Materiallardan samarali foydalanishda material va energiya sarfini qisqartiradigan zamonaviy asbob va uskunalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish lozim. 2011-yilda ishlab chiqarish sohasidagi yirik korxonalarda o'tkazilgan texnik audit natijalariga ko'ra ma'naviy eskirgan asbob va uskunalari 37 mingtani tashkil etgan. 2012-yildan e'tiboran sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirishga e'tibor qaratilgan. 2012-yilda sanoatda mahsulot tannarxini 10-15 foizga kamaytirish ko'zda tutilgan.

Oshxona servizini ishlab chiqarish uchun materiallar xarajati

8.7.1-jadval

Materiallar	Biznes-reja			Haqiqatda		
	sarf me'yori, kg	material bahosi, so'm	material xarajati, so'm	sarf me'yori, miqdori kg	material bahosi, so'm	material xarajati, so'm
	1	2	3	4	5	6
Loy	3,35	1529	5122,1	3,50	1500	5250
Kaolin	15,16	1369	20754	15,26	1380	21058,8
Dala shpati	-	-	480	-	-	480
Kvars	5,44	1184	6440,9	5,54	1190	6592,6
Pegmatit	-	-	444	-	-	444
Jami	X	X	33241	X	X	33841,4

Oshxona servizini ishlab chiqarish uchun materiallar xarajati 33841,4 so'mni tashkil etib, biznes rejaga nisbatan 600,4 so'm ortiqcha sarfga yo'l qo'yilgan. Materiallar xarajatini o'zgarishiga omillar ta'sirini zanjirli bog'lanish usuli orqali aniqlaymiz.

*Materiallar xarajatiga «sarf me'yori» va «material bahosi»
o'zgarishlari ta'sirining tahlili*

8.7.2-jadval

Materiallar	Materiallar xarajati, so'm			Farqi (+,-)		
	Reja, rejadagi sarf me'yori reja bahosida	Haqiqatda, haqiqiy sarf me'yori haqiqiy bahoda	Shartli, haqiqiy sarf me'yori reja bahosid a	Jami gr 2 – gr 1	shu jumladan o'zgarishi	
					sarf me'yo ri gr3- gr1	material bahosi gr2-gr3
A	1	2	3	4	5	6
Loy	5122,1	5250	5351,5	+127,9	+229,4	-101,5
Kaolin	20754	21058,8	20890,9	+304,8	+136,9	+167,9
Dala shpati	480	480	480	-	-	-
Kvarts	6440,9	6592,6	6559,3	+151,7	+118,4	+33,3
Pegmatit	444	460	460	+16	+16	-
Jami	33241	33841,4	33741,7	+600,4	+500,7	+99,7

Sarf me'yoriga rioya qilmaslik tufayli materiallar xarajati rejaga nisbatan 500,7 so'mga ortgan. Barcha material turlari bo'yicha mahsulot birligi uchun sarflangan materiallar miqdori rejaga nisbatan yuqori bo'lgan. Materiallar bahosining o'zgarishi tufayli materiallar xarajati 99,7 so'mga ortgan.

Mahsulot tannarxidagi materiallar xarajatlarini pasaytirish uchun qimmatbaho materiallarni arzoni bilan almashtirish (mahsulot sifatiga putur yetkazmagan holda), ikkilamchi resurslardan keng foydalanish, xomashyoga ishlov beruvchi zamonaviy ilg'or texnologiyalarni joriy etish, materiallarni transport-tayyorlov xarajatlarini pasaytirishning optimal variantlarini qo'llash, kadrlar malakasini oshirish lozim.

8.8. Mahsulot turlari tannarxining tahlili

Korxonada bo'yicha mahsulot tannarxini pasaytirish maqsadida mahsulotning ayrim turlari kalkulasiya moddalarini rejadagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash orqali ortiqcha xarajatga yo'l qo'yilish sabablari aniqlanadi va ularni pasaytirish yo'llari belgilanadi.

Bir xil ixtisosga ega bo'lgan korxonada ma'lumotlari bilan ham taqqoslash orqali korxonani erishgan yutuq va kamchiliklari aniqlanadi. Mahsulot birligi tannarxi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$C_1 = \frac{A_1}{VBP_1} + B_1$$

Bunda, C_1 – mahsulot birligi tannarxi;

A_1 – doimiy xarajat summasi;

VBP_1 – mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

B_1 – mahsulot birligi tannarxidagi o'zgaruvchan xarajat.

«A» turidagi mahsulot tannarxiga tegishli manbalar

8.8.1-jadval

Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Reja	Haqiqatda	Rejadan farqi
1. Mahsulot hajmi, dona	VBP_1	6760	6040	-720
2. Doimiy xarajatlar, ming so'm	A_1	7912	8056	+144
3. O'zgaruvchan xarajatlar, so'm	B_1	3800	4100	+300
4. Mahsulot birligi tannarxi, so'm	C_1	4970,4	5433,7	+463,3

Mahsulot birligi tannarxi:

$$\text{Reja bo'yicha} = \frac{7912}{6760} + 3800 = 4970,4 \text{ so'm.}$$

$$\text{Haqiqatda} = \frac{8056}{6040} + 4100 = 5433,7 \text{ so'm.}$$

Mahsulot birligi tannarxiga omillar ta'sirini zanjirli bog'lanish usuli orqali aniqlash

8.8.2-jadval

Almashuv davriyligi	Omillar			Mahsulot birligi tannarxi, C_1
	VBP_1	A_1	B_1	
I reja	Reja 6760	Reja 7912	Reja 3800	Reja 4970,4
II shartli №1	Haq. 6040	Reja 7912	Reja 3800	Shartli №1 5110
III shartli №2	Haq. 6040	Haq. 8056	Reja 3800	Shartli №2 5133,7
IV haqiqatda	Haq. 6040	Haq. 8056	Haq. 4100	Haqiqatda 5433,7

Mahsulot birligi tannarxining rejadan farqi:
 $5433,7 - 4970,4 = +463,3$

Shu jumladan:

a) mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi:

$$5110 - 4970,4 = +139,6 \text{ so'm.}$$

b) doimiy xarajat summasining o'zgarishi:

$$5133,7 - 5110 = +23,7 \text{ so'm.}$$

d) o'zgaruvchan xarajat summasining o'zgarishi:

$$5433,7 - 5133,7 = +300 \text{ so'm.}$$

Hisob-kitoblar to'g'riligini tekshirish:

$$+139,6 + 23,7 + 300 = +463,3 \text{ so'm.}$$

$$5433,7 - 4970,4 = +463,3 \text{ so'm.}$$

8.9. Mahsulot tannarxini pasaytirish rezervlarini aniqlash usuli

Mahsulot tannarxini pasaytirishning ($R \downarrow C$) asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

1) korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish tufayli mahsulot hajmini oshirish ($R \uparrow VBP$);

2) mehnat unumdorligini oshirish, xomashyo, material, elektr energiya, yoqilg'i, uskunalardan iqtisod rejimiga rioya qilgan holda foydalanish, unumsiz xarajatlarni bartaraf etish, brakka yo'l qo'ymaslik hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini ($P \downarrow Z$) qisqartirish.

Mahsulot birligi tannarxini pasaytirish rezervi formula orqali quyidagicha aniqlanadi:

$$R \downarrow C = C_b - C_1 = \frac{Z_1 - R \downarrow Z + Z_q}{VBP_1 + R \downarrow VPB} - \frac{Z_1}{VPB_1}$$

Bunda, C_b, C_1 - mahsulot birligining ko'zlangan va haqiqiy tannarxi;

Z_1 - mahsulot ishlab chiqarish uchun haqiqatda qilingan xarajat;

Z_q - mahsulot hajmini oshirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar;

$VBP_1, R \uparrow VBP$ - haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot va mahsulot ishlab chiqarishni oshirish rezervi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish rezervi ishlab chiqarish dasturi bajarilishini tahlil etish orqali aniqlanadi. Mahsulot hajmining

ortishi tufayli xarajatlarning o'zgaruvchan qismi (ishchilarning ish haqi, material xarajatlari va boshqa xarajatlar) ortgan holda, xarajatlarning o'zgarmas qismi turg'un holatda saqlanadi, shuning uchun tannarx pasayishiga erishiladi.

Xarajatlarni qisqartirish rezervi har bir xarajat moddalari bo'yicha innovatsiyani (yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish), qo'llash orqali ish haqi, xomashyo, material, energiyalarni qisqartirilishiga erishiladi.

Mehnat haqi xarajatlaridan iqtisod ($R \downarrow ZP$) mahsulot mehnat sig'imini pasaytirishga qaratilgan choralarni qo'llashgacha (TE_o) va qo'llashdan so'ng aniqlangan mahsulot mehnat sig'imi (TE_1) ni farqi rejadagi bir soatlik ish haqi (OT_p) va reja bo'yicha mahsulot hajmi ($VBBP_{pi}$) ko'paytmalaridan hosil bo'ladi.

$$R \downarrow ZP = \varepsilon(TE_1 - TE_o) \cdot OT_p \cdot VBBP_p$$

Materiallar xarajatini qisqartirish rezervlari ($R \downarrow MX$) rejalashtirilgan mahsulot hajmi bo'yicha material xarajatlarini pasaytirish rezervlari yangi texnologiya va boshqa choralarni qo'llash orqali quyidagicha aniqlanadi.

$$R \downarrow MX = \varepsilon(YP_1 - YP_o) \cdot VBBP_{pi} \cdot S_{pi}$$

Bunda, YR, YR_o — innovatsiya choralarni qo'llashga qadar, qo'llashdan keyin mahsulot birligi uchun materiallar xarajati;

S_{pi} — rejadagi material bahosi.

Asosiy vositalarni saqlash xarajatlarini qisqartirish rezervlari keraksiz, ortiqcha, ishlatilmay kelinayotgan bino, mashina, uskunalarni sotish, uzoq muddatli ijaraga berish orqali rezervlar ($R \downarrow AV$) asosiy vositalarni dastlabki qiymatining uning amortizatsiya normasi (NA) ga ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

$$R \downarrow A = \varepsilon(R \downarrow AV \cdot HA)$$

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish rezervlari bo'yicha qo'shimcha xarajatlar mahsulotning har bir turi bo'yicha aniqlanadi. Bunday xarajatlarga qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan ortiqcha ish haqi, xomashyo, material, energiya va mahsulot hajmiga bog'liq boshqa o'zgaruvchan xarajatlar kiradi. Qo'shimcha xarajatlar mahsulotning har bir turi bo'yicha aniqlangan rezervlar

haqiqatdagi o'zgaruvchan xarajatlar ulush darajasiga ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

$$Zq = R \uparrow VBP_i \cdot b_i$$

Misol, A mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 13300 dona; uni oshirish rezervi – 1500 dona; jami ishlab chiqarish uchun qilingan xarajat – 63840 ming so'm; xarajat moddalarini qisqartirish rezervlari – 2130 ming so'm; qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan ortiqcha o'zgaruvchan xarajatlar – 4890 ming so'm (1500/3260). Demak, mahsulot birligi tannarxini pasaytirish rezervi 0,3 ming so'mni tashkil etadi.

$$R \downarrow C = \frac{63840 - 2130 + 4890}{13300 + 1500} - \frac{63840}{13300} = 4,5 - 4,8 = -0,3 \text{ ming so'm.}$$

Rezervlarni bunday tartibdagi hisob-kitobi mahsulotning har bir turi, imkoniyat chegarasida innovatsiya choralari bo'yicha ham alohida aniqlanishi maqsadga muvofiq.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- tannarxni bozor munosabatlari sharoitida tutgan o'rni va mohiyati;
- xarajatlarni turkumlash;
- tahlil obyekti, bosqichlari, maqsadi;
- ishlab chiqarish, noishlab chiqarish xarajatlari;
- o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar;
- 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarga omillar ta'siri;
- xarajatlar elementi va moddalari bo'yicha tahlil etish uslublari;
- ish haqining mutlaq va nisbiy farqlarini aniqlash tartibi;
- materiallar xarajatining tahlili;
- sarf me'yori, material baholarining o'zgarish sabablari;
- mahsulot turlari tannarxini tahlil etish usuli;
- mahsulot tannarxini pasaytirish rezervlarini aniqlash usuli.

Savol va topshiriqlar

1. Mahsulot tannarxini pasaytirishning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Tannarxni kompleks iqtisodiy tahlil etishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

3. Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarga qanday omillar ta'sir etadi?

4. Xarajatlarning iqtisodiy elementi bo'yicha tahlil etishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

5. Ish haqini mutlaq va nisbiy farqlari qanday aniqlanadi?

6. Materiallar xarajatiga qanday omillar ta'sir etadi?

7. Materiallar xarajatiga sarf «me'yori» va material «bahosi» o'zgarishining ta'siri qanday hisoblanadi?

8. Mahsulot birligi tannarxiga qanday omillar ta'sir etadi?

9. Mahsulot tannarxini pasaytirish rezervlarini aniqlash usulini tushuntiring.

10. Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarni aniqlang va tegishli xulosa qiling.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili		Hisobot yili foiz hisobida	
		Reja	Haqiqatda	O'tgan yilga nisbatan	Rejaga nisbatan
Ishlab chiqarish hajmi (ish, xizmat) solishtirma bahoda, ming so'm	31865	34096	34457		
Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	27055	28426	28510		
Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat, tiyin					

11. Xarajatlarni elementi bo'yicha tahlil eting.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Reja		Haqiqatda		Ulush o'zgarishi	
	summasi, ming so'm	ulushi, %	summasi, ming so'm	ulushi, %	summasi, ming so'm	ulushi, %	o'tgan yildan	rejadandan
A	1	2	3	4	5	6	7	8
Moddiy xarajatlar	28150		29200		31300			
Ish haqi	20500		21100		21200			

Amortiza-tsiya ajratmalari	3250		3300		3500			
Ijtimoiy sug'urta aj-ratmalari	4420		4400		4950			
Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	3150		3150		3490			
Jami ishlab chiqarish tannarxi	59470	100	61150	100	64440	100		

12. Ish haqining mutlaq va nisbiy farqlarini aniqlang va xulosa qiling.

Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Hisobot davri	o'zgarishi	
			summada	%
Ish haqi fondi, ming so'm	9200	9750		
Shu jumladan:				
– o'zgaruvchan qismi	6440	6650		
– o'zgarimas qismi	2760	3100		
Mahsulot hajmi, ming so'm	60200	66220		

13. Xizmatchilarning ish haqi fondiga xizmatchilar sonining o'zgarishi va bir xizmatchining o'rtacha yillik ish haqi o'zgarishi ta'sirini hisoblab toping.

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Rejadan farqi (+,-)
1. Xizmatchilarning ro'y-xat bo'yicha o'rtacha soni	50	48	
2. Xizmatchilarning yillik ish haqi fondi, ming so'm	7400,0	7500,0	
3. Bir xizmatchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqi, so'm			

Testlar

1. Mahsulot tannarxi qanday xarajatlardan tashkil topadi?

- a) To'g'ri va egri xarajatlar;
- b) Bevosita va bilvosita xarajatlar;
- c) Doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar;
- d) Me'yor bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari.

2. O'zgaruvchan xarajatlar deb qanday xarajatlarga aytiladi?

- a) Mahsulot hajmini o'zgarishiga bog'liq tarzda o'zgaruvchi xarajatlarga aytiladi;
- b) To'g'ri va egri xarajatlarga aytiladi;
- c) Bevosita va bilvosita xarajatlarga aytiladi;
- d) Barcha turdagi ishlab chiqarish xarajatlari aytiladi.

3. Ishlab chiqarish tannarxi xarajat elementlari bo'yicha qanday guruhlariga bo'linadi?

- a) Moddiy xarajatlar, mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta, amortizatsiya ajratmalari, ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar;
- b) Xomashyo, yoqilg'i, energiya sarflari; xodimlarning ish haqi, asosiy vosita va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, reklama xarajatlari;
- c) Ish haqi, amortizatsiya ajratmalari, safar xarajatlari va boshqa xarajatlar;
- d) Moddiy xarajatlar, mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta va amortizatsiya ajratmalari.

4. Mahsulot tannarxini xarajat elementlari bo'yicha tahlil qilishdan asosiy maqsad nimadan iborat?

- a) Mahsulot turlari bo'yicha xarajatlar o'zgarishiga baho berish;
- b) Xarajatlar o'zgarishini nazorat etish;
- c) Moddiy resurslarga bo'lgan talabni aniqlash uchun;
- d) Ishlab chiqarish xarajatlarida xarajat elementlari salmog'i va o'zgarishiga baho berish.

5. Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda}}$;
- b) $\frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Mahsulot hajmi amaldagi ulgurji bahoda}}$;
- c) $\frac{\text{Mahsulot hajmi amaldagi bahoda}}{\text{Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi}}$;
- d) $\frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Mahsulot sotishdan kelgan tushum}}$.

6. Ish haqining nisbiy farqi qanday aniqlanadi?

- a) Hisobot davrida sarflangan ish haqidan bazis davridagi ish haqi fondini ayirish orqali;
- b) Hisobot davrida sarflangan ish haqi bazis davridagi ish haqi fondining mahsulot ishlab chiqarish indeksiga ko'paytmasidan hosil bo'lgan ko'rsatkich bilan taqqoslash orqali;
- c) Ishchi va xizmatchilarga sarflangan ish haqi bazis davridagi ish haqi fondi bilan taqqoslash orqali;
- d) Ish haqining bazis davridan mutlaq farqini foizda ifodalash orqali.

7. Doimiy xarajatlar deb qanday xarajatlarga aytiladi?

- a) Mahsulot hajmining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan xarajatlar;
- b) Davr xarajatlari;
- s) Ma'muriy va boshqaruv xarajatlari;
- d) Barcha turdagi ish haqi xarajatlari.

8. Ishchilarning yillik ish haqi fondiga qanday omillar ta'sir etadi?

- a) Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xodimlar soni, xodimlarning o'rtacha yillik ish haqi;
- b) Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ishchilar soni, ishchining o'rtacha yillik ish haqi;
- s) Mahsulot sotish hajmi, ishchilar soni, ishchining o'rtacha yillik ish haqi;
- d) Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ishchilarning nisbiy farqi, bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqi.

IX bob. KORXONA FAOLIYATINING DAROMAD, XARAJAT VA MOLIVAVIY NATIJALARINING KOMPLEKS TAHLILI

9.1. Daromad va xarajatlarning kompleks tahlili

Korxonaning daromad va xarajatlarini kompleks tahlil etishdan asosiy maqsad, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati, uning daromad, xarajat, foyda va zararlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar to'g'risida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishdan iborat.

Tahlil etuvchini asosan korxonaning joriy yildagi moliyaviy holati, yaqin yillarga mo'ljallangan rejasi hamda uzoq muddatlarga mo'ljallangan korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi parametrlari ko'proq qiziqtiradi.

Daromad va xarajatlar tahlili uchun ma'lumotlar 2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot»da aks etadi. O'tgan yil va hisobot yillariga tegishli barcha daromad va xarajatlar bu moliyaviy hisobot shaklida ifodalangan.

Korxonada daromadining tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili

9.1.1-jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		O'zgarishi (+,-)	
	summa, mln. so'm	jamiga nisba- tan, %	summa, mln. so'm	jamiga nisba- tan, %	mln. so'm (gr3- gr1)	ulushi (gr4- gr2)
A	1	2	3	4	5	6
Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan kelgan tushum	4547,8	89,53	6548,9	94,10	+2001,1	+4,57
Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan	279,5	5,50	221,2	3,18	-58,3	-2,32

daromadlar						
Olingan dividendlar	0,2	-	3,8	0,05	+3,6	+0,05
Olingan foizlar	5,7	0,11	7,2	0,10	+1,5	-0,01
Valuta kursi farqidan ko'rilgan daromad	139,6	2,75	90,3	1,30	-49,3	-1,45
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar	105,5	2,08	88,5	1,27	-17,0	-0,81
Favqulodda daromad	1,6	0,03	-	-	-1,6	-0,03
Jami daromadlar	5079,9	100	6959,9	100	+1880,0	-

2-shakl ma'lumotlari asosida dinamika tarzida daromad va xarajatlarning tarkibi, strukturasi, ularning o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi hamda daromadlardan samarali foydalanish, xarajatlarning maqsadga muvofiq yo'nalishi tahlil etiladi.

9.1.1-jadval ma'lumotlari asosidagi xulosa shuni ko'rsatadiki, korxonada jami daromad manbalari o'tgan yilga nisbatan 1880,0 mln. so'm yoki 37,0% ($1880,0 \cdot 100 : 5079,9$) ga ortgan. Jami daromad tarkibidagi mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan kelgan tushum salmog'i o'tgan yildagi 89,53% dan hisobot yiliga kelib 94,10%ga qadar ko'tarilgan, o'sish mutlaq summalarda 2001,1 mln. so'mni tashkil etgan. Daromadlar tarkibidagi olingan dividendlar, foizlar miqdori ham o'tgan yilga nisbatan 5,1 mln. so'm (3,6+1,5) ga ortgan. Daromadni tashkil etuvchi boshqa manbalardan tushum mutlaq summalarda hamda nisbiy ko'rsatkichlarda o'tgan yilga nisbatan pasayishi ro'y bergan.

Korxonada moliyaviy faoliyat faolligini oshirish uchun zarur choralar ishlab chiqishi keral.

Korxonada daromadi tarkibidagi o'zgarishlarning tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subyekt daromadlarini yanada oshirish imkoniyatiga ega. Mahsulot (ish, xizmat) larni sotish, boshqa korxonalar iqtisodiyotiga mablag'larni qo'yishdan olingan dividend, undirilgan foizlar hisobiga korxonada daromadi o'tgan yilga nisbatan 2006,2 mln. so'm ($2001,1+3,6+1,5$) ga ortgan. Ammo boshqa jarayonlardan olingan dividend, valuta kursi o'zgarishidan ko'rilgan

daromad, moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromad, favqulodda daromadlarni o'rganilayotgan davr mobaynida qisqarishi tufayli daromad 126,2 mln. so'm (58,3+49,3+17+1,6) ga kamaygan.

Bizning misolimizda asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko'rilgan daromadning jami korxonada daromadidagi hissasi yil boshidagi 5,50 % dan yil oxiriga kelib 3,18 % ga qadar qisqargan.

Tahlil natijalarini quyidagi jadvalga joylashtiramiz

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+,-)	Shu jumladan	
				daromad ortishi	daromad kamayishi
Korxonada bo'yicha jami daromad	5079,9	6959,9	+1880,0	+2006,2	-126,2

Ular tarkibiga quyidagi daromadlar kiradi:

- qarzdorlardan undirilgan jarima va penyalari;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yilga tegishli foyda;
- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mol-mulklarni sotishdan olingan daromadlar;
- da'vo muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad;
- moliyaviy yordam va boshqa daromadlar.

Korxonada xarajatlarining tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili

9.1.2-jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		O'zgarishi (+,-)	
	summa, mln. so'm	jamiga nisbatan, %	summa, mln. so'm	jamiga nisbatan, %	mln. so'm (gr3-gr1)	ulushi (gr4-gr2)
A	1	2	3	4	5	6
Sotilgan mahsulot (ish va xizmat)larning tan-narxi	2865,5	56,77	4449,0	64,99	+1583,5	+8,22
Davr xarajatlari	435,9	8,64	572,5	8,36	+136,6	-0,28

Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlarining xarajatlari	535,4	10,61	440,9	6,44	-94,5	-4,17
Uzoq muddatli ijara (lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	120,3	2,38	164,0	2,39	-43,7	+0,01
Valuta kursi farqidan zararlar	857,4	16,99	874,3	12,77	+16,9	-42,2
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	25,3	0,50	18,3	0,26	-7,0	-0,24
Favqulodda zararlar	-	-	-	-	-	-
Daromad (foyda) solig'i	193,4	3,83	279,8	4,08	+86,4	+0,25
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar	14,5	0,28	48,5	0,71	+34,0	0,43
Jami xarajatlar	5047,7	100	6847,3	100	+1779,6	-

Korxonalar xarajatlari (9.1.2-jadval) o'tgan yilga nisbatan 1779,6 mln. so'm yoki 35,6% ga oshgan. Sotilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar tannarxining jami xarajatlarda tutgan salmog'i 56,77% dan 64,99% ga qadar ko'tarilgan. Valuta kursining o'zgarishidan ko'rilgan zararlar ulushi esa yil boshidagi 16,99% dan hisobot davriga kelib 12,77% gacha qisqargan bo'lsada, ammo mutlaq summada 16,9 mln. so'mga o'sish kuzatilgan. Xuddi shunday holat davr xarajatlarida ham ro'y bergan.

Sotilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning har so'miga to'g'ri keladigan xarajat o'tgan yil 63,1 tiyin (2865,5:4547,8) ni hisobot davriga kelib 67,9 tiyinni tashkil etgan. Demak, mahsulot tannarxi hisobot davrida oshgan. Davr xarajatlarining o'sishi (131,3%) ga nisbatan sotish hajmining yuqori sur'atda o'sishi (144,0 %) davr xarajatlaridan nisbiy iqtisodga erishishga olib kelgan. Sotilgan mahsulot tushumining har so'miga to'g'ri keladigan davr xarajatlari o'tgan yil 9,6 tiyin, hisobot yilida 8,7 tiyinni tashkil etgan.

Korxonada daromadi ko'rsatkichlaridan foydalanish dinamikasining tahlili

9.1.3-jadval

T/p	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+,-)	O'sish sur'ati, %
	A	1	2	3	4
1.	Daromad (D), mln. so'm	5079,9	6959,9	+1880,0	137,0
2.	Xarajat (X), mln. so'm	5047,7	6847,3	+1799,6	135,6
3.	Foyda (zarar) (satr. 1-satr. 2)R, mln. so'm	32,2	112,6	+80,4	349,7
4.	Balans aktivining o'rtacha yillik qiymati (A), mln. so'm	7744,5	10543,7	+2799,2	136,1
5.	Sotishdan kelgan tushum (N), mln. so'm	4547,8	6548,9	+2001,1	144,0
6.	Balans aktivining rentabellik darajasi, % (satr. 3: satr.4) (f)	0,414	1,067	+0,653	257,7
7.	Sotishdan ko'rilgan rentabellik darajasi, % (satr. 3: satr.5) (X)	0,708	1,719	+1,011	242,8
8.	Daromadning aylanish koeffitsiyenti yoki daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum (satr. 5: satr.1) (u)	0,8952	0,9409	+0,0457	105,1

9.	Balans aktivining har so'miga to'g'ri keladigan daromad – daromadlilik koeffitsiyenti (satr.1:satr.4) (Z)	0,656	0,660	+0,004	100,6
10.	Xarajatlarning har so'miga to'g'ri keladigan daromad (satr.1:satr.2) (R)	1,0064	1,0164	+0,0100	101,1

Korxonaning daromad va xarajatlarining tarkibi, strukturasi tahlil etish uslubi amaliyotda keng qo'llaniladi, uning natijalari esa ahamiyatga molikdir. Tahlilni yanada chuqurlashtirish maqsadida moliyaviy tahlilda keng qo'llaniladigan koeffitsiyentlar orqali 9.1.3-jadval ma'lumotlari asosida mablag'lar (xarajatlar)dan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini baholash lozim. Jadvaldagi daromad va xarajatlarning o'sish sur'atlari bir-biriga yaqin. Mahsulot hajmining o'sishi 144,0 foizni tashkil etib, daromad xarajatlarnikiga nisbatan yuqori bo'lgan. Nomi yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarining yuqori darajada bo'lishi balans aktivining rentabelligining 0,414 dan 1,067% gacha, sotishdan ko'rilgan rentabellikning 0,708% dan 1,719% gacha, balans aktivining har so'miga to'g'ri keladigan daromad miqdorining 65,6 tiyindan 66 tiyinga qadar ko'tarilishini ta'minlagan. Jami daromaddagi mahsulot sotishdan kelgan tushum ulushi 89,52% dan 94,09% gacha ko'tarilgan. Bunga sabab daromad shakllanishida asosan mahsulotni sotishdan kelgan tushumning yuqori sur'atda o'sishidir.

Balans aktivining rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil etamiz. Balans aktivining rentabellik darajasiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

1. Sotishdan ko'rilgan rentabellik (R/N).
2. Daromadning har so'miga keladigan tushum (N/D).
3. Balans aktivining har so'miga to'g'ri keladigan daromad (D/A).

Omillar formula shaklida quyidagicha ifodalanadi:

$$R_A = \frac{R}{N} \cdot \frac{N}{D} \cdot \frac{D}{A}; \text{ yoki } f = xyz$$

Rentabellik darajasiga har bir omilning ta'siri yuqorida keltirilgan formula asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta f(x) = \Delta x \cdot y^0 \cdot z^0$$

$$\Delta f(y) = x^1 \cdot \Delta y \cdot z^0$$

$$\Delta f(z) = x^1 \cdot y^1 \cdot \Delta z$$

$$\Delta f = \Delta f(x) + \Delta f(y) + \Delta f(z)$$

9.1.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida (x, y, z) omillarining balans aktivining rentabellik darajasining o'zgarishi +0.653 ga bo'lgan ta'sirini aniqlaymiz.

$$\Delta f(x) = +1,011 \cdot 0,8952 \cdot 0,656 = +0,594\%$$

$$\Delta f(y) = 1,719 \cdot (+0,0457) \cdot 0,656 = +0,052\%$$

$$\Delta f(z) = 1,719 \cdot 0,9409 \cdot (+0,004) = +0,007\%$$

Omillar yig'indisi: +0,594 + 0,052 + 0,007 = + 0,653

Demak, balans aktivining rentabellik darajasining ortishi sotishdan ko'rilgan rentabellik, daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum hamda daromadlilik koeffitsiyentining ortishi bilan izohlanadi.

Korxonaning xarajat ko'rsatkichlarini tahlil etish va uni baholash uchun 9.1.4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanamiz.

Korxonalar xarajatlari ko'rsatkichlari dinamikasining tahlili

9.1.4-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+,-)	O'sish sur'ati, %
	A	1	2	3	4
1	Daromad (D), mln. so'm	5079,9	6959,9	+1880,0	137,0
2	Xarajat (X), mln. so'm	5047,7	6847,3	+1799,6	135,6
3	Soliq to'lagunga qadar foyda (R), mln. so'm	208,0	328,4	+120,4	157,8

4	Sotishdan kelgan tushum (N), mln. so'm	4547,8	6548,9	+2001,1	144,0
5	Xarajatlarning rentabellik darajasi, % (sitr.3:sitr.2) (f)	4,12	4,79	+0,67	116,2
6	Sotishdan ko'rilgan rentabellik darajasi, % (sitr.3: sitr.4) (x)	4,57	5,01	+0,44	109,6
7	Daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum (sitr.4:sitr.1) (u)	0,8952	0,9409	+0,0457	105,1
8	Xarajatlarning har so'miga to'g'ri keladigan daromad (sitr.1:sitr.2) (z)	1,0064	1,0164	+0,0100	101,0

Daromad va xarajat o'rtasidagi bunday nisbatning saqlanishi xarajatlarning har so'miga to'g'ri keladigan daromad miqdorining o'tgan yildagi 1,0064 dan hisobot davriga kelib 1,0164 gacha ko'tarilishini, o'sish sur'ati 101,0% tashkil etishini ta'minladi.

Umuman rentabellik darajasini ifodalovchi ko'rsatkich – sarflangan xarajat rentabelligi (+0,67%) ga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha ifodalash mumkin.

$$\frac{P}{X} = \frac{P}{N} \cdot \frac{N}{D} \cdot \frac{D}{X}; \text{ yoki } f = xyz$$

Rentabellik darajasiga omillar ta'sirini mutlaq farq usulini qo'llagan holda aniqlaymiz.

$$\begin{aligned} \Delta f(x) &= \Delta x \cdot y^0 \cdot z^0 = +0,44 \cdot 0,8952 \cdot 1,0064 = +0,39\% \\ \Delta f(y) &= x^1 \cdot \Delta y \cdot z^0 = 5,01 \cdot (+0,0457) \cdot 1,0064 = +0,23\% \\ \Delta f(z) &= x^1 \cdot y^1 \cdot \Delta z = 5,01 \cdot 0,9409 \cdot (+0,0100) = +0,05\% \\ \Delta f &= \Delta f(x) + \Delta f(y) + \Delta f(z) = +0,39 + 0,23 + 0,05 = +0,67\% \end{aligned}$$

Xo'jalik yurituvchi subyektning daromadi, xarajatlari va moliyaviy natijalari mavjud resurslar salohiyatidan samarali foydalanishga ko'p jihatdan bog'liq. Mahsulotni ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilishda ishtirok etuvchi resurslar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish xodimlari (R);
- asosiy ishlab chiqarish fondlari (F);
- moddiy resurslar (M);
- moliyaviy natijalar (foyda) (P).

Resurslardan foydalanishni kompleks baholash uchun ko'rsatkichlarni o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari zarur.

Korxonaning resurs potensialidan foydalanishi tahlili

9.1.5-jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgari shi (+,-)	O'sish sur'ati, %
A	1	2	3	4
Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan kelgan tushum, mln. so'm	4547,8	6548,9	+2001,1	144,0
Soliq to'lagunga qadar foyda, mln. so'm (R)	208,0	328,4	+120,4	157,8
Ro'yxat bo'yicha xodimlarning o'rtacha soni (R)	874	759	-115	86,8
Moddiy resurslar xarajati, mln. so'm (M)	143252	166730	+23478	116,4
Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati, mln. so'm (F)	3446	4493	+1047	130,3

9.1.5-jadval ma'lumotlari asosida korxonaning resurslar salohiyatidan kompleks foydalanish ko'rsatkichlarini quyidagi formula asosida aniqlaymiz:

$$K_{jrcs} = \sqrt{Pr w},$$

Bunda, Pr_w – resurslar ko‘paytmasining o‘shish darajasi.

$$K_j = \sqrt[4]{1,578 \cdot 0,868 \cdot 1,164 \cdot 1,303} = \sqrt[4]{2,078} = 1,200 \cdot 100\% = 120,0\%$$

Demak, korxonada resurslardan kompleks foydalanish darajasi o‘tgan yilga nisbatan 20,0% ga oshgan holda, mahsulot sotishdan kelgan tushum 44,0% ga o‘sgan. Yuqoridagi ikki ko‘rsatkich ishtirokida resurslardan samarali foydalanish hamda «ekstensiv» va «intensiv» foydalanish koeffitsiyentlarini quyidagi formula orqali aniqlaymiz.

$$K_{\text{akt}} = \frac{\Delta \text{ resurslar } \%,}{\Delta \text{ sotishdan kelgan tushum, } \%} = \frac{20,0\%}{44} =$$
$$= 0,45 \cdot 100 = 45\%;$$

$$K_{\text{int}} = 1 - 0,45 = 0,55 \cdot 100 = 55 \%$$

Resurslardan asosan ko‘proq intensiv ravishda foydalanilgan.

9.2. Moliyaviy natijalar tahlili

Xo‘jalik subyektlari faoliyatini kompleks baholash tizimida foyda muhim o‘rin tutadi. Ishlab chiqarish, investitsiya, moliyaviy va tashqi iqtisodiy faoliyat natijalari foydada o‘z aksini topadi. Foyda ishlab chiqarishni kengaytirish, budjetning daromad qismini to‘ldirish, korxonada ishlovchilarning moddiy jihatdan rag‘batlantirishning asosiy manbayi hisoblanadi.

«Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish faolligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda puxta o‘ylangan, birinchi navbatda, soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosatining o‘tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi».

2000–2011-yillar mobaynida daromad solig‘i 38 foizdan 9 foizga, yagona ijtimoiy to‘lov 40 foizdan 25 foizga, kichik biznes subyektlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, ya‘ni fermerlar uchun yagona soliq 6 foizga tushirildi.⁹ 2012-yilda 5 foizga tushiriladi.

⁹ O‘zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risidagi qaror. (PQ-1449-son)

2011-yilda soliq yuki 1991-yil bilan solishtirganda YaIM ga nisbatan qariyb ikki barobar, 41,2 foizdan 22 foizga qadar kamaydi. Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi 2011-yildagi 7 foizdan 6 foizga tushirilishi tufayli xo'jalik yurituvchi subyektlar o'z moliyaviy resurslarini qo'shimcha ravishda 80 mlrd.300 mil. so'mga to'ldirishga erishdilar.

Foyda iqtisodiy kategoriya, uning umumiy mohiyati quyidagicha ifodalanadi:

– firma, kompaniya, korxonalarining qisqa va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy manbai;

– kreditga layoqatliligini ifodalovchi ko'rsatkich;

– mulk egasining asosiy maqsadi;

– raqobatdoshlik mezon;

– ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish manbai.

Moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar) ga oid ma'lumotlar 2-sonli shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» da aks etgan.

Bu hisobot shaklining asosiy ko'rsatkichlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum.

2. Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan ko'rilgan yalpi foyda.

3. Asosiy faoliyatning foydasi.

4. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromad (zarar).

5. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari).

6. Favqulodda foyda (zarar).

7. Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar).

8. Sof foyda.

Daromad va xarajatlarni bu tarzda tarkiblanishi orqali:

– ishlab chiqarish xarajatlarini boshqa xarajatlardan farqlash va korxonada ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga baho berish;

– moliyaviy, boshqaruv yuzasidan operatsion xarajatlarni boshqa xarajatlardan farqlash;

– korxonada daromadlarini yuzaga kelishi yoki shakllanishi bo'yicha alohida tarkiblash (asosiy faoliyatdan, moliyaviy faoliyatdan hamda favqulodda holatlardan) imkoni tug'iladi.


«Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom»ga muvofiq foydaning quyidagi shakllari mavjud.

1. «Mahsulot (ish, xizmat) larni sotishning yalpi foydasi.
2. Asosiy faoliyatning foydasi.
3. Umumxo'jalik faoliyatining foydasi.
4. Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda.
5. Hisobot davrining sof foydasi.

Foyda mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar faoliyatini baholash ko'rsatkichi va rag'batlantirish manbayidir.

Shu tufayli faoliyatni obyektiv baholash uchun foyda tarkibi, tuzilishi, uni tashkil etuvchi elementlarni dinamik tarzda chuqur o'rganmoq lozim.

Foyda nafaqat mahsulot birligi uchun qilingan xarajatlarni qisqartirish, balki mahsulot sotish hajmini belgilangan assortimentda ortishi, talab va ehtiyojni hisobga olgan holda yuqori rentabellikka ega mahsulot turlarini ko'proq ishlab chiqarishga erishishga ham bog'liq. Shu bois korxonada faoliyatining barcha tomonlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'langan holda foyda kompleks tarzda tahlil etilishi maqsadga muvofiq. Foyda miqdorini tahlil etishda gorizontaal va vertikal tahlil metodlari muhim o'rin tutadi.



9.2.1-chizma. Foyda shakllanishi.

Foydaning gorizontal tahlili
(mln. so'mda)

9.2.1-jadval

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Hisobot yili – o'tgan yilga nisbatan, %
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	4547,8	6548,9	144,0

Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) tannarxi	2865,5	4449	155,2
Yalpi foyda (1 satr-2 satr)	1682,3	2099,9	124,8
Balans aktivi	7744,5	10543,7	136,1
Davr xarajatlari	435,9	572,5	131,3
Sof foyda	32,1	112,6	350,8

Gorizontal tahlil natijalari asosidagi xulosalar:

– tushumning o‘shish sur‘ati (1,44) ning balans aktivining o‘shish sur‘ati (1,36) ga nisbatan yuqori bo‘lishi balans aktivi aylanishining tezlashishiga, samaradorligining ortishiga olib kelgan;

– sof foyda (3,508) ning yalpi foyda (1,248) ga nisbatan o‘shish sur‘atining yuqori bo‘lishi korxonada soliq siyosati ratsional tarzda tashkil etilganligini ifodalaydi;

– sotishdan kelgan tushumning (1,44) o‘shish sur‘atining yalpi foyda (1,248) ga nisbatan yuqori darajada bo‘lishi ishlab chiqarish xarajatlarining ortib ketishiga olib kelgan;

– sotishdan kelgan tushumning davr xarajatlariga nisbatan yuqori sur‘atlarda o‘shishi davr xarajatlaridan nisbiy iqtisodga 55,1 mln. so‘m $[572,5 - (435,9 \cdot 1,440)]$ olib kelgan.

Vertikal tahlil orqali foyda turlari tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarga baho beriladi. Foyda solig‘i to‘lagunga qadar foydaga nisbatan yalpi foyda, davr xarajatlari, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko‘rilgan daromad, asosiy faoliyat foydasi, moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromad va xarajatlar, umumxo‘jalik faoliyatining foydasi, favqulodda foyda va zararlarning tutgan ulushlari o‘tgan yildagi ma‘lumotlar bilan taqqoslanadi va tegishli xulosa qilinadi.

*Umumiy moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi
va dinamikasining tahlili*

9.2.2-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		O'zgarishi	
		mln. so'm	soliq to'lagunga qadar foydaga nisbatan, %	mln. so'm	soliq to'lagunga qadar foydaga nisbatan, %	mln. so'm	o'tgan yilgi soliq to'lagunga qadar foydaga nisbatan, %
	A	1	2	3	4	5	6
1	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan ko'rilgan yalpi foyda	1682,3	700,7	2099,9	476,1	+417,6	+173,9
2	Davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlar	-691,8	-288,1	792,2	-179,6	-100,4	-41,8
3	Asosiy faoliyatning foydasi (1satr ± 2 satr)	990,5	412,6	1307,7	296,5	+317,2	+132,1
4	Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromad (+) va xarajatlar (-)	-752	-313,3	-866,7	196,5	-114,7	-47,7

5	Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (3 satr+4 satr)	238,5	99,3	441	100	+202,5	+84,4
6	Favqulodda foyda (+) yoki zarar (-)	+1,6	+0,7	-	-	-1,6	-0,7
7	Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (5 satr±6 satr)	240,1	100	441	100	+200,9	+83,7
8	Foydadan soliq va boshqa ajratmalar	208	86,6	328,4	74,5	+120,4	+50,1
9	Sof foyda (7 satr – 8 satr)	32,1	13,4	112,6	25,5	+80,5	+33,6

Korxonada hisobot davrida foydaning barcha shakllari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sishga erishgan. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan ko'rilgan yalpi foyda o'tgan yilga nisbatan 417,6 mln. so'mga ortgan. O'sish sur'ati 124,8 (2099.100: 1682,3) foizni tashkil etgan. Shu davr mobaynida asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda miqdori 1307,7 mln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 132,0 foizga qadar ko'tarilgan. Korxonada foydani yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Masalan, Davr xarajatlari, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko'rilgan daromad (saldosi) o'tgan yilga nisbatan sezilarli darajada 100,4 mln. so'mga yoki 45,1 foizga ortgan. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zarar o'tgan yili 752,0 mln. so'mni tashkil etib, hisobot yiliga kelib 866,7 mln. so'mga qadar ko'tarilgan, o'sish sur'ati 151,2 foizni tashkil etgan. Soliq to'lagunga qadar foyda miqdori o'tgan yilga nisbatan 200,9 mln. so'm 83,6 foizga o'sgan holda, foydadan soliq va ajratmalar 120,4 mln. so'm yoki 57,8 foizni tashkil etib, sof foydani

80,5 mln. soʻmga ortishini taʼminladi. Sof foydaning oʻzgarish natijalarini quyidagi jadvalga joylashtiramiz.

Koʻrsatkichlar	Mutlaq farq, mln. soʻm	Foizlarda
Sof foydaning oʻtgan yildan farqi	+80,5	100,0
Shu jumladan:		
– yalpi foyda ortishi	+417,6	+518,2
– davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlarining saldosi	-100,4	-124,6
– moliyaviy faoliyat boʻyicha xarajatlarning daromaddan yuqoriligi	-114,7	-142,2
– foydadan soliq va boshqa ajratmalarining ortishi	-120,4	-149,4
– favqulodda foyda oʻzgarishi	-1,6	-2,0

Demak, sof foyda asosan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan koʻrilgan yalpi foydaning ortishi evaziga erishilgan. Foydani tashkil etuvchi asosiy elementlarning ortishi esa sof foyda miqdorining kamayishiga olib kelgan.

9.3. Asosiy faoliyatdan koʻrilgan moliyaviy natijaga taʼsir etuvchi omillar tahlili

Foydaning shakllanishida asosiy ishlab chiqarish faoliyatining natijasi salmoqli oʻrin egallaydi.

$$AFKF = YaF - DX + BD$$

Bunda, AFKF – asosiy faoliyatdan koʻrilgan foyda;

YaF – yalpi foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatning boshqa daromadlari.

Asosiy faoliyatdan koʻrilgan foydaga bir necha omillar taʼsir etadi. Omillar taʼsirini hisoblashdan oldin analitik jadval orqali sotishdan

kelgan sof tushumda sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, operatsion xarajatlar va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko'rilgan daromadlarning hisobot davri va o'tgan yillardagi tutgan ulushlari aniqlanadi.

So'ngra asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydani sof tushumga bo'lish orqali rentabellik darajasi, ya'ni tushumning har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori aniqlanadi. Aniqlangan ko'rsatkich ishtirokida har bir omilning foydaga bo'lgan ta'siri hisoblab topiladi.

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydaga ta'sir etuvchi omillar tahlili

9.3.1-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'tgan yildan farqi	Tutgan ulushi, %		Ulush farqi, %
					o'tgan yil	hisobot yili	
	A	1	2	3	4	5	6
1	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelgan sof tushum, mln. so'm.	4547,8	6548,9	+2001,1	100	100	-
2	Sotilgan mahsulotlar tannarxi, mln. so'm.	2865,5	4449	+1583,5	63,0	67,94	+4,94
3	Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi, mln. so'm.	1682,3	2099,9	+417,6	x	x	x
4	Sotish xarajatlari, mln. so'm.	54,2	66,3	+12,1	1,19	1,01	-0,18
5	Ma'muriy xarajatlar, mln. so'm.	381,7	506,2	+124,5	8,40	7,73	-0,67
6	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	-255,9	-219,7	-36,2	5,63	3,35	-2,28

	va operatsion xarajatlari, mln. so'm..						
7	Asosiy faoliyatning foydasi (3satr-4-5±6), mln. so'm.	990,5	1307,7	+317,2	21,78	19,97	-1,81

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda o'tgan yilga nisbatan 317,2 mln. so'mga quyidagi omillar ta'sirida ortgan.

1. Mahsulot sotish hajmi. Bu omilning foydaga bo'lgan ta'sirini aniqlashda inflatsiya darajasini hisobga olish lozim. Masalan, inflatsiya darajasi 10 foizni tashkil etgan bo'lsa, baho indeksi 1,10 ga teng bo'ladi.

$$ib = \frac{100 + 10}{100} = 1,1\%$$

Hisobot davridagi sotishdan kelgan tushum solishtirma bahoda quyidagicha aniqlanadi:

$$T = T_1 : ib$$

Bunda, T – sotishdan kelgan tushum solishtirma bahoda;

T_1 – hisobot davridagi sotishdan kelgan tushum;

ib – baho indeksi.

$$T = 6548,9 : 1,10 = 5953,5 \text{ mln. so'm.}$$

Demak, hisobot davrida mahsulot sotishdan kelgan tushum baho o'zgarishi hisobiga 595,4 mln. so'mga ortgan.

$$6548,9 - 5953,5 = +595,4 \text{ mln. so'm.}$$

Sotish hajmi o'zgarishining (baho o'zgarishidan tashqari) foydaga bo'lgan ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{(2001,1 - 595,4) \cdot 21,78}{100} = +306,2 \text{ mln. so'm.}$$

2. Baho o'zgarishi:

$$\frac{+595,4 \cdot 21,78}{100} = +129,6 \text{ mln. so'm.}$$

3. Sotilgan mahsulot tannarxining o'zgarishi:

$$\frac{6548,9 \cdot (+4,94)}{100} = +323,5 \text{ mln. so'm.}$$

Tannarx ortishi tufayli foyda 323,5 mln. so'mga kamaygan.

4. Sotish xarajatlarining o'zgarishi:

$$\frac{6548,8 \cdot (-0,18)}{100} = -11,8 \text{ mln. so'm.}$$

Foyda 11,8 mln.so'mga ortadi.

5. Ma'muriy xarajatlar o'zgarishi:

$$\frac{6548,9 \cdot (-0,67)}{100} = -43,8 \text{ mln.so'm.}$$

Foyda 43,8 mln.so'mga ortadi.

6. Operatsion xarajatlar kamayishi hisobiga foyda 149,3 mln. so'mga ortgan.

$$\frac{6548,9 \cdot (-2,28)}{100} = -149,3 \text{ mln.so'm.}$$

Omillar ta'siri natijalarini quyidagi jadvalga joylashtiramiz

9.3.2-jadval

T №	Omillar ta'sirining natijalari	Summa, mln.so'm
	Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydaning o'tgan yildan farqi	+317,2
	Shu jumladan:	
1	Sotish hajmining ortishi	+306,2
2	Mahsulot bahosining o'zgarishi (Inflatsiya)	+129,6
3	Sotilgan mahsulot tannarxining ortishi	-323,5
4	Sotish xarajatlarining pasayishi	+11,8
5	Ma'muriy xarajatlarning kamayishi	+43,8
6	Operatsion xarajatlarning kamayishi	+149,3

9.4. Daromadlilik va balans aktivi, xususiy kapital va qarz kapitali, sotishdan ko'rilgan va xarajat rentabelliklarining kompleks iqtisodiy tahlili

Daromadlilik yoki balans aktivining xarajatlilik; xususiy va qarz kapitali; sof aktiv, investitsiya, sotish, xarajat va boshqa ko'rsatkichlardan foydalanishni umumlashtiruvchi sifat ko'rsatkichlari daromad, xarajat va moliyaviy natijalarga asoslangan holda hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi. Yuqorida nomlari keltirilgan daromadlilik (d) ko'rsatkichlarini hisoblash uchun jami daromad summalari, umumiy aktiv qiymati, sof aktiv, xususiy kapital va qarz kapitaliga nisbatan aniqlanadi.

$$d_{\text{aktiv}} = \frac{\text{Davri bo'yicha jami daromad}}{\text{Balans aktivining o'rtacha qiymati}} = \frac{\sum \text{daromad}}{A},$$

$$d_{\text{sa}} = \frac{\text{Davri bo'yicha jami daromad}}{\text{Sof aktivning o'rtacha qiymati}} = \frac{\sum \text{Daromad}}{SA};$$

$$d_{\text{xt}} = \frac{\text{Davri bo'yicha jami daromad}}{\text{Xususiy kapitalning o'rtacha qiymati}} = \frac{\sum \text{Daromad}}{XK},$$

$$D_{\text{qk}} = \frac{\text{Davri bo'yicha jami daromad}}{\text{Qarz kapitalining o'rtacha qiymati}} = \frac{\sum \text{Daromad}}{QK}$$

Daromadlilik ko'rsatkichlarini sotish hajmining har so'miga, ishlab chiqarish tannarxiga hamda daromadlilikni umumlashtiruvchi ko'rsatkich – korxonaning jami daromadlarining xarajatlariga nisbat ko'rinishida ham aniqlash mumkin.

$$d_{\text{daromad}} = \frac{\sum \text{Davri bo'yicha daromad}}{\sum \text{Davri bo'yicha xarajat}}.$$

Jami daromad summasining jami xarajatdan yuqori bo'lishi korxonaning sof foydasini ifodalaydi.

$$R_{\text{sof foyda}} = \sum \text{Daromad} - \sum \text{Xarajat}.$$

Bu ko'rsatkichlarning aksi bo'yicha ham hisob-kitob ishlarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

$$d_{\text{xarajat}} = \frac{\sum \text{Davr bo' yicha xarajat}}{\sum \text{Davr bo' yicha daromad}}$$

Jami xarajatlarning jami daromaddan yuqori bo'lishi korxonaning faoliyatini zarar bilan yakunlaganligini ifodalaydi. Daromadlilikning umumiy ko'rsatkichlari qatori korxonaning daromadi va xarajatlari bo'yicha yakka koeffitsiyentlarini ham aniqlash maqsadga muvofiq.

– sotishdan ko'rilgan daromadning jami daromaddagi ulushi:

$$d_{\text{daromad}} = \frac{\text{Davr bo' yicha sotishdan ko' rilgan daromad}}{\sum \text{Korxonaning jami daromadi}};$$

– sotilgan mahsulot tannarxining jami xarajatdagi ulushi:

$$d_{\text{xarajat}} = \frac{\text{Sotilgan mahsulot tannarxi}}{\sum \text{Korxonaning jami xarajati}}.$$

– jami to'liq xarajatning sotishdan kelgan tushumdagi ulushi:

Sotishdan kelgan tushumning har so'miga to'g'ri keladigan xarajat =

$$= \frac{\text{Sotilgan mahsulot tannarxi}}{\text{Sotishdan kelgan tushum}}$$

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asosiga va «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli 2-son BHMS da belgilanishiga, daromadlar, hisobot davri mobaynida, aktivlarning ko'payishi yoki majburiyatlarining qisqarishi ko'rinishida iqtisodiy foydalarning ko'payishidir, ular o'z kapitalining ko'payishiga olib keladi, bundan o'z kapitali egalari tomonidan qo'yilmalar bilan bog'liq ko'payishlar mustasno.

Daromadlar turli aktivlarning ko'payishi ko'rinishida yuzaga keladi. Bular nafaqat pul mablag'lari, balki realizatsiya qilinayotgan

tovarlar va xizmatlarning o'rniga olingan tovarlar va xizmatlar ham bo'lishi mumkin. Agar tovarlar va xizmatlar haqi xaridor tomonidan to'liq to'lanmagan bo'lsa, bunday hollarda debitorlik qarzlari ham bo'lishi mumkin. Daromadlar, shuningdek, majburiyatlarni kamaytirish ko'rinishida olinishi mumkin, bu esa korxonaning kapitaliga aktivlarning ko'payishi kabi ta'sir ko'rsatadi. Korxonaning daromadlari va xarajatlari hisobi, moliyaviy natijalarni shakllantirish va ulardan foydalanish hisobvaraqlar rejasining so'nggi, to'qqizinchi bo'limida, 9000-9900-son hisobvaraqlarda amalga oshiriladi.

Mazkur hisobvaraqlar tranzit (vaqtinchalik) hisobvaraqlardir, hisobot oyining oxiriga borib, ularning barchasi (bundan 92-hisobvaraq mustasno) yakuniy moliyaviy natijani aniqlash 9910-hisobvaraq bilan yopiladi, uning saldosi keyin 8710-»Hisobot davrining taqsimlangan foydasi (qoplanmagan zarari)» hisobvarag'iga o'tkaziladi. Buxgalteriya hisobotida aks etgan quyidagi xarajat ma'lumotlariga e'tibor qaratilmog'i lozim.

Hisobotlarda odatdagi xo'jalik faoliyatining borishi chog'ida yuzaga keluvchi xarajatlardan tashqari, kelgusida biror bir iqtisodiy manfaatlarni hosil qilmaydigan xarajatlardan tashkil topgan zararlar ham bo'lishi mumkin. Ularga quyidagi uchala mezonlardan biriga javob beruvchi xarajatlar kiritiladi:

- kelgusida ma'lum bir daromadlarni keltirib chiqarmaydigan;
- aktivlar sifatida tan olib bo'lmaydigan (kelgusi davrlar daromadlari yoki oldindan to'langan boshqa xarajatlarga o'xshash);
- tashkilot balansida mol-mulkning o'sishiga kiritish mumkin bo'lmagan.

Daromadlilik, foydalilik bir xil ma'noga ega emas. Ayrim iqtisodga oid manbalarda daromadlilik, foydalilik mazmun jihatdan bir deb qaraladi. Masalan, korxonaning ma'lum davrdagi jami daromadi, sof foydasining balans aktiviga nisbati bir xilda nomlanmaydi.

$$\text{Aktiv daromadligi} = \frac{\sum \text{daromad}}{A}$$

$$\text{Balans aktiv rentabelligi } (R_A) = \frac{SF \cdot 100\%}{A}$$

9.4.1-jadvalda keltirilgan rentabellik turlaridan tashqari quyidagi rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash kompleks iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sotishdan ko'rilgan rentabellik, % =

$$= \frac{\text{Sotishdan ko'rilgan yalpi foyda}}{\text{Mahsulot sotishdan sof tushum}} \times 100\% = \frac{FN}{N} \cdot 100\%$$

Qilingan xarajat qaytimi, % =

$$= \frac{\text{Sotishdan ko'rilgan yalpi foyda}}{\text{Sotilgan mahsulot tannarxi}} \times 100\% = \frac{FN}{SMT} \cdot 100\%$$

Jami daromadga nisbatan rentabellik, % =

$$= \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami daromad}} \times 100\% = \frac{SF}{\sum \text{Daromad}} \cdot 100\%$$

Jami xarajatga nisbatan rentabellik, % =

$$= \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami xarajat}} \times 100\% = \frac{SF}{\sum \text{Xarajat}} \cdot 100\%$$

Mahsulot birligining rentabelligi, % =

$$= \frac{(\text{Mahsulot bahosi} - \text{mahsulot tannarxi})}{\text{Mahsulot birligining bahosi}} \times 100\% = \frac{F}{b} \cdot 100\%$$

9.4.1-jadvalda aks etgan korxonalar balansi aktivi, kapitali va majburiyatlarini daromadlilik, rentabellik ko'rsatkichlarini kompleks baholash tizimini dinamik shaklda bir-biri bilan taqqoslash orqali natijaviy ko'rsatkichlarning ekstensiv va intensiv omillar evaziga o'zgarish natijalarini 9.4.2-jadvalning 9.1 va 9.2 satrlariga joylashtiramiz.

Korxonada aktiv, kapitali, majburiyatlari daromadlilik va rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash usuli

9.4.1-jadval

T №	Ko'rsatkich nomi	Buxgalteriya hisoboti shakli ma'lumotlari asosida hisoblash tartibi
1	Balans aktivi daromadlilik koefitsiyenti, (d_{ak})	$d_{ak} = \frac{\sum \text{Daromad (shakl № 2)}}{\text{Aktivning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{\sum \text{Dar}}{A}$
2	Xususiy kapital daromadlilik koefitsiyenti, (d_{xk})	$d_{xk} = \frac{\sum \text{Daromad (shakl № 2)}}{\text{Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{\sum \text{Dar}}{XK}$
3	Qarz kapitali daromadlilik koefitsiyenti, (d_{qk})	$d_{qk} = \frac{\sum \text{Daromad (shakl № 2)}}{\text{Qarz kapitalning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{\sum \text{Dar}}{QK}$
4	Sof aktiv daromadlilik koefitsiyenti, (d_{sa})	$d_{sa} = \frac{\sum \text{Daromad (shakl № 2)}}{\text{Sof aktivning o'rtacha yillik qoldig'i}} = \frac{\sum \text{Dar}}{SA}$
5	Balans aktivining rentabellik koefitsiyenti, (R_{ak})	$R_{ak} = \frac{\text{Sohq to'lagunga qadar foyda}}{\text{Aktivning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{F \text{ sohq } TQ}{A}$
6	Xususiy kapital rentabellik koefitsiyenti, (R_{xk})	$R_{xk} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{SF}{XK}$
7	Qarz kapitalining rentabellik koefitsiyenti, (R_{qk})	$R_{qk} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Qarz kapitalining o'rtacha yillik qiymati}_{qk}} = \frac{SF}{XK}$
8	Sof aktiv rentabellik koefitsiyenti, (R_{sa})	$R_{sa} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Sof aktivning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{SF}{SA}$

9.4.2-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	Koeffitsiyentlarning o'sish (pasayish) sur'atlari, %
1	Balans aktivi daromadlilik dinamikasi koefitsiyenti	1,031
2	O'z kapitali daromadlilik dinamikasi koefitsiyenti	1,026
3	Qarz kapitali daromadlilik dinamikasi koefitsiyenti	1,022

4	Sof aktiv daromadlilik koeffitsiyenti	1,018
5	$K_{daromad} = \sqrt[3]{P\omega} = \sqrt[3]{1,031 \cdot 1,026 \cdot 1,022 \cdot 1,018} = \sqrt[3]{1,101} = 1,024 \cdot 100 = 102,4\%$	102,4%
6	Balans aktivi rentabellik dinamikasi koeffitsiyenti	1,021
7	O'z kapitali rentabellik dinamikasi koeffitsiyenti	1,018
8	Qarz kapitali rentabellik dinamikasi koeffitsiyenti	1,016
9	Sof aktiv rentabellik koeffitsiyenti	1,014
	$K_{rent} = \sqrt[3]{Pf} = \sqrt[3]{1,021 \cdot 1,018 \cdot 1,016 \cdot 1,014} = \sqrt[3]{1,107} = 1,026 \cdot 100 = 102,6\%$	102,6%
9.1	$K_{dar} = \frac{\Delta K_{dar} - \delta; \%}{\Delta K_{rent}, \%} = \frac{+2,4}{+2,6} = 0,92 \cdot 100 = 92\%$	+92%
9.2	$K_{in} = 1 - 0,92 = 0,08 \cdot 100 = 8\%$	8%

9.4.2-jadval ma'lumotlari asosida balans aktivi kapitali va majburiyatlarining daromadliliigi va rentabelligini kompleks baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, daromadlilik dinamikasining kompleks ko'rsatkichi ($K_{daromad} = 102,4\%$) rentabellik dinamikasining kompleks ko'rsatkichi ($K_{rent} = 102,6\%$) darajasidan biroz past. Resurslardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti 92%, intensiv foydalanish (rentabellik) koeffitsiyenti 8% ni tashkil etgan.

Demak, resurslardan foydalanish rentabelligining 92% ga qadar ko'tarilishi asosan korxonada daromadining ortishi bilan, faqat 8% esa sof foydaning o'sishi bilan izohlanadi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- daromadlar tarkibi;
- xarajatlar tarkibi;
- daromad va xarajatlar kompleks tahlilining maqsadi;
- daromad tarkibi va tuzilishini kompleks tahlil etish usuli;

- xarajatlarni tarkibi, tuzilishi va dinamikasining kompleks tahlilining usuli;
- korxonada daromad ko‘rsatkichlaridan foydalanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- aktivning rentabellik darajasiga ta‘sir etuvchi omillar;
- korxonaning resurs potentsialidan foydalanishini tahlil etish uslubi;
- resurslardan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsiyentlari;
- moliyaviy natijalarni kompleks tahlil etishning mazmuni va vazifalari;
- foyda – iqtisodiy kategoriya;
- foyda shakllanishi;
- foydaning gorizontal tahlili natijalaridan kelib chiqadigan xulosalar;
- moliyaviy natijalarning vertikal tahlili natijalaridan kelib chiqadigan xulosalar;
- sof foydaning o‘zgarish sabablari;
- asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foydaga ta‘sir etuvchi omillarni hisoblash usullari;
- daromadlilik va xarajat rentabelliklarining kompleks iqtisodiy tahlili;
- sof aktiv daromadlilik koeffitsiyentini aniqlash tartibi;
- sof aktiv rentabellik koeffitsiyentini aniqlash tartibi.

Savol va topshiriqlar

1. Moliyaviy natijalarni kompleks tahlil etishdan maqsad va vazifalar nimalardan iborat?
2. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va demokratiyalashtirish sharoitida foydaning tutgan o‘rni va ahamiyatini izohlab bering.
3. Foyda qanday shakllarga ega?
4. Foydani tahlil etishda qanday usullardan foydalaniladi?
5. Sof foydaga qanday omillar ta‘sir etadi?

6. Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydaga qanday omillar ta'sir etadi? Omillar ta'sirini hisoblash tartibini tushuntirib bering.

7. Daromadlilik va rentabellik ko'rsatkichlarini bir-biridan farqlanishini tushuntiring.

8. Balans aktivi, xususiy kapital, qarz kapitallarini daromadlilik ko'effitsiyentlari qanday aniqlanadi?

9. Rentabellik turlari, ularni hisoblash tartibi va mazmunini tushuntirib bering.

10. Sof aktiv daromadlilik, rentabellik ko'effitsiyentlari qanday aniqlanadi?

11. Quyidagi 2-sonli shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari asosida aniqlang (mln. so'm hisobida):

- mahsulot (ish, xizmat)larni sotishning yalpi foydasi;
- asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda;
- umumxo'jalik faoliyatining foydasi;
- daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda;
- hisobot davrining sof foydasi.

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	O'tgan yil		Hisobot yili	
		Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)
1	2	3	4	5	6
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	010	18485	x	26211	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	020	x	16850	x	24177
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	030	?	x	?	x

Korxonada daromadi ko'rsatkichlaridan foydalanish dinamikasining tahlili

9.1.3-jadval

T/p	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+,-)	O'sish sur'ati, %
	A	1	2	3	4
1.	Daromad (D), mln. so'm	5079,9	6959,9	+1880,0	137,0
2.	Xarajat (X), mln. so'm	5047,7	6847,3	+1799,6	135,6
3.	Foyda (zarar) (satr.1-satr. 2)R, mln. so'm	32,2	112,6	+80,4	349,7
4.	Balans aktivining o'rtacha yillik qiymati (A), mln. so'm	7744,5	10543,7	+2799,2	136,1
5.	Sotishdan kelgan tushum (N), mln. so'm	4547,8	6548,9	+2001,1	144,0
6.	Balans aktivining rentabellik darajasi, % (satr. 3: satr.4) (f)	0,414	1,067	+0,653	257,7
7.	Sotishdan ko'rilgan rentabellik darajasi, % (satr. 3: satr.5) (X)	0,708	1,719	+1,011	242,8
8.	Daromadning aylanish koeffitsiyenti yoki daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum (satr. 5: satr.1) (u)	0,8952	0,9409	+0,0457	105,1

9.	Balans aktivining har so'miga to'g'ri keladigan daromad – daromadlilik koeffitsiyenti (satr.1:satr.4) (Z)	0,656	0,660	+0,004	100,6
10.	Xarajatlarning har so'miga to'g'ri keladigan daromad (satr.1:satr.2) (R)	1,0064	1,0164	+0,0100	101,1

Korxonaning daromad va xarajatlarning tarkibi, strukturasi tahlil etish uslubi amaliyotda keng qo'llaniladi, uning natijalari esa ahamiyatga molikdir. Tahlilni yanada chuqurlashtirish maqsadida moliyaviy tahlilda keng qo'llaniladigan koeffitsiyentlar orqali 9.1.3-jadval ma'lumotlari asosida mablag'lar (xarajatlar)dan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini baholash lozim. Jadvaldagi daromad va xarajatlarning o'sish sur'atlari bir-biriga yaqin. Mahsulot hajmining o'sishi 144,0 foizni tashkil etib, daromad xarajatlarnikiga nisbatan yuqori bo'lgan. Nömlari yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarining yuqori darajada bo'lishi balans aktivining rentabelligining 0,414 dan 1,067% gacha, sotishdan ko'rilgan rentabellikning 0,708% dan 1,719% gacha, balans aktivining har so'miga to'g'ri keladigan daromad miqdorining 65,6 tiyindan 66 tiyinga qadar ko'tarilishini ta'minlagan. Jami daromaddagi mahsulot sotishdan kelgan tushum ulushi 89,52% dan 94,09% gacha ko'tarilgan. Bunga sabab daromad shakllanishida asosan mahsulotni sotishdan kelgan tushumning yuqori sur'atda o'sishidir.

Balans aktivining rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil etamiz. Balans aktivining rentabellik darajasiga quyidagi omillar ta'sir etadi:

1. Sotishdan ko'rilgan rentabellik (R/N).
2. Daromadning har so'miga keladigan tushum (N/D).
3. Balans aktivining har so'miga to'g'ri keladigan daromad (D/A).

Omillar formula shaklida quyidagicha ifodalanadi:

$$R_A = \frac{R}{N} \cdot \frac{N}{D} \cdot \frac{D}{A}; \text{ yoki } f = xyz$$

Rentabellik darajasiga har bir omilning ta'siri yuqorida keltirilgan formula asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta f(x) = \Delta x \cdot y^0 \cdot z^0$$

$$\Delta f(y) = x^1 \cdot \Delta y \cdot z^0$$

$$\Delta f(z) = x^1 \cdot y^1 \cdot \Delta z$$

$$\Delta f = \Delta f(x) + \Delta f(y) + \Delta f(z)$$

9.1.3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida (x, y, z) omillarining balans aktivining rentabellik darajasining o'zgarishi +0.653 ga bo'lgan ta'sirini aniqlaymiz.

$$\Delta f(x) = +1,011 \cdot 0,8952 \cdot 0,656 = +0,594\%$$

$$\Delta f(y) = 1,719 \cdot (+0,0457) \cdot 0,656 = +0,052\%$$

$$\Delta f(z) = 1,719 \cdot 0,9409 \cdot (+0,004) = +0,007\%$$

$$\text{Omillar yig'indisi: } +0,594 + 0,052 + 0,007 = +0,653$$

Demak, balans aktivining rentabellik darajasining ortishi sotishdan ko'rilgan rentabellik, daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum hamda daromadlilik koeffitsiyentining ortishi bilan izohlanadi.

Korxonaning xarajat ko'rsatkichlarini tahlil etish va uni baholash uchun 9.1.4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanamiz.

Korxonaning xarajatlari ko'rsatkichlari dinamikasining tahlili

9.1.4-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	O'zgarishi (+,-)	O'sish sur'ati, %
	A	1	2	3	4
1	Daromad (D), mln. so'm	5079,9	6959,9	+1880,0	137,0
2	Xarajat (X), mln. so'm	5047,7	6847,3	+1799,6	135,6
3	Soliq to'lagunga qadar foyda (R), mln. so'm	208,0	328,4	+120,4	157,8

4	Sotishdan kelgan tushum (N), mln. so'm	4547,8	6548,9	+2001,1	144,0
5	Xarajatlar rentabellik darajasi, % (satr.3:satr.2) (f)	4,12	4,79	+0,67	116,2
6	Sotishdan ko'rilgan rentabellik darajasi, % (satr.3: satr.4) (x)	4,57	5,01	+0,44	109,6
7	Daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum (satr.4:satr.1) (u)	0,8952	0,9409	+0,0457	105,1
8	Xarajatlarning har so'miga to'g'ri keladigan daromad (satr.1:satr.2) (z)	1,0064	1,0164	+0,0100	101,0

Daromad va xarajat o'rtasidagi bunday nisbatning saqlanishi xarajatlarning har so'miga to'g'ri keladigan daromad miqdorining o'tgan yildagi 1,0064 dan hisobot davriga kelib 1,0164 gacha ko'tarilishini, o'sish sur'ati 101,0% tashkil etishini ta'minladi.

Umuman rentabellik darajasini ifodalovchi ko'rsatkich – sarflangan xarajat rentabelligi (+0,67%) ga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha ifodalash mumkin.

$$\frac{P}{X} = \frac{P}{N} \cdot \frac{N}{D} \cdot \frac{D}{X}; \text{ yoki } f = xyz$$

Rentabellik darajasiga omillar ta'sirini mutlaq farq usulini qo'llagan holda aniqlaymiz.

$$\begin{aligned} \Delta f(x) &= \Delta x \cdot y^0 \cdot z^0 = +0,44 \cdot 0,8952 \cdot 1,064 = +0,39\% \\ \Delta f(y) &= x^1 \cdot \Delta y \cdot z^0 = 5,01 \cdot (+0,0457) \cdot 1,0064 = +0,23\% \\ \Delta f(z) &= x^1 \cdot y^1 \cdot \Delta z = 5,01 \cdot 0,9409 \cdot (+0,0100) = +0,05\% \\ \Delta f &= \Delta f(x) + \Delta f(y) + \Delta f(z) = +0,39 + 0,23 + 0,05 = +0,67\% \end{aligned}$$

d) $\frac{\text{Yalpi foyda}}{\text{Balans aktivining o'rtacha yillik qiymati}} \cdot 100\%$.

4. Balans aktivining rentabellik darajasiga qanday omillar ta'sir etadi?

a) Sotishdan ko'rilgan rentabellik, daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum, balans aktivining har so'miga to'g'ri keladigan tushum;

b) Sotishdan ko'rilgan rentabellik, mahsulot birligining rentabelligi, daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum;

c) Balans aktivining har so'miga to'g'ri keladigan tushum, sotishdan ko'rilgan rentabellik, asosiy faoliyatdan ko'rilgan rentabellik;

d) Sotishdan ko'rilgan rentabellik, daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum, asosiy faoliyatdan ko'rilgan rentabellik.

5. Foydaning mohiyati nimalardan iborat?

a) Mulk egasining asosiy maqsadi, raqobatdoshlikning mezon, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish manbai;

b) Korxonalarivojlanishining asosiy manbai, mulk egasining asosiy daromad manbai, rentabellikka ta'sir etuvchi omil;

c) Mulk egasining asosiy maqsadi, raqobatdoshlikning mezon, oborot mablag'lar aylanishini tezlashtirish omili;

d) Korxonalarivojlanishining asosiy manbai, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish manbai, kelgusi davr daromadlarini shakllanish manbai.

6. Mol-mulk rentabelligi qanday aniqlanadi?

a) $\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Yoz kapitali}} \times 100\%$;

b) $\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxonaning jami mol - mulki}} \times 100\%$;

c) $\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Uzoq muddatli aktivlar}} \times 100\%$;

d) $\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Joriy aktivlar}} \times 100\%$.

7. Mahsulot sotishdan ko'rilgan foydaga qanday omillar ta'sir etadi?

a) Mahsulot sotish hajmi, sotilgan mahsulot tannarxi, operatsion daromadlar;

- b) Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, sotilgan mahsulot bahosi, sotilgan mahsulot tannarxi;
- c) Sotish hajmi, sotilgan mahsulot tannarxi, operatsion daromad;
- d) Mahsulot sotish hajmi, sotilgan mahsulot tannarxi, sotilgan mahsulot bahosi.

8. Faoliyat samaradorligining o'sish sur'atini tengsizlikning qaysi varianti aniqroq ifodalaydi?

- a) $100\% < \text{Kapitalning o'sish sur'ati} > \text{Tushumning o'sish sur'ati} < \text{Foydaning o'sish sur'ati}$;
- b) $100\% < \text{Kapitalning o'sish sur'ati} < \text{Tushumning o'sish sur'ati} < \text{Foydaning o'sish sur'ati}$;
- c) $100\% > \text{Kapitalning o'sish sur'ati} > \text{Tushumning o'sish sur'ati} > \text{Foydaning o'sish sur'ati}$;
- d) $100\% > \text{Kapitalning o'sish sur'ati} > \text{Tushumning o'sish sur'ati} < \text{Foydaning o'sish sur'ati}$.

9.5. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni korxonalarining moliyaviy natijalarini shakllantirishdagi roli va ahamiyati
Balans aktivi rentabelligining kompleks tahlili

O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan kayta jihozlash hamda iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash tufayli korxonalar yuqori foyda va rentabellikka erishmoqda. Iqtisodiyotimizdagi tarkibiy o'zgarishlar tufayli 2000-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2011- yilda bu ko'rsatkich 24,1 foizga qadar ko'tarildi.

Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi. Iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini diversifikatsiya qilish tufayli eksport hajmi 2010 yilga nisbatan 15,4

foizga oshdi. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi (2000-yilda bu ko'rsatkich 49 foiz).

Iqtisodiyotimizda bunday erishilgan yutuqlar zahirida mamlakatimizni modernizatsiya qilish yotadi. Modernizatsiya, rekonstruksiya, yangi texnikani joriy etish tufayli mahsulot hajmi ortadi, tannarxi pasayadi, mahsulotni sifati, raqobatdoshligi oshadi. Bulardan tashqari yangi texnikani joriy etish mehnat unumdorligini oshishiga, ish haqidan nisbiy iqtisod qilishga, asosiy vositalar amortizatsiya sig'imini pasaytirish orqali tannarxni pasayishi, foyda va rentabellikni o'sishiga erishiladi. Bugungi kunda yangi zamonaviy yuksak texnikalarni ishlab chiqarishga joriy etish, investitsiyalarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

2011-yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan qiymati 10 mlrd 800 mln dollardan ortiq kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2010-yilga nisbatan 11,2 foiz ko'p demakdir. Investitsiyaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,9 foizni tashkil etdi. Jami investitsiyalarning 73 foizi mamlakatimizning ichki manbalari hisobidan korxonalar va aholi manbalari, investitsiya jarayonlarida tobora faol ishtirok etayotgan tijorat banklari kreditlari, shuningdek, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan shakllantirilishini ijobiy hol deb hisoblash lozim.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish katta hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Demak, xorijiy investitsiyalarning ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin:

- Xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;
- Import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi;
- Kichik biznesni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish orqali aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;
- Korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy texnik bazasini qayta qurollantiradi.

Firma, korxonalarining moliyaviy natijalarini shakllantirishda soliq yukini kamayishi muhim o'ringa ega. Korxonalar uchun soliq yukini, foyda solig'i va yagona soliq to'lovi stavkalarini kamaytirish orqali iqtisodiyotdagi sog'lom muhitni kuchaytirish va tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligi oshirildi. 2010-yilda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun foyda solig'ining 10 foizdan 9 foizga tushirilishi natijasida ular ixtiyorida 52 mlrd so'mdan ortiq mablag' qoldirilishiga, ushbu mablag'lar ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot assortimentini yangilash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnika va texnologik jihatdan qayta jihozlashga zamin yaratildi. Soliq siyosatidagi ushbu jarayon kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq to'lovini kamaytirish orqali davom ettirilib, 2011-yil uchun yagona soliq to'lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga tushirilishi, kichik biznes subyektlariga 50 mlrd so'mdan ortiq mablag'ni tejab qolish imkonini berdi.

1992-yildan 2010-yilgacha bo'lgan davrda soliq to'lovi stavkalarining o'zgarishi

9.5.1 -jadval

Soliq turlari	1992–2009-yillardagi eng yuqori soliq stavkalari	2010-yilda o'rnatilgan stavkalar	Pasayishi
Qo'shimcha qiymat solig'i	30 foiz	20 foiz	1,5 barobar
Yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'i	45 foiz	9 foiz	5 barobar
Yuridik shaxslar uchun mulk solig'i	5 foiz	3,5 foiz	1,4 barobar
Kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi	15,2 foiz	7,0 foiz	2,2 barobar
Jismoniy shaxslarning daromad solig'i	60 foizgacha	22 foizgacha	2,7 barobar
Yagona ijtimoiy to'lov	40 foiz	25 foiz	1,6 barobar

Manba: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarini yagona soliq to'lovi (boshqa soliqlar, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armalariga, Respublika yo'l jamg'armasiga, maktab ta'limi jamg'armalariga majburiy to'lovlar o'rni) ko'rinishidagi soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimi joriy etilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantiradigan qo'shimcha omil bo'ldi, ushbu soliqning jami stavkasi yalpi tushumning 2005-yildagi 15,2 foizdan 2011-yilda 6 foizga tushirildi.

Rentabellik–korxona xo'jalik hisobi faoliyatining ko'rsatkichlaridan biri, u ma'lum vaqt (yil, kvartal) davomida ishlab chiqarish faoliyatining foydaliligi (zarurligi) ko'rsatkichidir. Bugungi kunda korxon faoliyatiga beriladigan baho mezonlaridan biri foyda va rentabellikdir¹⁰. Foyda miqdor ko'rsatkich bo'lib, u mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, tannarx, baxo ko'rsatkichlari ta'sirida o'zgaradi. Rentabellik esa nisbiy ko'rsatkich bo'lib, foiz hisobida aniqlanadi. Rentabellikka erishish uchun sotishdan kelgan tushum qilingan xarajatlarni qoplashi va ma'lum miqdorda foydaga ega bo'lishi lozim.

Korxonaning sof foyda (zarari) ni aniqlash uchun «Moliyaviy natijalar to'g'risida «gi shakl 2 ma'lumotlari asosida quyidagicha hisoblanadi:

Jami daromad – jami xarajat

Σ daromad > Σ xarajat = sof foyda

Σ daromad < Σ xarajat = zarar.

Mavzu maqsadi– bozor iqtisodiyoti chuqurlashtirilgan sharoitda rentabellik ko'rsatkichlarini yangi tizimini yaratish va uni tahlil etish uslublarini takomillashtirish, rentabellikka ta'sir etuvchi omillar natijasiga muvofiq korxonaning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlab chiqishdan iboratdir.

Rentabellik ko'rsatkichlari bir qancha funktsiyalarni bajaradi:

– korxonalarining asosiy ishlab chiqarish va oborot fondlari uchun yo'naltirilgan mablag'larning qoplanish muddatini ifodalaydi. Masalan, asosiy ishlab chiqarish va oborot fondlarining rentabellik darajasi 7

¹⁰ Qisqacha iqtisodiy lug'at. T.: «O'zbekiston», 908–909 betlar.

foizni tashkil etsa, sarflangan xarajatlarni qoplash muddati 14 yilni (100:7) tashkil etadi;

- rentabellik bankdan olingan kreditlarni qaytarish manbaidir;
- korxonani kreditga layoqatligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biridir;

- ijtimoiy sohani rivojlantirish manbai.

Rentabellik turlari va ularni hisoblashda iqtisodchi olimlar o'rtasida ma'lum bir to'xtamga kelinmagan:

- rentabellik ko'rsatkichlari tizimini shakllari turlichadir.

Tavsiyalarda ularni soni 2-7 tani tashkil etadi;

– ayrim iqtisodchilar barcha rentabellik turlarini sof foyda ishtirokida aniqlashni tavsiya etadilar. Bunday tarzda rentabellikni aniqlash mutloqo noto'g'ri deb hisoblaymiz;

– ayrim hollarda rentabellik tizimida, uning darajasini baholashda umuman aloqasi yo'q ko'rsatkichlar ham ishtirok etadi;

– bir turdagi rentabellik ko'rsatkichi bir necha nom ostida masalan, sotishdan ko'rilgan rentabellik, mahsulot sotishdan rentabellik, sotish rentabelligi deb ataladi. Professor E.A.Akramov rentabellik ko'rsatkichlarini 2 guruhga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi.¹¹

I. Rentabellikni umumiy ko'rsatkichlari:

1. Jami korxonada aktivi yoki mol- mulkini rentabelligi.
2. Ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarish fondlarini rentabelligi.
3. Korxonaning joriy xarajatlarini rentabelligi.
4. Mahsulot rentabelligi.

II. Rentabellikni qo'shimcha ko'rsatkichlari:

1. O'z kapitalining rentabelligi.
2. Qarz kapitali rentabelligi.
3. Asosiy kapital rentabelligi.
4. Oborot kapital rentabelligi.
5. Investitsiya rentabelligi.

O'quv qo'llanmada rentabellikni barcha turlari (xarajatlar rentabelligi, mahsulot rentabelligidan tashqari) soliq to'lagunga qadar

¹¹ Акрамов Э.А. Анализ финансового состояния предприятия. Учебное пособие. Т., 2000, стр.124-129.

foйда ishtirokida aniqlash tavsiya etiladi. Rentabellik turlarini bunday usulda aniqlanishi isbot talab etadi. Boshqa bir darslikda¹² rentabellikning 8 turini sof foйда ishtirokida aniqlash tavsiya etiladi (mahsulot sotishdan ko‘rilgan rentabellikdan tashqari).

Rentabellik darajasiga ta’sir etuvchi omillar (Анализ финансового состояния предприятия. Т., 2000. 132–141-стр.) indeks usuli orqali aniqlangan. Bu usul ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda qo‘l keladi.

Moliyaviy va boshqaruv tahlili bo‘yicha horijiy mamalakatlarining yirik buxgalteriya hisobi va tahlilchilari A.D.Sheremet, V.G.Artemenko, M.V.Bellendir, E.A.Markaryan, G.V.Saviskayalarning darslik, o‘quv qo‘llanmalarida rentabellik darajasiga ta’sir etuvchi omillar va ularni hisoblash usuli kam vaqt talab etishi va talabalarni fanni oson o‘zlashtirishi bilan boshqa darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan farqlanadi¹³. Korxonа aktivi (mol-mulki qiymati) rentabellik darajasiga omillar ta’sirini rivojlangan mamlakatlar tajribasida sinovdan o‘tgan usullarini qo‘llaymiz.

Korxonа aktivi (mol-mulki) rentabellik darajasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R_A = \frac{SF}{A} \times 100\%$$

Bunda,

R_A – balans aktivining rentabellik darajasi, % ;

SF –sof foйда;

A – balans aktivining o‘rtacha yillik qiymati.

Ushbu formulaning surat va maxrajlarini sotishdan kelgan tushum (ST) ga ko‘paytirish orqali formula quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

$$R_A = \frac{SF \times ST}{A \times ST} = \frac{SF}{ST} \times \frac{ST}{A}$$

¹² Vahobov A V., Ibroximov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. «Sharq» nashriyot matbaа Aksionerlik kompaniyasi bosh tahririyati. Т., 2005, 259–260-betlar.

¹³ А.Д.Шеремет, Р.С.Сайфуллин. Методика финансового анализа. М. 1996., В.Г.Артемченко, М.В.Беллендир Финансовый анализ Учебное пособие М., 1999 стр 90-99., Э.А.Маркарян и др. Финансовый анализ Учебное пособие. М. 2003 стр 21-38., Г.В.Савицкая Анализ хозяйственной деятельности. Учебное пособие. М., 2007, стр.103-110

SF __ tushumning har so‘miga to‘g‘ri keladigan foyda
ST (sotishdan ko‘rilgan rentabellik – RST)

ST — balans aktivining aylanish koeffitsiyenti
A

Ushbu formulani birinchi Dyupon kompaniyasi amalda qo‘llagani tufayli uning nomi bilan Dyupon formulasi deb yuritiladi.

Sotishdan ko‘rilgan rentabellik bo‘yicha korxonada aktiv rentabelligini oshirish yo‘llari:

- xarajatlar tarkibini qayta ko‘rib chiqish;
- sifat evaziga mahsulot bahosini oshirish;
- mahsulot raqobatdoshligini oshirish;
- mahsulot assortimentini yangilash.

Xarajatlarni kamaytirish yo‘llari:

- import o‘rni bosadigan mahalliy xom ashyo va materiallardan foydalanish;
- ikkilamchi resurslardan foydalanish;
- ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

Balans aylanish tezligini oshirish yo‘llari:

- tovar moddiy ishlab chiqarish zaxiralari tarkibidagi sifatsiz yoqilg‘i, energiyalarni qisqartirish; tayyor mahsulot qoldig‘ini normativ darajasiga keltirish, uning tarkibidagi butlanmagan, sifatsiz mahsulotlarni arzon narxlarda sotishni tashkil etish;

- jismoniy va ma‘naviy eskirgan asosiy vositalarni yangilari bilan almashtirish;

- oborot mablag‘lar immobilizatsiyasiga yo‘l qo‘ymaslik;
- oborot mablag‘lar aylanishini tezlashtirish choralarini belgilash.

Korxonada aktiv (mol-mulki) rentabelligining tahlili

9.5.2-jadval

T/r	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	O'tgan yil	Hisobot yili	O'tgan yildan farqi (+;-)	O'sish sur'ati, %
1	Sof foyda	mln.so'm	32,1	112,6	+80,5	350,7
2	Sotishdan kelgan sof tushum	mln.so'm	4547,8	6548,9	+2001,1	144,0
3	Balans aktivining o'rtacha yillik qiymati	mln.so'm	7744,5	10543,7	+2799,2	136,1
4	Balans aktivining aylanish koeffitsiyenti (2satr:3satr)	koef-t	0,587	0,621	+0,034	105,8
5	Sotishdan ko'rilgan rentabellik (tushumning har so'miga to'g'ri keladigan foyda) (1satr:2satr)	tiyin	0,705	1,719	+1,014	243,8
6	Korxonada aktivining rentabellik darajasi (1satr:3satr x 100%) yoki 4satr x 5satr	%	0,414	1,067	+0,653	257,7

Korxonada aktivining rentabellik darajasi 1,067 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,653 foizga oshgan. Rentabellikni ortishiga quyidagi omillar ta'sir etgan.

1. Balans aktivining aylanishini tezlashishi tufayli rentabellik 0,024 punktga ortgan.

$$+0,034 \times 0,705 = +0.024\%$$

2. Tushumning har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdorini ortishi evaziga rentabellik 0,629 punktga o'sgan.

$$+1,014 \times 0,621 = +0,629\%$$

Tekshirish: $+0,653 = +0,024 + 0,629$
 $+0,0653 = +0,653$

9.6. Xususiy kapital rentabelligi tahlili

Kapital iqtisodiy resursdir. U o'z kapitali va chetdan jalb etilgan qarz mablag'lari yig'indisidan iborat bo'lib, korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini yuritishning asosini tashkil etadi. Chetdan jalb etilgan mablag'lar qatoriga kredit va qarzlari, jismoniy va yuridik shaxslarga bo'lgan kreditorlik qarzlari kiradi.

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonada moliyaviy ehtiyojlarini o'zi mustaqil ravishda hal etadi. Korxonada resurslari olingan foyda, qimmatbaho qog'ozlarni sotishdan kelgan tushum, aksionerlar, jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan pay va boshqa to'lovlar, qonunga hilof bo'lmagan holda kirim qilingan mablag'lar evaziga tashkil topadi.

Bunday asosda kiritilgan mablag'lar korxonaning xususiy kapitali deb ataladi.

O'zbekiston o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Iqtisodiyotimizni yuksaltirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning xissasi beqiyosdir.

So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi natijasida uning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan – yilga ortib bormoqda. Xususan, 2000-yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich 54 foizni tashkil etdi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda eng avvalo, mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari etarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotgani muhim hisoblanadi. Xususan, 2000-yilda kichik biznes subyektlari uchun

belgilangan yagona soliq to'lovi 31 foizdan 2011-yilga kelib bu ko'rsatkich 6 foizni tashkil etdi.

2000–2010-yillar davomida ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni qariyb 2 barobar oshdi. 2010 yilda O'zbekiston aholisining har ming nafariga 15,2 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyekti to'g'ri keldi. Mazkur ko'rsatkich Moldavada 12,3 ta, Qozog'istonda 6,9 ta, Rossiyada 11,3 ta, Ukrainada 7,5 ta, Belorusiyada 7,3 ta, Ozarbayjonda esa 1,6 tani tashkil etadi.¹⁴

Iqtisodiyotimizdagi tarkibiy o'zgarishlar siyosatini aialga oshirishda erishilgan yutuqlar qatoriga mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining va ularning YalMdagi ulushining ortib borayotganini, kichik biznes sohasining YalMdagi, ish bilan band aholining umumiy soni va aholi daromadlaridagi hissasi yanada oshgani, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish va eksport hajmida tayyor mahsulotlar ulushining ortib borayotganini ham kiritish mumkin. Ma'lumki, kichik korxonalar mulkining asosiy manbai o'z mablag'lari hisoblanadi. Demak, o'z mablag'lari (xususiy kapital)ni kompleks tarzda tahlil etish, uning rentabelligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, rentabellikni oshirish rezervlarini hisoblash tahlilning asosiy vazifasidir. O'z kapitalining rentabelligi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$R_{o'z} = \frac{SF \times 100\%}{O'z k}$$

Bunda,

R – o'z - o'z kapitalining rentabellik darajasi, %;

SF – sof foyda;

O'z k – O'z kapitalining o'rtacha yillik qiymati.

Rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida yuqorida keltirilgan formulani quyidagi ko'rinishga keltiramiz:

¹⁴ Manba MDH statistika qo'mitasi.

$$R_{o'z} = \frac{YaF}{O'z k} - \frac{A}{ST} = \frac{YaF}{ST} - \frac{A}{O'z k} = R_{st} \times KA - \frac{A}{O'z k} = R_{st} \times Km_q$$

Bunda:

YaF – yalpi foyda;

ST – sotishdan kelgan tushum;


KA – balans aktivining aylanish koeffitsiyenti;

Kmq – moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti.

$$Km_q = \frac{A}{O'z k} = \frac{O'z k + qk}{O'z k} = \left(1 + \frac{qk}{O'z k}\right)$$

Bunda,

Qk – qarz kapitali (qarzga olingan mablag'lar)



9.6.1-chizma. O'z kapitalining rentabelligi

Demak, o'z kapitalining rentabelligiga quyidagi uch omil ta'sir etadi:

1. Mahsulot rentabelligi.
2. Balans aktivining aylanish koeffitsiyenti.
3. Moliyaviy qaramlik.

O'z kapitalining rentabelligi

9.6.1-jadval

T/r	Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Bazis davri	Hisobot davri	O'zgarishi (+;-)
1	Mahsulot rentabelligi	%	5,2	6,7	+1,5
2	Balans aktivining aylanish koeffitsiyenti	koef	0,58	0,62	+0,04
3	Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti	koef	2,1	2,2	+0,1
4	O'z kapitalining rentabelligi	%	6,5	9,3	+2,8

O'z kapitalining rentabelligiga quyidagi omillar ta'sirini hisoblaymiz:

1. Moliyaviy qaramlik koeffitsiyentini ortishi

$$\Delta R O'z = \Delta Kmk \times Rst^o \times KA^o = + 0.1 \times 5.2 \times 0.58 = + 0.3\% ;$$

2. Mahsulot rentabelligini ortishi

$$\Delta R O'z = \Delta Rst \times Kmk^1 \times KA^o = + 1.5 \times 2.2 \times 0.58 = + 1.9\% ;$$

3. Balans aktivining aylanish koeffitsiyenti

$$\Delta R O'z = \Delta KA \times Kmk^1 \times Rst^1 = + 0.04 \times 2.2 \times 6.7 = + 0.6\% .$$

Tekshirish: $+2,8 = +0,3+1,9+0,6$
 $+2,8=+2,8$

9.7. Ishlab chiqarish rentabelligini tahlili

Ishlab chiqarish rentabelligi (fondlarga nisbatan rentabellik) ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlardan biridir. Bu rentabellik turiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Ulardan ayrimlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish tuzilmasi va uning tashkil topish manbalari;
- ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasi;
- mahsulotni xaridorgirligi, raqobatbardoshligi;
- mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bog'liq xarajatlar;
- faoliyat turi bo'yicha foyda va uni ishlatilishi.

Ishlab chiqarish rentabelligi umumiy shaklda quyidagicha aniqlanadi:

$$R_i = \frac{SF}{Af + Mo} \times 100\%$$

Bunda,

R_i – ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarish fondlari rentabelligi, %;

Sf – sof foyda;

Af – asosiy ishlab chiqarish fondlarining urtacha yillik qiymati;

Mo – moddiy qiymatliklardagi oborot mablag'larini urtacha qoldig'i.

Rentabellikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida formulaning surat va mahrajlarini sotishdan kelgan tushum (ST)ga bo'lamiz.

$$R_i = \frac{SF}{\frac{Af}{ST} + \frac{Mo}{ST}} \times 100\%$$

Bunda,

SF

1. — — tushumning har so‘miga tug‘ri keladigan foyda (sotishdan ST ko‘rilgan rentabellik);

Af

2. — — mahsulot fond sig‘imi ko‘effitsiyenti;
ST

Mo

3. — — tushumning har so‘miga tug‘ri keladigan oborot ST mablag‘lari.

Demak, ishlab chiqarish rentabelligi amaldagi analitik hisob-kitoblarga ko‘ra sotishdan ko‘rilgan rentabellik, mahsulot fond sig‘imi, moddiy qiymatliklardagi oborot mablag‘larini yuklama ko‘effitsiyentlariga bog‘liq.

$$R_i = \frac{\text{tushumning har so‘miga tug‘ri keladigan foyda}}{\text{mahsulot fond sig‘imi} + \text{moddiy qiymatliklardagi oborot mablag‘larini yuklama ko‘effitsiyenti}} \times 100\%$$

Ishlab chiqarish (ishlab chiqarish fondlari) rentabelligi tahlili

9.7.1-jadval

T/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	O‘tgan yili	Hisobot yili	O‘tgan yildan farqi (+;-)
1	Sof foyda (SF)	mln.so‘m	32,1	112,6	+80,5
2	Mahsulot sotishdan kelgan tushum (ST)	mln.so‘m	4547,8	6548,9	+2001,1

3	Ishlab chiqarish asosiy vositalarining o'rtacha yillik qiymati (Af)	mln. so'm	4200	4700	+500
4	Moddiy qiymatlilardagi oborot mablag'larini o'rtacha yillik qoldig'i (Mo)	mln.so'm	3150	4100,6	+950,6
5	Jami ishlab chiqarish fondlari (satr 3+ satr 4)	mln.so'm	7350	8800,6	+1450,6
6	Mahsulot fond sig'imi (satr3:satr2)	tiyin	92,35	71,76	-20,59
7	Tushumning har so'miga to'g'ri keladigan oborot mablag'lari (satr4:satr2)	tiyin	69,26	62,61	-6,65
8	Tushumning har so'miga to'g'ri keladigan foyda (satr 1:satr2)	tiyin	0,70	1,72	+1,02
9	Ishlab chiqarish rentabelligi (satr 8*100% : satr 6+satr 7)	%	0,43	1,28	+0,85

Ishlab chiqarish rentabellik darajasi 1,28 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,85 foizga quyidagi omillar evaziga ortgan:

1. Sotilgan mahsulotning har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdorini ortishi tufayli ishlab chiqarish rentabelligi 0,63 foizga oshdi:

$$1,72 : (92,35+69,26)*100\% = 1,06 \text{ foiz}$$

$$1,06-0,43 = +0,63 \text{ foiz}$$

2. Mahsulot fond sig'imini pasayishi, ya'ni asosiy ishlab chiqarish fondlarining fond qaytimini ortishi tufayli ishlab chiqarish rentabelligi 0,6 foizga oshgan:

$$1,72 : (71,76 +69,26) * 100\% = 1,22 \text{ foiz}$$

$$1,22- 1,06 = +0,16 \text{ foiz}$$

3. Tushumning har so'miga to'g'ri keladigan oborot mablag'lari yuklamasini pasayishi evaziga ishlab chiqarish rentabelligi 0,06 foizga oshgan:

$$1,28-1,22 = +0,06 \text{ foiz.}$$

Korxonada aktivi, kapitali, majburiyatlari daromadlilikiga va rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash usuli

9.4.1-jadval

T №	Ko'rsatkich nomi	Buxgalteriya hisoboti shakli ma'lumotlari asosida hisoblash tartibi
1	Balans aktivi daromadlilik koef-fitsiyenti, (d_{ak})	$d_{ak} = \frac{\Sigma \text{Daromad (shakl № 2)}}{\text{Aktivning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{\Sigma \text{Dar}}{A}$
2	Xususiy kapital daromadlilik koef-fitsiyenti, (d_{xk})	$d_{xk} = \frac{\Sigma \text{Daromad (shakl № 2)}}{\text{Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{\Sigma \text{Dar}}{XK}$
3	Qarz kapitali daromadlilik koef-fitsiyenti, (d_{qk})	$d_{qk} = \frac{\Sigma \text{Daromad (shakl № 2)}}{\text{Qarz kapitalning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{\Sigma \text{Dar}}{QK}$
4	Sof aktiv daromadlilik koef-fitsiyenti, (d_{sa})	$d_{sa} = \frac{\Sigma \text{Daromad (shakl № 2)}}{\text{Sof aktivning o'rtacha yillik qoldig'i}} = \frac{\Sigma \text{Dar}}{SA}$
5	Balans aktivining rentabellik koef-fitsiyenti, (R_{ak})	$R_{ak} = \frac{\text{Soliq to'lagunga qadar foyda}}{\text{Aktivning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{F \text{ soliq TQ}}{A}$
6	Xususiy kapital rentabellik koef-fitsiyenti, (R_{xk})	$R_{xk} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{SF}{XK}$
7	Qarz kapitalining rentabellik koef-fitsiyenti, (R_{qk})	$R_{qk} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Qarz kapitalning o'rtacha yillik qiymati } l_{qk}} = \frac{SF}{XK}$
8	Sof aktiv rentabellik koef-fitsiyenti, (R_{sa})	$R_{sa} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Sof aktivning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{SF}{SA}$

9.4.2-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	Koeffitsiyentlarning o'sish (pasayish) sur'atlari, %
1	Balans aktivi daromadlilik dinamikasi koef-fitsiyenti	1,031
2	O'z kapitali daromadlilik dinamikasi koef-fitsiyenti	1,026
3	Qarz kapitali daromadlilik dinamikasi koef-fitsiyenti	1,022

4	Sof aktiv daromadlilik koeffitsiyenti	1,018
5	$K_{daromad} = \sqrt[4]{P\omega} = \sqrt[4]{1,031 \cdot 1,026 \cdot 1,022 \cdot 1,018} =$ $= \sqrt[4]{1,101} = 1,024 \cdot 100 = 102,4\%$	102,4%
6	Balans aktivi rentabellik dinamikasi koeffitsiyenti	1,021
7	O'z kapitali rentabellik dinamikasi koeffitsiyenti	1,018
8	Qarz kapitali rentabellik dinamikasi koeffitsiyenti	1,016
9	Sof aktiv rentabellik koeffitsiyenti	1,014
	$K_{rent} = \sqrt[4]{Pf} = \sqrt[4]{1,021 \cdot 1,018 \cdot 1,016 \cdot 1,014} =$ $= \sqrt[4]{1,107} = 1,026 \cdot 100 = 102,6\%$	102,6%
9.1	$K_{dar} = \frac{\Delta K_{dar} - \partial; \%}{\Delta K_{rent}, \%} = \frac{+2,4}{+2,6} = 0,92 \cdot 100 = 92\%$	+92%
9.2	$K_{int} = 1 - 0,92 = 0,08 \cdot 100 = 8\%$	8%

9.4.2-jadval ma'lumotlari asosida balans aktivi kapitali va majburiyatlarining daromadliliigi va rentabelligini kompleks baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, daromadlilik dinamikasining kompleks ko'rsatkichi ($K_{daromad} = 102,4\%$) rentabellik dinamikasining kompleks ko'rsatkichi ($K_{rent} = 102,6\%$) darajasidan biroz past. Resurslardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti 92%, intensiv foydalanish (rentabellik) koeffitsiyenti 8% ni tashkil etgan.

Demak, resurslardan foydalanish rentabelligining 92% ga qadar ko'tarilishi asosan korxonada daromadining ortishi bilan, faqat 8% esa sof foydaning o'sishi bilan izohlanadi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- daromadlar tarkibi;
- xarajatlar tarkibi;
- daromad va xarajatlar kompleks tahlilining maqsadi;
- daromad tarkibi va tuzilishini kompleks tahlil etish usuli;

– xarajatlarni tarkibi, tuzilishi va dinamikasining kompleks tahlilining usuli;

– korxonada daromad ko‘rsatkichlaridan foydalanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;

– aktivning rentabellik darajasiga ta‘sir etuvchi omillar;

– korxonaning resurs potentsialidan foydalanishini tahlil etish uslubi;

– resurslardan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsiyentlari;

– moliyaviy natijalarni kompleks tahlil etishning mazmuni va vazifalari;

– foyda – iqtisodiy kategoriya;

– foyda shakllanishi;

– foydaning gorizontaal tahlili natijalaridan kelib chiqadigan xulosalar;

– moliyaviy natijalarning vertikal tahlili natijalaridan kelib chiqadigan xulosalar;

– sof foydaning o‘zgarish sabablari;

– asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foydaga ta‘sir etuvchi omillarni hisoblash usullari;

– daromadlilik va xarajat rentabelliklarining kompleks iqtisodiy tahlili;

– sof aktiv daromadlilik koeffitsiyentini aniqlash tartibi;

– sof aktiv rentabellik koeffitsiyentini aniqlash tartibi.

Savol va topshiriqlar

1. Moliyaviy natijalarni kompleks tahlil etishdan maqsad va vazifalar nimalardan iborat?

2. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va demokratiyalashtirish sharoitida foydaning tutgan o‘rni va ahamiyatini izohlab bering.

3. Foyda qanday shakllarga ega?

4. Foydani tahlil etishda qanday usullardan foydalaniladi?

5. Sof foydaga qanday omillar ta‘sir etadi?

6. Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydaga qanday omillar ta'sir etadi? Omillar ta'sirini hisoblash tartibini tushuntirib bering.

7. Daromadlilik va rentabellik ko'rsatkichlarini bir-biridan farqlanishini tushuntiring.

8. Balans aktivi, xususiy kapital, qarz kapitallarini daromadlilik ko'effitsiyentlari qanday aniqlanadi?

9. Rentabellik turlari, ularni hisoblash tartibi va mazmunini tushuntirib bering.

10. Sof aktiv daromadlilik, rentabellik ko'effitsiyentlari qanday aniqlanadi?

11. Quyidagi 2-sonli shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari asosida aniqlang (mln. so'm hisobida):

- mahsulot (ish, xizmat)larni sotishning yalpi foydasi;
- asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda;
- umumxo'jalik faoliyatining foydasi;
- daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda;
- hisobot davrining sof foydasi.

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kod	O'tgan yil		Hisobot yili	
		Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)
1	2	3	4	5	6
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	010	18485	x	26211	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi	020	x	16850	x	24177
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	030	?	x	?	x

keltiradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritish va bankrotlikka uchramaslik uchun moliyaviy resurslarni boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak, kapital tarkibi qanday strukturaga ega bo'lishligi, uning qancha qismi o'z mablag'lari hisobiga tashkil topishini optimal varianti yechimiga ega bo'lishi kerak.

Korxonaning moliyaviy holati uning ishlab chiqarish faoliyati bilan uzviy bog'liqlikka ega. Mustahkam moliyaviy holatga ega korxonalarda ishlab chiqarishni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda muammo yuzaga kelmaydi. Moliyaviy holat nobarqaror bo'lgan hollarda esa ishlab chiqarish zaxiralari, mehnat resurslari, ishlab chiqarish uskunalari xarid etish uchun moliyaviy resurslar etishmasligi yuzaga keladi. Natijada, korxonada ko'zlangan miqdordagi foyda va rentabellikka erisha olmaydi.

Korxonalarining moliyaviy holati tahlili o'tkazish bosqichlarining o'zaro aloqasi va asosiy elementlari 10.1.1- chizmada keltirilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga u nazorat qiladigan iqtisodiy resurslar uning moliyaviy tuzilmasi, likvidlik, to'lovga qobillik va o'zi ishlayotgan muhitni o'zgarishiga munosabat bildirish qobiliyati ta'sir etadi. Moliyaviy holat tahlili natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar kelgusida kreditlarga bo'ladigan ehtiyojlarni belgilash uchun, shuningdek, bo'lg'usi daromadlar va pul oqimlarini xo'jalik yurituvchi subyekt aksiyalariga egalik qiluvchilar o'rtasida taqsimlaganda zarur, u bundan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining moliyaviy ahvolini qanchalik muvaffaqiyatli ravishda yaxshilab borishini prognozlash uchun ham zarurdir.


Moliyaviy holat tahlilining asosiy vazifalari:

– Korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarini chuqur o'rganib, uning faoliyatiga obyektiv baho berish.

– Korxonada balans tuzilishini o'rganish, uning tarkibidagi salbiy siljishlarni aniqlash.

– Korxonani o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanishini hisoblash va ularni o'zgarish sabablarini aniqlash.

– Kapital tarkibidagi o'z mablag'lari va chetdan jalb etilgan qarz mablag'lar nisbatining optimal variantini aniqlash.



10.1.1- chizma. Korxonaning moliyaviy holati tahlilini o'tkazish ishlari chizmasi.

– Korxonaning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularni mustahkamlash yo‘llarini ishlab chiqish.

– Korxonaning to‘lovga qodirligiga baho berish va bankrotlikning oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Moliyaviy holat tahlili Buxgalteriya balansi, unga ilova qilingan ko‘rsatkichlar hamda sintetik va analitik hisob schyotlari ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

10.2. Moliyaviy tahlil bosqichlari va standart usullari

Moliyaviy tahlil iqtisodiy tahlilning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu fanga bo‘lgan talab yanada ortdi. Shu bois so‘nggi yillarda tahlilning bu bo‘limi mustaqil fan darajasiga ko‘tarildi. Bozor munosabatlari shakllanishi ta‘sirida tobora ko‘proq foydalanuvchilar bevosita yoki moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan muayyan hisoblashlar natijasida olish mumkin bo‘lgan to‘liq va ishonchli axborotlar olishga qiziqish ortib bormoqda. Tahlil natijalaridan foydalanuvchilarni ikki guruhga bo‘lib o‘rganish tavsiya etiladi:

1. Tahlil natijalaridan bevosita manfaatdorlar.

2. Tahlil natijalaridan bilvosita manfaatdorlar.

Mulk egalari, korxonada boshqaruv ma‘muriyati, soliq, bank tashkilotlari, hamkorlar tahlil natijalaridan bevosita manfaatdorlar tarkibiga kiradi. Tahlil natijalaridan kasaba uyushmalari, auditorlar, matbuot, assotsiatsiya, birjalar va boshqalar bilvosita foydalanuvchilar qatoriga kiradi.

Tahlil metodologiyasida turli foydalanuvchilar uchun tub farqlar yo‘q, biroq analitikka kirish ruxsat etilgan axborot bazasida farq mavjud. Tashqi foydalanuvchi qo‘lida faqatgina buxgalteriya hisobotining rasmiy ma’lumotlari bo‘ladi, ichki foydalanuvchi esa operativ, statistik va buxgalteriya hisobi va hisobotining barcha ma’lumotlari, xatto birlamchi hujjatlardan ham foydalanishi mumkin.

**Moliyaviy tahlil subyektlarini maqsadi
va manfaatlari**

10.2.1- jadval

Xo'jalik subyektlari	Moliyaviy tahlil axborot vositalaridan foydalanuvchilarni maqsadi	Moliyaviy tahlil axborot vositalaridan foydalanuvchilarni manfaatlari
mulkdorlar	rentabellik, kapital strukturasi	kapital daromadi, moliyaviy barqarorlik
menejment	maksimal axborot	qaror qabul qilish
hamkorlar	to'lov qobiliyati, raqobotga bardoshlik	bozordagi holat
kreditorlar	likvidlik, to'lovga qodirlik, sof pul oqimi	kredit uchun to'lov, kreditni o'z muddatida qaytarilishi
soliq organlari	moliyaviy natijalar	soliq to'lovi
xaridorlar	bir tekislik, foydada ishtirok etish	mehnat haqi

Moliyaviy tahlil o'tkazilishini yetarlicha to'liq tartibga soluvchi rasmiy hujjatlar bugungi kunda deyarli yo'q, tahlil olib borayotgan analitik uni o'z mayliga ko'ra amalga oshiradi.

Moliyaviy tahlil masalalari bankrotlik va korxonalar sanatsiyasi masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining hukumat komissiyasi tomonidan 1997-yil 17-aprelda tasdiqlangan «Korxonalarni moliyaviy tahlil qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalari» da moliyaviy tahlilning quyidagi turlari nazarda tutiladi:

1. Moliyaviy holat tahlili-balans valyutasi dinamikasi, passivlar tuzilmasi, asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlar dinamikasi, moliyaviy natijalar tahlili.

2. Moliyaviy barqarorlik tahlili-zaxira va xarajatlarning tashkil topish manbalarini ortiqcha yoki yetishmaslik ko'rsatkichlari, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, qarz va o'z mablag'larining nisbat koeffitsiyenti, zaxira va xarajatlarni o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti, to'lov qobiliyati koeffitsiyenti.

3. Korxonaning iqtisodiy barqarorligini tahlili-to'lovga qodirlikni yo'qotish (tiklash) koeffitsiyenti, harakatchanlik koeffitsiyenti, ishlab chiqarish xarakteridagi mulkning real qiymati koeffitsiyenti.


4. Korxonaning rentabelligi tahlili-sotish realligi koeffitsiyenti, asosiy vositalar rentabelligi koeffitsiyenti, o'z kapitali rentabellik koeffitsiyenti, umumiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti.

O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi tomonidan 1996-yil iyulida tasdiqlangan «Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish uslubiyati» tavsiyanomalarida tahlilni quyidagi ketma-ketlikda olib borishga rioya qilinishiga e'tibor qaratiladi:

1. Moliyaviy holatni umumiy baholash.
2. Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlili.
3. Korxonani to'lovga qodirlikni baholash.

Ko'rinib turibdiki, respublikamizda nazariya va amaliyot, moliyaviy tahlil uslubiyatlarini bozor munosabatlari talablariga muvofiq shakllantirish masalalari bo'yicha talaygina ishlar qilingan. Ular qatoriga moliyaviy tahlilning quyidagi standart usullarini kiritish mumkin (10.2.1-chizma).

**Moliyaviy
tahlilning asosiy
shakllari**



10.2.1-chizma. Moliyaviy tahlilning standart usullari.

10.3. Balans aktivi moddalarini tahlili

Buxgalteriya balansi korxonalar mulki va ularni moliyalashtirish manbalarini ma'lum davrda puldagi ifodasidir. Buxgalteriya balansi O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun talablari asosida tuziladi. Buxgalteriya balansini o'rganish orqali:

– korxonalar ma'muriyati o'z korxonalarini iqtisodiyotda tutgan o'rni, tanlagan strategik yo'li to'g'riligi, mavjud resurslardan qay darajada foydalanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar;

– auditorlar to'g'ri xulosa qilish, auditor tekshiruvlarini rejalashtirish, hisobotda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladilar;


– tahlil etuvchilar moliyaviy tahlilning yo'nalishlarini aniqlaydilar.

Amaldagi buxgalteriya balansi Aktiv va Passiv qismlardan iborat. Aktiv qismining jami korxonalar mol-mulki qiymatini tashkil etadi. Aktiv qismi ikki bo'limdan iborat:

1. Uzoq muddatli aktivlar.

2. Joriy aktivlar.

Uzoq muddatli aktivlar quyidagi 10.3.1-chizmada keltirilgan.




10.3.1-chizma. Uzoq muddatli aktivlar tarkibi.

Asosiy vositalar– uzoq vaqt davri mobaynida moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida harakat qiladigan vositalardir.

Nomoddiy aktivlar– jismoniy mohiyatga ega bo‘lmagan, lekin korxonaga daromad keltiradigan yoki unga muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beradigan hamda qiymatga ega bo‘lgan uzoq muddat foydalaniladigan obyekt (yer,suv, boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari, patentlar, litsenziyalar, dasturiy loyihalar va boshqa shu singari obyektlar)dan iborat.

Uzoq muddatli investitsiyalar– daromad olish maqsadidagi xarajatlar (masalan, boshqa korxonalariga investitsiyalar, zayomlar berish, sho‘ba va qaram jamiyatlarga investitsiyalar)dan iborat.

Balans aktivining ikkinchi bo‘limi Joriy aktivlar deb nomlanadi (10.3.2-chizma).



10.3.2-chizma. Joriy aktivlar tarkibi.

Korxonaning resurslarining ishtiroki jihatidan ichki xo‘jalik oborotida ishtirok etadigan va korxonaning oborotidan tashqarida (debitorlik qarzlari, boshqa korxonalarining qimmatli qog‘ozlari, aktsiya va obligatsiyalarini sotib olish) foydalanilayotgan resurslarga bo‘linadi. Mablag‘larni ratsional joylashishi korxonaning moliyaviy holati va uning samaradorligiga ta’siri yuqoridir. Mablag‘larning qancha qismi asosiy va oborot mablag‘lariga, qanchasi ishlab chiqarish, muomala jarayonlariga, pul va moddiy ko‘rinishdagi shakllarga yo‘naltirilishi, ular o‘rtasidagi nisbatning optimalligi ko‘p jihatdan korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyati hamda moliyaviy holati bog‘liqdir. Shu bois korxonaning moliyaviy holatini tahlili balans aktivining tarkibi, tuzilishi va dinamikasini o‘rganish va unga tashxis qo‘yishdan boshlanadi.

Balans aktivi moddalarini tahlili

10.3.1-jadval

T/r	Balans aktivi	Yil boshi		Yil oxiri		Mutlaq farq, mln.so'm	O'sish sur'ati, %
		summa, mln. so'm	ulushi, %	summa, mln. so'm	ulushi, %		
	A	1	2	3	4	5	6
	Korxonada mol-mulki qiymati-jami	7744,5	100	10543,7	100	+2799,2	136,1
	Shundan:						
1	Uzoq muddatli aktivlar	3342,8	43,2	3889,1	36,9	+546,3	116,3
2	Joriy aktivlar	4401,7	56,8	6654,6	63,1	+2252,9	151,2
	Shu jumladan						
2.1.	Zaxira va xarajatlar	3150,0	40,6	4100,6	38,9	+950,6	130,2
2.2.	Pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar	546,7	7,1	709,3	6,7	+162,6	129,7
2.3.	Debitorlik qarzlari	705,0	9,1	1844,7	17,5	+1139,7	261,6

10.3.1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil etilayotgan korxonada mol-mulki qiymati 10547,7 mln.so'mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan 2799.2 mln.so'mga yoki 36,1 foizga ortgan. Korxonada mol-mulki tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan. Jumladan, uzoq muddatli aktivlarni jami mulkdagi hissasi qisqargan holda joriy aktivlarniki 6,3 punkt (63,1-56,8)ga oshgan. Mulki tarkibidagi bunday tarzda siljishlar mablag'lar aylanishini tezlashtiradi, korxonada moliyaviy holati mustahkamlanadi.

Moddiy qiymatliklardagi oborot mablag'lari yil boshiga nisbatan 1,3, pul mablag'lari 1,2 va debitorlik qarzlari 2,6 barobarga ortgan. Debitorlik qarzlari ortishi qisman ishlab chiqarish hajmini o'sishi bilan

izohlanadi. Tovar-moddiy zaxiralar, tayyor mahsulotlar omborini inventarizatsiya natijalariga ko'ra sifatsiz xom ashyo, yoqilg'i, butlovchi qismlarga ega bo'lmagan, iste'molchi tomonidan qaytarilgan tayyor mahsulotlar 650 mln.so'mni tashkil etgan. Jami oborot mablag'lariga nisbatan bu ko'rsatkich 9,7% ($650: 6654,6 \times 100$) ni tashkil etadi. Bunday holatni yuz berishi mablag'lar etishmasligiga, oborot mablag'lar aylanishini sekinlashishiga olib keladi.

10.4. Balans passivi tuzilishi va ularni tahlili

Korxonada moliyaviy holatiga baho berishda balans passivining tuzilishini tahlil etish, ya'ni korxonada mulkdagi o'z mablag'lari va chetdan jalb qilingan qarz mablag'larini hissasi aniqlanmog'i lozim. Bu manbalarning optimal nisbatga ega bo'lishi korxonaning istiqbolini belgilaydi. Moliyaviy resurslar manbaini dinamikasi va tuzilishini tahlil etishda ayniqsa manbalar strukturasi tahlili buxgalteriya ma'lumotlari asosida ichki va tashqi foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladi.


Shu tufayli tahlilga turlicha yondashish mumkin. Tashqi foydalanuvchilar (bank, mol yetkazib beruvchilar va h.k.) shartnomalarni tuzishda korxonaning o'z mablag'larini jami manbalarda tutgan ulushini inobatga olib moliyaviy tavakkal (risk)ni chamalaydilar.

Tavakkal(risk) darajasi, moliyalashtirishning manbalari va ulardan foydalanish, qarzlarni uzish muddati va boshqa omillarga bog'liq. Shu bilan birga o'z va qarz mablag'larini qanday yo'nalishlarga – asosiy fondlar va oborotdan tashqari aktivlar yoki harakatchan (mobil) oborot mablag'larga sarflanishini baholash muhim o'rin tutadi. Moliyaviy nuqtai nazardan mulkdagi oborot mablag'larning ortishi korxonada faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi. Bundan barcha manbalarni oborot mablag'larni o'sishiga sarflash kerak degan ma'no chiqmasligi kerak. Har bir korxonada o'z ishlab chiqarish ihtisosligidan kelib chiqqan holda ehtiyojiga muvofiq mashina, uskunalarni sotib olish uchun kapital qo'yilmalarni amalga oshiradi. Demak, tabiiyki mavjud mablag'lar manbai barcha moddiy aktivlarni o'sishi uchun ham sarflanadi. O'sish asosan qaysi manba evaziga, o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari

hisobiga erishilganligini aniqlash lozim. Ko'proq qarz mablag'lari (kredit, qarzar va kreditorlik qarzlari) jalb etilsa kelgusida ular miqdorini oldingi yillarga nisbatan qisqarishi korxonaga moliyaviy holatini nobarqaror, moliyaviy tavakkalni ortishiga olib keladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'z mablag'lari hisobiga tayangan korxonalarda tavakkal (risk) minimaldir. Ammo bunday korxonalarda olinadigan daromad ko'proq qarz mablag'larini jalb etgan korxonalariga nisbatan ancha past.

Korxonani o'z kapitali ikki manba hisobiga tashkil topadi.


1. Ichki manbalar.
2. Tashqi manbalar.



10.4.1- chizma. Korxonaga o'z kapitali manbalarini shakllanishi.

Qarz kapitali ikki qismga bo'linadi.

1. Uzoq muddatli (bir yildan yuqori).
2. Qisqa muddatli (bir yilgacha).



10.4.2-chizma. *Qarz kapitalining shakllanishi.*

Prezidentimiz I.Karimov tomonidan belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida iqtisodiyotni barqaror, izchil va mutanosib rivojlanishiga erishildi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning mutanosibligini ta‘minlashda banklarning roli beqiyosdir. Ayniqsa, zarar ko‘rib ishlayotgan va iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirishga qaratilgan O‘zbekiston Prezidentining 2008-yil 19-noyabrdagi «Iqtisodiy nochor korxonalarni tijorat banklariga sotish to‘g‘risidagi tartibni saqlash to‘g‘risida»gi F-4010-sonli Farmoyishi muhim ahamiyatga ega. Farmoyishga muvofiq nochor korxonalariga bir qator imtiyozlar (ko‘maklar) berilgan. Jumladan:

- ushbu farmoyishning 2-bandi asosida berilgan imtiyozlar bo‘yicha mol-mulk solig‘i summasini korxonalar xarajatlariga kiritmaslik;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi PF-4058-son Farmoniga muvofiq, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini o‘rnatilgan me‘yordan kamroq hisoblash.

2010 yilda banklarga berilgan 164 ta bankrot korxonadan 156 tasida ishlab chiqarish faoliyati to‘liq tiklandi. 110 ta korxonalar yangi investorlarga sotildi. Bunday korxonalarni texnik qayta jihozlash va

modernizatsiya qilish ishlariga tijorat banklari tomonidan 275 mlrd.so‘m miqdorida investitsiya kiritildi, natijada 22 mingdan ziyod ish o‘rni yaratildi.¹⁵

Balans passivini tahlili orqali mulkni tashkil topish manbalari, ularni tuzilmasi va tarkibini o‘zgarish sabablari, o‘shish sur‘atlariga baho beriladi.

Balans passivi moddalarini tahlili

10.4.1-jadval

T/r	Balans passivi	Yil boshi		Yil oxiri		Mutlaq farq, mln. so‘m	O‘shish sur‘ati, %
		Summa, mln. so‘m	ulushi, %	Summa, mln. so‘m	ulushi, %		
	A	1	2	3	4	5	6
	Mulkni tashkil topish manbalari jami	7744,5	100	10543,7	100	+2799,2	136,1
	Shundan:						
1	O‘z kapitali	3700,6	47,8	4705,3	44,6	+1004,7	127,1
2	Qarz kapitali	4043,9	52,2	5838,4	55,4	+1794,5	144,3
	Shu jumladan:						
2.1.	Uzoq muddatli majburiyatlar	1092,7	14,1	1428,1	13,5	+335,4	130,7
2.2.	Qisqa muddatli kredit va qarzlilar	751,6	9,7	957,6	9,2	+206,0	127,4
2.3.	Kreditorlik qarzlilar	2199,6	28,4	3452,7	32,7	+1253,1	156,9

Jami korxonalar mulkini (10.4.1-jadval) tashkil topish manbalarida o‘z kapitalini tutgan ulushi yil boshidagi 47,8 foizdan yil oxiriga kelib 44,6 foizga qadar pasaygan, chetdan jalb etilgan qarz mablag‘lari esa 52,2 foizdan yil oxiriga kelib 55,4 foizga qadar ko‘tarilgan. O‘shish sur‘ati

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi», 2012-yil 20-yanvar.

144,3 foizni tashkil etgan. Qarz mablagʻlari tarkibida ham struktura salbiy tomonga oʻzgargan. Jumladan, uzoq hamda qisqa muddatli majburiyatlarni jami manbalardagi tutgan ulushlari qisqargan holda kreditorlik qarzlarni hissasi yil boshiga nisbatan keskin koʻtarilgan. Mulknini tashkil topish manbalarini 32,7 foizi kreditorlik qarzlarni hissasiga toʻgʻri keladi. Avtonomiya (mustaqillik) koeffitsiyenti 0,4 (meʼyor 0,6) ni tashkil etgan. Korxonada debitorlik qarzlarni undirgan taqdirda ham kreditorlik qarzlarni uzish uchun etarli emas. Debitorlik qarzlari—1844,7 mln.soʻm, kreditorlik qarzlari – 3452,7 mln.soʻm. Kreditorlik qarzlarni debitorlikdan ortiqchaligi 1608 mln.soʻm.

Korxonada qarzlarni uzish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilishi kerak:

- mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan realizatsiya jarayonlari oʻrtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish;

- mijozlarni tanlashda ularni toʻlovga qodirligini tahlil etmoq kerak;

- mahsulotni etkazib berish shartnomasini bir necha mijozlar boʻyicha tuzish lozim;

- ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish muhim oʻrin tutadi;

- zamonaviy texnika va uskunalardan foydalanish mahsulot xaridorgirligi, raqobatdoshligi va sifatini oshiradi.


10.5. Oborot mablagʻlari va ular bilan korxonaning taʼminlanishini tahlili

Tashqi investor, mol yetkazib beruvchilar hamda bank xodimlarini koʻproq korxonani oborot mablagʻlarini tuzilmasi va taʼminlanish darajasi koʻproq oʻziga jalb etadi. Shu bois tahlil jarayonida oborot mablagʻlarini tarkibi, tuzilmasi va dinamikasi chuqur oʻrganiladi.

Oborot mablag'lar tarkibiga Buxgalteriya balansining II bo'lini – joriy aktivlardagi moddalar kiradi. Likvidligi jihatidan ular harakatchan mablag'lar hisoblanadi.

Tahlilning asosiy maqsadi – oborot kapitalini boshqarishda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash, ulardan intensiv va samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Oborot mablag'lar tuzilmasini tahlili shuni ko'rsatadiki korxonaning moliyaviy holatini barqarorligi ko'p jihatdan mablag'larni aylanish bosqichlari jarayonlarini optimal joylashishiga bog'liq.

Oborot mablag'larning aylanish bosqichlarini chizmasi.



Oborot mablag'lar aylanishi uch bosqichni o'taydi:

- 1) tayyorlov;
- 2) ishlab chiqarish;
- 3) realizatsiya.

Oborot mablag'lar dastlab tayyorlov jarayonida pul resurslari orqali xom ashyo, yoqilg'i va boshqa mehnat predmetlarini xarid (sotib oladi) etadi. Bu jarayonda pul ishlab chiqarish zaxirasi (resurs)ga aylanadi. Ishlab chiqarish jarayonida resurslardan tayyor mahsulot hosil bo'ladi. Realizatsiya jarayoni orqali tayyor mahsulot (ish, xizmat) yana pulga (P') aylanadi.

Oborot mablag'lar tuzilmasi jihatidan oborot fondlari va muomala fondlariga bo'linadi.

Oborot mablag'lar

Oborot fondi	Muomala fondi
Ishlab chiqarish zaxiralari	Tayyor mahsulot
Tugallanmagan ishlab chiqarish	Debitorlik qarzlari
Kelgusi davr sarflari	Kassa, hisob schyotidagi pul mablag'lari

Oborot mablag'lar tuzilishini muqobil holatda bo'lishi ishlab chiqarish va mahsulotni sotish jarayonlarini barqarorligini ta'minlaydi. Oborot mablag'lar tarkibidagi keskin o'zgarishlar (ishlab chiqarish zaxiralari qisqarishi, debitorlik qarzlari tarkibidagi muddati o'tgan qarzlarni ortib ketishi, pul mablag'larini qisqarishi) korxonada faoliyatini noqarorligidan dalolat beradi.

Oborot mablag'lar tuzilishi va dinamikasini tahlili

10.5.2-jadval

T/r	Ko'rsatkichlar	Oborot mablag'lar, mln.so'm			Tuzilmasi, %		
		Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi
1	Ishlab chiqarish zaxiralari	1249,4	1661,4	+412,0	28,5	25,0	-3,5
2	Tugallanmagan ishlab chiqarish	92,3	216,2	+123,9	2,2	3,2	+1,0
3	Tayyor mahsulot	619,5	897,1	+277,6	14,1	13,5	-0,6
4	Tovarlar	198,2	221,4	+23,2	4,5	3,3	-1,2
5	Kelgusi davr xarajatlari	990,3	1104,4	+114,1	22,4	16,6	-5,8
6	Kechiktirilgan xarajatlar	-	-	-	-	-	-
7	Debitorlar	705,1	1844,7	+1139,6	16,0	27,7	+11,7
8	Kassadagi pul mablag'lari	0,2	0,02	-0,18	0	0	0

9	Hisob schyotidagi pul mablag'lari	383,4	131,7	-251,7	8,7	2,0	-6,7
10	Chet el valyutasidagi pul mablag'lari	102,2	575,0	+472,8	2,3	8,6	+6,3
11	Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlari	-	-	-	-	-	-
12	Qisqa muddatli investitsiyalar	12,3	-	-12,3	0,2	-	-0,2
13	Boshqa joriy aktivlar	48,8	2,7	-46,1	1,1	0,1	-1,0
	Jami	4401,7	6654,6	+2252,9	100	100	-

10.5.2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, jami oborot mablag'lar tarkibida ishlab chiqarish zaxiralari, kelgusi davr sarflari, debitorlik qarzlarning ulushi yuqori salmoqqa ega. Ishlab chiqarish zaxiralari mutloq summalarda 412,0 mln.so'mga ortgan holda jami oborot mablag'lariga nisbatan ulush 28.5 foizdan yil oxiriga kelib 25.0 foizga qadar kamaygan. Kelgusi davr sarflarida ham shunday holat kuzatilgan. Ammo debitorlik qarzlari mutloq summada va nisbiy ko'rsatkich foizlarda yil boshiga nisbatan ortgan.

Korxonaning moliyaviy holatini barqarorligi oborot mablag'larini mavjud summasi va ular bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq. Balans bo'yicha o'z oborot mablag'larini mavjud summasi quyidagi hisoblash natijasida aniqlanadi.

O'z mablag'larining manbalariga Uzoq muddatli majburiyatlarni qo'shib chiqqan natijadan Uzoq muddatli aktivlarni ayirish orqali balans bo'yicha o'z oborot mablag'larini mavjud summasi hosil bo'ladi. O'z oborot mablag'larini mavjud summasini moddiy qiymatliklardagi oborot mablag'lari (shakl 1, 140 satr) bilan taqqoslash orqali mablag'larni ortiqcha (etishmasligi) aniqlanadi. Xorijiy mamlakatlarda o'z oborot mablag'lari «ishchi kapitali» deb ataladi. Hisob-kitoblarga ko'ra o'z oborot mablag'lari moddiy qiymatliklardagi oborot mablag'-

laridan ortiq bo'lsa ham, amalda ularni etishmaslik hollari ko'p korxonalarda uchraydi. Masalan, ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot qoldiqlarini me'yordan ortib ketishi, muddati o'tgan debitorlik qarzlarni ortishi oborot mablag'larini mavjud summasini kamayishiga olib keladi.

Korxonaning o'z oborot mablag'larini mavjud summasi 2244,3 mln.so'mni tashkil etib yil boshiga nisbatan 793,8 mln.so'mga yoki 54,7 foizga ortgan. (10.5.3-jadval) Ammo zaxira va xarajatlarni qoplash uchun o'z oborot mablag'larini yetishmasligi yil boshida 1699,5 mln.so'mni tashkil etgan holda yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich 1856,3 mln.so'mga qadar ko'tarilgan. Zaxira va xarajatlarni 54,7 foizi o'z oborot mablag'lari bilan qoplangan, 45,3 foizi esa chetdan jalb etilgan qarz mablag'lar hissasiga to'g'ri keladi.

Tahlil etish davomida o'z oborot mablag'larini o'zgarish sabablari aniqlanadi.

Balans bo'yicha korxonani o'z oborot mablag'larini mavjud summasi va ular bilan ta'minlanishi tahlili

10.5.3-jadval

T/r	K o' r s a t k i c h l a r	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi, (+;-)
1	O'z mablag'larining manbalari	3700,6	4705,3,	+1004,7
2	Uzoq muddatli majburiyatlar	1092,7	1428,1	+335,4
3	Jami manbalar (1 satr+ 2 satr)	4793,3	6133,4	+1340,1
4	Uzoq muddatli aktivlar	3342,8	3889,1	+546,3
5	Balans bo'yicha o'z oborot mablag'larini mavjud summasi (3 satr- 4 satr)	1450,5	2244,3	+793,8
6	Moddiy qiymatliklardagi oborot mablag'lari (zaxira va xarajatlar)	3150,0	4100,6	+950,6

7	O'z oborot mablag'larini ortiqcha (+), etishmasligi (-) (5 satr- 6 satr)	-1699,5	-1856,3	+156,8
8	Qoplanish koeffitsiyenti ,% (5 satr x 100: 6 satr)	46,0	54,7	+8,7

Bizning misolimizda o'z oborot mablag'larini mavjud summasi yil boshiga nisbatan 793,8 mln.so'mga quyidagi omillar ta'siri natijasida yuz bergan:

- o'z mablag'lari manbalarini ortishi +1004,7 mln.so'm;
- uzoq muddatli majburiyatlarni ortishi +335,4 mln.so'm;
- uzoq muddatli aktivlarni ortishi -546,3 mln.so'm.

Uzoq muddatli aktivlarni yil boshiga nisbatan 546,3 mln.so'mga ortishi o'z oborot mablag'larini shu summaga kamayishiga olib keldi.

Tekshirish: $+793,8 = +1004,7 + 335,4 - 546,3$
 $+793,8 = +793,8$

10.6. Korxonaning to'lovga qodirligi, moliyaviy barqarorligi va ishbilarmonlik faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlarini baholash va ularni tahlil etish uslubi

Moliyaviy holat davlat, tashkilot va shaxslar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq pul hisob - kitoblarini ifodalaydi. Moliyaviy holat korxonani mablag' bilan ta'minlanganligi, barcha turdagi mablag'larni maqsadga muvofiq yo'nalishi va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, byudjet, bank, homashyo etkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa tashkilotlar bilan olib boriladigan hisob-kitob holati bilan xarakterlanadi. Korxonani moliyaviy holati barqaror, nobarqaror va krizis darajasida bo'lishi mumkin. Moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan korxonalarda ishchi va xizmatchilar bilan ish xaqi, byudjet, bank, mol etkazib beruvchilar bilan bo'ladigan hisob-kitob ishlari o'z muddatida amalga oshiriladi. Moliyaviy intizomga rioya qilmaslik, debitorlik va kreditorlik qarzlarini

ortib ketishiga olib keladi va muddati uzaytirilgan qarzlarni surunkali davom etishi bankrotlik alomatlarini vujudga keltiradi.

Moliyaviy holat barqarorligini tahlili orqali ma'lum davr mobaynida moliyaviy resurslarni korxonaga qanday boshqarganligiga baho beriladi. Avvalo, moliyaviy resurslar holati bozor va korxonaga rivojlanishining talablariga mos kelishi kerak, chunki moliyaviy barqarorlikni talab darajasidan past bo'lishi korxonani to'lovga qobilligini zaiflashtiradi, ishlab chiqarishni rivojlanishi uchun mablag'lar etishmasligiga olib keladi. Buning aksi bo'lgan holatlarda esa, moliyaviy resurslarni ortiqchaligi ishlab chiqarishni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, ishlab chiqarish zaxiralari va rezervlarini me'yordan ortib ketishiga sabab bo'ladi. Demak, moliyaviy resurslarni samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishi moliyaviy barqarorlik mohiyatini ifodalaydi.

Davlatning iqtisodiy salohiyati, shu jumladan, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini barqarorligi ichki va tashqi omillar, jumladan, bugungi kunda jahon miqyosidagi moliyaviy inqirozlar va ularning salbiy oqibatlariga ko'p jihatdan bog'liq.

Moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi, ko'lami va oqibatlari qanday bo'lishi ko'p jihatdan Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 16 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ta'kidlanganidek, «Avvalo, davlatning moliya-valyuta tizimi nechog'liq mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi, ularning chet el va korporativ bank tuzilmalariga qanchalik qaram ekaniga, shuningdek, oltin-valyuta zahiralarining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada – mamlakat iqtisodiyotining barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatdoshlik darajasiga bog'liq».

Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri, undan ko'riladigan zararining darajasi va ko'lami, birinchi navbatda, shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga ham bog'liq.

Mamlakatni isloh qilish, texnik va texnologik yangitash, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, banklarni kapitallashuv darajasini oshirish, tijorat banklarining aktivlari miqdori «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi va boshqa oldindan ko'rilgan himoya mexanizmlari tufayli O'zbekistonning umumiy tashqi qarzi 2008-ilda yalpi ichki mahsulotning 13,3% ni, eksport hajmining 31% ni tashkil etdi. Bu xalqaro mezonlarga ko'ra, har jihatdan maqbul holat deb baholanadi.

To'lovga qodirlik korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, naqd pul mablag'lari orqali muddati kelgan to'lov majburiyatlarini bajara olishiga aytiladi.

Korxonaning to'lovga qodirligi balans aktivi ko'rsatkichlarini likvidligi hamda pul mablag'lari harakatini o'rganish orqali aniqlanadi. Likvidlik ko'rsatkichlari orqali to'lovga qodirlikni anqlaymiz. Buning uchun oborot aktivlari likvidligi, balans likvidligi, korxonaga likvidligi, to'lovga qodirlik ko'rsatkichlariga qisqacha izox beramiz. Oborot aktivlarini likvidligi balans likvidligidan farqlanadi. Oborot aktivlarini pulga aylanishi uchun ketadigan vaqt qancha qisqa bo'lsa, uning likvidligi shuncha yuqori bo'ladi.


Xo'jalik yurituvchi subyektning aktividagi moddalarni pulga aylanishi orqali to'lov majburiyatlarini qoplay olishi, aniqrog'i – to'lov majburiyatlarining muddati aktivdagi moddalarni pulga aylanish muddatiga mos kelishiga balans likvidligi deb tushuniladi. Balans likvidligini tahlil etish uchun professor E.Akramov fikriga ko'ra, balansning aktiv tomonidagi bir davrga borib naqd pulga aylanadigan mablag'larni shu davrda qaytariladigan majburiyatlar bilan solishtirish kerak.

Korxonaga likvidligi – balans likvidligiga nisbatan keng ma'noni anglatadi.

Balans likvidligi to'lov majburiyatlari faqat korxonaning ichki imkoniyatlari (aktivlarni realizatsiyasi)dan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Ammo korxonaga investitsiya faoliyati, ishbilarmonlik faolligini oshirish uchun o'z mablag'laridan tashqari chetdan qarz mablag'larini ham jalb etishi mumkin. «To'lovga qodirlik» va

«likvidlik» ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin, ammo «likvidlik» biroz kengroq ma'noni anglatadi. To'lovga qodirlik, balans likvidligi va korxonaning likvidlik darajalariga bog'liq.

Korxonaning joriy va istiqboldagi moliyaviy holatini likvidlik ko'rsatkichlari ifodalaydi. Tahlil etilayotgan korxonada hisobot davrida to'lovga qodir, ammo, kelgusi yillarda noqulay iqtisodiy sharoitga tushib qolishi va buning aksi ham bo'lishi mumkin.



10.6.1-chizma. Likvidlik va korxonaning to'lovga qodirlik ko'rsatkichlarini bir - biriga uzviy bog'liqligi.

To'lovga qodirlik, korxonada likvidligi va balans likvidligini professor G.V.Savitskaya ko'p qavatli binoga o'xshatadi. Bunda barcha qavatlar bir - biriga teng, ammo ikkinchi qavatni birinchi, uchinchi qavatni birinchi va ikkinchi qavatlarisiz bunyod etib bo'lmaydi.¹⁶

Demak, balans likvidligi to'lovga qodirlik va korxonada likvidligining asosi (fundamenti)ni tashkil etadi. Boshqa so'z bilan aytganda likvidlik – bu to'lovga qodirlikni saqlash usulidir.

¹⁶ Г.В Савицкая «Анализ хозяйственной деятельности» М Инфра-М, 2007. 256 стр

Korxonani to'lovga qodirligining dinamikasi va uning darajasi to'g'risida aniq xulosa qilish uchun quyidagi omillar ta'sirini ham hisobga olmoq zarur:

- korxonada faoliyatining xarakteri. Masalan, sanoat, qurilish xarakteridagi korxonalarda ishlab chiqarish zahiralari ulushi yuqori, pul mablag'lariniki esa past;

- debitorlar bilan hisoblash usuli;

- ishlab chiqarish zahiralari holati;

- debitorlik qarzlari holati: uning tarkibidagi muddati o'tgan, dargumon qarzlarni mavjudligi yoki mavjud emasligi.

Korxonaning umumiy to'lovga qodirligi mavjud jami aktivlar bilan majburiyat (qisqa muddatli va uzoq muddatli) larni qoplay olishini ifodalaydi.

$$K_{\text{um.qop}} = \frac{\text{Oborot aktivlari} - \text{Kelgusi davr xarajatlari}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar} - \text{Kelgusi davr daromadlari} - \text{Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlar uchun xazinalar}}$$

Umumiy qoplash koeffitsiyenti 2 dan kichik bo'lmasligi ($K_{\text{um.qop}} \geq 2$) kerak.

Endi to'lovga qodirlikni pul mablag'lari harakatini kuzatish va o'rganish orqali aniqlaymiz. Joriy to'lov qobiliyatini ichki tezkor tahlili orqali mahsulot sotishdan, debitorlik qarzlarni undirish va boshqa pulli tushumlarni nazorat qilish hamda korxonaning mol etkazib beruvchilar, bank va boshqa kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish uchun to'lov kalendari tuziladi.

Tezkor to'lov kalendari 1,5,10,15 kun, 1 oy muddatlarga tuzilishi mumkin. Korxonaning to'lovga qodirligini bu usulda aniqlash uchun ma'lum davrdagi to'lov mablag'larini, to'lov majburiyatlari bilan taqqoslash lozim. Taqqoslash natijasining koeffitsiyenti 1 va undan ($K \geq 1$) katta bo'lishi to'lovga qodirlikni ifodalaydi.

Tezkor to'lov kalendari (10.01. muddatiga qadar)

10.6.1- jadval

To'lov mablag'lari	Summa, ming.so'm.	To'lov majburiyatlari	Summa, ming.so'm.
Pul mablag'lari qoldig'i:		Mehnatga haq to'lash	1050
- kassa	-	Byudjetga to'lovlar	320
- bankdagi hisob scheti	2500	Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar	1130
Qimmatbaho qog'ozlar Pul mablag'larini kelib tushishi 10.01. gacha:	50	Mol mol etkazib beruvchilar va pudratchilar	4100
- mahsulot sotishdan	5080	Bank kreditining foiz to'lovlari	180
- boshqa sotuvlardan	185	Bank krediti	850
-moliyaviy faoliyatdan	170	Boshqa kreditorlik qarzlari	170
Olingan bo'naklar	500	Boshqa to'lovlar	50
Kredit, qarzlari	-		
Muddati uzaytirilgan debitorlik qarzlarni undirilishi	120	Jami	7850
Boshqa mablag'lar	30	To'lov mablag'larini to'lov majburiyatlaridan ortiqchaligi	785
Balans	8635	Balans	8635

To'lovga qodirlikning past darajada bo'lishi ko'pincha pul mablag'larini etishsmaligi va muddati uzaytirilgan qarzlarni mavjudligi bilan izohlanadi. Shu bois kompleks tahlil davomida to'lovga qodir emaslik sabablari atroflicha chuqur o'rganiladi.

To'lovga qodir emaslik sabablari:

- mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini pasayishi, tannarxini ortishi, foydasini qisqarishi natijasida o'z mablag'larining manbaini korxonani moliyalashtirish uchun yetishmasligi;

- oborot kapitalidan maqsadga muvofiq foydalanmaslik, ya'ni mablag'larni debitorlik qarzlar, me'yordan yuqori zaxiralarni tashkil topishiga sarflanishi;

- xaridorlarni to'lov qobiliyatiga ega emasligi;

- soliq yuki, soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lamanligi uchun jarima sanksiyalarini yuqoriligi.

To'lovga qodirlik ko'rsatkichlarini o'zgarish sabablarini aniqlash uchun pul mablag'larini kirimi va chiqimlari rejasining bajarilishini tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Bunday tahlil uchun pul mablag'larini harakati bilan bog'liq ko'rsatkichlar biznes rejadagisi bilan taqqoslanadi. Birinchi galda operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyatlarining byudjetini daromad qismini bajarilishi, belgilangan rejadan farqlanish sabablari aniqlanadi.

Moliyaviy barqarorlik keng qamrovli ko'rsatkich bo'lib, korxonalar faoliyatining barcha tomonlari natijasi unda aks etadi. Moliyaviy barqarorlikka erishgan korxonalar quyidagi hususiyatlarga ega bo'ladi:

- bozor munosabatlarini har xil sharoitlarida ham faoliyat yurita olishi;

- korxonalar pul mablag'larini erkin harakat qilishi;

- moliyaviy resurslarni bozor talablariga mos kelishi;

- moliyaviy resurslar holati ishlab chiqarishni rivojlantirish va to'lov qobiliyati, kreditga layoqatligini ta'minlay olishi;

- ishlab chiqarish zahiralari va harajatlarini manbalar bilan qoplanishi.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda moliyaviy barqarorlikka ta'aluqli ko'rsatkichlar, ularni hisoblash yo'llari va tahlili etarlicha yoritilmagan.

Moliyaviy barqarorlik mazmun jihatidan turlicha tariflanadi. To'lov qobiliyati, balans likvidligi, korxonani bozor faolligi ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari sifatida ko'rilishi mutlaqo noto'g'ri.

Professor E. Akramov («Korxonaning moliyaviy holati taxlili». T.: «Moliya», 2003) tomonidan moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari xususida bildirilgan fikr va mulohazalari diqqatga sazovordir. Moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash uchun zaxira va xarajatlar yoki moddiy

aylanma mablag'larni ularni tashkil topish manbalariga nisbat ko'rinishida aniqlash tavsiya etiladi. Moliyaviy koeffitsiyentlar esa moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi moliyaviy holatning qo'shimcha ko'rsatkichlaridir deyiladi mazkur qo'llanmada. Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash uslubi va ularning soni xususida ham ma'lum bir echimga kelinmagan.

M.Q. Pardayev, B.I. Isroilov («Iqtisodiy tahlil». O'quv qo'llanma. T., 2001., 137-bet) moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni iqtisodiy mohiyati jihatidan beshta guruxga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi.

1. O'z (xususiy) mablag'lari bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
2. Chetdan jalb qilingan mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
3. Harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
4. Aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.
5. Asosiy vositalardan foydalanish bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

A.V. Vahobov, A.T. Ibrohimov, N.F. Ishonqulov («Moliyaviy va boshqaruv tahlili». «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. T.: 2005, 219–220-betlar) darsligida moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichlar deb ettita koeffitsient keltiriladi. Professor N.M. Lyubishin tahriridagi «Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatiya» (M., 2001., 111–113-betlar) darsligida oltita moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarini aniqlash uslublari tavsiya etiladi.

Bizning fikrimizcha moliyaviy barqarorlikni baholashda ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ko'rsatkichlar uch guruxga bo'linib o'rganiladi.

I gurux. To'lovga qodirlik.

II gurux. Kapital strukturasi.

III gurux. Asosiy vositalar va aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

Tahlil davomida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim.

Ichki omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- korxonaga faoliyatini tarmoq xususiyatiga mos kelishi;


- ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ko'rsatilayotgan xizmat tuzilishi (strukturasi);
- ustav kapitaliga to'langan miqdor hajmi;
- xarajatlar miqdori, ularni daromadlarga nisbati dinamikasi;
- mol-mulk va moliyaviy resurslar holati, shu jumladan, zahira va rezervlar, ular tarkibi va tuzilishi.

Tashqi omillarga xo'jalikni yuritishning iqtisodiy shartlari, to'lovga qodirlik, xaridorlarning daromadlik darajasi, davlatning soliq va kredit bo'yicha siyosati, tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalar kiradi.

Umumiy barqarorlik chegarasini yuqori yoki past bo'lishi turli xil sabablarga bog'liq (10.1.2-chimaga qarang).

- «Barqarorlik zaxirasi» – bir necha yillar davomida shakllangan moliyaviy zaxiralar miqdori tasodifiy va keskin tashqi kutilmagan o'zgarishlarni oldini olishga qaratilgan;

- texnik - iqtisodiy barqarorlik – investitsiya loyihalari samaradorligi, texnika bilan qurollanish darajasi, ishlab chiqarish, mehnat, boshqaruvni tashkillashtirish; pul oqimlarini harakati tufayli foydaga erishishni ifodalaydi;



10.6.2-chizma. Korxonalar barqarorligining turlari


- moliyaviy barqarorlik – daromadni harajatlarga nisbatan va resurslar holatini yuqori bo‘lishi, pul mablag‘larining erkin xarakatini ta’minlaydi, mablag‘lardan samarali foydalanish ishlab chiqarish uzluksizligi, uni kengaytirish va yangilanishi uchun zamin yaratadi.

Moliyaviy barqarorlik o‘z va chetdan jalb etilgan kapitalar nisbati, joriy, investitsiya va moliyaviy faoliyat tufayli o‘z kapitali jamg‘armasini o‘shirish darajasi, harakatchan va immobilizatsiya qilingan resurslar nisbati, zahiralarni o‘z mablag‘lari manbai bilan ta’minlanishini ifodalaydi.

Demak, moliyaviy barqarorlik moliyaviy resurslar holati birinchidan, bozor talabiga mos kelishi, ikkinchidan, ishlab chiqarishni rivojlanishini ta’minlashi lozim.

Moliyaviy barqarorlik tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin:

- joriy – konkret (aniq) davr mobaynidagi moliyaviy barqarorlik;
- imkon – tashqi sharoit o‘zgarishini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik;
- yuzaki – davlat tomonidan qo‘llab quvvatlanadigan, chetdan beriladigan yordam tufayli moliyaviy barqarorlik;
- real – raqobat sharoitida kengaygan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik.



10.6.3-chizma. Korxonada moliyaviy barqarorligining turlari

Professional soʻz boyligida «moliyaviy barqarorlik» terminini ishlatilishi bir xil maʼnoni anglatmaydi.

Chet el iqtisodiy adabiyotlari va jahon amaliyotida «moliyaviy barqarorlik» soʻzini ifodalanishidagi farqlanish korxonalar balans tahliliga ikki xildagi yondoshish, yaʼni, balans likvidligini anʼanaviy va zamonaviy funktsional usullarini qoʻllash orqali yuzaga keladi.

Moliyaviy barqarorlikni balans likvidligi tahlilining anʼanaviy usuli orqali aniqlash quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- minimal moliyaviy tenglik qoidasi – ijobiy likvidlikka asoslangan boʻlib, bunda joriy aktivlar likvidligining oʻsishi majburiyatlarga nisbatan yuqori boʻlishi shart;

- maksimal qarzdorlik qoidasi – anʼanaviy meʼyorlarga muvofiq korxonalar qarzini oʻz mablagʻlari bilan qoplanish chegarasi: uzoq va oʻrta muddatli qarzlarning doimiy kapitalning yarmidan yuqori boʻlmasligi lozim.

- maksimal moliyalashtirish qoidasi – oldingi qoidaga rioya qilingan holda qarz kapitali barcha qoʻyilmalar uchun toʻlanadigan foiz summalaridan ortib ketmasligi lozim.

Funksional balans likvidligini taxlili orqali moliyaviy barqarorlik quyidagi shartlarga rioya qilingan holda aniqlanadi:

- moliyaviy muvozanatni saqlanishi uchun stabil resurslar – doimiy kapital va unga tenglashtirilgan mablagʻlar stabil joylashtirilgan aktivlarni 100 % qoplashi lozim. Nisbatni 100 % dan past boʻlishi stabil joylashgan mablagʻlar stabilga ega boʻlmagan resurslar bilan, yaʼni qisqa muddatli majburiyatlar shaklida moliyalashtirilganligini ifodalaydi. Oborot aktivlariga boʻlgan talab qisqa muddatli moliyalashtirish tufayli hisobot davri mobaynida oʻzgarib turadi va bu oʻzgarishlar quyidagilarga olib keladi:

- oborot aktivlarini ortiqcha taʼminlanishiga, buning natijasida vaqtinchalik erkin harakatdagi oborot mablagʻlari vujudga keladi;

- oborot aktivlari bilan yetarli darajada taʼmin etilmasligiga, buning natijasida chetdan qarz mablagʻlarini jalb etilishiga;


- umumiy qarzdorlikni baholash – chetdan jalb etilgan qarz mablagʻlari oʻz mablagʻlariga nisbat koʻrinishidagi ifodasidir.

Amaldagi iqtisodiy fan o'z tasarrufida moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil etishning ko'plab usullari va uslublarini jamlagan.

Ular bozor munosabatlari sharoitida tahlil oldiga qo'yilgan yangi talablar tufayli o'zgarib boradi. Korxonada moliyaviy barqarorligini tahlil etishning usullari 10.6.4-chizmada keltirilgan.

Korxonada faoliyati murakkab tizim va tizilmalardan iborat bo'lib, shu tufayli uning barqarorligini baholash kompleks tarzda yondashgan holda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tizimidan foydalanish kerak. Ko'rsatkichlar ikki guruhga bo'linadi: mutloq, nisbiy.

Moliyaviy barqarorlikni mutloq ko'rsatkichlar ishtirokida aniqlash uchun ishlab chiqarish zaxiralarini uni tashkil etuvchi manbalari, ya'ni o'z aylanma mablag'lari, bankdan olingan uzoq muddatli va qisqa muddatli kredit va qarzlarning summalarini bilan taqqoslanadi. Nisbiy ko'rsatkichlar foiz, koeffitsiyent, indekslar ko'rinishida ifodalanadi.



10.6.4-chizma. Korxonada moliyaviy barqarorligini tahlil etish usullari.

10.7. Moliyaviy barqarorlikning mutlaq ko'rsatkichlari tahlili

Moliyaviy barqarorlikni mutloq ko'rsatkichlar ishtirokida taxlil etish uchun zaxira va harajatlarni uni qoplash manbalari bilan taqqoslash lozim. Zahira va harajatlarni qoplash manbalarini holati uchun manbalar buxgalteriya balansining aktiv va passiv qismlaridan olinadi. Qoplash manbalari tarkibiga o'z aylanma mablag'lari (O'AM), uzoq muddatli kredit va qarzlari (UK), qisqa muddatli kredit va qarzlari (QK) kiradi.

1. O'Z aylanma mablag'lari (O'AM) – O'z kapitali bilan uzoq muddatli aktivlar (UMA)ni taqqoslash orqali xosil bo'ladi.

$$O'AM = O'MM - UMA$$

bunda, O'MM – o'z mablag'larini manbai (o'z kapitali).

2. Zahira va xarajatlarni qoplashga o'z aylanma mablag'lari va uzoq muddatli kredit va qarzlari (O'U)

$$O'U = O'AM + UK$$

bunda, UK – uzoq muddatli kredit va qarzlari

3. Zahira va harajatlarni qoplashga jami asosiy manbalar (JM)

$$JM = O'U + QK$$

bunda, QK – qisqa muddatli kredit va qarzlari.

Moliyaviy barqarorlikning tiplari

10.7.1- jadval

Mumkin bo'lgan variantlari (N)	$\Delta O'AM$	$\Delta O'U$	ΔJM	Moliyaviy barqarorlik toifalari
1	+	+	+	Mutlaq barqaror
2	-	+	+	Normal barqaror
3	-	-	+	Nobarqaror
4	-	-	-	Krizis holat

Moliyaviy barqarorlikning to'rt toifalari quyidagicha aniqlanadi:

1. Mutlaq moliyaviy barqarorlik

$$\Delta O'AM \geq 0$$

$$\Delta O'U \geq 0$$

$$\Delta JM \geq 0$$

$$S = (1,1,1)$$

2. Moliyaviy holat normal darajada

$$\Delta O'AM \leq 0$$

$$\Delta O'U \geq 0$$

$$\Delta JM \geq 0$$

$$S = (0,1,1)$$

3. Moliyaviy holat nobarqaror

$$\Delta O'AM \leq 0$$

$$\Delta O'U \leq 0$$

$$\Delta JM \geq 0$$

$$S = (0,0,1)$$

4. Krizis holati

$$\Delta O'AM \leq 0$$

$$\Delta O'U \leq 0$$

$$\Delta JM \leq 0$$

$$S = (0,0,0)$$

Moliyaviy holat tangligini pasaytirish undan chiqish uchun quyidagi manbalarni jalb etish mumkin:

- ortiqcha pul mablag'lari;
- chetdan jalb etilgan manbalar;
- bankdan olingan kredit;
- boshqa manbalar.

Korxonada moliyaviy barqarorligi tahlili

10.7.2- jadval

T	Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Yil boshi	Yil oxiri
№	A	1	2	3
1.	O'z mablag'larining manbai	O'MM	3700,6	4705,3
2.	Uzoq muddatli aktivlar	UMA	3342,8	3889,1
3.	O'z aylanma mablag'larining mavjud summasi (1 satr-2 satr)	O'MA	357,8	816,2
4.	Uzoq muddatli kredit va qarzlilar	UK	1092,7	1428,1

5.	Zaxira va harajatlarni qoplashga tegishli o'z aylanma mablag'lari va uzoq muddatli qarz mablag'lari (3 satr + 4 satr)	O'U	1450,5	2244,3
6.	Qisqa muddatli kredit va qarzar	QK	751,6	957,6
7.	Zaxira va harajatlarni qoplashning jami manbalari (5 satr+6 satr)	JM	2202,1	3201,9
8	Zahira va harajatlar	3	3150,0	4100,6
9.	Zaxira va harajatlarni qoplashga o'z aylanma mablag'larini ortiqcha (+) yoki yetishmasligi (-), (3 satr – 8 satr)	Δ O'AM	- 2792,2	- 3284,4
10.	Zaxira va xarajatlarni qoplashga o'z aylanma va uzoq muddatli kredit va qarz mablag'larini ortiqcha (+) yoki yetishmasligi (-) (5 satr – 8 satr)	Δ O'U	- 1699,5	- 1856,3
11.	Zaxira va harajatlarni qoplashga jami manbalarning ortiqcha (+) yoki yetishmasligi (-) (7 satr -8 satr)	Δ JM	- 947,9	- 898,7

Hisobot davrida korxonaning moliyaviy holati barqarorlikka ega emas. Zaxira va xarajatlarni qoplash uchun jami manbalarning etishmasligi yil boshida 947,9 mln.so'mni, yil oxiriga kelib 898,7 mln. so'mni tashkil etgan. Demak, korxonada krizis holatida.

10.8. Likvidlik ko'rsatkichlari, moliyaviy koeffitsiyentlarning kompleks tahlili

Hozirgi sharoitda moliyaviy barqarorlikni tahlilida nisbiy ko'rsatkichlar eng muhim rol o'ynaydi. Bozor munosabatlari sharoitida inflyatsiya darajasining korxonaga hisobot ma'lumotlariga bo'lgan ta'siri nisbiy ko'rsatkichlar (koeffitsiyent, indeks, foiz) larda biroz qisqaradi. Moliyaviy barqarorlikni baholashda ko'rsatkichlar yig'indisidan emas, balki tizimidan foydalanish tavsiya etiladi.

Ko'rsatkichlar tizimining shartlari:

- bir-biriga qarshi bo'lmaslik;
- bir-birini takrorlamaslik;
- korxonaga faoliyatida dog' qoldirmaslik;
- korxonaga faoliyatining eng muhim tomonlarini aks ettirilishi.

Korxonaga moliyaviy barqarorligini baholash ko'rsatkichlarining tizimi

10.8.1- jadval

T №	Ko'rsatkichlar	Hisoblash formulasi	Izohlash
	A	1	2
1- guruh. To'lovga qodirlik ko'rsatkichlari			
1.	Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	Pul mablag'lari + qimmat baxo qog'ozlar.	Joriy majburiyatlarni likvidligi yuqori aktivlar bilan qoplanishi
		Qisqa muddatli majburiyatlar	
2.	Tez likvidlik koeffitsiyenti	$\frac{\text{Pul mablag'.+ qisqa mud. inves-ya + deb.qarz}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$	Debitorlik qarzlarni undirgan xolda prognozdagiga to'lovga qodirlik
		Qisqa muddatli majburiyatlar	
3.	Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Joriy aktivlar	Joriy majburiyatlarni oborot mablag'lari bilan qoplanishi
		Qisqa muddatli majburiyatlar	

4.	Sof oborot aktivlar	Oborot aktivlari – qisqa muddatli majburiyatlar	O‘z kapitali bilan shakllangan oborot mablag‘lar miqdorini ifodalaydi
2- guruh. Kapital strukturasi ko‘rsatkichlari			
5.	Avtonomiya koeffitsiyenti	O‘z kapitali	Jami aktivdagi o‘z mablag‘larining ulushini ifodalaydi
		Balans aktivi	
6.	Doimiy aktivlar koeffitsiyenti	O‘z kapitali + uzoq muddatli majburiyatlar	Barqaror passivlar hisobidan moliyalashtiriladigan aktivlar ulushini ifodalaydi
		Balans aktivi	
7.	Qarz va o‘z kapitali nisbat koeffitsiyenti	Qarz kapitali	Chetdan jalb etilgan mablag‘lar bilan o‘z resurslarining nisbatini ifodalaydi
		O‘z kapitali	
8.	Moliyalashtirish koeffitsiyenti	O‘z kapitali	Qarz kapitalini qancha qismi o‘z kapitali bilan qoplanadi?
		Qarz kapitali	
9.	Sof aktivlar	Hisoblashda ishtirok etadigan aktivlar – hisoblashda ishtirok etadigan passivlar	O‘z kapitalining mavjud miqdori va ular bilan ta‘minlanishi
10.	Zaxiralarni qoplashdagi mablag‘lar manbaini ortiqcha (yetishmasligi)	Mablag‘lar manbaini miqdori–zaxira miqdori	Zaxiralarni ayrim turdagi manbalar bilan qoplanishi
3-gurux. Asosiy vositalar va aylanma mablag‘lar holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar			
11.	Oborot aktivlarini o‘z mablag‘lari bilan qoplanish koeffitsiyenti	O‘z aylanma mablag‘lari	Oborot aktivlarini o‘z aylanma mablag‘lari bilan qoplanishdagi ulushi
		Oborot aktivlari	

12.	Zaxiralarni o'z mablag'lari bilan qoplanish koeffitsiyenti	O'z aylanma mablag'lari	Zaxirani qoplanishidagi o'z kapitalining ulushini ifodalaydi
		Zahiralar	
13.	O'z kapitalining xarakatchanlik koeffitsiyenti	O'z aylanma mablag'lari	O'z kapitalidagi o'z aylanma mablag'larining ulushini ifodalaydi
		O'z kapitali	
14.	Oborot aktivlarini uzoq muddatli aktivlarga nisbat koeffitsiyenti	Oborot aktivlar	Uzoq muddatli aktivlarning har so'miga to'g'ri keladigan oborot aktivlarini ifodalaydi
		Uzoq muddatli aktivlar	

Korxonalarni isloh qilish va bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy o'sishning zarurati tufayli xo'jalik subyektlarini likvidligi, to'lovga qodirlik va bozor faolligini tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Korxonada balans aktividagi moddalarni pulga aylanishi aktiv likvidligi, to'lovga qodirlik (to'lov qobiliyati) esa muddatida va to'liq hajmda qarzlardan uzulishni ifodalaydi.

To'lovga qodirlikning zarur va muhim sharti likvidlikdir.

«To'lovga qodirlik» so'zi keng ma'noni anglatadi, chunki u aktivdagi moddalarni tez pulga aylanishidan tashqari, savdo, kredit va boshqa pul muomalalari bilan bog'liq majburiyatlarni muddatida va to'liq hajmda bajara olish qobiliyatini ham ifodalaydi.

Shu bilan birga to'lovga qodirlik moliyaviy barqarorlikning tashqi ko'rinishi hamdir.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarining erkin faoliyat yuritishida bankrotlik holatiga tushish va sinish xavfidan saqlanish maqsadida balans likvidligi tahlili natijalaridan foydalaniladi. Tahlil etish uchun balans aktividagi moddalarni pulga aylanish muddati passividagi moddalarning qarzni uzish muddatlari bilan taqqoslanadi. Bunday taqqoslik natijasiga ko'ra balans aktividagi moddalarni

so'tishidan kelgan tushumi korxonaga qarzlari (majburiyatlarini)ni uzishi uchun yetarli bo'lsa, balans likvidlikka ega deb hisoblanadi.

Balans likvidligini tahlil etish uchun uning aktividagi moddalarni pulga aylanish muddatlari, passividagi moddalarni qarzlarni uzish muddatlari bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratiladi:

10.8.2- jadval

Shartli belgi	Balansning aktiv va passiv qismlari	Mutlaq miqdor, mln. so'm		O'zgarishi (+,-)
		Yil boshi	Yil oxiri	
A ₁	Aktiv			
	Doimiy harakatdagi aktivlar - pul mablag'lari - qisqa muddatli investitsiyalar	546,7	709,3	+162,6
A ₂	Tez sotiluvchan aktivlar - debitorlik qarzlari (muddati o'tgandan tashqari) - boshqa joriy aktivlar	705,0	1844,7	+1139,7
A ₃	Sekin sotiluvchan aktivlar - zaxira va xarajatlar - uzoq muddatli investitsiyalar - sho'ba xo'jalik jamiyatlaridagi aksiyalar va ularga berilgan qarzlari - qaram xo'jalik jamiyatlaridagi aksiyalar va berilgan qarzlari, boshqa qarzlari	3150,0	4100,6	+950,6
A ₄	Qiyin sotiladigan aktivlar - asosiy vositalar - muddati o'tgan debitorlik qarzlari	3342,8	3889,1	+546,3
P ₁	Passiv			
	O'ta tez muddatli majburiyatlar - kreditorlik qarzlari	2199,6	3452,7	+1253,1
P ₂	Qisqa muddatli majburiyatlar - qisqa muddatli kredit va qarzlari	751,6	957,6	+206,0

P ₃	Uzoq muddatli majburiyatlar - uzoq muddatli kredit va qarzlilar	1092,7	1428,1	+335,4
P ₄	O'z kapitali -o'z mablag'larining manbai	3700,6	4705,3	+1004,7

Balans mutloq likvidlikka ega bo'lishi uchun ko'rsatkichlar kuyidagi ko'rinishga ega bo'lishi kerak. $A_1 \geq \Pi_1, A_2 \geq \Pi_2, A_3 \geq \Pi_3, A_4 \leq \Pi_4$. Yuqorida keltirilgan shartlardan uchitasi bajarilsa $A_1 \geq \Pi_1, A_2 \geq \Pi_2, A_3 \geq \Pi_3$ korxonaning joriy aktivlari uning tashqi majburiyatlaridan yuqoriligini ifodalaydi. Bunda albatta, $A_4 \leq \Pi_4$, ya'ni o'z mablag'larining manbai uzoq muddatli aktivlardan katta bo'ladi.

Balans likvidligini tahlili

10.8.3- jadval

Aktiv	Summa, mln.so'm		Tutgan ulushi, %		Passiv	Summa, mln.so'm		Tutgan ulushi, %		To'lov manbalarini ortiqcha (+), yetishmasligi (-)	
	yil boshi	yil oxiri	yil boshi	yil oxiri		yil bo-shi	yil oxiri	yil boshi	yil oxiri	yil boshi	yil oxiri
	A ₁	546,7	709,3	7,06		6,72	P ₁	2199,6	3452,7	28,40	32,75
A ₂	705,0	1844,7	9,10	17,50	P ₂	751,6	957,6	9,71	9,08	-46,6	+887,1
A ₃	3150,0	4100,6	40,68	38,89	P ₃	1092,7	1428,1	14,11	13,54	+2057,3	+2672,5
A ₄	3342,8	3889,1	43,16	36,89	P ₄	3700,6	4705,3	47,78	44,63	-357,8	-816,2
Balans	7744,5	10543,7	100,0	100,0	Balans	7744,5	10543,7	100,0	100,0	-	-

10.8.3-jadval ma'lumotlari asosida xulosa qilish mumkinki, balans mutloq likvidlikka ega emas. O'ta tez muddatli majburiyatlar (kreditorlik qarzlari)ni qoplash uchun pul mablag'larini yetishmasligi, hamda tez pulga aylanadigan aktivlarini qisqa muddatli kredit va qarzlarni uzish uchun yetishmasligi yil boshida $A_1 - P_1 = -1652,9$ mln.

so'm $A_2-P_2=-46,6$ mln. so'mni tashkil etgan. Yuqorida keltirilgan formulaning qolgan ikkita ko'rsatkichi kelgusidagi tushum evaziga moliyaviy resurslarga bo'lgan talab qondirilishini ifodalaydi.

$$A_3-P_3=+2057,3 \text{ mln.so'm}$$

$$P_4-A_4=+357,8 \text{ mln.so'm}$$

Hisobot davrida likvidlikning mutloq ko'rsatkichlarida sifat jihatdan o'zgarish ro'y bergan va yil oxiriga kelib me'yor darajasigacha ko'tarilgan. Korxonona balansining aktiv va passiv guruhleri tarkibida strukturaviy o'zgarishlar ro'y bergan. Likvidligi yuqori aktivlar (A_1) ulushi 0,34% ga qisqargan holda, tig'iz kreditorlik qarzlari (P_1)ni 4,35%ga ortishi, balans aktivi va passividagi A_1 va P_1 ulushlarini bir-biridan keskin farqlanishiga olib keldi:

$$A_1-P_1=6,72-32,75=-26,03\%$$

Tez pulga aylanadigan aktivlar (A_2) ulushini 8,40%ga (qisqa muddatli majburiyatlar ulushi qisqargan holda) ortishi tufayli A_2 va P_2 lar tarkibi strukturasi barqarorlashishiga olib kelgan: $A_2-P_2=17,50-9,08=+8,42\%$. Bunday o'zgarishlar korxonaning joriy likvidlik va to'lovga qodirlik ko'rsatkichlarini yil oxiriga kelib biroz ko'tarilganligini ko'rsatadi.

Uzoq muddatli majburiyatlar (P_3) ulushini 0,57%ga, sekin sotiladigan aktivlar (A_3)ni (asosan ishlab chiqarish zaxiralari va tayyor mahsulot qoldig'i) 17,9%ga pasayishi quyidagi nisbat ko'rinishiga olib keldi:

$$A_3-P_3=38,89-13,54=+25,35\%$$

Bu ko'rsatkich korxonaning likvidlik darajasi istiqbolda biroz yuqori bo'lishini, ya'ni keyingi yillarda to'lov qobiliyati tiklanishini ifodalaydi. O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki hisobot davrida korxonaning mutloq likvidlik ko'rsatkichlari yaxshilangan.

10.8.3-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, oborot aktivlari tarkibidagi (A_1, A_2, A_3) sekin sotiladigan aktivlar A_3 guruhi eng yuqori salmoqqa ega bo'lib, yil oxiriga kelib 3150 mln. so'mdan 4100,6 mln. so'mga qadar ko'tarilib jami oborot aktivlaridagi salmog'i 61,6 % (4100,6: 6654,6*100) va jami balans aktivida esa 38,9 % ni tashkil

etgan. Moliyalashtirish mablag'lari asosan, aylanma mablag'larni to'ldirishga yo'naltirilgan.

Yil oxiriga kelib korxonada ishlab chiqarishga investitsiyani ko'proq jalb etgan. Aylanma mablag'larni moliyalashtirishda hamon kreditorlik qarzlari salmoqli o'rinni egallaydi. Shu bilan birga qisqa muddatli kredit va qarzlarni ham yil oxiriga kelib biroz ortgan. Mutlaq ko'rsatkichlarga nisbatan korxonada likvidligini baholashda quyidagi nisbiy ko'rsatkichlar aniq ifodalaydi:

- mutlaq likvidlik koeffitsiyenti;
- oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti;
- joriy likvidlik koeffitsiyenti.

Korxonada likvidligi va to'lov qobiliyatini baholashdagi moliyaviy koeffitsiyentlar

10.8.4- jadval

Ko'rsatkichlar	Iqtisodiy mazmuni	Hisoblash formulasi	Tavsiya etiladigan me'yor va uning ahamiyati
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	Jami qisqa muddatli majburiyatlarni qancha qismi oborot aktivlari bilan qoplanishini ifodalaydi	<u>Oborot aktivlari</u> Qisqa muddatli majburiyatlar	1 dan 2 gacha, quyi chegarasi qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashga oborot mablag'lari yetarli bo'lishi kerak. Chegarani 2 dan yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq emas, chunki mablag'lar noratsional joylashgan, ulardan samarasiz foydalanilganlikni ifodalaydi
Oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti	Debitorlik qarzlarni undirish hisobiga korxonani	Pul mablag'lari+ Qisqa muddatli+ Deb. qarzlarni investitsiya	0,5 dan 1 gacha, quyi chegarasi doimiy ravishda debitorlarni nazorat qilib turishni.

	qodirlik istiqbolini ifodalaydi	tsiya		aylanma mablag'larni bir qismini mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashishga yetarli bo'lishini ta'minlashi zarur	
		Qisqa muddatli majburiyatlar			
Mutloq likvidlik koeffitsiyenti	Qisqa muddatli majburiyatlarni qancha qismi mavjud pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar bilan qoplanishini ifodalaydi	Pul mablag'lari	+	Qisqa muddatli investitsiyalar	0,2 dan 0,5 gacha, quyi chegarasi korxonaga to'lov qobiliyati pasayganligini ifodalaydi
		Qisqa muddatli majburiyatlar			

Likvidlik ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi

10.8.5- javdal

Ko'rsatkichlar	Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida hisoblash tartibi		Hisoblashdagi natijani tavsiya etilgan me'yordan farqlanishi		O'sish sur'ati, koeffitsiyentda
	yil boshi	yil oxiri	yil boshi	yil oxiri	
Joriy likvidlik koeffitsiyenti	K_{ji} =3411,3 2951,2 =1,16	$K_{ji} - 5550$ 4410,3 =1,26	Tavsiya etiladigan me'yorlarga mos keladi $1 < 1,16 < 2$	Tavsiya etiladigan me'yorlarga mos keladi $1 < 1,26 < 2$	1,08

Oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti	$K_{oq} = \frac{1251,8}{2951,2} = 0,42$	$K_{oq} = \frac{2553,9}{4410,3} = 0,57$	Tavsiya etiladigan me'yorlardan kichik $0,5 > 0,42 < 1$	Tavsiya etiladigan me'yorlardan kichik $0,57 < 1$	1,36
Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti	$K_{oq} = \frac{546,7}{2951,2} = 0,42$	$K_{oq} = \frac{709,2}{4410,3} = 0,16$	Tavsiya etiladigan me'yorlardan kichik $0,18 < 0,2$	Tavsiya etiladigan me'yorlardan kichik $0,18 < 0,2$	0,89
Kompleks ko'rsatkichni hisoblash tartibi	-	-	-	-	$K_i = \sqrt[n]{\Pi}$ $i=1$
Kompleks likvidlik ko'rsatkichi	-	-	-	-	$\sqrt[1]{1,3072} = 1,092$

Mutloq likvidlik koeffitsiyenti to'lov qobiliyatining qat'iy me'vori qisqa muddatli majburiyatlarni darhol mavjud pul mablag'lari bilan qoplanishidir. Bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, qarzni uzish kafolati shuncha yuqori bo'ladi. Oz miqdordagi mablag'ga ega bo'lib, pul mablag'larini kirimi va chiqimini muddati va miqdorini nazorat qilish orqali balans likvidligini ta'minlagan holda korxonada doimiy ravishda to'lovga qodir bo'lishi mumkin. Mutlaq likvidlik koeffitsiyentining, ya'ni pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalarni qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashning yil boshi va yil oxiridagi natijalari biroz tavsiya etilgan me'yorlarga yaqin.

Oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti joriy qarzlarni qancha qismi (zahiralarsiz) debitorlik qarzlarni to'liq undirilgan holda qoplay olishini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich darajasi 0,5 dan 1,0 gacha va undan yuqori bo'lishi korxonaning faoliyat turi, joriy aktivlarining strukturasi va debitorlik qarzlarni sifati va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlarning nisbatiga: sotish hajmi bilan aylanma mablag'lar, sotish hajmi va debitorlik qarzlarni, oborot aktivlari va qisqa muddatli

majburiyatlarga bog‘liq. Debitorlik qarzlarni yuqori hajmda va jami mablag‘larda salmoqli ulushga ega bo‘lishi korxonaning to‘lovga qodirligini amalda pasayishiga olib keladi. Likvidlikni tahlil etishda debitorlik qarzlarni miqdori va sifatiga katta e‘tibor qaratiladi, chunki ularni to‘lov manbalariga aylanishi uchun ketadigan vaqt uzoq muddatni tashkil etadi, inflyatsiya tufayli yana qo‘shimcha yo‘qotishlarga duch keladi. Bizning misolimizda oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti yil boshi va yil oxirida tavsia etilgan me‘yordan kichik.

Ammo korxonada rahbariyati debitorlik qarzlarni bilan ishlashni faollashtirib bu shakldagi oborot mablag‘larni pul shaklida muomalaga kiritilishini tezlashtirish orqali mol etkazib beruvchilar bilan bo‘ladigan hisoblashishni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Joriy likvidlik (qoplash) koeffitsiyenti yoki umumiy qoplash koeffitsiyenti:

- joriy qarzlarning qancha qismi joriy aktivlar bilan qoplanishini;
- joriy majburiyatlarning har so‘miga necha so‘mlik joriy aktivlar (aylanma mablag‘lar) qiymati to‘g‘ri kelishini;
- joriy majburiyatlarni jami aylanma mablag‘lari bilan qoplanish darajasini ifodalaydi.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti korxonani chiqargan aksiyalari va obligatsiyalarini xarid etgan subyektlar va jismoniy shaxslar uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Aksiyadan olinadigan dividendlar miqdori, obligatsiyalardan foizlar joriy likvidlik koeffitsiyenti darajasiga bog‘liqdir. Joriy aktivlarni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatan yuqori bo‘lishi rezerv zahirasini hosil qiladi. Rezerv zaxirasi korxonada zarar ko‘rganda qoplashga sarflanadi. Bu ko‘rsatkichni qanchalik yuqori bo‘lishi kreditorlarda qarzni uzishga bo‘lgan ishonchini ta‘minlaydi.

Joriy likvidlik koeffitsiyentining me‘yor ko‘rsatkichi 1 dan 2 gacha hisoblanadi. Ammo barcha tarmoqlar uchun yagona me‘yor belgilanishi maqsadga muvofiq emas. Chunki bu ko‘rsatkich darajasi korxonaning faoliyat turi, uning tuzilishi va balans aktivining sifati, operatsion jarayon davomiyligi, kreditorlik qarzlarni qoplanish muddatlari va h.k. larga bog‘liq. Joriy likvidlik koeffitsiyenti darajasining hisob-kitobiga

ko'ra likvidlik yil boshi va yil oxirida me'yor darajasida, uning o'sish sur'ati 1,08 koeffitsiyentni tashkil etgan.

Ammo joriy likvidlik koeffitsiyentining darajasi ko'p jihatdan zahiralarni tashkil etish manbalari uzoq muddatli majburiyat va korxonaning o'z kapitaliga bog'liq. Uning darajasini oshirish uchun o'z kapitalini manbalar bilan to'ldirish, aktivlar va debitorlik qarzlari o'sishini turg'un holda saqlashdan iborat. Mazkur ko'rsatkichdan korxonaning likvidligini baholash va uzoq muddatli istiqbolda to'lovga qodirligini aniqlashda foydalaniladi. Oborot aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlardan ikki marotaba ortiq bo'lishi korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy holatini barqaror o'sishi uchun zamin yaratadi. Buning natijasida ishchi kapitali yoki «sof oborot aktivlari» shakllanadi.

Ishchi kapitali likvid rezervlari hisoblanib, kutilmagan hollarda vujudga keladigan pul tushumlari va qarz majburiyatlari o'rtasidagi uzilishlar tufayli vujudga keladigan harajatlarni qoplashga sarflanadi. Sof ishchi kapitali sof aktivning bir qismi, bank-kreditorlar uchun bank kreditini korxonaga qaytara olmagan hollarda undan garov sifatida foydalanadilar.

Sof oborot aktivlarini aniqlash tartibi

10.8.6- jadval

T №	Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi (+,-)
1	Oborot aktivlari	3411,3	5550,0	+2138,7
2	Qisqa muddatli majburiyatlar	2951,2	4410,3	+1459,1
3	Sof oborot aktivlari (1satr-2 satr)	460,1	1139,7	+679,6

10.8.6- jadvalda oborot aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlar bilan qoplanishining hisob - kitobi keltirilgan, uning natijasiga ko'ra oborot aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlardan ortiqchaligi yil boshida 460,1 mln. so'mni, yil oxiriga kelib 1139,7 mln. so'mni tashkil etgan.

Sof oborot aktivining mutlaq summada dinamik tarzida o'zgarishi likvidlik darajani ham o'zgarishiga olib keladi. Bu ko'rsatkich qisqa muddatli majburiyatlarni qoplanishidan so'ng hosil bo'lgan ortiqcha miqdorni ifodalaydi. Demak, bu ko'rsatkichni o'sishi korxonada likvidligini barqarorlanishini ifodalaydi.

Korxonada moliyaviy barqarorligini ifodalashdagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri joriy aktivlarni o'z oborot mablag'lari bilan qoplanish koeffitsiyentidir. Mazkur koeffitsiyent ko'p holatlarga bog'liq. Uning miqdori va dinamikasi xususida xalqaro hisob-tahlil amaliyotida umumiy tavsiyalar belgilanmagan. Bizning mamlakatimizda bu ko'rsatkichning normativi 0,1.

Demak, korxonada balansi tuzilishi qoniqarli. moliyaviy barqarorlikka erishish uchun joriy aktivlarni 10 foizini o'z oborot mablag'lari tashkil etishi zarur.

O'z oborot mablag'larini mavjud summasi va ular bilan korxonani ta'minlanishi

10.8.7- jadval

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi, (+, -)	O'sish sur'ati, %
O'z kapitali	3700,6	4705,3	+1004,7	127,1
Uzoq muddatli aktivlar	3342,8	3889,1	+546,3	+116,3
Oborot (joriy) aktivlari	4401,7	6654,6	+2252,9	+151,1
O'z oborot mablag'larini mavjud summasi	357,8	816,2	+458,4	+228,1
O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	0,081	0,122	+0,041	+150,6

Joriy aktivlarni o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanishi yil boshida tavsiya etilgan me'yordan kichik ($0,081 < 0,1$), yil oxiriga kelib vaziyat biroz o'zgargan ($0,122 > 0,1$). O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyentini yil boshiga nisbatan o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni zanjirli bog'lanish usuli orqali aniqlaymiz.

O'z oborot mablag' lari

$$\text{bilan ta' minlanish} = \frac{\text{O'z kapitali} \quad \text{Uzoq muddatli aktivlar}}{\text{Oborot (joriy) aktivlar}} = \frac{X \quad Y}{Z};$$

koeffitsiyenti

$$\Delta f(x) = \frac{x_1 - y_0}{z_0} - \frac{x_0 - y_0}{z_0};$$

$$\Delta f(y) = \frac{x_1 - y_1}{z_0} - \frac{x_1 - y_0}{z_0};$$

$$\Delta f(z) = \frac{x_1 - y_1}{z_1} - \frac{x_1 - y_1}{z_0};$$

$$\Delta f(x) = \frac{4705,3 - 3342,8}{4401,7} - \frac{3700,6 - 3342,8}{4401,7} = +0,2283;$$

$$\Delta f(y) = \frac{4705,3 - 3889,1}{4401,7} - \frac{4705,3 - 3342,8}{4401,7} = -0,1241;$$

$$\Delta f(z) = \frac{4705,3 - 3889,1}{6654,6} - \frac{4705,3 - 3889,1}{4401,7} = -0,0628$$

$$\Delta f = \Delta f(x) + \Delta f(y) + \Delta f(z) = +0,2283 - 0,1241 - 0,0628 = +0,0414$$

*O'z oborot mablag' lari bilan ta' minlanish
koeffitsiyentini o'zgarishiga omillar ta'siri*

10.8.8-jadval

Ko'rsatkichlar	Yil boshi	Yil oxiri	O'zgarishi, (+, -)
O'z kapitali	3700,6	4705,3	+1004,7
Uzoq muddatli aktivlar	3342,8	3889,1	+546,3
Oborot (joriy) aktivlar	4401,7	6654,6	+2252,9
O'z oborot mablag'larini mavjud summasi	357,8	816,2	+458,4
O'z oborot mablag' lari bilan ta' minlanish koeffitsiyentiga omillar ta'siri, jami	X	X	+0,041
Shu jumladan:			
a) o'z kapitali	X	X	+0,2283
b) uzoq muddatli aktivlar	X	X	-0,1241
v) oborot (joriy) aktivlar	X	X	-0,0628

Korxonani o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyentini o'zgarishiga o'z kapitalini ortishi ijobiy ta'sir etgan (+ 0,2283). Ammo uzoq muddatli aktivlar, oborot (joriy) aktivlarini yil boshiga nisbatan ortishi tufayli ta'minlanish koeffitsiyenti (-0,1241 – 0,0628) ga pasaygan.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

- to'lovga qodirlik tushunchasi;
- moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- moliyaviy barqarorlikka ega korxonalar xususiyatlari;
- moliyaviy barqarorlikning mutloq summalarda ifodalanishi;
- moliyaviy barqarorlikni nisbiy ko'rsatkichlari;
- moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar (ichki, tashqi omillar);
- korxonada moliyaviy barqarorligining turlari;
- moliyaviy barqarorlikni tahlil etish usullari;
- moliyaviy barqarorlikni baholash tizimi;
- likvidlik va to'lovga qodirlik;
- balans likvidligini tahlili;
- joriy likvidlik koeffitsiyenti;
- oralqini qoplash likvidlik koeffitsiyenti;
- mutloq likvidlik koeffitsiyenti
- sof oborot aktivlarini aniqlash tartibi;
- o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanishini tahlili;
- o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyentiga ta'sir etuvchi omillar.

Savol va topshiriqlar

1. Qanday axborot manbalari asosida korxonaning moliyaviy holati tahlil etiladi?
2. To'lovga qodirlikning xususiyatlarini izohlab bering.
3. To'lovga qodirlikning moliyaviy barqarorlikdan farqi nimalardan iborat?
4. Zahira va xarajatlar qanday manbalar hisobiga tashkil topadi?
5. Qanday korxonalar mutlaq barqaror deb ataladi?

6. Krizis holatidagi korxonalarining alomatlari nimalardan iborat?
7. Ishbilarmonlik faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga nimalar kiradi?
8. Moliyaviy barqarorlikni tahlil etish usullarini sharhlab bering.
9. Sof oborot aktivi qanday aniqlanadi?
10. O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanish ko'effitsiyentini o'zgarishiga qanday omillar ta'sir etadi?
11. Quyidagi ma'lumotlar asosida korxonalar balansi likvidligini tahlil eting.

Shartli belgi	Balans aktivi	Yil boshi	Yil oxiri
A ₁	Doimiy harakatdagi aktivlar	565	645
A ₂	Tez sotiluvchan aktivlar	313	594
A ₃	Sekin sotiluvchan aktivlar	1308	2457
A ₄	Qiyin sotiladigan aktivlar	1622	1675
Balans passivi			
P ₁	O'ta tez muddatli majburiyatlar	765	645
P ₂	Qisqa muddatli majburiyatlar	370	570
P ₃	Uzoq muddatli majburiyatlar	-	1042
P ₄	O'z kapitali	2673	3114

12. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida:

- korxonaning o'z oborot mablag'larini mavjud summasini aniqlang;
- o'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanish ko'effitsiyentini o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblang;
- joriy likvidlik, istiqbollik likvidlik ko'effitsiyentlarini aniqlang.

13. Quyida keltirilgan manbalar asosida moliyaviy barqarorlikni mutloq ko'rsatkichlar tizimi orqali baholang va xulosa qiling.

T №	Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Yil boshi	Yil oxiri
1.	O'z mablag'larining manbalari	O'MM	2673	3114
2.	Uzoq muddatli aktivlar	UMA	1622	1675
3.	O'z oborot mablag'larini mavjud summasi	O'OM	1051	1439
4.	Uzoq muddatli kredit va qarzlilar	UK	-	1042
5.	Qisqa muddatli kredit va qarzlilar	QK	370	570
6.	Kreditorlik qarzlilar	KQ	765	645
7.	Zaxira va xarajatlarni qoplashning jami manbalari	JM	?	?
8.	Zaxira va xarajatlar	Z	1169	2314

Testlar

1. Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida quyidagi ko'rsatkichlar aniqlanadi:

- a) Korxonaning barqarorlik darajasi;
- b) Sotishdan kelgan tushum tuzilishi;
- c) Asosiy faoliyat bo'yicha xarajatlar dinamikasi;
- d) Korxonada daromadlarini tuzilishi.

2. Joriy likvidlik koeffitsiyenti orqali... aniqlanadi:

- a) Qisqa muddatli majburiyatlarning har so'miga joriy aktivlarning qancha miqdori to'g'ri kelishi;
- b) Uzoq muddatli majburiyatlarning har so'miga uzoq muddatli aktivlarning qancha miqdori to'g'ri kelishi;
- c) O'z kapitalining har so'miga joriy aktivlarning qancha miqdori to'g'ri kelishi;
- d) Doimiy kapitalning har so'miga o'z kapitalini qancha miqdori to'g'ri kelishi.

3. Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish tamoyillari turli mamlakatlarda:

- a) Turlicha ;
- b) Bir xil;
- c) Moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillari bo'yicha farqlanadi;
- d) Moliyaviy hisobotni taqdim etish tamoyillari bo'yicha farqlanadi.

4. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari qanday tashkilot tomonidan ishlab chiqiladi?

- a) Moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha Qo'mita – Financial Accounting Standards Board (FASB);
- b) Xalqaro hisobot standartlari bo'yicha Qo'mita – International Accounting Standards Committee (IASS);
- c) Buxgalteriya masalalari bo'yicha Qo'mita – Committee on Accounting Procedures (GAP);
- d) Buxgalteriya hisobi muammolari bo'yicha tadqiqot olib boruvchi guruh.

5. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{Joriy majburiyatlar}}{\text{Majburiyatlar}}$;
- b) $\frac{\text{Majburiyatlar}}{\text{O'z mablag'larining manbalari}}$;
- c) $\frac{\text{O'z mablag'larining manbalari}}{\text{Balans passivining jami}}$;
- d) $\frac{\text{O'z mablag'larining manbalari}}{\text{Majburiyatlar}}$.

6. Doimiy harakatdagi aktivlar tarkibiga nimalar kiradi?

- a) Debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, valuta mablag'lari;
- b) Pul mablag'lari, valuta mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar;
- c) Pul mablag'lari, debitorlik qarzlari, qisqa muddatli investitsiyalar;

d) Valuta mablag'lari, debitorlik qarzlari, qisqa muddatli investitsiyalar.

7. Moliyaviy holatning mutlaq barqarorligi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) O'z aylanma mablag'lari > Ishlab chiqarish zaxiralari
O'z aylanma mablag'lari va uzoq muddatli kredit, qarzar > Ishlab chiqarish zaxiralari

Jami asosiy manbalar > Ishlab chiqarish zaxiralari;

b) O'z aylanma mablag'lari < Ishlab chiqarish zaxiralari
O'z aylanma mablag'lari va uzoq muddatli kredit, qarzar > Ishlab chiqarish zaxiralari

Jami asosiy manbalar > Ishlab chiqarish zaxiralari;

c) O'z aylanma mablag'lari < Ishlab chiqarish zaxiralari
O'z aylanma mablag'lari va uzoq muddatli kredit, qarzar < Ishlab chiqarish zaxiralari

Jami asosiy manbalar > Ishlab chiqarish zaxiralari;

d) O'z aylanma mablag'lari < Ishlab chiqarish zaxiralari
O'z aylanma mablag'lari va uzoq muddatli kredit, qarzar < Ishlab chiqarish zaxiralari

Jami asosiy manbalar < Ishlab chiqarish zaxiralari.

8. Tez likvidlik koeffitsiyenti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

$$a) K = \frac{\text{Pul mablag'lari} + \text{Qisqa muddatli investitsiyalar} + \text{Debitorlik qarzlari}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} ;$$

$$b) K = \frac{\text{Pul mablag'lari} + \text{Qisqa muddatli investitsiyalar} + \text{Zaxira va xarajatlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} ;$$

$$c) K = \frac{\text{Qisqa muddatli investitsiyalar} + \text{Debitorlik qarzlari} + \text{Zaxira va xarajatlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}} ;$$

$$d) K = \frac{\text{Pul mablag'lari} + \text{Debitorlik qarzlari} + \text{Zaxira va xarajatlar}}{\text{Qisqa muddatli majburiyatlar}}$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 2003.-46b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi Qonuni. 1991-yil 15-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi: qonunlar va farmonlar. –T.: «O'zbekiston», 1992.-383 b.
4. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. 1996-yil 30-avgust.
5. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 2000-yil 30-may.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni. 1998-yil 9-aprel.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi, hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2012-yil, 30-yanvar.
9. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.: «O'zbekiston», 1996.

10. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: «O‘zbekiston», 1998.
11. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O‘zbekiston», 1997.
12. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: «O‘zbekiston», 2009.
13. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: «O‘zbekiston», 2008.
14. Abdukarimov I.T. Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari. –T.: «Iqtisodiyot va huquqiy dunyosi», 1999.
15. Vahobov A.V., Ibragimov A.T. Moliyaviy tahlil. –T.: «Sharq», 2002.
16. Ahmadjonov X.I., Rahimov M.Yu. Moliyaviy tahlil. –T.: «IQTISOD-Moliya», 2004.
17. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Ishonqulov N.F. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. –T.: «Sharq», 2005.
18. Pardayev M.Yo., Abdukarimov I.T. Iqtisodiy tahlil. –T.: «Mehnat», 2004.
19. Акромов Е.А. Анализ финансового состояния предприятия. –Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2000.
20. Войтоловский Н.В. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. –М.: «Высшее образование», 2005.

21. Титов В.И. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности. –М.: «Дашков и Ко», 2005.
22. Бернстаин А.А. Анализ финансовой отчетности. –М.: «Финансы и статистика», 1999.
23. Григорьев Ю.А. Учёт, анализ и контроль внешне-экономической деятельности и валютных операций. –М.: «Паимс», 1998.
24. Ergeshev E. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. –Т.: «Moliya», 2000.
25. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов. – М.: «Финансы и статистика», 2001.
26. To'lxodjayeва M.M. Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsiyentlarni tahlil qilish. –Т.: 1996
27. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятий. И.П. «Финанс», 2003.
28. Савицкая Г.В. Анализ производственно-финансовой деятельности сельскохозяйственных предприятий». –М.: «Инфра-М», 2003.
29. Савицкая Г.В. Теория анализа хозяйственной деятельности. –М.: «Инфра-М», 2006.
30. Флейшер К. Стратегический и конкурентный анализ. Методы и средства конкурентного анализа в бизнесе. –М.: «Бином», 2005.
31. Маркарьян Е.А., Герасименко Г.П., Маркарьян С.Е. Финансовый анализ. Издания четвертое –М.: «ИД ФБК-Пресс», 2003.
32. Ионова А.Ф., Селезнева Н.Н. Финансовый анализ. –М.: «Перспект», 2006.

33. Чуев Й.Н., Чуева Л.Н. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности. –М.: «Дашков и Ко», 2006.

34. Шеремет А.Д., Негашев Е.В. Методика финансового анализа деятельности коммерческих организаций. –М.: «Инфра-М», 2006.

35. Мелник М.В., Герасимова Е.Б. Анализ финансовой деятельности предприятия. –М.: «Фарум», 2007.

36. Шагиясов Т.Ш. Теория экономического анализа. –Т.: «ТФИ», 2005.

37. Шагиясов Т.Ш., Сагдиллаева З.А., Файзиев Б.В. Финансовый и управленческий анализ. –Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008.

38. Анализ финансовой отчетности Учебник. // Под. Ред. М.А. Вахрушиной, Н.С.Пласковой. –М.: Вузовский учебник, 2008.

39. Маркарьян, С.Е. Маркарьян, Герасименко Г.П. Управленческий анализ в отраслях. Учебно пособие. М.: КНОРУС, 2009.

40. Черненко А.Ф., Башарина А.В. Анализ финансовой отчетности. Учебное пособия. – Ростов - на Дону. «Феникс», 2010.

41. Любушин Н.П., Бабичева Н.З. Финансовый анализ. Учебник. 2-е издание, переработанное и дополненное. – М.: «Ексмо», 2010.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I bob. KORXONA XO‘JALIK FAOLIYATINING KOMPLEKS IQTISODIY TAHLILINING KONSEPSIYASI VA TASHKILY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili to‘g‘risida tushuncha va uning mohiyati	6
1.2. Xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlilining maqsadi va vazifalari.....	8
1.3. Xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlilining axborot manbalari	12
1.4. Xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlilining ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlashdagi ahamiyati.....	13
1.5. Xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish rezervlarini turkumlash	14
1.6. «Xo‘jalik faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili» o‘quv kursini o‘qitish konsepsiyasi	16
Savol va topshiriqlar.....	19
Testlar.....	19

II bob. KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL TIZIMI VA METODOLOGIYASI

2.1. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarning shakllanish tizimi	22
2.2. Kompleks iqtisodiy tahlilni o‘tkazish bosqichlari	26
2.3. Xo‘jalik faoliyatining tizimli tahlili	28

2.4. Omillarni turkumlash va korxonada xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish rezervlari.....	29
Savol va topshiriqlar.....	33
Testlar.....	34

III bob. KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL TIZIMIDAGI MARKETING TAHLILI

3.1. Kompleks marketing tahlilining maqsadi, vazifasi va uning axborot manbalari	36
3.2. Marketing tizimidagi tahlil turlari va ularning asosiy usullari	38
3.3. Tovarning bozordagi holatini baholash va uning tahlili. Talabning o'zgaruvchanligi	39
3.4. Tovar va korxonaning baho siyosati tahlili	42
3.5. Korxonada mahsulotni raqobatdoshligining tahlili	44
3.6. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi dinamikasining tahlili	47
3.7. Mahsulot assortimenti va strukturasi tahlili	52
3.8. Ishlab chiqarish maromining tahlili	55
3.9. Sifat va mahsulot yangilanishining tahlili	57
3.10. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish rezervlari va omillari	60
Savol va topshiriqlar.....	63
Testlar.....	66

**IV bob. MODDIY RESURLAR HOLATI VA ULARDAN
SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI**

4.1. Tahlil vazifasi va axborot manbalari	69
4.2. Ta'minot rejasining bajarilishi va moddiy resurslar zaxira holatining tahlili	70
4.3. Materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlar tizimi	74
4.4. Materiallardan samarali foydalanish tahlili	76
Savol va topshiriqlar.....	80
Testlar.....	81

**V bob. ASOSIY VOSITALAR HOLATI VA ULARDAN
SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI**

5.1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanishi va ulardan unumli foydalanish ahamiyati, tahlil vazifalari	84
5.2. Asosiy vositalar tarkibi, tuzilishi va dinamikasining tahlili. Ularning aktiv va passiv qismlarga bo'linishi.....	86
5.3. Asosiy vositalar harakati va texnik holatining tahlili	88
5.4. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish tahlili.....	92
5.5. Ishlab chiqarish uskunalardan vaqti va quvvati bo'yicha foydalanish tahlili	98
5.6. Amortizatsiya ajratmalari va ularning tahlili	99
5.7. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni oshirish imkoniyatlari.....	103

Savol va topshiriqlar.....	104
Testlar.....	106

**VI bob. MEHNAT RESURLARI POTENSIALI
BOSHQARILISHINING TAHLILI**

6.1. Mehnat resurslari tahlilining mazmuni, vazifalari va axborot manbalari	109
6.2. Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanishining tahlili	111
6.3. Ish vaqtidan foydalanish tahlili	115
6.4. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari va ular dinamikasining tahlili	117
Savol va topshiriqlar.....	123
Testlar.....	126

**VII bob. KOMPLEKS TAHLIL VA ISHLAB
CHIQRISHNING TASHKILY-TEXNIK DARAJASINI
BAHOLASH**

7.1. Ishlab chiqarishning tashkiliy-texnik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini baholash: kompleks iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifasi, axborot manbayi.....	128
7.2. Ishlab chiqarishni tashkil etish tahlili va uni takomil- lashtirish yo'llari.....	131
7.3. Mehnatga haq to'lash va mehnat jamoasining ijtimoiy sharoiti holatining kompleks tahlili	134

7.4. Texnik-tashkiliy chora-tadbirlar samaradorligini baholash va ularning o'zgarishiga omillar ta'sirining tahlili.....	135
Savol va topshiriqlar.....	137

VIII bob. XARAJAT VA MAHSULOT TANNARXINI BOSHQARISHDA KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL

8.1. Bozor munosabatlari sharoitida tannarxning mohiyati va tahlilning vazifalari.....	140
8.2. Xarajatlarni turkumlash. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari	142
8.3. «O'zgaruvchan» va «o'zgarmas» xarajatlar	144
8.4. Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlar tahlili	146
8.5. Xarajatlarning iqtisodiy elementi va kalkulyatsiya moddolari bo'yicha tahlili.....	148
8.6. Ishlab chiqarishdagi mehnatga haq to'lash xarajatlarning tahlili.....	151
8.7. Materiallar xarajatiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	154
8.8. Mahsulot turlari tannarxining tahlili	156
8.9. Mahsulot tannarxini pasaytirish rezervlarini aniqlash usuli.....	158
Savol va topshiriqlar.....	160
Testlar.....	163

**IX bob. KORXONA FAOLIYATINING DAROMAD,
XARAJAT VA MOLIYAVIY NATIJALARINING
KOMPLEKS TAHLILI**

9.1. Daromad va xarajatlarning kompleks tahlili	165
9.2. Moliyaviy natijalar tahlili	174
9.3. Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan moliyaviy natijaga ta’sir etuvchi omillar tahlili	181
9.4. Daromadlilik va balans aktivi, xususiy kapital va qarz kapitali, sotishdan ko‘rilgan va xarajat rentabelliklarining kompleks iqtisodiy tahlili	185
Savol va topshiriqlar.....	191
Testlar.....	196
9.5. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni korxonalarining moliyaviy natijalarini shakllan- tirishdagi roli va ahamiyati. Balans aktivi rentabelligining kompleks tahlili.....	198
9.6. Xususiy kapital rentabelligi tahlili.....	206
9.7. Ishlab chiqarish rentabelligini tahlili.....	210

**X bob. KORXONANING MOLIYAVIY HOLATINI
KOMPLEKS TAHLILI VA TO‘LOVGA QODIRLIK,
MOLIYAVIY BARQARORLIK VA ISHBILARMONLIK
FAOLLIGINI BAHOLASH**

10.1. Moliyaviy holat tahlilining mazmuni va vazifalari.....	216
10.2. Moliyaviy tahlil bosqichlari va standart usullari.....	219
10.3. Balans aktivi moddalarini tahlili.....	223

10.4. Balans passivi tuzilishi va ularni tahlili.....	226
10.5. Oborot mablag'lari va ular bilan korxonaning ta'minlanishini tahlili.....	230
10.6. Korxonaning to'lovga qodirligi, moliyaviy barqarorligi va ishbilarmonlik faolligini ifodalovchi ko'rsatkichlarini baholash va ularni tahlil etish uslubi.....	235
10.7. Moliyaviy barqarorlikning mutlaq ko'rsatkichlari tahlili.....	247
10.8. Likvidlik ko'rsatkichlari, moliyaviy koeffitsiyentlarning kompleks tahlili.....	250
Savol va topshiriqlar.....	263
Testlar.....	265
Foydalanilgan adabiyotlar	268

T.SH. SHOG'YOSOV

KOMPLEKS IQTISODIY TAHLIL

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2012

Muharrir:	M.Hayitova
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	H.G'ulomov
Musahhih:	F.Ismoilova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Hasanova

**Nasr.lits. AI №149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 13.06.2012.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 18,0. Nashriyot bosma tabog'i 17,5.
Tiraji 300. Buyurtma № 64.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining
bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko‘chasi, 171-yu.**

FAN VA
TEKNOLOGIJA

ISBN 978-9943-10-671-0



9 789943 106710